

АНВАР ОБИДЖОН

*Анвар Обиджон*



ANVAR OBIDJON

*Анвар Обиджон*



**Танланган шеърлар**  
**Tanlangan she'rlar**

• SHARQ • NASHRIYOT-MATBA'A  
AKSIYADORLIK kompaniya ASH  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT 2006

*Ҳаётнинг ҳар лаҳзаси гўзал,  
Умрнинг ҳар дами ганимат...*

Юқоридаги сатрлар муаллифи, Ўзбекистон халқ шоири Анвар Обиджон ҳаётнинг ҳар бир лаҳзаси, ичра-қайнаб ижод қилишга интилувчи, умрнинг ҳар бир дамини бор қувончу изтироблари ила куйловчи адибдир. Китобнинг биричи қисмига шоирнинг ёшлик давридаги ишқ-муҳаббат оташлари гуркираб турган, курашувчанлик ва тошқин туйғулар жозибасига йўғрилган шеърлари жамланди.

Иккинчи қисмдаги шеърларни ўқиб, шоирнинг ёши энди анча улғайганини, эл-юрт тақдирига нисбатан мушоҳадалари кенгайганини, ижодига салобат қўшилганини сезиш мумкин.

*Hayotning har lahzasi go'zal,  
Umrning har dami g'animat...*

Yuqoridagi satrlar muallifi, O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon hayotning har bir lahzasi ichra qaynab ijod qilishga intiluvchi, umrning har bir damini bor quvonch-u iztiroblari ila kuylovchi adibdir. Kitobning birinchi qismiga shoirning yoshlik davridagi ishq-muhabbat otashlari gurkirab turgan, kurashuvchanlik va toshqin tuyg'ular jozibasiga yo'g'rilgan she'rlari jamlandi.

Ikkinchi qismdagi she'rlarni o'qib, shoirning yoshi endi ancha ulg'ayganini, el-yurt taqdiriga nisbatan mushohadalari kengayganini, ijodiga salobat qo'shilganini sezish mumkin.

### **Анвар, Обиджон.**

Танланган шеърлар — Т.: «Шарқ», 2006. — 360 б.

**ББК.84(Ўз)-5**

# M O'SHANDA

*Ушунга эмне шуларда*



YIGIT EDIN



\* \* \*

Битта шоир камайса нима,  
Чарх яратар бошқа нусхасин.  
Чўкиб кетса тўфонда кема,  
Пишиқроғин ясар устаси.

Тўфонлардан сесканма, қалбим,  
Қайиқлардек сузма кирғоқлаб.  
Кемаман деб уммонга талпин,  
Юз балога ўзингни чоғлаб.

Қайиқларда — илинж ва хохиш,  
Кемаларда — орзу ва мақсад.  
Бугун сенда бир олам ташвиш,  
Гал келганда ўзингни кўрсат.

Ё тилиб ўт довулнинг кўксин,  
Ё кемадек фарқ бўл иззатда.  
Унутмагил — қайиқлар чўкса,  
Олинмайди ҳатто рўйхатга...

Тўфонлардан сесканма, қалбим!

1980

\* \* \*

Урилажак дўқлардан,  
Узилажак ўқлардан  
Омон асра мени, чарх!

Туғилажак нафратдан,  
Тўкилажак тухматдан  
Омон асра мени, чарх!

Айтилажак қарғишдан,  
Алдаяжак олқишдан  
Омон асра мени, чарх!

Таъмаюки тузлардан,  
Номехрибон кўзлардан  
Омон асра мени, чарх!

1974



\* \* \*

Bitta shoir kamaysa nima,  
Charx yaratar boshqa nusxasin.  
Cho'kib ketsa to'fonda kema,  
Pishiqrog'in yasar ustasi.

To'fonlardan seskanma, qalbim,  
Qayiqlardek suzma qirg'oqlab.  
Kemaman deb ummonga talpin,  
Yuz baloga o'zingni chog'lab.

Qayiqlarda — ilinj va xohish,  
Kemalarda — orzu va maqsad.  
Bugun senda bir olam tashvish,  
Gal kelganda o'zingni ko'rsat.

Yo tilib o't dovulning ko'ksin,  
Yo kemadek g'arq bo'l izzatda.  
Unutmagil — qayiqlar cho'ksa,  
Olinmaydi hatto ro'yxatga...

To'fonlardan seskanma, qalbim!

1980

\* \* \*

Urilajak do'qlardan,  
Uzilajak o'qlardan  
Omon asra meni, charx!

Tug'ilajak nafratdan,  
To'qilajak tuhmatdan  
Omon asra meni, charx!

Aytilajak qarg'ishdan,  
Aldayajak olqishdan  
Omon asra meni, charx!

Ta'mayuqi tuzlardan,  
Nomehribon ko'zlardan  
Omon asra meni, charx!

1974



Дилбарим, чекканим жафолар ҳаққи,  
Ибодат қилурман бир умр сенга.  
Ўкинчлар, тузалмас хатолар ҳаққи  
Ибодат қилурман бир умр сенга.

Ғам-алам ва ситам берганинг учун,  
Кўзимга қатра нам берганинг учун,  
Порадил қалам ҳам берганинг учун  
Ибодат қилурман бир умр сенга.

Менга ишқ узатган инъом туфайли,  
Висолдан умидвор окшом туфайли,  
Такдирдан қасоскор илҳом туфайли  
Ибодат қилурман бир умр сенга.

Сўник қалб ҳисларин титганинг боис,  
Ғафлатдан уйғотиб кетганинг боис,  
Саботли, курашчан этганинг боис  
Ибодат қилурман бир умр сенга.

1973

### **КИПРИГИНГ НЕГА НАМ...**

Қайсидир бетайин девона  
Алжираб захрини сочдими,  
Куйманиб бирон шўр пешона  
Сенга дил ҳасратин очдими,  
Кипригинг нега нам,  
Жонгинам?

Қолдингми дўстларсиз дилдираб,  
Ўчдими исинган гулханинг,  
Чақиндек ёки бир йилтираб,  
Алдатиб кетдими севганинг,  
Кипригинг нега нам,  
Жонгинам?

Қўриб ё тўзғиган гулларни,  
Ҳисларинг келдими жунбушга,  
Вараклаб ё «Ўткан кунлар»ни,



Dilbarim, chekkanim jafolar haqqi,  
 Ibodat qilurman bir umr senga.  
 O'kinchlar, tuzalmas xatolar haqqi  
 Ibodat qilurman bir umr senga.

G'am-alam va sitam berganing uchun,  
 Ko'zinga qatra nam berganing uchun,  
 Poradil qalam ham berganing uchun  
 Ibodat qilurman bir umr senga.

Menga ishq uzatgan in'om tufayli,  
 Visoldan umidvor oqshom tufayli,  
 Taqdirdan qasoskor ilhom tufayli  
 Ibodat qilurman bir umr senga.

So'nik qalb hislarin titganing bois,  
 G'aflatdan uyg'otib ketganing bois,  
 Sabotli, kurashchan etganing bois  
 Ibodat qilurman bir umr senga.

1973

### **KIPRIGING NEGA NAM...**

Qaysidir betayin devona  
 Aljirab zahrini sochdimi,  
 Kuymanib biron sho'r peshona  
 Senga dil hasratin ochdimi,  
 Kipriging nega nam,  
 Jonginam?

Qoldingmi do'stlarsiz dildirab,  
 O'chdimi isingan gulxaning,  
 Chaqindek yoki bir yiltirab,  
 Aldatib ketdimi sevganing,  
 Kipriging nega nam,  
 Jonginam?

Ko'rib yo to'zg'igan gullarni,  
 Hislaring keldimi junbushga,  
 Varaqlab yo «O'tkan kunlar»ni.

Азадор бўлдингми Кумушга,  
Кипригинг нега нам,  
Жонгинам?

Ё хазин боқдими суратдан  
Босқинчи енгган юрт аскарин,  
Хаёлан бўлдингми беватан,  
Тўлдириб тутқунлар сафларин,  
Кипригинг нега нам,  
Жонгинам?

Эмасмиз шунчаки тирик жон,  
Энг олий онг мавжуд одамда  
Ва бизда бор экан то виждон,  
Йиғлаш-чун сабаб кўп оламда...  
Кипригинг нега нам,  
Жонгинам?

1979

\* \* \*

Шодон хушлаш, малагим,  
Кўзёш тўкма бекорга.  
Боғлангандир юрагим  
Шу мағизранг шудгорга.

Сизиб кирган қонимга  
Бу сўкмоқлар, тепалар.  
Мен қайтаман ёнингга  
Гуллаганда бедалар.

Қайтсам, таниб тўзғоқлар  
Йўлга паркув сепгайлар.  
Бинафшалар ўйноқлаб,  
Оёғимни ўпгайлар.

Фақат ўша паллада  
Сен бедодлик қилмагин.  
Ёт йигит-ла панада  
Дайдиб юрган бўлмагин.

1979



Azador bo'ldingmi Kumushga,  
Kipriging nega nam,  
Jonginam?

Yo hazin boqdimi suratdan  
Bosqinchi yenggan yurt askari,  
Xayolan bo'ldingmi bevatan,  
To'ldirib tutqunlar saflarin,  
Kipriging nega nam,  
Jonginam?

Emasmiz shunchaki tirik jon,  
Eng oliy ong mavjud odamda  
Va bizda bor ekan to vijdon,  
Yig'lash-chun sabab ko'p olamda...  
Kipriging nega nam,  
Jonginam?

1979

\* \* \*


Shodon xushlash, malagim,  
Ko'zyosh to'kma bekorga.  
Bog'langandir yuragim  
Shu mag'izrang shudgorga.

Sizib kirgan qonimga  
Bu so'qmoqlar, tepalar.  
Men qaytaman yoningga  
Gullaganda bedalar.

Qaytsam, tanib to'zg'oqlar  
Yo'lga parquv sepgaylar.  
Binafshalar o'ynoqlab,  
Oyog'imni o'pgaylar.

Faqat o'sha pallada  
Sen bedodlik qilmagin.  
Yot yigit-la panada  
Daydib yurgan bo'lmagin.

1979



\* \* \*

Ором олар безавол,  
Дилбарим оқ каптардек.  
Юмук турар кўзлари  
Очилмаган хатлардек.

Кўнимлими, кўнимсиз,  
Бор-е, қулман шу «қуш»га.  
Кўз очса ҳам, барибир —  
Саводим йўк ўқишга.

1982

\* \* \*

Булутсимон парқувга  
Ойдек маъюс ботаман.  
Ўхшаб етим охуга  
Битта ўзим ётаман,  
Раҳминг келсин, сулувжон.

Имо қилар юлдузлар  
Нур киприги пирпираб.  
Ҳароратсиз ўй-хислар  
Юрагимда дилдирар,  
Раҳминг келсин, сулувжон.

Қунишганча ухлайман,  
Дардларимга биқиниб.  
Тушларимда йиғлайман,  
Сенга қулдек сиғиниб,  
Раҳминг келсин, сулувжон.

Қўтараман тонгда бош  
Иситмадан ловуллаб.  
Кипригимда қайнар ёш,  
Юрагимда — довуллар...  
Раҳминг келсин, сулувжон.

1979

Orom olar bezavol,  
Dilbarim oq kaptardek.  
Yumuq turar ko'zlari  
Ochilmagan xatlardek.

Qo'nimlimi, qo'nimsiz,  
Bor-e, qulman shu «qush»ga.  
Ko'z ochsa ham, baribir —  
Savodim yo'q o'qishga.

1982

Bulutsimon parquvga  
Oydek ma'yus botaman.  
O'xshab yetim ohuga  
Bitta o'zim yotaman,  
Rahming kelsin, suluvjon.

Imo qilar yulduzlar  
Nur kiprigi pիրpirab.  
Haroratsiz o'y-hislar  
Yuragimda dildirar,  
Rahming kelsin, suluvjon.

Qunishgancha uxlayman,  
Dardlarimga biqinib.  
Tushlarimda yig'layman,  
Senga quldek sig'inib,  
Rahming kelsin, suluvjon.

Ko'taraman tongda bosh  
Isitmadan lovullab.  
Kiprigimda qaynar yosh,  
Yuragimda — dovullar...  
Rahming kelsin, suluvjon.

1979

Кўнглингдан мен жавоҳир топсам,  
 Сен қалбимнинг зарин титмасанг;  
 Тунни чангдек тўзғитиб чопсам,  
 Остонада уйғок кутмасанг,  
 Йиғламайман.

Менга севинч бахш этган онинг,  
 Қилолмасам сенга завқ тортиқ;  
 Фидоман деб турганда жонинг,  
 Бўлолмасам жондош ва содиқ,  
 Йиғлагайман.

1975

### **ҚОДИРИЙНИ ЭСЛАБ**

Рухингизга сиғинганим чоқ,  
 Хис қиламан ўзимни руҳсиз.  
 Дўст қалбида тириксиз,  
 Бироқ —  
 Фаним учун оламда йўксиз.

Арвоҳингиз бахтли отадек  
 Юртга боқсин  
 Бугун шод бўлиб.  
 Юртда минглаб Анвар, Отабек  
 Улғаймоқда темирзот бўлиб.

Сўнгач,  
 Яна чакнайди чакмоқ,  
 Фазо борки, ёғду хамнафас.  
 Омон бўлса эл, она тупроқ,  
 Сиз охирги Абдулла эмас.

Зотан  
 Мангу Замин ва Ҳаёт,  
 Абадийдир Нур ва Ҳақиқат.  
 Абадийдир Қалб ва Эътикод,  
 Абадийдир Ватан ва Миллат!

1982

Ko'nglingdan men javohir topsam,  
 Sen qalbinning zarin titmasang;  
 Tunni changdek to'zg'itib chopsam,  
 Ostonada uyg'oq kutmasang,  
 Yig'lamayman.

Menga sevinch baxsh etgan oning,  
 Qilolmasam senga zavq tortiq;  
 Fidoman deb turganda joning,  
 Bo'lolmasam jondosh va sodiq,  
 Yig'lagayman.

1975

### **QODIRIYNI ESLAB**


Ruhingizga sig'inganim choq,  
 His qilaman o'zimni ruhsiz.  
 Do'st qalbida tiriksiz,  
 Biroq —  
 G'anim uchun olamda yo'qsiz.

Arvohingiz baxtli otadek  
 Yurtga boqsin  
 Bugun shod bo'lib.  
 Yurtda minglab Anvar, Otabek  
 Ulg'aymoqda temirzot bo'lib.

So'ngach,  
 Yana chaqnaydi chaqmoq,  
 Fazo borki, yog'du hamnafas.  
 Omon bo'lsa el, ona tuproq,  
 Siz oxirgi Abdulla emas.

Zotan  
 Mangu Zamin va Hayot,  
 Abadiydir Nur va Haqiqat.  
 Abadiydir Qalb va E'tiqod,  
 Abadiydir Vatan va Millat!

1982



## КАЙФИЯТ

Гүрдек сокин ариқнинг лаби,  
Бошим узра мотамсаро тол.  
Перрондаги безори каби  
Хуштак чалиб санғийди шамол.  
Кўзешлардек тўкилар барглар,  
Ҳисларимдек майсалар тўзғин.  
Кўкдаги ой — қувғинди каптар,  
Кулранг булут — оч қолган қузғун.  
Тун сайлига шайланган чоғи  
Атир сепиб олган каби қиз,  
Димоғимни қитиклар гоҳи  
Шабнам-сирға таққан фар ялпиз.  
Нелар ҳақда куйлар чигиртка,  
У ҳам ишқдан куйганми ёхуд?  
Ўтирибман чўми-и-б сукутга,  
Айтолмасдан дардим мен ношуд.

1974

\* \* \*


Дунёда бор учта чин дўстим:  
Отам,  
Онам...  
Яна аллаким.  
Учинчисин айтмоқ қийин иш,  
Хотиним ҳам шунчаки таниш.

1974

\* \* \*

Учрашмаймиз энди заминда,  
Кўришмаймиз қиёматда ҳам.  
Биламан, энг аламли кунда  
Эслагайсан номимни, санам.

Муштокларинг камайган сайин,  
Соғинарсан кутишларимни.  
Итингга нон ташлаб атайин,  
«Қоплонжо-о-н», деб ўтишларимни.





## KAYFIYAT

Go'rdek sokin ariqning labi,  
Boshim uzra motamsaro tol.  
Perrondagi bezori kabi  
Hushtak chalib sang'iydi shamol.  
Ko'zyoshlardek to'kilar barglar,  
Hislarimdek maysalar to'zg'in.  
Ko'kdagi oy — quvg'indi kaptar,  
Kulrang bulut — och qolgan quzg'un.  
Tun sayliga shaylangan chog'i  
Atir sepib olgan kabi qiz,  
Dimog'imni qitiqlar gohi  
Shabnam-sirg'a taqqan g'ar yalpiz.  
Nelar haqda kuylar chigirtka,  
U ham ishqdan kuyganmi yoxud?  
O'tiribman cho'mi-i-b sukutga,  
Aytolmasdan dardim men noshud.

1974

\* \* \*

Dunyoda bor uchta chin do'stim:  
Otam,  
Onam...  
Yana allakim.  
Uchinchisin aytmoq qiyin ish,  
Xotinim ham shunchaki tanish.

1974

\* \* \*

Uchrashmaymiz endi zaminda,  
Ko'rishmaymiz qiyomatda ham.  
Bilaman, eng alamli kunda  
Eslagaysan nomimni, sanam.

Mushtoqlaring kamaygan sayin,  
Sog'inarsan kutishlarimni.  
Itingga non tashlab atayin,  
«Qoplonjo-o-n», deb o'tishlarimni.

Лоқайдланиб сўрсалар ҳолинг,  
Ташна кўзлар тушар ёдингга.  
Унут бўлган ҳазин тимсолим  
Яна маъюс келар олдингга.

Шан туйғунгдан бичарлар қайғу,  
Лабларингда бўзаради дард.  
Қайғунгдан ҳам излаб мен туйғу,  
Дудоғингга қўндирмасдим гард...

Йирок кетар бўлдим қаҳрингдан  
Ва унутдим сени бемотам.  
Учрашмаймиз энди заминда,  
Кўришмаймиз қиёматда ҳам.

1976

\* \* \*

Менинг учун орзудир бари:  
қошларингнинг сирли имоси,  
оғушингнинг нашъу намоси,  
лабларингнинг шахду шаккари.

Менинг учун бир умр армон:  
кўзларингда ёнмаган меҳринг,  
дил истагин укмаган зехнинг,  
юрагингдан сўнмаган гумон.

Енгиб бўлмас дарддир мен учун:  
сен сўзимдан ранжиган дафъа,  
сен ёнимда бўлмаган ҳафта,  
сен тушимда ҳазин боққан кун.

Менинг учун хаёлдир фақат:  
эркаланиб айтган дил розинг,  
ёлғиз менга аталган нозинг  
ва калбингда туғилган шафқат...

1975

Loqaydlanib so'rsalar holing,  
Tashna ko'zlar tushar yodingga.  
Unut bo'lgan hazin timsolim  
Yana ma'yus kelar oldingga.

Shan tuyg'ungdan bicharlar qayg'u,  
Lablaringda bo'zaradi dard.  
Qayg'ungdan ham izlab men tuyg'u,  
Dudog'ingga qo'ndirmasdim gard...

Yiroq ketar bo'ldim qahringdan  
Va unutdim seni bemotam.  
Uchrashmaymiz endi zaminda,  
Ko'rishmaymiz qiyomatda ham.

1976

\* \* \*

Mening uchun orzudir bari:  
qoshlaringning sirli imosi,  
og'ushingning nash'u namosi,  
lablaringning shaxdu shakkari.

Mening uchun bir umr armon:  
ko'zlaringda yonmagan mehning,  
dil istagin uqmagan zehning,  
yuragingdan so'nmagan gumon.

Yengib bo'lmas daraddir men uchun:  
sen so'zimdan ranjigan daf'a,  
sen yonimda bo'lmagan hafta,  
sen tushimda hazin boqqan kun.

Mening uchun xayoldir faqat:  
erkalanib aytgan dil rozing,  
yolg'iz menga atalgan nozing  
va qalbingda tug'ilgan shafqat...

1975

## **БИЗ ВА ҚИЗ**

Иккимизга бўлинг диловар,  
Ё куйдиринг бизни баробар.  
Биздан тез-тез сўраб туринг хол,  
Бизга камдир бир дона иқбол.

Иккимизни этинг бирдек ром,  
Бераверинг теппа-тенг илҳом.  
... Иккимиздан борса ишқий хат,  
Қилақолинг ошнамга шафқат.

1979

## **ҚАЙТИШ**

Сўлғин ғунча эдим мен,  
Сизни кўриб очилдим.  
Камалакнинг ўқидек  
Бағрингизга санчилдим.

Келдим йўлдан толиқиб,  
Қолар бўлсам тез ухлаб,  
Сочларингиз уйғотсин  
Юзларимни китиклаб.

1978

\* \* \*

Яхши тушлар кўринг, маликам,  
Тушингизга кирсин охулар.  
Уйғонсангиз, ўкинчдан хар дам  
Дилга яна томар оғулар,  
Яхши тушлар кўринг, маликам.

Оғулардан ясаб бўлмас бол,  
Беҳудадир умид, илтижо.  
Балки Сизни кўрсатиб увол,  
Атай маъсум яратган Худо,  
Яхши тушлар кўринг, маликам.

## **BIZ VA QIZ**

Ikkimizga bo'ling dilovar,  
Yo kuydiring bizni barobar.  
Bizdan tez-tez so'rab turing hol,  
Bizga kamdir bir dona iqbol.

Ikkimizni eting birdek rom,  
Beravering teppa-teng ilhom.  
... Ikkimizdan borsa ishqiy xat,  
Qilaqoling oshnamga shafqat.

1979

## **QAYTISH**

So'lg'in g'uncha edim men,  
Sizni ko'rib ochildim.  
Kamalakning o'qidek  
Bag'ringizga sanchildim.

Keldim yo'ldan toliqib,  
Qolar bo'lsam tez uxlab,  
Sochlaringiz uyg'otsin  
Yuzlarimni qitiqlab.

1978

\* \* \*

Yaxshi tushlar ko'ring, malikam,  
Tushingizga kirsin ohular.  
Uyg'onsangiz, o'kinchdan har dam  
Dilga yana tomar og'ular,  
Yaxshi tushlar ko'ring, malikam.

Og'ulardan yasab bo'lmas bol,  
Behudadir umid, iltijo.  
Balki Sizni ko'rsatib uvol,  
Atay ma'sum yaratgan Xudo,  
Yaxshi tushlar ko'ring, malikam.

Турибман-ку Худодан пастда,  
Қаршингизда букканча тизни.  
Тушингизда охулар аста  
Оғушимга бошласин Сизни,  
Яхши тушлар кўринг, маликам.

Оғушимдан боқаркансиз жим,  
Чараклайди кўкда зухрангиз.  
Кўзларимда акс этар бир зум  
Хаёлларга асир чехрангиз,  
Яхши тушлар кўринг, маликам.

Чехрангизга сукланган оним  
Айланаман бедорингизга.  
Танамни тарк этолмас жоним,  
Тўймас бўлсам дийдорингизга...  
Яхши тушлар кўринг, маликам.

1979

### **ОМАДЛИ ЗОТ**

Тўрткўз деган кўппак бор,  
Қурғур кони истейдод.  
Унда на ёр, на рўзғор,  
Қорни тўйса — чарх обод.

Ирғишлайди шод-қувнок,  
Суяк топган маҳали.  
Қассоб севган ит бўлмоқ —  
Орзу қилган амали.

Ундан-бунга гап ташиб,  
Битирмас ўз камини.  
Ким биландир дўстлашиб,  
Тортмас унинг ғамини.

Калтаклашса дафъатан,  
Хафа бўлмас, сўкинмас.  
Хайратланмас мардлардан,  
Номарддан ҳам ўкинмас.

Эрк унга ёт бир туйғу,  
Хаёт гўё сохта сир.

Turibman-ku Xudodan pastda,  
Qarshingizda bukkancha tizni.  
Tushingizda ohular asta  
Og'ushimga boshlasin Sizni,  
Yaxshi tushlar ko'ring, malikam.

Og'ushimdan boqarkansiz jim,  
Charaqlaydi ko'kda zuhrangiz.  
Ko'zlarimda aks etar bir zum  
Xayollarga asir chehrangiz,  
Yaxshi tushlar ko'ring, malikam.

Chehrangizga suqlangan onim  
Aylanaman bedoringizga.  
Tanamni tark etolmas jonim,  
To'ymas bo'lsam diydoringizga...  
Yaxshi tushlar ko'ring, malikam.

1979

### **OMADLI ZOT**

To'rtko'z degan ko'ppak bor,  
Qurg'ur koni iste'dod.  
Unda na yor, na ro'zg'or,  
Qorni to'ysa — charx obod.

Irg'ishlaydi shod-quvnoq,  
Suyak topgan mahali.  
Qassob sevgan it bo'lmoq —  
Orzu qilgan amali.

Undan-bunga gap tashib,  
Bitirmas o'z kamini.  
Kim bilandir do'stlashib,  
Tortmas uning g'amini.

Kaltaklashsa daf'atan,  
Xafa bo'lmas, so'kinmas.  
Hayratlanmas mardlardan,  
Nomarddan ham o'kinmas.

Erk unga yot bir tuyg'u,  
Hayot go'yo soxta sir.

Гўё унинг фахри шу —  
Бўйнидаги мис занжир...

Тўрткўз деган кўппак бор,  
Қурғур кони истеъдод.  
Унда на эл, на диёр,  
Қорни тўйса — чарх обод.

1973

### **МИЛЛАТДОШЛИК**

Мен кимман-у, сен кимсан,  
Жуда котди бу бошим.  
Нечун менга ганимлик  
Қилмоқдасан, юртдошим?

Сен котирма бошингни,  
Жам бўлсин ўй-хотиринг.  
Ўлсам майли тифингдан,  
Бўлолмасман котилинг.

1978

### **ЭРКИН ВОҲИДОВ**

Ярим минг йил нарига  
Бура олса йўлини,  
Навойига соғ-омон  
Топширарди Гулини.

Бобо битмоқ истаган  
Байтни излар доводдан.  
Орзу қилар ётар пайт  
Уйғонмоқни Хиротда.

1981



Go'yo uning faxri shu —  
Bo'ynidagi mis zanjir...

To'rtko'z degan ko'ppak bor,  
Qurg'ur koni iste'dod.  
Unda na el, na diyor,  
Qorni to'ysa — charx obod.

1973

### **MILLATDOSHLIK**

Men kimman-u, sen kimsan,  
Juda qotdi bu boshim.  
Nechun menga g'animlik  
Qilmoqdasan, yurtdoshim?

Sen qotirma boshingni,  
Jam bo'lsin o'y-xotiring.  
O'lsam mayli tig'ingdan,  
Bo'lolmasman qotiling.

1978

### **ERKIN VOHIDOV**

Yarim ming yil nariga  
Bura olsa yo'lini,  
Navoiyga sog'-omon  
Topshirardi Gulini.

Bobo bitmoq istagan  
Baytni izlar dovotdan.  
Orzu qilar yotar payt  
Uyg'onmoqni Hirotda.

1981

## ЎСПИРИН

Юрагимда қасирға, тошкин,  
Бўғзим мавжли саволларга лим.  
Фикрим туман,  
Хаётнинг уфқин —  
Илғолмайин қийналар зехним.

Ким айтяпти?  
Кимга бу қўшиқ?  
Қайси ҳисдан бошланар виждон?  
Туйғуларим безовта, инжиқ,  
Туйғуларнинг туби зимистон.

Бу косада болми ё оғу?  
Уни ётга беролмам, демак.  
Уни четга отишим,  
Ёхуд —  
Ўзим тотиб кўришим керак.

Қайдан бу шавқ?  
Қайдан бу нолиш?  
Ким ва нега беряпти фармон?  
Олдда юрмоқ балки ғирт ташвиш,  
Аммо қуйруқ бўлиш ҳам армон.

Қийнар ўйлар,  
Эзар сукутлар,  
Гувлар савол бўрони такрор.  
Юрагимда мурғак умидлар  
Туғилади безиллок, хушёр.

1977

\* \* \*

Жонимни ўт қаърига  
Ташлаб қочди қув нигор.  
Чорасизлик зиндони  
Бунча чуқур,  
Бунча тор?!

## O'SPIRIN

Yuragimda qasirg'a, toshqin,  
Bo'g'zim mavjli savollarga lim.  
Fikrim tuman,  
Hayotning ufqin —  
Ilg'olmayin qiynalar zehnim.

Kim aytyapti?  
Kimga bu qo'shiq?  
Qaysi hisdan boshlanar vijdon?  
Tuyg'ularim bezovta, injiq,  
Tuyg'ularning tubi zimiston.

Bu kosada bolmi yo og'u?  
Uni yotga berolmam, demak.  
Uni chetga otishim,  
Yoxud —  
O'zim totib ko'rishim kerak.

Qaydan bu shavq?  
Qaydan bu nolish?  
Kim va nega beryapti farmon?  
Oldda yurmoq balki g'irt tashvish,  
Ammo quyruq bo'lish ham armon.

Qiyinar o'ylar,  
Ezar sukutlar,  
Guvlar savol bo'roni takror.  
Yuragimda murg'ak umidlar  
Tug'iladi bezilloq, hushyor.

1977

\*\*\*

Jonimni o't qa'riga  
Tashlab qochdi quv nigor.  
Chorasizlik zindoni  
Buncha chuqur.  
Buncha tor?!

Қўймас гурур кишани  
Қиз сари йўл олишга.  
Охир  
Зўрлаб мени Тун  
Никохлади Болишга.

1982

\* \* \*

Боксам хаёт кўзига,  
Оч жаллодга ўхшайди.  
Бир кун  
Тутар бўғзимдан,  
Юраккинам тўхтайтиди.

Тарк этардим хозирок  
Бешафқат бу дунёни...  
Нетай,  
Ётга бергим йўқ  
Бағримдаги барнони.

1979

\* \* \*

Қиз самога лол боқар,  
Кўзларида интиқлик.  
Юрагига хуш ёқар,  
Мангу поклик, тиниқлик.

Қўшқанотга киз мухтож  
Ва самога зор кўпдан.  
Ерда ишқи топталгач,  
Излар энди бахт кўкдан.

1974

\* \* \*

Бир бахшиман,  
Ҳолимга тушун,  
Бечораман хозирча паққос.  
Зеб-у зевар юрмоғинг учун  
Яратолмам улкан имтиёз.

Qo'ymas g'urur kishani  
Qiz sari yo'l olishga.  
Oxir  
Zo'rlab meni Tun  
Nikohladi Bolishga.

1982

\* \* \*

Boqsam hayot ko'ziga,  
Och jallodga o'xshaydi.  
Bir kun  
Tutar bo'g'zimdan,  
Yurakkinam to'xtaydi.

Tark etardim hoziroq  
Beshafqat bu dunyoni...  
Netay,  
Yotga bergim yo'q  
Bag'rimdagi barnoni.

1979

\* \* \*


Qiz samoga lol boqar,  
Ko'zlarida intiqlik.  
Yuragiga xush yoqar,  
Mangu poklik, tiniqlik.

Qo'shqanotga qiz muhtoj  
Va samoga zor ko'pdan.  
Yerda ishq toptalgach,  
Izlar endi baxt ko'kdan.

1974

\* \* \*

Bir baxshiman,  
Holimga tushun,  
Bechoraman hozircha paqqos.  
Zeb-u zavar yurmog'ing uchun  
Yaratolmam ulkan imtiyoz.



Қизғанчиқ деб ўйлама, гулим,  
Бу сўз мен-чун тенгдир ўлимга.  
Инон,  
Жуда очикдир кўлим,  
Хеч нарса йўқ фақат кўлимда.

1974

## **ЁВВОЙИ МАНТИҚ**

Балиқчилик — бўйдоқлар иши!  
Сув парисин тутволса ногоҳ,  
Қила олмас қонуний никоҳ  
Уйланган киши.

1973

## **ФАРҒОНАЛИКЛАР**

Неча хил ғанимлар сочди қахрини,  
Йиғлашни билмади фарғоналиклар.  
Гоҳи дўст тилса-да юрак-бағрини,  
Дўст дилин тилмади фарғоналиклар.

Кўрди кўп зилзила, селни, тошқинни,  
Кўрди кўп талонни, кўрди босқинни,  
Кўрса-да кулбаси юзлаб ёнғинни,  
Юртидан жилмади фарғоналиклар.

Берса ҳам жангларда мингталаб мардин,  
Мағрур чикди қокиб этакнинг гардин,  
Ўткинчи қисматнинг ўткинчи дардин  
Назарга илмади фарғоналиклар.

Садоқат бор жойда — диёнат омон,  
Сотқинлик ёмондир, хиёнат ёмон,  
Ёвга эл бўлмаган каби хеч замон,  
Ёвни эл қилмади фарғоналиклар.

Меҳмони отда-ю, ўзлари яёв,  
Кўзлари сокин-у, қалблари асов,

Qizg'anchiq deb o'ylama, gulim,  
Bu so'z men-chun tengdir o'limga.  
Inon,  
Juda ochiqdir qo'lim,  
Hech narsa yo'q faqat qo'limda.

1974

## **YOVVOYI MANTIQ**

Baliqchilik — bo'ydoqlar ishi!  
Suv parisin tutvolسا nogoh,  
Qila olmas qonuniy nikoh  
Uylangan kishi.

1973

## **FARG'ONALIKLAR**

Necha xil g'animlar sochdi qahrini,  
Yig'lashni bilmadi farg'onaliklar.  
Gohi do'st tilsa-da yurak-bag'rini,  
Do'st dilin tilmadi farg'onaliklar.

Ko'rdi ko'p zilzila, selni, toshqinni,  
Ko'rdi ko'p talonni, ko'rdi bosqinni,  
Ko'rsa-da kulbasi yuzlab yong'inni,  
Yurtidan jilmadi farg'onaliklar.

Bersa ham janglarda mingtalab mardin,  
Mag'rur chiqdi qoqib etakning gardin,  
O'tkinchi qismatning o'tkinchi dardin  
Nazarga ilmadi farg'onaliklar.

Sadoqat bor joyda — diyonat omon,  
Sotqinlik yomondir, xiyonat yomon,  
Yovga el bo'lmagan kabi hech zamon,  
Yovni el qilmadi farg'onaliklar.

Mehmoni otda-yu, o'zlari yayov,  
Ko'zlari sokin-u, qalblari asov.

Зўрларни аския қилди беаёв,  
Ожиздан кулмади фарғоналиклар.

Хануз ал-Фарғоний биз билан ўйлар,  
Нодира то абад ғазалин сўйлар,  
Маъмуржон ҳар кеча «Ёлғиз»ин куйлар,  
Гўрда ҳам ўлмади фарғоналиклар.

Тун чўкса ёр эрур қасоскор сабр,  
Порлоқ тонг сари йўл азал сержабр,  
Ҳаёт деб курашди, дунёга ахир —  
Бекорга келмади фарғоналиклар.

1982

\* \* \*

Дам тешиб елкасин, дам қўлин ямлаб,  
Гоҳ юзин тимдалаб, /кулоғин тирнаб,  
Бой бериб не-неча аниқ имконни,  
Қўй, бунча қийнама шўрлик нишонни.

Яхшиси, ҳў сузук барнодан, мерган,  
Юракка бехато уришни ўрган.

\* \* \*

Хуш кўраман азалдан  
Тўп пахтада ётишни.  
Ўқиб кизик ғазалдан,  
Қизларга гап сотишни.

Эски дардим бошланар  
Кўрсам биби Тўхтани.  
Топиб бўлмас, ошналар,  
Ундан момик «пахта»ни.

1979



Zo'rlarni askiya qildi beayov,  
Ojizdan kulmadi farg'onaliklar.

Hanuz al-Farg'oniy biz bilan o'ylar,  
Nodira to abad g'azalin so'ylar,  
Ma'murjon har kecha «Yolg'iz»in kuylar,  
Go'rda ham o'lmadi farg'onaliklar.

Tun cho'ksa yor erur qasoskor sabr,  
Porloq tong sari yo'l azal serjabr,  
Hayot deb kurashdi, dunyoga axir —  
Bekorga kelmadi farg'onaliklar.

1982

\* \* \*

Dam teshib yelkasin, dam qo'lin yamlab,  
Goh yuzin timdalab, qulog'in tirnab,  
Boy berib ne-necha aniq imkonni,  
Qo'y, buncha qiynama sho'rlik nishonni.

Yaxshisi, ho' suzuk barnodan, mergan,  
Yurakka bexato urishni o'rgan.

1971

\* \* \*

Xush ko'raman azaldan  
To'p paxtada yotishni.  
O'qib qiziq g'azaldan,  
Qizlarga gap sotishni.

Eski dardim boshlanar  
Ko'rsam bibi To'xtani.  
Topib bo'lmas, oshnalar,  
Undan momiq «paxta»ni.

1979

\* \* \*

Ўзинг бут қил,  
О, Тангрим,  
Эркакларнинг камини.  
Эркакларга қўйиб бер  
Хотинларнинг ғамини.

1973

\* \* \*

Шамсиядек шийпонда  
Сухбат қурар эркаклар.  
Аёллар бир томонда,  
Келин — бола йўргаклар.

Қодир бобо йўргакка  
Боқар хомуш ўйланиб.  
Чалингандек безгакка,  
Титрар соқол-мўйлаби.

Ёшлар кулиб қарашар:  
«Кўп сукланманг Чаманга!»  
... Чол шўрликни ўрашар  
Эрта-индин кафанга.


1978

\* \* \*

Пўртана деб ошиқ қалбини,  
Буюкларни ўхшатдим тоққа.  
Лола дедим ёрнинг лабини  
Ва менгзатдим ойни ўчоққа.

Икки сўз бор — йўқдир такқоси,  
Қиёс йўқдир ноёб маъданга:  
Онагинам — онанинг ўзи,  
Ватангинам ўхшар Ватанга!

1973



\* \* \*

O'zing but qil,  
O, Tangrim,  
Erkaklarning kamini.  
Erkaklarga qo'yib ber  
Xotinlarning g'amini.

1973

\* \* \*

Shamsiyadek shiyponda  
Suhbat qurar erkaklar.  
Ayollar bir tomonda,  
Kelin — bola yo'rgaklar.

Qodir bobo yo'rgakka  
Boqar xomush o'ylanib.  
Chalingandek bezgakka,  
Titrrar soqol-mo'ylabi.

Yoshlar kulib qarashar:  
«Ko'p suqlanmang Chamanga!»  
... Chol sho'rlikni o'rashar  
Erta-indin kafanga.

1978

\* \* \*

Po'rtana deb oshiq qalbini,  
Buyuklarni o'xshatdim toqqa.  
Lola dedim yorning labini  
Va mengzatdim oyni o'choqqa.

Ikki so'z bor -- yo'qdir taqqosi,  
Qiyos yo'qdir noyob ma'danga:  
Onaginam -- onaning o'zi,  
Vataginam o'xshar Vatanga!

1973

## КАСАЛ БОЛА

Ойижоним, йиғламанг,  
Ҳали ёшман, ўлмайман.  
Аста туриб олсам бас,  
Бошқа касал бўлмайман,  
Ойижоним, йиғламанг.

Қилмадинг деб нонушта  
Хафа бўлманг унчалик.  
Бу кеч едим тушимда  
Сутдек о-оппоқ кулчани,  
Ойижоним, йиғламанг.

Дориларни ичволдим,  
Бўлдим яна «зўр полвон».  
Биласиз-ку, аввал ҳам —  
Алдасдим ҳеч қачон,  
Ойижоним, йиғламанг.

Тузалволсам, шаҳарга —  
Борар эдик Сиз билан...  
Балки дадам кепқолар  
Ярашгани биз билан...  
Ойижоним... йиғламанг...


Йў, йў... қўркманг, ўлмайман,  
Қўп дейсиз-ку хавасим...  
Их-х! Тугмамни ечворинг...  
Қисляпти нафасим...  
Ой-й... жони-и-м...

1976

\* \* \*

Сигаретинг сўнгиси бўлса,  
Икки тортим қолдир, офайни.  
Қандай яхши  
Кўкда ой тўлса,  
Сайру суҳбат пайтидир айни.

Шодон эсанг, яширма харғиз,  
Кулишайлик,



## KASAL BOLA

Oyijonim, yig'lamang,  
Hali yoshman, o'lmayman.  
Asta turib olsam bas,  
Boshqa kasal bo'lmayman,  
Oyijonim, yig'lamang.

Qilmading deb nonushta  
Xafa bo'lmang unchalik.  
Bu kech yedim tushimda  
Sutdek o-oppoq kulchani,  
Oyijonim, yig'lamang.

Dorilarni ichvoldim,  
Bo'ldim yana «zo'r polvon».  
Bilasiz-ku, avval ham —  
Aldamasdim hech qachon,  
Oyijonim, yig'lamang.

Tuzalvolsam, shaharga —  
Borar edik Siz bilan...  
Balki dadam kepqolar  
Yarashgani biz bilan...  
Oyijonim... yig'lamang...

Yo', yo'... qo'rqmang, o'lmayman.  
Ko'p deysiz-ku havasim...  
Ix-x! Tugmamni yechvoring...  
Qisilyapti nafasim...  
Oy-y... joni-i-m...

1976

• • •

Sigaretning so'nggisi bo'lsa,  
Ikki tortim qoldir, og'ayni.  
Qanday yaxshi  
Ko'kda oy to'lsa,  
Sayr-u suhbat paytidir ayni.

Shodon esang, yashirma hargiz,  
Kulishaylik,



Сухбатни безат.  
Гаминг бўлса тортмагин ёлғиз,  
Икки тортим менга ҳам узат.

1973

## **МАШРАБ ДОР ОСТИДА**

Мард ва ночор дўстларим,  
Қах-қах уринг...  
Ўляпман.  
Мотамсаро турманг жим,  
Қаранг, мен ҳам куляпман.

Қах-қах уриб,  
Зил дарддан —  
Соқит этинг қалбимни.  
Кўриб қолай бир марта  
Яйраб кулган халқимни.

1975

\* \* \*


Сизларга  
гул тутаман,  
сув узатаман,  
нонимни бераман.  
Кулбамда  
ортиқча жой ҳам бор.

Факат  
танкларда келманг!

1978

\* \* \*

Жуда табаррук эди  
бу коса.  
Балки  
Бобур ундан бөл ялагандир,  
балки



Suhbatni bezat.  
G'aming bo'lsa tortmaging yolg'iz,  
Ikki tortim menga ham uzat.

1973

## **MASHRAB DOR OSTIDA**

Mard va nochor do'stlarim,  
Qah-qah uring...  
O'lyapman.  
Motamsaro turmang jim,  
Qarang, men ham kulyapman.

Qah-qah urib,  
Zil darddan –  
Soqit eting qalbimni.  
Ko'rib qolay bir marta  
Yayrab kulgan xalqimni.

1975

• • •

Sizlarga  
gul tutaman,  
suv uzataman,  
nonimni beraman.  
Kulbamda  
ortiqcha joy ham bor.

Faqat  
tanklarda kelmang!

1978

• • •

Juda tabarruk edi  
bu kosa.  
Balki  
Bobur undan bol yalagandir,  
balki

Ҳайём ундан май симиргандир...

Сув ичаётиб синдирибсан-а,  
ландавур!

1980

\* \* \*

Атом кеча қонга чўқтирди Хиросимани,  
бугун дахшатга солмоқда одамни,  
эртага култепа қилиши мумкин оламни.  
Нега энди ҳаммангиз  
шўрли Эйнштейнга хўмраясиз?

Янглишмасам,  
керосинни иқтисод қилмоқчи эди у...

1980

\* \* \*


Бўлик буғдой — дарпарда,  
Ой мўри-ю, осмон том.  
Ошиқлар шу «хужра»да  
Шивирлашар вақти шом.

Йигит телба ҳисоби,  
Юз тутар киз бўсага...  
Тегсин бунинг савоби  
Буғдой эккан Мўсага.

1978

## **ТОНГГИ АЙРИЛИҚ ОЛДИДАН**

Ухлаяпсан.  
Мен ҳамон уйғоқ.  
Илхом куйлар ёйиб қулочини.  
Ошпоқ ёстик устида сочинг  
Хуснинг томон қоп-қора сўкмоқ.





Hayyom undan may simirgandir...

Suv ichayotib sindiribsan-a,  
landavur!

1980

\* \* \*

Atom kecha qonga cho'ktirdi Xirosimani,  
bugun dahshatga solmoqda odamni,  
ertaga kultepa qilishi mumkin olamni.  
Nega endi hammangiz  
sho'rli Eynshteynga xo'mrayasiz?

Yanglishmasam,  
kerosinni iqtisod qilmoqchi edi u...

1980

\* \* \*


Bo'liq bug'doy – darparda.  
Oy mo'ri-yu, osmon tom.  
Oshiqlar shu «hujra»da  
Shivirlashar vaqti shom.

Yigit telba hisobi,  
Yuz tutar qiz bo'saga...  
Tegsin buning savobi  
Bug'doy ekkani Mo'saga.

1978

## **TONGGI AYRILIQ OLDIDAN**

Uxlayapsan.  
Men hamon uyg'oq.  
Ilhom kuylar yoyib qulochin.  
Oppoq yostiq ustida soching  
Husning tomon qop-qora so'qmoq.



Ухлаяпсан.  
Ярим тун авжи.  
Юмук кўзлар — қуёшчам қулфи.  
Жилғаланиб қуйилган зулфинг —  
Ўримда фарёдим мавжи.

Ухлаяпсан.  
Тўлди бу дафтар —  
Дунёнинг бор нолаларига.  
Ўхшар сочинг толаларига  
Мисраларга чирмашган дардлар...

1974

## СЎҚҚАБОШ

Кечирасиз,  
Кирсам мумкинми?  
Чой ичмайман, безовта бўлманг...  
Фартуғимни ечмабман, кулманг...  
Билмоқчийдим — шанба... бугунми?

Ахир, қўшни бўлгандан кейин,  
Тушар экан баъзан ишимиз.  
Сизга осон... аёл кишисиз...  
Бизлар — эркак...  
Бизга сал қийин.

Яхшиямки турамиз ёндош,  
Бир каллада кам бўлар маъни.  
Хатто оддий жума-шанбани —  
Фарқлолмайсан...  
Яшаб... сўққабаш...

Уф-ф, ёлғизлик тегаркан жонга...  
Ачинаман гоҳи Сизга ҳам...  
Уйда гўё доим недир кам,  
Чиқиб кетгинг келар...  
Айвонга.

... Нега кирдим? Совун учуими?  
Менимча... сал таъбингиз хира...

Uxlayapsan.  
Yarim tun avji.  
Yumuq ko'zlar — quyoshcham qulfi.  
Jilg'alanib quyilgan zulfiq —  
O'rimida faryodim mavji.

Uxlayapsan.  
To'ldi bu daftar —  
Dunyoning bor nolalariga.  
O'xshar soching tolalariga  
Misralarga chirmashgan dardlar...

1974

### **SO'QQABOSH**

Kechirasiz,  
Kirsam mumkinmi?  
Choy ichmayman, bezovta bo'lmang...  
Fartug'imni yechmabman, kulmang...  
Bilmoqchidim — shanba... bugunmi?

Axir, qo'shni bo'lgandan keyin,  
Tushar ekan ba'zan ishimiz.  
Sizga oson... ayol kishisiz...  
Bizlar — erkak...  
Bizga sal qiyin.

Yaxshiyamki turamiz yondosh,  
Bir kallada kam bo'lar ma'ni.  
Hatto oddiy juma-shanbani —  
Farqlolmaysan...  
Yashab... so'qqabosh...

Uf-f, yolg'izlik tegarkan jonga...  
Achinaman gohi Sizga ham...  
Uyda go'yo doim nedir kam,  
Chiqib ketging kelar...  
Ayvonga.

... Nega kirdim? Sovun uchunmi?  
Menimcha... sal ta'bingiz xira...



Кўнглингизни очмайсиз сира...  
Кечирасиз...  
Кирсам мумкинми?

1975

\* \* \*

Сизсиз ёлғиз дарддошим,  
Сирни гуллаб қўймайсиз.  
Баландпарвоз сўз айтсам,  
Девонага йўймайсиз.

Сизсиз ёлғиз ҳамдардим,  
Бордир, афсус, эрингиз.  
Садагага ўхшайди  
Шафкатингиз, меҳрингиз.

1978

\* \* \*

Хатда таъна қилибсиз, жонон,  
Йўлда йиғлаб кетганингизни.  
Сиз қайгадир етганингизни  
Эшитдим-у,  
Тин олдим шодон.

Ахир, дардни йўйиб хазилга,  
Мен саргардон юрибман хануз.  
Йўлим — зулмат,  
Орзуйим — фонус,  
Етганим йўк бирон манзилга.

1979

\* \* \*

Ширин тушлар кўряписиз  
Оғушимга бурканиб,  
Боқар рашикчи атиргул  
Деразадан,  
Ўрташиб.

Ko'nglingizni ochmaysiz sira...  
Kechirasiz...  
Kirsam mumkinmi?

1975

\* \* \*

Sizsiz yolg'iz darddoshim,  
Sirni gullab qo'y maysiz.  
Balandparvoz so'z aytsam,  
Devonaga yo'y maysiz.

Sizsiz yolg'iz hamdardim,  
Bordir, afsus, eringiz.  
Sadag'aga o'xshaydi  
Shafqatingiz, mehringiz.

1978

\* \* \*

Xatda ta'na qilibsiz, jonon,  
Yo'lda yig'lab ketganingizni.  
Siz qaygadir yetganingizni  
Eshitdim-u,  
Tin oldim shodon.

Axir, dardni yo'yib hazilga,  
Men sargardon yuribman hanuz.  
Yo'lim - zulmat,  
Orzuyim -- fonus,  
Yetganim yo'q biron manzilga.

1979

\* \* \*

Shirin tushlar ko'ryapsiz  
Og'ushimga burkanib,  
Boqar rashkchi atirgul  
Derazadan,  
O'rtanib.

Атиргулни хидладим  
Тўзғитмасдан,  
Узмасдан;  
Худди Сизни ўпгандек  
Уйқунгизни бузмасдан.

1981

\* \* \*

Чамаси,  
Бир кокилим —  
Узилар деб кўркасиз.  
Ўўкса, мени у «дор»га  
Тортардингиз шубҳасиз.

Вахоланки,  
Инсоф-ла —  
Ўўлаб кўрсак, жонона,  
Кокилингиз кирқтадир,  
Жоним эса ягона.


1979

\* \* \*

Бу дунёдан ўтганлар бир-бир  
Неча анқов, неча муғамбир,  
Виждонли ва виждонсотар ҳам,  
Авлиё ва шайтонпадар ҳам.

Ўтган мендан дидли миждозлар  
Ва Сиздан ҳам сулув таиннозлар.

1978



Atirgulni hidladim  
To'zg'itmasdan,  
Uzmasdan;  
Xuddi Sizni o'pgandek  
Uyqungizni buzmasdan.

1981

\* \* \*

Chamasi,  
Bir kokilim —  
Uzilar deb qo'rqasiz.  
Yo'qsa, meni u «dor»ga  
Tortardingiz shubhasiz.

Vaholanki,  
Insof-la —  
O'ylab ko'rsak, jonona,  
Kokilingiz qirqtadir,  
Jonim esa yagona.

1979

\* \* \*

Bu dunyodan o'tganlar bir-bir  
Necha anqov, necha mug'ambir,  
Vijdonli va vijdonsotar ham,  
Avliyo va shaytonpadar ham.

O'tgan mendan didli mijozlar  
Va Sizdan ham suluv tannoqlar.

1978

## ЯРОФ

Дўст сўраса берар хатто жонини,  
Пичоғини совға қилмас ўзбеклар.  
Инъом этса ҳамки хони-монини,  
Пичоғини совға қилмас ўзбеклар.

Қанча уруш кўрди, билмас саноғин,  
Кесди қанча босқинчининг оёғин,  
Қилич синса, ишга солди пичоғин,  
Пичоғини совға қилмас ўзбеклар.

Мусофирдек юрди гоҳ ўз элида,  
Арзин айтди гоҳ ўзгалар тилида,  
Лек пичоғи қолаверди белида,  
Пичоғини совға қилмас ўзбеклар.

Токи ёри учун жасур эр экан,  
Токи фаним учун хавфли шер экан,  
Токи юртин онам кабри дер экан,  
Пичоғини совға қилмас ўзбеклар.

1981

\* \* \*

Ўтбосар беш ўғлоним  
Беш умиддир калбимда.  
Кўкка учса бир жоним,  
Бешта жоним — халқимга.

Кўкка учган бир жонда  
Шод кетарми имоним?  
Тоймаса бас имондан  
Узилмаган беш жоним.

1981



## YAROG'

Do'st so'rasa berar hatto jonini,  
Pichog'ini sovg'a qilmas o'zbeklar.  
In'om etsa hamki xoni-monini,  
Pichog'ini sovg'a qilmas o'zbeklar.

Qancha urush ko'rdi, bilmas sanog'in,  
Kesdi qancha bosqinchining oyog'in,  
Qilich sinsa, ishga soldi pichog'in,  
Pichog'ini sovg'a qilmas o'zbeklar.

Musofirdek yurdi goh o'z elida,  
Arzin aytdi goh o'zgalar tilida,  
Lek pichog'i qolaverdi belida,  
Pichog'ini sovg'a qilmas o'zbeklar.

Toki yori uchun jasur er ekan,  
Toki g'anim uchun xavfli sher ekan,  
Toki yurtin onam qabri der ekan,  
Pichog'ini sovg'a qilmas o'zbeklar.

1981

• • •

O'tbosar besh o'g'lonim  
Besh umiddir qalbidam.  
Ko'kka uchsa bir jonim,  
Beshta jonim -- xalqimga.

Ko'kka uchgan bir jonda  
Shod ketarmi imonim?  
Toymasa bas'imondan  
Uzilmagan besh jonim.

1981

## ҚАРИ ТУРНА

Ётар хасга бурканиб,  
Орзуланиб ўй сурар.  
Ажабмаски, бир кониб —  
Бу кеч яхши туш кўрар.

Аммо кўзин юмган он,  
Босар уни бир дахшат:  
Кўкрагига сачрар қон,  
Этларидан тўзғир пат.

Қотиб ухлар кўк-замин,  
У — уйғоқ, дил тирналар.  
Алдаганди ўз қавмин,  
Кечиргайми турналар?

Галадошлар ҳар сафар  
Бокса унга тунд, бефарк,  
Юрагига зил ханжар  
Бўла бошлар аста ғарк...

Яхши тушдан умидвор,  
Яна хорғин мудрайди.  
... Тушида ёш қасоскор  
Уни четга судрайди.

1978


\*\*\*

Дуо килманг, майли, ҳаққимга,  
Умидворман, гарчи, жаннатдан.  
Омад тиланг ғариб халқимга,  
Боқий турсин мен севган Ватан.

1978

## ТАЗАРРУ

Қурибман хирс бағрига уя,  
Ўйлаб кўрсам, аҳволим ёмон.  
Биздан оз-моз покроксан дея,  
Овутирар шайтонлар ҳамон.



## **QARI TURNA**

Yotar xasga burkanib,  
Orzulanib o'y surar.  
Ajabmaski, bir qonib –  
Bu kech yaxshi tush ko'rar.

Ammo ko'zin yumgan on,  
Bosar uni bir dahshat:  
Ko'kragiga sachrar qon,  
Etlaridan to'zg'ir pat.

Qotib uxlar ko'k-zamin,  
U – uyg'oq, dil tirnalar.  
Aldagandi o'z qavmin,  
Kechirgaymi turnalar?

Galadoshlar har safar  
Boqsa unga tund, befarq,  
Yuragiga zil xanjar  
Bo'la boshlar asta g'arq...

Yaxshi tushdan umidvor,  
Yana horg'in mudraydi.  
... Tushida yosh qasoskor  
Uni chetga sudraydi.

1978


• • •

Duo qilmang, mayli, haqqimga,  
Umidvorman, garchi, jannatdan.  
Omad tilang g'arib xalqimga,  
Boqiy tursin men sevgan Vatan.

1978

## **TAZARRU**

Quribman xirs bag'riga uya,  
O'ylab ko'rsam, ahvolim yomon.  
Bizdan oz-moz pokroqsan deya,  
Ovuntirar shaytonlar hamon.



Виждон судин эшиги очик,  
Бугун ўзни танитай расман:  
Менинг олий унвоним — «ошиқ»,  
Лек мансабим — бор-йўғи «жазман».

1975

### **КИБР**

Қуёш бўлиб ишқ шаҳрин ёқдим,  
Юлдуз бўлиб кўзингга боқдим,  
Кулбанг узра сокчи ой бўлдим,  
Булут эдим, ёмғирсой бўлдим...

Сал кечикиб тушдим мен Ерга,  
Сен шошиброқ тегибсан эрга.

1973

\* \* \*

Бермоқчисиз кўнглимга оро...  
Хўш, кейин-чи?  
Айтинг барини.  
Жунун хислар тўфони аро  
Кўрмаялман Сиздан нарини.


1977

\* \* \*

Бу итларни,  
Бегойим,  
Ғажийдиган шаштим бор.  
Олапарга ўчорман,  
Қоплондаям қасдим бор.

Рашким келар  
Гох улар  
Қўлингизни ялашса...  
Нахот эди Сизни мен  
Итлар билан талашсам?!

1982



Vijdon sudin eshigi ochiq,  
Bugun o'zni tanitay rasman:  
Mening oliy unvonim — «oshiq»,  
Lek mansabim — bor-yo'g'i «jazman».

1975

### **KIBR**

Quyosh bo'lib ishq shahrin yoqdim,  
Yulduz bo'lib ko'zingga boqdim,  
Kulbang uzra soqchi oy bo'ldim,  
Bulut edim, yomg'irsoy bo'ldim...

Sal kechikib tushdim men Yerga,  
Sen shoshibroq tegibsan erga.

1973

\*\*\*

Bermoqchisiz ko'nglinga oro...  
Xo'sh, keyin-chi?  
Ayting barini.  
Junun hislar to'foni aro  
Ko'rmayapman Sizdan narini.


1977

\*\*\*

Bu itlarni,  
Begoyim,  
G'ajiydigan shashtim bor.  
Olaparga o'chkorman,  
Qoplondayam qasdim bor.

Rashkim kelar  
Goh ular -  
Qo'lingizni yalashsa...  
Nahot endi Sizni men  
Itlar bilan talashsam?!

1982



\* \* \*

Менинг ёрим бўлсангиз,  
Аразлатиб қўймасдим.  
Хатто қариб сўлсангиз,  
Бошқа гулни суймасдим.

Эсим оғиб мабодо  
Кетиб қолсам аразлаб,  
Бўлардингиз Сиз жудо  
Бор-йўғи бир мараздан.

1976

## **СЕВГИЛИМНИНГ ОЙИСИГА**

Боқар бўлса у гулгун,  
Қалбим урар шўх ханда.  
Қизингизни ўшанда  
Ўпиб қўйинг мен учун.  
Киё бокмай уззукун  
Ахволимни қилса танг,  
Аямасдан саваланг  
Қизингизни мен учун.

1975


\* \* \*

Шивирлашар чечаклар  
Ортингиздан бўйланиб.  
Нима қилиб юрибсиз  
Шомда ёлғиз ўйланиб?

Нигоҳингиз тонг мисол  
Осудадир, парижон.  
Сочларингиз тўзғин-у,  
Хаёлингиз паришон.

Нафармони булутга  
Тикиляисиз жа илҳак.  
Сизга кимни эслатди  
Юрак-бағри қон шафак?

Ўша йигит йўлига  
Наҳот ташна қўзингиз?



\* \* \*

Mening yorim bo'lsangiz,  
Arazlatib qo'ymasdim.  
Hatto qarib so'lsangiz,  
Boshqa gulni suymasdim.

Esim og'ib mabodo  
Ketib qolsam arazlab,  
Bo'lardingiz Siz judo  
Bor-yo'g'i bir marazdan.

1976

## **SEVGILIMNING OYISIGA**

Boqar bo'lsa u gulgun,  
Qalbim urar sho'x xanda.  
Qizingizni o'shanda  
O'pib qo'ying men uchun.  
Qiy boqmay uzzukun  
Ahvolimni qilsa tang,  
Ayamasdan savalang  
Qizingizni men uchun.

1975

\* \* \*

Shivirlashar chechaklar  
Ortingizdan bo'ylanib.  
Nima qilib yuribsiz  
Shomda yolg'iz o'ylanib?

Nigohingiz tong misol  
Osudadir, parijon.  
Sochlaringiz to'zg'in-u,  
Xayolingiz parishon.

Nafarmoni bulutga  
Tikilyapsiz ja ilhaq.  
Sizga kimni eslatdi  
Yurak-bag'ri qon shafaq?

O'sha yigit yo'liga  
Nahot tashna ko'zingiz?

Ахир уни шу йўлдан  
Кувгандингиз ўзингиз.

1978

## ҚИРҒИЗ ДЎСТИМГА

Туғилганмиз бир уйда,  
Битта ота-онадан.  
Жой ажратди ёв бизга  
Бошқа-бошқа хонадан.

Бошқа-бошқа даладан  
Йиғиб олсак ҳамки дон,  
Қолаверди ўртада  
Тегирмон ва дастурхон.


Эсла, дўстим,  
Қай кузда  
Мўл бўлмаган донимиз?  
Афсус гохи тандирдан  
Талон бўлди нонимиз.

Қонхўр, ёвуз тўдалар  
Бизни бирга талашди.  
Бизни бирга эзишди,  
Бизни бирга алдашди.

Бирга кездик  
Қул бўлиб,  
Боскинчилар юртида.  
Ёнди нодир асарлар  
Боскинчилар ўтида.

Бирок ўтда куймайди  
Неки бўлса муқаддас.  
Яшайверди қалбларда  
Гўрўелибек ва Манас.

Достонларни асрашга  
Қодир экан дилимиз,  
Яшинга ҳам дош берар  
Бизнинг  
Она тилимиз.





Axir uni shu yo'ldan  
Quvgandingiz o'zingiz.

1978

## **QIRG'IZ DO'STIMGA**

Tug'ilganmiz bir uyda,  
Bitta ota-onadan.  
Joy ajratdi yov bizga  
Boshqa-boshqa xonadan.

Boshqa-boshqa daladan  
Yig'ib olsak hamki don,  
Qolaverdi o'rtada  
Tegirmon va dasturxon.

Esla, do'stim,  
Qay kuzda  
Mo'l bo'lmagan donimiz?  
Afsus gohi tandirdan  
Talon bo'ldi nonimiz.

Qonxo'r, yovuz to'dalar  
Bizni birga talashdi.  
Bizni birga ezishdi,  
Bizni birga aldashdi.

Birga kezdik  
Qul bo'lib,  
Bosqinchilar yurtida.  
Yondi nodir asarlar  
Bosqinchilar o'tida.

Biroq o'tda kuymaydi  
Neki bo'lsa muqaddas.  
Yashayverdi qalblarda  
Go'ro'g'libek va Manas.

Dostonlarni asrashga  
Qodir ekan dilimiz.  
Yashinga ham dosh berar  
Bizning  
Ona tilimiz.



Тили ўзга ганимлар  
Уйимизни титишди.  
Фақат Ватан ишқини  
Ўфирлолмай кетишди.

Қўй, сен эски кин билан  
Тўрт томонга бўйлама.  
Карвонларга ортилган  
Сандиқларни ўйлама.

Бизга насиб қилмади  
Биз тўлатган сандиқлар.  
Қолди дардманд юраг-у,  
Кўкракдаги чандиқлар.

Азоб берса чандиқлар,  
Инграгаймиз биз ҳамон.  
Минг шукурки,  
Ўртада  
Омон қолди тегирмон.

Омон қолди мағрур бош,  
Танда — чайир жонимиз.  
Айнимаса бас, дўстим,  
Келажакда қонимиз...

1978

• • •

«Хайр» дединг,  
демак қайтишинг мумкин.  
Кейин яна ўша гаплар:  
алдоқчи янгиликлар,  
бачкана орзулар,  
тутруксиз хотиралар...

Кел, ҳар эҳтимолга қарши  
видолашайлик.

1978

Tili o'zga g'animlar  
Uyimizni titishdi.  
Faqat Vatan ishqini  
O'g'irlolmay ketishdi.

Qo'y, sen eski kin bilan  
To'rt tomonga bo'ylama.  
Karvonlarga ortilgan  
Sandiqlarni o'ylama.

Bizga nasib qilmadi  
Biz to'latgan sandiqlar.  
Qoldi dardmand yurag-u,  
Ko'krakdagi chandiqlar.

Azob bersa chandiqlar,  
Inragaymiz biz hamon.  
Ming shukurki,  
O'rtada  
Omon qoldi tegirmon.

Omon qoldi mag'rur bosh,  
Tanda — chayir jonimiz.  
Aynimasa bas, do'stim,  
Kelajakda qonimiz...

1978

• • •

«Xayr» deding,  
demak qaytishing mumkin.  
Keyin yana o'sha gaplar:  
aldoqchi yangiliklar,  
bachkana orzular,  
tutruqsiz xotiralar...

Kel, har ehtimolga qarshi  
vidolashaylik.

1978

\* \* \*

Эландим,  
йиғладим ётиб пойингда.  
Нон ўпиб  
онт ичдим,  
ваъдалар бердим...

Алданмадинг.

1980

\* \* \*

Кўзингни юм,  
қулоқни беркит,  
аклингни тўмтоқла,  
тилни калта қил...

Энди яшайвер!

1980

## **ҲАЗАЛ ШАҚЛИДАГИ ШЕЪРЛАР**

Бокмади булбулга гул, билмаски сўлгай эртага,  
Ёр, бу кун мангу дема, албатта келгай «эртага».

Не ажаб осуда кўнглим бўлса хун қўргач сени,  
Гар бугун дардсиз камиш, йиғлар бўлиб най эртага.

Чирпирай тегрангда доим, доимо ёнимда бўл,  
Балки бу сайроқ онин топмайди тўрғай эртага.

Лабларинг биллур қадахдир, унда лим қирмиз шароб,  
Тут менга зор айламай, йўкса тўкилгай эртага.

Тунлари юлдуз бўлиб имлайди имлок кўзларинг,  
Кўркаман, кутсам бу кеч, тургайми сўнмай эртага.

Куйлади мадхнингги шоир, бир умр куйлар яна,  
Бевафо мактаб бугун, холинга қулгай эртага.

1972

\* \* \*

Elandim,  
yig'ladim yotib poyingda.  
Non o'pib  
ont ichdim,  
va'dalar berdim...

Aldanmading.

1980

\* \* \*

Ko'zingni yum,  
quloqni berkit,  
aqlingni to'mtoqla,  
tilni kalta qil...

Endi yashayver!

1980

## **G'AZAL SHAKLIDAGI SHE'RLAR**

Boqmadi bulbulga gul, bilmaski so'lgay ertaga,  
Yor, bu kun mangu dema, albatta kelgay «ertaga».

Ne ajab osuda ko'nglim bo'lsa xun ko'rgach seni,  
Gar bugun dardsiz qamish, yig'lar bo'lib nay ertaga.


Chirpiray tegrangda doim, doimo yonimda bo'l,  
Balki bu sayroq onin topmaydi to'rg'ay ertaga.

Lablaring billur qadahdir, unda lim qirmiz sharob,  
Tut menga zor aylamay, yo'qsa to'kilgay ertaga.

Tunlari yulduz bo'lib imlaydi imloq ko'zlaring,  
Qo'rqaman, kutsam bu kech, turgaymi so'nmay ertaga.

Kuyladi madhingni shoir, bir umr kuylar yana,  
Bevafo maqtab bugun, holingga kulgay ertaga.

1972



\* \* \*

Шодлигим учди қўлдан, ғамгин эрурман токай,  
Замин узра бахтим излаб чарх урурман токай?

О фалак, раҳм айлабон қўнглимни боғ этсанг нетар,  
Барқ урган олам ичра сўлгин турурман токай?

Тунд дилим ширинсухан дилбардан топмай нишон,  
Ширин орзулар бирла сухбат қурурман токай?

Эй, бахтим юлдузлари, порланг зухродан ёрқин,  
Икки кўзим осмонда шафкат сўрурман токай?

Ким берур завқимни қайтиб, билмадим қайдин бу ғам,  
Бошга тушгани, тақдир, сендан кўрурман токай?

Химматингдан ноумид бир Мажнунингман, ё Оллох,  
Лайлидан жаннат тилаб телба юрурман токай?

1968

\* \* \*


Шайтон деди  
Бахслашиб бирдан:  
«Ишқ оташин кўш-чи конингта!»  
Севги боғин панжарасидан  
Ошиб тушдим шунда ёнингга.

Қочма, гулрў,  
Тутиб оламан,  
Энди йўлим тўсолмас биров.  
Васлингни ҳам ютиб оламан,  
Шайтон билан ўйнасам гаров.

1973

\* \* \*

Ўтаётиб,  
Бағрим куйиб  
Деразанга бўйлайман.  
Мажнуитолни қучиб,



\* \* \*

Shodligim uchdi qo'ldan, g'amgin erurman tokay,  
Zamin uzra baxtim izlab charx ururman tokay?

O falak, rahm aylabon ko'nglimni bog' etsang netar,  
Barq urgan olam ichra so'lg'in tururman tokay?

Tund dilim shirinsuxan dilbardan topmay nishon,  
Shirin orzular birla subhat qururman tokay?

Ey, baxtim yulduzlari, porlang zuhrodan yorqin,  
Ikki ko'zim osmonda shafqat so'rurman tokay?

Kim berur zavqimni qaytib, bilmadim qaydin bu g'am,  
Boshga tushganni, taqdir, sendan ko'rurman tokay?

Himimatingdan noumid bir Majnuningman, yo Olloh,  
Laylidan jannat tilab telba yururman tokay?

1968

\* \* \*


Shayton dedi  
Bahslashib birdan:  
«Ishq otashin qo'sh-chi qoningga!»  
Sevgi bog'in panjarasidan  
Oshib tushdim shunda yoningga.

Qochma, gulro',  
Tutib olaman,  
Endi yo'lim to'solmas birovi.  
Vaslingni ham yutib olaman,  
Shayton bilan o'ynasam garov.

1973

\* \* \*

O'tayotib,  
Baq'rim kuyib  
Derazangga bo'ylayman.  
Majnuntolni quchib,



Унга  
Дардларимни сўйлайман.

Новдаларни эмас,  
Кошки  
Сочларингни ўйнасам.  
Раҳмим келар  
Уйда ёлғиз  
Ётганингни ўйласам.

1981

\* \* \*

Бўсаларни соғиниб,  
Жононларни ўйладик.  
Мангуликка сифиниб,  
Она юртни куйладик.

Шунча шавкнинг барини  
Бахам кўрдик биз бирга...  
Кел, берайлик ярмини  
Шўрлик Усмон Носирга.

1978

### **КЕТМАГИЛ**

Кетмагил,  
Дилбарим,  
Кўкда ой тўлар,  
Бу кун у кўнглимиз сингари ярим.<sup>1</sup>  
Чакинлар чакнагай, қалдиروق кулар,  
Толеим бахорин кутгил, дилбарим,  
Кетмагил.

Кетмагил,  
Париваш  
Рухим тангриси,  
Биламан, поёнсиз эмасдир бу дашт.  
Биламан, азбодир уфқдан париси,



Unga  
Dardlarimni so'ylayman.

Novdalarni emas,  
Koshki  
Sochlaringni o'ynasam.  
Rahmim kelar  
Uyda yolg'iz  
Yotganingni o'ylasam.

1981

\* \* \*

Bo'salarni sog'inib,  
Jononlarni o'yladik.  
Mangulikka sig'inib,  
Ona yurtni kuyladik.

Shuncha shavqning barini  
Baham ko'rdik biz birga...  
Kel, beraylik yarmini  
Sho'rlik Usmon Nosirga.

1978

### **KETMAGIL**

Ketmagil,  
Dilbarim,  
Ko'kda oy to'lar,  
Bu kun u ko'nglimiz singari yarim.<sup>1</sup>  
Chaqinlar chaqnagay, qaldiraq kular,  
Toleim bahorin kutgil, dilbarim,  
Ketmagil.

Ketmagil,  
Parivash  
Ruhim tangrisi,  
Bilaman, poyonsiz emasdir bu dasht.  
Bilaman, zebodir ufqdan narisi,

---

<sup>1</sup> Tursunov Sodiqova iborasi

Ҳазрати Саботга сифин, париваш,  
Кетмагил.

Кетмагил,  
Бокирам,  
Ҳўнграб ол пинҳон,  
Уйғонай селгигач ёстиғингдан нам.  
Агар мен йиғласам, кўздан оқар қон,  
Йиғлатма. Қон тўкиш шартми, бокирам?  
Кетмагил.

Кетмагил,  
Севгилим,  
Ҳолимга тушун,  
Ўзликдан чекинмоқ — иснодли ўлим.  
Қаршингда тураркан беҳисоб тугун,  
Савол бермай яшаш қийин, севгилим,  
Кетмагил.


Кетмагил,  
Боқийдир  
Эътикод, кураш,  
Булардан жудо қалб ҳувиллоқ уйдир.  
О, яна йиғими? Бўлма беҳуд гаш...  
Изтироб, ўқинч ҳам балки боқийдир...  
Кетмагил.

Кетмагил,  
Йиғлоғим,  
Ўтар бу дамлар,  
Имоним олдида йўқдир гуноҳим.  
Биз учун тангридир яхши одамлар,  
Улардан қарам қут, қутгил, йиғлоғим,  
Кетмагил.

1977

• • •

Тўлишибсан,  
Атиргул,  
Деразамнинг енида.  
Туида ёлғиз турмагил,  
Берирок кел, жонидан.



Hazrati Sabotga sig'in, parivash,  
Ketmagil.

Ketmagil,  
Bokiram,  
Ho'ngrab ol pinhon,  
Uyg'onay selgigach yostig'ingdan nam.  
Agar men yig'lasam, ko'zdan oqar qon,  
Yig'latma. Qon to'kish shartmi, bokiram?  
Ketmagil.

Ketmagil,  
Sevgilim,  
Holimga tushun,  
O'zlikdan chekinmoq – isnodli o'lim.  
Qarshingda turarkan behisob tugun,  
Savol bermay yashash qiyin, sevgilim,  
Ketmagil.

Ketmagil,  
Boqiydir  
E'tiqod, kurash,  
Bulardan judo qalb huvilloq uydur.  
O, yana yig'imi? Bo'lma behud g'ash...  
Iztirob, o'kinch ham balki boqiydir...  
Ketmagil.

Ketmagil,  
Yig'log'im,  
O'tar bu damlar,  
Imonim oldida yo'qdir gunohim.  
Biz uchun tangridir yaxshi odamlar,  
Ulardan karam kut, kutgil, yig'log'im,  
Ketmagil.

1977

...

To'lishibsan,  
Atirgul,  
Derazamning yonida.  
Tunda yolg'iz turmagil,  
Beriroq kel, jonidan.

Иккиланма, келавер,  
Тиканингдан қўркмайман.  
... Э, худойим,  
Эсимдан —  
Ажраганга ўхшайман!

1974

\* \* \*

Кўзларинг маст,  
Кокилинг шодон,  
Гап бошладинг дилкаш, меҳрибон.  
Ўзни бунча тутяпсан якин...  
Эрга теккан бўлмагин тагин?!

1978

## **АБДУСАЛОМНИНГ НАДОМАТИ**

Худо урган шайтонман гохи,  
Гохи — дуо теккан фаришта.  
Хулким ҳақда сўз кетган чоғи,  
Ўлчанар у  
Хар хил қаричда.

Биров айтар:  
«Танийман сал-пал,  
Кўча-кўйда ўрмалар синох.  
Бу тоифа тулкилар азал  
Қилар фақат хилватда гуноҳ».

Бошқаси дер:  
«Кўрганман тўйда,  
Қўйган экан ўзига бино.  
Кўп фалсафа сотди беҳуда,  
Ичиб менинг шишамдан вино».

Қариялар сўйлайди фақат  
Таъзим қилиб ёкканлигимдан.

Ikkilanma, kelaver,  
Tikaningdan qo'rqmayman.  
... E, xudoyim,  
Esimdan —  
Ajraganga o'xshayman!

1974

\* \* \*

Ko'zlaring mast,  
Kokiling shodon,  
Gap boshlading dilkash, mehribon.  
O'zni buncha tutyapsan yaqin...  
Erga tekkan bo'lmagin tag'in?!

1978

### ***ABDUSALOMNING NADOMATI***

Xudo urgan shaytonman gohi,  
Gohi — duo tekkan farishta.  
Xulqim haqda so'z ketgan chog'i,  
O'lchanar u  
Har xil qarichda.

Birov aytar:  
«Taniyman sal-pal,  
Ko'cha-ko'yda o'rmalar sipoh.  
Bu toifa tulkilar azal  
Qilar faqat xilvatda gunoh».

Boshqasi der:  
«Ko'rganman to'yda,  
Qo'ygan ekan o'ziga bino.  
Ko'p falsafa sotdi behuda,  
Ichib mening shishamdan vino».

Qariyalar so'ylaydi faqat  
Ta'zim qilib yoqqanligimdan.



Ичда ўйлар:  
«Бу — бир далолат  
Охиратдан қўрққанлигидан».

Гўзаллар дер,  
Четга юз буриб:  
«Ёмон йнгит эмас, албатта.  
Аммо суҳбат қизимай туриб,  
Қўлдан туйқус торткилар шартта...»

Афсус,  
Ким ҳам беролгай сўзлаб  
Конимда дард гупуришидан.  
Қалбим ҳар кун мўъжиза излаб,  
Оддий кунга тупуришидан.

Дўсту душман гапирар нукул  
Китобхўр ё нотиклигимни.  
Эслашмайди  
Ушалмаган ул —  
Орзуларга содиклигимни.

Бу дунёдан юмар бўлсам кўз,  
Тўкиманглар менга қасида.  
Айтолмайсиз бирон одил сўз  
На хулким,  
На кўнглим хақида.

1975

\* \* \*

Хотинни «киш-киш»лайман:  
— Кўп сайрама, кушанда!  
Сал қут...  
Бўлмама кашанда,  
Ичишнияма ташлайман.  
Хатто тилни гуниг тийиб,  
Шеър ёзмасман,  
Кўрасан.  
... Мени эслаб юрасан  
Сен ўшанда кўк кийиб.

1973

Ichda o'ylar:  
«Bu – bir dalolat  
Oxiratdan qo'rqanligidan».

Go'zallar der,  
Chetga yuz burib:  
«Yomon yigit emas, albatta.  
Ammo suhbat qizimay turib,  
Qo'ldan tuyqus tortqilar shartta...»

Afsus,  
Kim ham berolgay so'zlab  
Qonimda dard gupurishidan.  
Qalbim har kun mo'jiza izlab,  
Oddiy kunga tupurishidan.

Do'st-u dushman gapirar nuqul  
Kitobxo'r yo notiqligimni.  
Eslashmaydi  
Ushalmagan ul –  
Orzularga sodiqligimni.

Bu dunyodan yumar bo'lsam ko'z,  
To'qimanglar menga qasida.  
Aytolmaysiz biron odil so'z  
Na xulqim,  
Na ko'nglim haqida.

1975

\*\*\*

Xotinni «kish-kish» layman:  
Ko'p sayrama, kushanda!  
Sal kut...  
Bo'lmam kashanda,  
Ichishniyam tashlayman.  
Hatto tilni gung tiyib,  
She'r yozmasman,  
Ko'rasan.  
... Meni eslab yurasan  
Sen o'shanda ko'k kiyib.

1973

\* \* \*

Деразамга чойшаб ёпар тун,  
Юлдуз ухлар, кўзларим бедор.  
Тамакидан ўрмалаб тутун,  
Чексизликка тирмашади зор.

Уйда менга гўё недир кам,  
Ортикчаман ёки уйимда.  
Хаёлимда сахий бир санам  
Имлар мени юпка кийимда.

1978

\* \* \*

Қалбим эриб гўё мой,  
Ширин хисга кўмилди.  
Қип яланғоч бўлиб ой  
Булутларда чўмилди.

Борай десам ушбу кеч,  
Олисдадир ватани...  
Кўз олдимдан кетмас ҳеч  
Унинг оппоқ бадани.

1977

\* \* \*

Ишқда жой йўқ «сиёсий тус»га,  
Ишқ — тугал ноижтимоий дид.  
Сукланар бир пионер қизга  
Комсомолдан хайдалган йигит.<sup>1</sup>

1978

\* \* \*

Сизда пул бор,  
Мансаб, шуҳрат бор,  
Сизни не-не ишрат кутади.  
Болакайга хурмо беринглар,  
Бечорага шу ҳам етади.

---

<sup>1</sup> Эски тусумда мактабларда пионерлар ва комсомолларнинг сиёсийлашган танкидоти бўларди.



\* \* \*

Derazamga choyshab yopar tun,  
Yulduz uxlar, ko'zlarim bedor.  
Tamakidan o'rmalab tutun,  
Cheksizlikka tirmashadi zor.

Uyda menga go'yo nedir kam,  
Ortiqchaman yoki uyimda.  
Xayolimda saxiy bir sanam  
Imlar meni yupqa kiyimda.

1978

\* \* \*

Qalbim erib go'yo moy,  
Shirin hisga ko'mildi.  
Qip yalang'och bo'lib oy  
Bulutlarda cho'mildi.

Boray desam ushbu kech,  
Olisdadir vatani...  
Ko'z oldimdan ketmas hech  
Uning oppoq badani.

1977

\* \* \*

Ishqda joy yo'q «siyosiy tus»ga,  
Ishq – tugal noijtimoiy did.  
Suqlanar bir pioner qizga  
Komsomoldan haydalgan yigit.<sup>1</sup>

1978

\* \* \*

Sizda pul bor,  
Mansab, shuhrat bor,  
Sizni ne-ne ishrat kutadi.  
Bolakayga xurmo beringlar,  
Bechoraga shu ham yetadi.

---

<sup>1</sup> Eski tuzumda maktablarda pionerlar va komsomollarning siyosiylashgan tashkiloti bo'lardi.

Бир бор  
Сахий хурмочи бўлиб,  
Кулиб бокинг бола кўзига.  
Сўнг, хурмони қандай ейишни  
Қўйиб беринг унинг ўзига.

1977

\* \* \*

Бахт тилайман юнонга,  
Камол топсин араблар.  
Форс яшнасин...  
Кенгфеъллик,  
Тотувликка шарафлар!

Омад ёғсин мўғулга,  
Руснинг дони тоғ бўлсин...  
Энг аввало  
Ҳар бири  
Ўз уйида соғ бўлсин.

1978

## **ҚИЗИЛ ДЕНГИЗ**

Кемам ёлғиз шикорга чиқиб,  
Борар жулдур тўрларин судраб.  
Маъданларни қўйнига тикиб,  
Очкўз денгиз ётибди мудраб.

Шунча ганжлар камми?  
Гувланиб —  
Сапчиб кўрар гохи кирғокка.  
Босқинларга зимдан шайланиб,  
Тил чўзмокчи бўлар йирокка.

Йўл тополмай чекинар мулзам,  
Яна ўзин кўрсатар лоҳас...  
Сен кирғокда турволиб, укам,  
Тўлкинларга бокаверма маст.

Майли, тан бер, хайбати ажиб,  
Жилваларга алданма факат.

Bir bor  
Saxiy xurmochi bo'lib,  
Kulib boqing bola ko'ziga.  
So'ng, xurmoni qanday yeyishni  
Qo'yib bering uning o'ziga.

1977

\* \* \*

Baxt tilayman yunonga,  
Kamol topsin arablar.  
Fors yashnasin...  
Kengfe'llik,  
Totuvlikka sharaflar!

Omad yog'sin mo'g'ulga,  
Rusning doni tog' bo'lsin...  
Eng avvalo  
Har biri  
O'z uyida sog' bo'lsin.

1978

## **QIZIL DENGIZ**

Kemam yolg'iz shikorga chiqib,  
Borar juldur to'rlarin sudrab.  
Ma'danlarni qo'yniga tiqib,  
Ochko'z dengiz yotibdi mudrab.

Shuncha ganjar kammi?  
Guvlanib --  
Sapchib ko'rar gohi qirg'oqqa.  
Bosqinlarga zimdan shaylanib,  
Til cho'zmoqchi bo'lar yiroqqa.

Yo'l topolmay chekinar mulzam,  
Yana o'zin ko'rsatar lohas...  
Sen qirg'oqda turvolib, ukam,  
To'lqinlarga boqaverma mast.

Mayli, tan ber, haybati ajib,  
Jilvalarga aldanma faqat.



Бу жилвалар тагида сасиб,  
Сузиб юрар саркит ва ахлат.

Нопокликдан буриб бир кун юз,  
Бошқа йўлдан оқар ирмоқлар.  
Саёзланар шунда кир денгиз,  
Пайдо бўлар янги кирғоқлар.

1977

## **АЛИ БОБО ҲАҚИДА ҚЎШИҚ**

Али бобо,  
Али бобо,  
Бу оламда омад бордир хали, бобо.  
Омад қуши яхшиларни излайверсин,  
Ёмонга ҳам қўниб гоҳи қилар хато,  
Қилар хато!


Али бобо,  
Али бобо,  
Ғарибнинг ҳам келди мана гали, бобо.  
Ғариб зоти ортиб қолган кулчасини  
Ўзи каби бечорага қўрар раво,  
Қўрар раво!

Али бобо,  
Али бобо,  
Кўркмай кирдинг ёвуз ғорга, балли, бобо.  
Олтинларни қутқаролдинг моғор жойдан,  
Уларга ҳам керак ахир тоза хаво,  
Тоза хаво!..

1982

## **ҲАЗИЛ**

Навоийга ўхшаш-чун  
Патдан қалам йўндирдим.  
Чопон кийдим сал узун,  
Бошга салла кўндирдим.  
Сотиб олдим бир жуфт шам,  
Вазирбон нар ёстикча...



Bu jilvalar tagida sasib,  
Suzib yurar sarqit va axlat.

Nopoklikdan burib bir kun yuz,  
Boshqa yo'ldan oqar irmoqlar.  
Sayozlanar shunda kir dengiz,  
Paydo bo'lar yangi qirg'oqlar.

1977

## **ALI BOBO HAQIDA QO'SHIQ**

Ali bobo,  
Ali bobo,  
Bu olamda omad bordir hali, bobo.  
Omad qushi yaxshilarni izlayversin,  
Yomonga ham qo'nib gohi qilar xato,  
Qilar xato!

Ali bobo,  
Ali bobo,  
G'aribning ham keldi mana gali, bobo.  
G'arib zoti ortib qolgan kulchasini  
O'zi kabi bechoraga ko'rar ravo,  
Ko'rar ravo!

Ali bobo,  
Ali bobo,  
Qo'rqmay kirding yovuz g'orga, balli, bobo.  
Oltinlarni qutqarolding mog'or joydan,  
Ularga ham kerak axir toza havo,  
Toza havo!..

1982

## **HAZIL**

Navoiyga o'xshash-chun  
Patdan qalam yo'ndirdim.  
Chopon kiydim sal uzun,  
Boshga salla qo'ndirdim.  
Sotib oldim bir juft sham,  
Vazirbop par yostiqcha...



Энди фақат талант кам  
Ва... хотиним ортикча.

1974

\* \* \*

Чўкиб кетди, дўстлар, бир пари,  
Чўкиб кетди бенола, беғам.  
Қалбимга фарқ бўлди кўзлари,  
Нозларию ишвалари ҳам.

Пари чўкди...  
Қутқаринг мени!

1978

\* \* \*

Мен худо эмасман,  
Менга барибир,  
Шарт эмас қаршимда бермоғинг жавоб.  
Ўзим васл жаннатин тиланиб ахир,  
Ишқ деган дўзахда чекапман азоб.

Балки кўп дилларга бергандирсан зеб,  
Аввалги гуноҳлар ўзинг билган сир.  
Ишонтир яхшиси фариштаман деб,  
Мен худо эмасман,  
Менга барибир.

1974

\* \* \*

Бир зум мени тинч қўй, паризод,  
Зардангми кўз чийраб боқишинг?  
Чорлаган он бағрига ижод,  
Йўқотгайдир файзин оғушинг,  
Бир зум мени тинч қўй, паризод.

Жўр бўлолмай халин созимга,  
Чектирасан тоҳ баттар захмат.  
Бу мисралар юрак розимга  
Қилган эмас ҳеч вақт хиёнат,  
Бир зум мени тинч қўй, паризод.

Endi faqat talant kam  
Va... xotinim ortiqcha.

1974

\* \* \*

Cho'kib ketdi, do'stlar, bir pari,  
Cho'kib ketdi benola, beg'am.  
Qalbimga g'arq bo'ldi ko'zlari,  
Nozlari-yu ishvalari ham.

Pari cho'kdi...  
Qutqaring meni!

1978

\* \* \*

Men xudo emasman,  
Menga baribir,  
Shart emas qarshimda bermog'ing javob.  
O'zim vasl jannatin tilanib axir,  
Ishq degan do'zaxda chekyapman azob.

Balki ko'p dillarga bergandirsan zeb,  
Avvalgi gunohlar o'zing bilgan sir.  
Ishontir yaxshisi farishtaman deb,  
Men xudo emasman,  
Menga baribir.

1974

\* \* \*

Bir zum meni tinch qo'y, parizod,  
Zardangmi ko'z chiyrab boqishing?  
Chorlagan on bag'riga ijod,  
Yo'qotgaydir fayzin og'ushing,  
Bir zum meni tinch qo'y, parizod.

Jo'r bo'lolmay hazin sozimga,  
Chektirasan goh battar zahmat.  
Bu misralar yurak rozimga  
Qilgan emas hech vaqt xiyonat.  
Bir zum meni tinch qo'y, parizod.



Қабул айлар илҳом париси  
Хар қандайин офир шартимни.  
Сезиб-сезмай хали ярмисин,  
Сен офатга йўйдинг дардимни...  
Бир зум мени тинч қўй, паризод.

1974

\* \* \*

Кўриб қўйдим умримда  
Қанча қаламқошларни.  
Қанча ёлғон қулги-ю,  
Қалбаки кўзёшларни.

Билдим — сохта ҳаммаси,  
Барчаси бир дақиқий.  
Фақатгина хотиним —  
Туккан ўғил хақиқий!

1981

\* \* \*


Ширин сўйлаб тилингдан бол —  
Хайр қилсанг, савоб бўлгай.  
Гадойингга пича иқбол —  
Хайр қилсанг, савоб бўлгай.

Жамолингдан тиниқ биллур,  
Вужудингдан илохий нур,  
Табассум-ла тишингдан дур —  
Хайр қилсанг, савоб бўлгай.

Қучоғингдан илик қулба,  
Дудоғингдан шақар-холва,  
Ёноғингдан қизил олма —  
Хайр қилсанг, савоб бўлгай.

Кўзингдан тонг, қошингдан шом,  
Сочингдан бир заволсиз дом,  
Висолингдан ёниқ илҳом —  
Хайр қилсанг, савоб бўлгай.

1978





Qabul aylar ilhom parisi  
Har qandayin og'ir shartimni.  
Sezib-sezmay hali yarmisin,  
Sen ofatga yo'yding dardimni...  
Bir zum meni tinch qo'y, parizod.  
1974

\* \* \*

Ko'rib qo'ydim umrimda  
Qancha qalamqoshlarni.  
Qancha yolg'on kulgi-yu,  
Qalbaki ko'zyoshlarni.

Bildim – soxta hammasi,  
Barchasi bir daqiqiy.  
Faqatgina xotinim –  
Tuqqan o'g'il haqiqiy!  
1981

\* \* \*

Shirin so'ylab tilingdan bol --  
Xayr qilsang, savob bo'lgay.  
Gadoyingga picha iqbol --  
Xayr qilsang, savob bo'lgay.

Jamolingdan tiniq billur,  
Vujudingdan ilohiy nur,  
Tabassum-la tishingdan dur --  
Xayr qilsang, savob bo'lgay.

Quchog'ingdan iliq kulba,  
Dudog'ingdan shakar-holva,  
Yonog'ingdan qizil olma  
Xayr qilsang, savob bo'lgay.

Ko'zingdan tong, qoshingdan shom,  
Sochingdan bir zavolsiz dom,  
Visolingdan yoniq ilhom  
Xayr qilsang, savob bo'lgay.

1978

\* \* \*

Нодонларга арзим йўқ менинг,  
Сўздан маъно термайди улар.  
Номардлардан қарзим йўқ менинг,  
Сўрасанг хам бермайди улар.

Она юртим, сенга арзим бор,  
Ҳақ сўз айтсам, бўлгил мен томон.  
Онажоним, сендан қарзим бор,  
У — вужудим, танамдаги жон.

1972

\* \* \*

Расво бўлган номус-ор учун,  
Жангда ўлган дўст учун йиғланг.  
Ёв топтаган гул диёр учун,  
Такиқланган сўз учун йиғланг.

Қолган дардлар — чархнинг хазили.


1979

## ЎФИЛ

Тоб ташлаган йиғлок эшикни  
Астагина очинг, аяжон.  
Кусагандай мунгли кўшикни,  
Дуонгизни соғиндим чунон.

Фотихага кўлни очган дам,  
Тилардингиз менга бахт-файз.  
Дер эдингиз: «Улғайиб, болам,  
Бўлақолгин колхозга раис».

Афсус, телба кўнгилнинг майли  
Таслим этди жуссамни жангсиз.  
Шоирликка даъвом туфайли  
Барбод бўлди «буюк режа»нгиз.



\* \* \*

Nodonlarga arzim yo'q mening,  
So'zdan ma'no' termaydi ular.  
Nomardlardan qarzim yo'q mening,  
So'rasang ham bermaydi ular.

Ona yurtim, senga arzim bor,  
Haq so'z aytsam, bo'lgil men tomon.  
Onajonim, sendan qarzim bor,  
U — vujudim, tanamdagi jon.

1972

\* \* \*

Rasvo bo'lgan nomus-or uchun,  
Jangda o'lgan do'st uchun yig'lang.  
Yov toptagan gul diyor uchun,  
Taqiqlangan so'z uchun yig'lang.

Qolgan dardlar — charxning hazili.


1979

## O'G'IL

Tob tashlagan yig'loq eshikni  
Astagina oching, ayajon.  
Kusaganday mungli qo'shiqni,  
Duongizni sog'indim chunon.

Fotihaga qo'lni ochgan dam,  
Tilardingiz menga baxt-fayz.  
Der edingiz: «Ulg'ayib, bolam,  
Bo'laqolgin kolxozga rais».

Afsus, telba ko'ngilning mayli  
Taslim etdi jussamni jangsiz.  
Shoirlikka da'vom tufayli  
Barbod bo'ldi «buyuk reja»ngiz.



Раис бўлсам, қийиқни танғиб,  
Ёнингизга қайтардим ҳар кеч.  
Дом-дараксиз кетмасдим санғиб,  
Хатимга зор бўлмасдингиз ҳеч...

Мана, келдим бугун соғ-омон,  
Енгга артиб манглай теримни.  
Тошкентда хўп кездим саргардон,  
Ноширларга мактаб шеъримни.

Сесканмадим турса ёт кўча,  
Жирканмадим ўзга болишдан.  
Фақат қўрқдим гоҳида пича  
Сизни кўрмай ўлиб қолишдан.

Ахир ҳар гал тунд бокса ношир,  
Вужудимда дилдирарди жон.  
Туюларди бошим ҳам оғир...  
Бошгинамни силанг, аяжон.

Майли, юзим сийпалаган чок  
Тимдаласин қадок қўлингиз.  
... Эҳ, билмайсиз, бу қўлни нечоғ  
Севишлигин ношуд ўғлингиз.


1978

\* \* \*

Тун қўйнида буғдойзор гўё –  
Асов денгиз,  
Тинсиз чайқалар.  
Кўкда ғуж-ғуж юлдузларми, ё  
Кўлда сузар тўп-тўп чағалай?

Тун қўйнида буғдойзор уйғок,  
Уфқда ёғду сочган ой, дема.  
У – ё дехкон йўқотган ўрок,  
Ё денгизда  
Адашган кема.

1973



Rais bo'lsam, qiyiqni tang'ib,  
Yoningizga qaytardim har kech.  
Dom-daraksiz ketmasdim sang'ib,  
Xatimga zor bo'lmasdingiz hech...

Mana, keldim bugun sog'-omon,  
Yengga artib manglay terimni.  
Toshkentda xo'p kezdin sargardon,  
Noshirlarga maqtab she'rimni.

Seskanmadim tursa yot ko'cha,  
Jirkanmadim o'zga bolishdan.  
Faqat qo'rqdim gohida picha  
Sizni ko'rmay o'lib qolishdan.

Axir har gal tund boqsa noshir,  
Vujudimda dildirardi jon.  
Tuyulardi boshim ham og'ir...  
Boshginamni silang, ayajon.

Mayli, yuzim siypalagan choq  
Timdallasin qadoq qo'lingiz.  
... Eh, bilmaysiz, bu qo'lni nechog'  
Sevishligin noshud o'g'lingiz.

1978

• • •

Tun qo'ynida bug'doyzor go'yo --  
Asov dengiz,  
Tinsiz chayqalar.  
Ko'kda g'uj-g'uj yulduzlarmi, yo --  
Ko'lda suzar to'p-to'p chag'alay?

Tun qo'ynida bug'doyzor uyg'oq,  
Ufqda yog'du sochgan oy, dema.  
U yo dehqon yo'qotgan o'roq,  
Yo dengizda  
Adashgan kema.

1973



\* \* \*

— Хей, отаси, сўкманг бекорга,  
Ўғлингизнинг жойида эси.  
Отилмасди асов анхорга,  
Чўкмасликка етмаса кўзи...  
    Майли, ўйнаб кулсин бургутча!

— Отанга тик боқма, болакай,  
Биламан, ғирт қайсарсан азал.  
Биламан, ҳеч ўйлаб ўтирмай,  
Отилгансан сувга таваккал...  
    Умринг узок бўлсин, бургутча!

1977

\* \* \*

Кўп азият тортасан,  
Меҳрибоним, бечорам.  
Афсус, жуда солдасан,  
Меҳрибоним, бечорам.


Менга аён тилагинг:  
Бўлмоқчисан тирагим,  
Меҳринг ўзи — кўмагинг,  
Меҳрибоним, бечорам.

Тушунмайсан, кизгина,  
Хар қадамда кин, гина,  
Гул деганинг гоҳ игна,  
Меҳрибоним, бечорам.

Гарчи волиб — адолат,  
Майдонда бор адоват,  
Йиртқичдир кир рақобат,  
Меҳрибоним, бечорам.

Хаклик снгар ўлимни  
Ва ёритгай йўлимни...  
Маҳкам ушла кўлимни,  
Меҳрибоним, бечорам.

1976



\* \* \*

— Hey, otasi, so'kmang bekorga,  
O'g'lingizning joyida esi.  
Otilmasdi asov anhorga,  
Cho'kmaslikka yetmasa ko'zi...  
    Mayli, o'ynab kulsin burgutcha!

— Otangga tik boqma, bolakay,  
Bilaman, g'irt qaysarsan azal.  
Bilaman, hech o'ylab o'tirmay,  
Otilgansan suvga tavakkal...  
    Umring uzoq bo'lsin, burgutcha!

1977

\* \* \*

Ko'p aziyat tortasan,  
Mehribonim, bechoram.  
Afsus, juda soddasan,  
Mehribonim, bechoram.


Menga ayon tilaging:  
Bo'lmoqchisan tiragim,  
Mehring o'zi — ko'maging,  
Mehribonim, bechoram.

Tushunmaysan, qizgina,  
Har qadamda kin, gina.  
Gul deganing goh igna,  
Mehribonim, bechoram.

Garchi g'olib — adolat,  
Maydonda bor adovat,  
Yirtqichdir kir raqobat,  
Mehribonim, bechoram.

Haqlik yengar o'limni  
Va yoritgay yo'limni...  
Mahkam ushla qo'limni,  
Mehribonim, bechoram.

1976



\* \* \*

Кечир,  
Бебош нигоҳим —  
Минг лобарга қадалар.  
Минг лобарнинг тирноғи  
Шоир жонин таталар.

Капалакдек гар мастман,  
Қўнмалаб минг малакка;  
Дардим айтган эмасман,  
Ёрим,  
Сендан бўлакка.

1978

\* \* \*

Гулзорга, боғларга  
Бўйлаб ўтаман.  
Дилим куйган чоғларда  
Куйлаб ўтаман.

Бор шавқимни қизларга  
Қиламан тортик...  
Кампиржонлар, сизларга —  
Тилайман хордик.

1973


\* \* \*

Юр, жоним, тун сайлига,  
Хунук бўлсанг, майлига.  
Биламан,  
Хў гулжамол —  
Бошқалардан ортган бол.

1978

\* \* \*

Ок байталнинг тақаси  
Мухрин босар тупрокқа.  
Чол охирги чакасин  
Тугиб қайтар белбоққа.





\* \* \*

Kechir,  
Bebosh nigohim —  
Ming lobarga qadalar.  
Ming lobarning tirnog'i  
Shoir jonin tatalar.

Kapalakdek gar mastman,  
Qo'nmalab ming malakka;  
Dardim aytgan emasman,  
Yorim,  
Sendan bo'lakka.

1978

\* \* \*

Gulzorga, bog'larga  
Bo'ylab o'taman.  
Dilim kuygan chog'larda  
Kuylab o'taman.

Bor shavqimni qizlarga  
Qilaman tortiq...  
Kampirjonlar, sizlarga —  
Tilayman hordiq.

1973

\* \* \*

Yur, jonim, tun sayliga,  
Xunuk bo'lsang, mayliga.  
Bilaman,  
Ho' guljamol —  
Boshqalardan ortgan bol.

1978

\* \* \*

Oq baytalning taqasi  
Muhri bosar tuproqqa.  
Chol oxirgi chaqasin  
Tugib qaytar belboqqa.

Бозор қилиб қайтар чол,  
Байталини йўрттириб.  
Эгардаги олашол —  
Хуржунини бўрттириб.

Кенг қўнжида ипқамчи,  
Чўнтагида мурч-зира.  
Овул унинг юпанчи,  
Овунчоғи — набира.

Набиранинг ризқидир  
Хуржундаги «қақа»лар.  
Тугамаса бас умр,  
Топилади чақалар.

1979

\* \* \*

Шамол хомуш еляпти,  
Ла-ла-лай...  
Қўшиқ айтгим келяпти,  
Ла-ла-лай...

Мен куйлайман нечун гоҳ?  
Ла-ла-лай...  
Йиғламаслик учун... Ох!  
Ла-ла-лай...


1976

## **ЕСЕНИННИНГ ПОРТРЕТИГА БОҚИБ**

*Севимли устоз Эркин Воҳидовга*

Кел, Сергей,  
Қарз бергил илҳомдан нича,  
Гонорар олган кун эриб тургандай.  
Ахир, сен қабринда жим ётган кеча,  
Арвоҳинг иккимиз бўлиб ичдик май.

Байт «темир йўл»ларини устида қотиб,  
Турибман кўмирсиз паровоз мисол.



Bozor qilib qaytar chol,  
Baytalini yo'rttirib.  
Egardagi olashol —  
Xurjunini bo'rttirib.

Keng qo'njida ipqamchi,  
Cho'ntagida murch-zira.  
Ovul uning yupanchi,  
Ovunchog'i — nabira.

Nabiraning rizqidir  
Xurjundagi «qaqa»lar.  
Tugamasa bas umr,  
Topiladi chaqalar.

1979

\*\*\*

Shamol xomush yelyapti,  
La-la-lay...  
Qo'shiq aytgim kelyapti,  
La-la-lay...

Men kuylayman nechun goh?  
La-la-lay...  
Yig'lamaslik uchun... Oh!  
La-la-lay...


1976

## **YESENINNING PORTRETIGA BOQIB**

*Sevimli ustoz Erkin Vohidovga*

Kel, Sergey,  
Qarz bergil ilhomdan picha,  
Gonorar olgan kun erib turganday.  
Axir, sen qabringda jim yotgan kecha,  
Arvohing ikkimiz bo'lib ichdik may.

Bayt «temir yo'l»larin ustida qotib,  
Turibman ko'mirsiz parovoz misol.



Айт-чи,  
Сен ёзганда «Аёлга мактуб»,  
Чекмоқдан умрингга етганми завол?

Агар мен бу кеча пуфлаган тутун  
Осмонда бир парча булут бўлолса,  
Севгидан орттирган дардларим бир кун —  
Ёмғирга айланиб  
Йиғларди роса.

Сен билган Твернинг кашандалари  
Санғирди кимнингдир чўнтагин кўзлаб.  
Мен бўлсам  
Давримнинг кўрс бандаларин —  
Қалбини тунаш-чун юрибман бўзлаб.


Ўзингга аёндир,  
Қасбимиз оғир,  
Мен буни аниқроқ сезяпман бу кун.  
Гоҳи ўз кўнглимни алдадим ахир,  
Кимнингдир дидига мослашмоқ учун.

Билмадим,  
Таърифлаб беролармидим  
Ғар мендан сўрсалар шоир бурчини?  
Яхшиси, ўйланиб ўтирмай дердим:  
«Ҳаёт — май, шоирнинг юраги — чинни!»

Шу чинни косадап синкориб майни,  
Сархушдил ўртандим неча тун, хех-хей!  
Хўб кечдим илхом деб аталган сойни,  
... Сен эсанг,  
Жимгина ётибсан, Сергей.

Ётибсан Пугачёв ерида сокин,  
Бир вақтлар сен унга битгандинг дoston.  
Торобий юртида юрибман,  
Лекин  
Мен ундан оддий шеър қарздорман ҳамон.

Қафтимга кўнган ғард  
Балки Муқанна,



Ayt-chi,  
Sen yozganda «Ayolga maktub»,  
Chekmoqdan umringga yetganmi zavol?

Agar men bu kecha puflagan tutun  
Osmonda bir parcha bulut bo'lolsa,  
Sevgidan orttirgan dardlarim bir kun –  
Yomg'irga aylanib  
Yig'lardi rosa.

Sen bilgan Tverning kashandalari  
Sang'irdi kimningdir cho'ntagin ko'zlab.  
Men bo'lsam  
Davrimning qo'rs bandalarin –  
Qalbini tunash-chun yuribman bo'zlab.


O'zingga ayondir,  
Kasbimiz og'ir,  
Men buni aniqroq sezyapman bu kun.  
Gohi o'z ko'nglimni aldadim axir,  
Kimningdir didiga moslashmoq uchun.

Bilmadim,  
Ta'riflab berolarmidim  
Gar mendan so'rsalar shoir burchini?  
Yaxshisi, o'ylanib o'tirmay derdim:  
«Hayot – may, shoirning yuragi – chinni!»

Shu chinni kosadan sipqorib mayni,  
Sarxushdil o'rtandim necha tun, heh-hey!  
Xo'b kechdim ilhom deb atalgan soyni,  
... Sen esang,  
Jimgina yotibsan, Sergey.

Yotibsan Pugachov yerida sokin,  
Bir vaqtlar sen unga bitganding doston.  
Torobiy yurtida yuribman,  
Lekin  
Men undan oddiy she'r qarzdorman hamon.

Kaftimga qo'ngan gard  
Balki Muqanna,



Широкдан қолган хў сўқмоқдаги из.  
Парижда туғилмай хали мард Жанна,  
Ёвларга от солган бунда Тўмарис...

Ўпаман бир чимдим боболар ерин,  
Бироқ бу умум уй бугун поёнсиз.  
«Куйлайман дунёнинг олтидан бирин  
Мухтасар ном билан  
Атаб уни Рус!»<sup>1</sup>

Бу кунни сен орзу қилгандинг кеча,  
Менинг ҳам тилагим ушалур шундай.  
... Кел, Сергей,  
Қарз бергил илҳомдан пича,  
Гонорар олган кун эриб тургандай.

1975

## ТУҒЁН

Қўй маъради талпиниб,  
Шаҳд тўпланди кўзига.  
Оёқлари боғланиб,  
Тиғ қадалмиш бўғзига.

Қўй маъради талпиниб,  
Талпинди ўз қавмига.  
Етим кўзи фарёди  
Сингди кўзлар намига.

Қўй маъради талпиниб,  
Туғён эди бу жўшиқ.  
Тиғ ботди-ю, бўлинди –  
Энг авжида дард-қўшиқ...

Қўй питирлар талпиниб,  
Боқар қотган кўз ғовга.  
Арвоҳ бўлиб орзуси  
Чониб борар яйловга.

1977

Shiroqdan qolgan ho' so'qmoqdagi iz.  
Parijda tug'ilmay hali mard Janna,  
Yovlarga ot solgan bunda To'maris...

O'paman bir chimdim bobolar yerin,  
Biroq bu umum uy bugun poyonsiz.  
«Kuylayman dunyoning oltidan birin  
Muxtasar nom bilan  
Atab uni Rus!»'

Bu kunni sen orzu qilganding kecha,  
Mening ham tilagim ushalur shunday.  
... Kel, Sergey,  
Qarz bergil ilhomdan picha,  
Gonorar olgan kun erib turganday.

1975

## **TUG'YON**

Qo'y ma'radi talpinib,  
Shahd to'plandi ko'ziga.  
Oyoqlari bog'lanib,  
Tig' qadalmish bo'g'ziga.

Qo'y ma'radi talpinib,  
Talpindi o'z qavmiga.  
Yetim qo'zi faryodi  
Singdi ko'zlar namiga.

Qo'y ma'radi talpinib,  
Tug'yon edi bu jo'shiq.  
Tig' botdi-yu, bo'lindi  
Eng avjida dard-qo'shiq...

Qo'y pitirlar talpinib,  
Boqar qotgan ko'z g'ovga.  
Arvoh bo'lib orzusi  
Chopib borar yaylovga.

1977

## ИСТИЛОЧИ

Кўнглинг ўзи нима истар,  
Тўғриси айтсанг-чи.  
Керагини олдинг, етар,  
Ўз уйингга қайтсанг-чи.

Аланглайсан олазарак,  
Ортга қайта колмайсан.  
... Сенга менинг ерим керак,  
Очиқ айта олмайсан.

1981

\* \* \*

Ёмонманми?  
О, йўк, оккушим,  
Баъзилардан кўра айбим оз.  
Шўхликка гоҳ мойилдир хушим,  
Гоҳ гапларим аччикрок, холос.

Шеърларимдан завк олиб, нечун —  
Безиллайсиз ўзимдан?  
Ахир —  
Шўх сойда ҳам чўмилмоқ мумкин,  
Кўникканга болдир калампир.


1973

\* \* \*

Умидим — «хўп» деган гап,  
Сизни севиб колганман.  
Бармоғингиз чамалаб,  
Узук сотиб олганман.

«Йўк» десангиз топарман  
Сиздан кўра тузукни...  
Унга қандай такарман  
Сизга олган узукни?

1973





## ISTILOCHI

Ko'ngling o'zi nima istar,  
To'g'risini aytsang-chi.  
Keragini olding, yetar,  
O'z uyingga qaytsang-chi.

Alanglaysan olazarak,  
Ortga qayta qolmaysan.  
... Senga mening yerim kerak,  
Ochiq ayta olmaysan.

1981

\* \* \*

Yomonmanmi?  
O, yo'q, oqqushim,  
Ba'zilardan ko'ra aybim oz.  
Sho'xlikka goh moyildir hushim,  
Goh gaplarim achchiqroq, xolos.

She'rlarimdan zavq olib, nechun –  
Bezillaysiz o'zimdan?  
Axir –  
Sho'x soyda ham cho'milmoq mumkin,  
Ko'nikkanga boldir qalampir.

1973

\* \* \*

Umidim – «xo'p» degan gap,  
Sizni sevib qolganman.  
Barmog'ingiz chamalab,  
Uzuk sotib olganman.

«Yo'q» desangiz toparman  
Sizdan ko'ra tuzukni...  
Unga qanday taqarman  
Sizga olgan uzukni?

1973

\* \* \*

Кўринмасдан юрибсиз атай,  
Дўндиққинам, тўғри қиласиз.  
Ўзингиз ҳам яхши биласиз,  
Сўзлашамиз кўпдан ноқулай.

Агар Сизни кўрмасам бўлак,  
Такдиримга қилардим шукур.  
Илк севгилим тусин бир умр  
Ёш ва гўзал эслашим керак.

1975

\* \* \*

Йўк,  
Кетмасам бўлмайди бугун,  
Қолмади ҳеч сабру токатим.  
Ўша тотли дақиқа учун  
Тангрим мени яратган балким.


Мана,  
Чакмон, телпакни олдим,  
Қўрмагайман совуқдан, дўлдан.  
Лайличамни соғиниб қолдим. .  
Йўлкирага чўзинглар пулдан!

1977

### **МИРАЗИЗ АЪЗАМГА МАКТУБ**

Соғингандим кўришмай узок,  
Хатингизни олдим эрталаб.  
Яна кўпроқ,  
Яна яхшироқ  
Шеър ёзмоғим қилибсиз талаб.

Инжикликни кўрмагайман эн,  
Харкалай,  
Сал раҳм этинг, устоз.  
Ғамхўрим ва меҳрибоним деб,  
Ахир Сизга кўйганман ихлос.



\* \* \*

Ko'rinmasdan yuribsiz atay,  
Do'ndiqqinam, to'g'ri qilasiz.  
O'zingiz ham yaxshi bilasiz,  
So'zlashamiz ko'pdan noqulay.

Agar Sizni ko'rmasam bo'lak,  
Taqdirimga qilardim shukur.  
Ilk sevgilim tusin bir umr  
Yosh va go'zal eslashim kerak.

1975

\* \* \*

Yo'q,  
Ketmasam bo'lmaydi bugun,  
Qolmadi hech sabr-u toqatim.  
O'sha totli daqiqa uchun  
Tangrim meni yaratgan balkim.

Mana,  
Chakmon, telpakni oldim.  
Qo'rqmagayman sovuqdan. do'ldan.  
Laylichamni sog'inib qoldim...  
Yo'lkiraga cho'zinglar puldan!

1977

### **MIRAZIZ A'ZAMGA MAKTUB**

Sog'ingandim ko'rishmay uzoq,  
Xatingizni oldim ertalab.  
Yana ko'proq,  
Yana yaxshiroq  
She'r yozmog'im qilibsiz talab.

Injiqlikni ko'rmagayman ep.  
Harqalay,  
Sal rahm eting, ustoz.  
G'amxo'rim va mehribonim deb,  
Axir Sizga qo'yganman ixlos.

Бир қарашда  
Жуда силлиқ гап  
Кўпроқ ҳамда яхшироқ ёзиш.  
Аслида бу — жуда кам ухлаб,  
Дил дардларин чуқурроқ қазиш.

Биласиз-ку,  
Дардлар тўфонин  
Шеърга солмоқ эмасдир ўйин.  
Баъзиларга кўнгил армонин  
Тушунтирмак ундан ҳам қийин.

Эшитмоқлик гўлдан писанда  
Дахшатлидир сувга чўкишдан.  
Ичгинг келар бундайин дамда,  
Юпанасан ёки чекишдан...

Хуллас, соғман,  
Тинчдир уй, кишлок,  
Сингани йўқ хозирча созим.  
Яна кўпроқ, яна яхшироқ  
Хатлар ёзиб туринг, устозим.

Туйсангиз ҳам исидан хасрат,  
Хидлаб қўйинг шогирд «гули»ни.  
Сизга атаб битдим шеърнй хат  
Ва кутмасман қалам пулини.


1978

## ФУҚАРО

Мақтаниб оит ичмасман,  
Буюк меҳрим зўр қасам.  
Ватанимдан кечмасман,  
Бу элдан-да ажрамам.

Она тилим йўқ эса,  
Шудир менинг ўлганим.  
Хулк-атворим ёкмаса,  
Қил қўлинидан келганим.

1973



Bir qarashda  
Juda silliq gap  
Ko'proq hamda yaxshiroq yozish.  
Aslida bu — juda kam uxlab,  
Dil dardlarin chuqurroq qazish.

Bilasiz-ku,  
Dardlar to'fonin  
She'rga solmoq emasdir o'yin.  
Ba'zilarga ko'ngil armonin  
Tushuntirmoq undan ham qiyin.

Eshitmoqlik go'ldan pisanda  
Dahshatlidir suvga cho'kishdan.  
Ichging kelar bundayin damda,  
Yupanasan yoki chekishdan...

Xullas, sog'man,  
Tinchdir uy, qishloq,  
Singani yo'q hozircha sozim.  
Yana ko'proq, yana yaxshiroq  
Xatlar yozib turing, ustozim.

Tuysangiz ham isidan hasrat,  
Hidlab qo'ying shogird «guli»ni.  
Sizga atab bitdim she'riy xat  
Va kutmasman qalam pulini.


1978

## **FUQARO**

Maqtanib ont ichmasman,  
Buyuk mehrim — zo'r qasam.  
Vatanimdan kechmasman,  
Bu eldan-da ajraman.

Ona tilim yo'q esa,  
Shudir mening o'lganin.  
Xulq-atvorim yoqmasa,  
Qil qo'lingdan kelganin.

1973



\* \* \*

Саволим бор Сизга,  
Домлажон,  
Нима ўзи «сотқин» дегани?  
Масалан, мен қиламан гумон,  
Яроқлимас бу сўз егани.

Ие, нега бўлдингиз хафа?  
Юзларингиз оқарди бехос...  
Оғайнилар, бу қандай гап-а,  
Мен... мен...  
Савол бергандим, холос!

1977

\* \* \*

Ёлғиз оққан қув ирмоқ —  
Тез қурир, бормас йироқ.  
Чаман бўлмас ёлғиз гул,  
Ёлғиз қоон — бахтсиз қул.  
Дўстим, кетма ёнимдан!

1973

## **КИЧКИНТОЙ ҚЎМОНДОН**

Эй, кийими ранг-ранг аскарлар,  
Милтиқларга солинг ўқларни.  
Жангга шайланг барча тўнларни,  
Буйруғимни тингланг, аскарлар!

Милтиқлардан ўт очиб бирдан,  
Яксон қилинг «уруш» сўзини.  
Сўнг тўғрилаб тўнлар кўзини,  
Душманликни кўпоринг ердан.

1973

\* \* \*

Savolim bor Sizga,  
Domlajon,  
Nima o'zi «sotqin» degani?  
Masalan, men qilaman gumon,  
Yaroqlimas bu so'z yegani.

Iye, nega bo'ldingiz xafa?  
Yuzlaringiz oqardi bexos...  
Og'aynilar, bu qanday gap-a,  
Men... men...  
Savol bergandim, xolos!

1977

\* \* \*

Yolg'iz oqqan quv irmoq —  
Tez qurir, bormas yiroq.  
Chaman bo'lmas yolg'iz gul,  
Yolg'iz qoon — baxtsiz qul.  
Do'stim, ketma yonimdan!


1973

## **KICKINTOY QO'MONDON**

Ey, kiyimi rang-rang askarlar,  
Miltiqlarga soling o'qlarni.  
Jangga shaylang barcha to'plarni,  
Buyrug'imni tinglang, askarlar!

Miltiqlardan o't ochib birdan,  
Yakson qiling «urush» so'zini.  
So'ng to'g'rilab to'plar ko'zini,  
Dushmanlikni qo'poring yerdan.

1973



## ТЎҒРИСЎЗ КИМСА

— Олинг,  
Мана, яп-янги, — дер,  
Велосипед ўғриси.  
— Миндим уни бор-йўғи бир,  
Айтсам гапнинг тўғриси.

1977

## ФОКУСЧИЛИК

Хайратлидир пулни йиртиш,  
яна бут килиш,  
Шляпада гул ундирмок  
жуда нозик иш.  
Ёғоч хасса тирик илон  
бўлган махали,  
Мухлисларнинг жўшиб завқи,  
дегайлар: «Балли!»  
Чикса ўрдак канот қокиб  
бўм-бўш нарсадан,  
Цирк майдони олқишлардан  
келар ларзага...

Лек одамлар бир нарсани  
«бу фокус», демас,  
Эрга тегмай бола туғиш —  
бу фокус эмас.


1971

• • •

Ел бутокда хуштак чалар,  
Гувиллайди ўтлоқлар.  
Ялпизларнинг исин ялар  
Потирлашиб япроқлар.

Ёлғиз дала кезган сари  
Соғинаман лаб тотин...  
Ана, Гул ва Асалари  
Аллакачон эр-хотин.

1977





## **TO'G'RISO'Z KIMSA**

— Oling,  
Mana, yap-yangi, — der,  
Velosiped o'g'risi.  
— Mindim uni bor-yo'g'i bir,  
Aytsam gapning to'g'risin.

1977

## **FOKUSCHILIK**

Hayratlidir pulni yirtish,  
yana but qilish,  
Shlyapada gul undirmoq  
juda nozik ish.  
Yog'och hasa tirik ilon  
bo'lgan mahali,  
Muxlislarning jo'shib zavqi,  
degaylar: «Balli!»  
Chiqsa o'rdak qanot qoqib  
bo'm-bo'sh narsadan,  
Sirk maydoni olqishlardan  
kelar larzaga...

Lek odamlar bir narsani  
«bu fokus», demas.  
Erga tegmay bola tug'ish —  
bu fokus emas.

1971

• • •

Yel butoqda hushtak chalar,  
Guvillaydi o'tloqlar.  
Yalpizlarning isin yalar  
Potirlashib yaproqlar.

Yolg'iz dala kezgan sari  
Sog'inaman lab totin...  
Ana, Gul va Asalari  
Allaqachon er-xotin.

1977

\* \* \*

Бола эдим бутгина,  
Бут эмасди дастурхон.  
Қўл чўзардим самога,  
Егим келса кулчанон:  
— Кулча ташла, оймомў-ў!

Энди дилкаш йигитман,  
Ёнимда кам бир дилкаш.  
Рухсорига зор айлар  
Кулча юзли париваш...  
— «Кулча» ташла, оймомў-ў!

1976

\* \* \*

Минбарларни сизларга бердим,  
Бор «зангори экран»ларни ҳам.  
Неча йиллар четда кун кўрдим,  
Ёзавердим индамай  
Илдам.

Бир шеър ила ўнлаб минбарни  
Зирқиратиб юрганингиз чок,  
Сўз экиб мен,  
Ўнлаб дафтарни —  
Индамасдан килавердим боғ.

1981

## **САҲРОЙИ БОЛА**

*Абдулла Ориповга*

Шимол кишин келтирган шамол  
Чекинмоққа ундар кумлоқни.  
Сарбоиларни килмоқчидек лол,  
Кўймоқ истар кўхна сўкмоқни.  
Мунчок кўзли саҳройи бола  
Барханларда изиллар яёв.  
Яитоклардан таралган нола

\* \* \*

Bola edim butgina,  
But emasdi dasturxon.  
Qo'l cho'zardim samoga,  
Yegim kelsa kulchanon:  
— Kulcha tashla, oymomo'-o'!

Endi dilkash yigitman,  
Yonimda kam bir dilkash.  
Ruxsoriga zor aylar  
Kulcha yuzli parivash...  
— «Kulcha» tashla, oymomo'-o'!

1976

\* \* \*

Minbarlarni sizlarga berdim,  
Bor «zangori ekran»larni ham.  
Necha yillar chetda kun ko'rdim,  
Yozaverdim indamay  
Ildam.

Bir she'r ila o'nlab minbarni  
Zirqiratib yurganingiz choq.  
So'z ekib men,  
O'nlab daftarni —  
Indamasdan qilaverdim bog'.

1981

## **SAHROYI BOLA**

*Abdulla Oripovga*

Shimol qishin keltirgan shamol  
Chekinmoqqa undar qumloqni.  
Sarbonlarni qilmoqchidek lol,  
Ko'mmoq istar ko'hna so'qmoqni.  
Munchoq ko'zli sahroyi bola  
Barxanlarda izillar yayov.  
Yantoqlardan taralgan nola

Мурғак қалбин тирнар беаёв.  
Саксовулдан олгандек ибрат,  
Одимлар у буркамасдан бош.  
Кўзларида ёниқ бир шиддат,  
Кипригида лойқаланган ёш.  
Фижирилатар тишларин ўчқор,  
Кучли эди қаҳри довулдан.  
Кучукчасин қайсидир хунхор  
Қувалабди саваб  
Овулдан.

«Бех, Олапар!

Олапа-а-р!!!» — дея

Изиллайди жовдираб ҳар ён.  
Довул мисли кутурган туя,  
Оч сорлардек ёприлар тўзон.  
Бўзлар экан саҳройи бола  
Оғзи шўртак кумларга тўлиб,  
Ҳар бир янтоқ киларди нола  
Таҳкирланган кучукча бўлиб.

1978

## ГЎДАК ЙИҒИСИ


Кўп сукланма лоламга,  
Якинлашма холвамга,  
Қўл узатма олмамга,  
У меники, бер менга!

Болишчамга қўйма бош,  
Пайкалимдан йиғма мош,  
Қирларимдан терма тош,  
У меники, бер менга!

Мой кидирма чўлимдан,  
Балик тутма кўлимдан,  
Асал йиғма гулимдан,  
У меники, бер менга!

Қадам босма даламга,  
Танкла кирма қалъамга,  
Тегма, тегма дадамга,  
У меники, бер менга!

1977



Murg'ak qalbin tirnar beayov.  
Saksovuldan olgandek ibrat,  
Odimlar u burkamasdan bosh.  
Ko'zlarida yoniq bir shiddat,  
Kiprigida loyqalangan yosh.  
G'ijirlatar tishlarin o'chkor,  
Kuchli edi qahri dovuldan.  
Kuchukchasin qaysidir xunxor  
Quvalabdi savab  
Ovuldan.

«Beh, Olapar!  
Olapa-a-r!!!» – deya  
Izillaydi jovdirab har yon.  
Dovul misli quturgan tuya,  
Och sorlardek yoprilar to'zon.  
Bo'zlar ekan sahroyi bola  
Og'zi sho'rtak qumlarga to'lib,  
Har bir yantoq qilardi nola  
Tahqirlangan kuchukcha bo'lib.

1978

### **GO'DAK YIG'ISI**


Ko'p suqlanma lolamga,  
Yaqinlashma holvamga,  
Qo'l uzatma olmamga,  
U meniki, ber menga!

Bolishchamga qo'yma bosh,  
Paykalimdan yig'ma mosh,  
Qirlarimdan terma tosh,  
U meniki, ber menga!

Moy qidirma cho'limdan,  
Baliq tutma ko'limdan,  
Asal yig'ma gulimdan,  
U meniki, ber menga!

Qadam bosma dalamga,  
Tankda kirma qal'amga,  
Tegma, tegma dadamga,  
U meniki, ber menga!

1977



## ОҚ ТУЛПОР

Туфлаб ташлар сувлик қолдигин,  
Чопар эгар парчасин судраб.  
Гох булоққа эгилар толғин,  
Гох юлғунни чайнар дилдираб.

Изғиринга борар юзма-юз,  
Гов бўлолмас чўлнинг дўнг қори.  
Ўз хўжасин қидирар хануз  
Алимкулнинг гажир тулпори.

1982

## ҲАМИД СУЛАЙМОН

*Кўрса эди бу шеърни туркий тилни билиб,  
Юз офарин ўқигай эди шоҳимиз камол.*

*Ҳофиз Хоразмий*

Тангри бўлиб  
Қайтарди у  
Онага ўз дилбандин. —  
Топиб келди Хиндистондан  
Хоразмнинг фарзандин.

Куйлатолди  
Неча юз йил  
Куйламаган бир дилни.  
Яхшиямки, биларди у  
Шоҳлар билмаган тилни.

1982

• • •

Булар бари бедано,  
Ўтирмайлик муниглашиб.  
Юр, кетамиз яхшиси,  
Енгил-елин хушлашиб.

## OQ TULPOR

Tuflab tashlar suvliq qoldig'in,  
Chopar egar parchasin sudrab.  
Goh buloqqa egilar tolg'in,  
Goh yulg'unni chaynar dildirab.

Izg'iringa borar yuzma-yuz,  
G'ov bo'lolmas cho'lning do'ng qori.  
O'z xo'jasin qidirar hanuz  
Alimqulning gajir tulpori.

1982

## HAMID SULAYMON

*Ko'rsa edi bu she'rni turkiy tilni bilib,  
Yuz ofarin o'qig'ay edi shohimiz kamol.*

*Hofiz Xorazmiy*

Tangri bo'lib  
Qaytardi u  
Onaga o'z dilbandin. –  
Topib keldi Hindistondan  
Xorazmning farzandin.

Kuylatoldi  
Necha yuz yil  
Kuylamagan bir dilni.  
Yaxshiyamki, bilardi u  
Shohlar bilmagan tilni.

1982

• • •

Bular bari bedavo,  
O'tirmaylik mushtlashib.  
Yur, ketamiz yaxshisi,  
Yengil-yelpi xushlashib.



Бу нусхалар тушунгай  
На байрам, на мотамга.  
Сочгин хатто кахрингни  
Тайинлироқ одамга.

1980

## **МАРТИН ИДЕН**

Далли тугён,  
Аламкор бир хис  
Сигдирмади уни заминга.  
Масхарабоз хаёт,  
Дидсиз киз,  
Молпарастан дўст тиф санчди унга.

Олчок мулкдор,  
Жохил ноширлар  
Қайдан билсин — недир эхтирос.  
Улар-чун завқ — сўккабош лобар,  
Мансаб  
Ва пул аталмиш коғоз.

Хакгўйлиги — эркига рахна,  
Мардлик бошга бало бўлган чок,  
У тушунди:  
Ер — ифлос сахна,  
Туйғу — эрмак,  
Инсон — кўфирчок.

Яхшилар кўп,  
Мистер Жек Лондон  
Халос этди уни бу дардан.  
Тинч сузарди кема...  
Ногахон —  
Сувга отди йигитни бортдан...

... Унга гўё ҳамон недир кам,  
Юрагида хануз армон,  
Кин!  
Бетокат, шўх денгизга боксам,



Bu nusxalar tushungay  
Na bayram, na motamga.  
Sochgin hatto qahringni  
Tayinliroq odamga.

1980

## **MARTIN IDEN**

Dalli tug'yon,  
Alamkor bir his  
Sig'dirmadi uni zaminga.  
Masxaraboz hayot,  
Didsiz qiz,  
Molparast do'st tig' sanchdi unga.

Olchoq mulkdor,  
Johil noshirlar  
Qaydan bilsin — nedir ehtiros.  
Ular-chun zavq — so'qqabosh lozar,  
Mansab  
Va pul atalmish qog'oz.

Haqgo'yiligi — erkiga raxna,  
Mardlik boshga balo bo'lgan choq,  
U tushundi:  
Yer — iflos sahna,  
Tuyg'u — ermak,  
Inson — qo'g'irchoq.

Yaxshilar ko'p,  
Mister Jek London  
Xalos etdi uni bu darddan. --  
Tinch suzardi kema...  
Nogahon  
Suvga otdi yigitni bortdan...

... Unga go'yo hamon nedir kam.  
Yuragida hanuz armon.  
Kin!  
Betoqat, sho'x dengizga boqsam.



Кўз ўнгимда жонланар  
Мартин.

Тўлкин увлар,  
Тўлганар денгиз,  
Қасоскор рух юрибди дайдиб.  
Соҳил билан жанг қилар тенгсиз,  
Дахшат солар  
Қайтиб ва қайтиб...

Исёнкорсан,  
О, Мартин, хануз,  
Энди дардманд денгизсан, аммо.  
Қоялар-чи?  
Очкўз ва хиссиз  
Лордлар юрти — фирибгар дунё.

Қоялар мўрт,  
Абадий эмас,  
Бироқ бўлмас осон чилпарчин.  
Ким айтди: эрк — шунчаки хавас?  
Эрк бу — кураш,  
Бўш келма, Мартин!


1974

\* \* \*

Кўп ёниб гапирдинг.  
Менга  
келажакни  
тушунтирмоқчи бўлдинг,  
чамамда.  
Бошқатдан гапир,  
балки ҳақдирсан.  
Ҳозирча тушунмадим,  
чунки сен айтаётган,  
мақтаётган ўша одамлар ичида  
мен ўзимни кўрмайман.

Мениям ўйлагин-да!

1978



Ko'z o'ngimda jonlanar  
Martin.

To'lqin uvlar,  
To'lg'amar dengiz,  
Qasoskor ruh yuribdi daydib.  
Sohil bilan jang qilar tengsiz,  
Dahshat solar  
Qaytib va qaytib...

Isyonkorsan,  
O, Martin, hanuz,  
Endi dardmand dengizsan, ammo.  
Qoyalar-chi?  
Ochko'z va hissiz  
Lordlar yurti – firibgar dunyo.

Qoyalar mo'rt,  
Abadiy emas,  
Biroq bo'lmas oson chilparchin.  
Kim aytdi: erk – shunchaki havas?  
Erk bu – kurash,  
Bo'sh kelma, Martin!

1974

\*\*\*

Ko'p yonib gapirding.  
Menga  
kelajakni  
tushuntirmoqchi bo'lding,  
chamamda.  
Boshqatdan gapir,  
balki haqdirsan.  
Hozircha tushunmadim,  
chunki sen aytayotgan,  
maqtayotgan o'sha odamlar ichida  
men o'zimni ko'rmayapman.

Meniyam o'ylagin-da!

1978



\* \* \*

Бобонгга ўхшамагин, дедилар,  
тажангрок эди бобоси.  
Дадангга ўхшамагин, дедилар,  
чўрткесар эди дадаси.  
Акангга ўхшамагин, дедилар,  
қизикқон эди акаси...

Опасига тортди  
ўша йигит.

1980

\* \* \*

Шамол гувлайверади,  
қушлар сайрайверади,  
дарёлар шовуллайверади.  
Балиқ эса,  
хеч қачон гапирмайди.

Мен балиқ эмасман.

1979

\* \* \*

Хей, куйканак ошиқлар,  
Кўздан ёшни артайлик.  
Айтиб шўхчан кўшиқлар,  
Роса-а кимиз тортайлик.  
Мағрур қизлар йўл пойлаб  
Толиққанда кўзлари,  
Бошимизга сув пуркаб  
Опкетишар ўзлари.

1974

\* \* \*

Афсус,  
Ҳозир ёнимда  
Битга ташиоз ойим йўқ.  
Майда-чуйда гуноҳдан  
Қўрқадиган жойим йўқ.



\* \* \*

Bobonga o'xshamagin, dedilar,  
tajangroq edi bobosi.  
Dadangga o'xshamagin, dedilar,  
cho'rtkesar edi dadasi.  
Akangga o'xshamagin, dedilar,  
qiziqqon edi akasi...

Opasiga tortdi  
o'sha yigit.

1980

\* \* \*

Shamol guvlayveradi,  
qushlar sayrayveradi,  
daryolar shovullayveradi.  
Baliq esa,  
hech qachon gapirmaydi.

Men baliq emasman.

1979

\* \* \*

Hey, kuykanak oshiqdar,  
Ko'zdan yoshni artaylik.  
Aytib sho'xchan qo'shiqlar,  
Rosa-a qimiz tortaylik.  
Mag'rur qizlar yo'l poylab  
Toliqqanda ko'zlari,  
Boshimizga suv purkab  
Opketishar o'zlari.

1974

\* \* \*

Afsus,  
Hozir yonimda  
Bitta tannoz oyim yo'q.  
Mayda-chuyda gunohdan  
Qo'rqadigan joyim yo'q.



Тун кўйнида  
Хисларим  
Сочар ишқий шуълалар...  
Ухлар қучиб энасин  
Нодон оймтиллалар.

1980

\* \* \*

Аллў, аллў...  
Салом...  
Сизмисиз?  
Кеча номер берган қизмисиз?  
Қилган эдим тонгда қўнғирок,  
Жавоб берди дадангиз мудрок...

Йўқладим ой тирмашгач токка,  
Уйланганлар киргач ётокқа...

1972

\* \* \*

Кўзларингиз сир сотар,  
Қошларингиз серимо.  
Очиқ сўйланг, нақадар --  
Шубхали бу таманно.

Дучор этманг жодуга,  
Мен соддадил бир банда.  
Кўникканман ёғдуга,  
Адашаман туманда.

1978

### **НАҲОТ АЙРИЛИҚДАН ТУҒИЛГАЙ ВИСОЛ?**

Севганмидим Сизни, севмаганмидим,  
Дайдиб юрар дилда ҳамон шу савол.  
Бу кун равшан жавоб топмоқлик маҳол,  
Емрияди кўч тоғлар, эслай олур ким,  
Севганмидим Сизни, севмаганмидим?

Tun qo'ynida  
Hislarim  
Sochar ishqiy shu'lalar...  
Uxlar quchib enasin  
Nodon oyimtillalar.

1980

\* \* \*

Allo', allo'...  
Salom...  
Sizmisiz?  
Kecha nomer bergan qizmisiz?  
Qilgan edim tongda qo'ng'iroq,  
Javob berdi dadangiz mudroq...

Yo'qladim oy tirmashgach toqqa,  
Uylanganlar kirgach yotoqqa...

1972

\* \* \*

Ko'zlaringiz sir sotar,  
Qoshlaringiz serimo.  
Ochiq so'ylang, naqadar —  
Shubhali bu tamanno.

Duchor etmang joduga,  
Men soddadil bir banda.  
Ko'nikkanman yog'duga,  
Adashaman tumanda.

1978

### **NAHOT AYRILIQDAN TUG'ILGAY VISOL?**

Sevganmidim Sizni, sevmaganmidim.  
Daydib yurar dilda hamon shu savol.  
Bu kun ravshan javob topmoqlik mahol.  
Yemrildi ko'p tog'lar, eslay olur kim,  
Sevganmidim Sizni, sevmaganmidim?



Ёнганман бедор деб мақтанмоқ нечун,  
Баланд турса ўтли ҳисдан муҳаббат.  
Ёридан жон дариф тутганми Мажнун,  
Мен Сизга дафтар қарз берардим фақат,  
Севганмидим Сизни, севмаганмидим?

Ўртанардим айро бўлиб хушимдан,  
Жилмайсангиз ўзга синфдошларга.  
Кетар эдим Сизни бошлаб тушимда  
Рақиблардан холи сокин даштларга,  
Севганмидим Сизни, севмаганмидим?

Ҳарбийдан хат битдим, бермай ишқий зеб,  
Ёздингиз севгидан сўз очмай асти.  
Ўйлардим: «Кимгадир йиғмоқдадир сеп»,  
Гўё бир йигитда бор эди қасдим,  
Севганмидим Сизни, севмаганмидим?

... Энди ой кизингиз ўғлимга эрка,  
Туғилмиш айрилиқ боис бу висол.  
Тақдир ўйинларин солганча шеърга,  
Хаёл дарёсида сузмоқдаман лол...  
Севганмидим Сизни, севмаганмидим?

1975

\* \* \*

Мени кутманг,  
Бормоғим гумон,  
Ўхшаб қолдим бўм-бўш жавонга.  
Хаста юрак, ҳиссиётсиз қон  
Талпинолмас энди жононга.

Тушларимда кизгини бўрилар  
Увлаб юрар теграмда бедор...  
Билмайсизми,  
Таъбир не бўлар  
Бўрилардан туш кўрса бемор?

1979



Yonganman bedor deb maqtanmoq nechun,  
Baland tursa o'tli hisdan muhabbat.  
Yoridan jon darig' tutganmi Majnun,  
Men Sizga daftar qarz berardim faqat,  
Sevganmidim Sizni, sevmaganmidim?

O'rtanardim ayro bo'lib hushimdan,  
Jilmaysangiz o'zga sinfdoshlarga.  
Ketar edim Sizni boshlab tushimda  
Raqiblardan xoli sokin dashtlarga,  
Sevganmidim Sizni, sevmaganmidim?

Harbiydan xat bitdim, bermay ishqiy zeb,  
Yozdingiz sevgidan so'z ochmay asti.  
O'ylardim: «Kimgadir yig'moqdadir sep»,  
Go'yo bir yigitda bor edi qasdim,  
Sevganmidim Sizni, sevmaganmidim?

... Endi oy qizingiz o'g'limga erka,  
Tug'ilmish avriliq bois bu visol.  
Taqdir o'yinlarin solgancha she'rga,  
Xayol daryosida suzmoqdaman lol...  
Sevganmidim Sizni, sevmaganmidim?

1975

\* \* \*

Meni kutmang,  
Bormog'im gumon,  
O'xshab qoldim bo'm-bo'sh javonga.  
Xasta yurak, hissiyotsiz qon  
Talpinolmas endi jononga.

Tushlarimda qizg'ish bo'rilar  
Uvlab yurar tegramda bedor...  
Bilmaysizmi,  
Ta'bir ne bo'lar  
Bo'rilardan tush ko'rsa bemor?

1979

Ўт пуркади милтиқнинг лаби,  
Кўкдан тошдек кулади ўрдак.  
Қамишзорда бошқалар каби  
Нечун писиб ётмади тентак?

Такдирга у беролмади тан,  
Севди эркин парвоз қилмокни.  
Афзал кўрди писиб яшашдан  
Юксакликда халок бўлмокни.

1973

### **ТОШОЙНАК ОЛДИДА...**

Бефаркликка берилган сари,  
Хаёт бизга туюлар сўлим.  
Бўлсак гоҳо ғафлатдан нари,  
Ёдга тушар дахшатли ўлим.

Ўйлаб кўрсак инсондек агар,  
Ишлар қилдик бундан дахшатли.  
Безарарга етказдик зарар,  
Ожизларни бежиз қакшатдик.

Софдилларнинг ортидан қулиб,  
Куллуқ қилдик риёкорларга.  
Йўқсилларнинг бўтқасин юлиб,  
Бол ялатдик амалдорларга.

Мухтожлансак сўрадик ёрдам,  
Мухтожларга биров бердик панд.  
Дардимизга топиш-чун малхам,  
Гох кимнидир айладик дардманд.

Сахийларнинг сўнгги нонин сб,  
Окламадик ичган тузларни.  
Мен ҳаммадан яхши одам деб,  
Лақиллатдик содда қизларни.

O't purkadi miltiqning labi,  
Ko'kdan toshdek quladi o'rdak.  
Qamishzorda boshqalar kabi  
Nechun pisib yotmadi tentak?

Taqdirga u berolmadi tan,  
Sevdi erkin parvoz qilmoqni.  
Afzal ko'rdi pisib yashashdan  
Yuksaklikda halok bo'lmoqni.

1973

### **TOSHOYNAK OLDIDA...**

Befarqlikka berilgan sari,  
Hayot bizga tuyular so'lim.  
Bo'lsak goho g'aflatdan nari,  
Yodga tushar dahshatli o'lim.

O'ylab ko'rsak insondek agar,  
Ishlar qildik bundan dahshatli.  
Bezararga yetkazdik zarar,  
Ojizlarni bejiz qaqshatdik.

Sofdillarning ortidan kulib,  
Qulluq qildik riyokorlarga.  
Yo'qsillarning bo'tqasin yulib,  
Bol yalatdik amaldorlarga.

Muhtojlansak so'radik yordam,  
Muhtojlarga biroq berdik pand.  
Dardimizgatopish-chun malham,  
Goh kimnidir ayladik dardmand.

Saxiylarning so'nggi nonin yeb,  
Oqlamadik ichgan tuzlarni.  
Men hammadan yaxshi odam deb,  
Laqillatdik sodda qizlarni.

Қайирмадик манфаат раъйин,  
Тарк этгунча бизни номус-ор.  
Виждонимиз булганган сайин,  
Сезавердик ўзни бахтиёр.

Э, йўк, булар хали хеч гапмас,  
Зўр дахшатлар балки олдинда.  
Пайти келса, тушиб баттар паст,  
Алмашамиз дўстни олтинга.

Етказамиз юртга азият,  
Аждодларга қиламиз бўхтон.  
Ва биздаги охирги уят  
Танамизда талашади жон...

Жанда бўлган бундай имонни  
Текин олмас биров бозорда.  
Одам дея биздек хайвонни  
Қўмишади нахот мозорга?!

1979

\* \* \*

Айтинг, кўпроқ ем еган  
Қирчанғи отлар  
Ва қирчанғи от минган  
Мухтарам зотлар:  
Ўйлайсизми бирингиз,  
Сизга ким эга?  
Иккинчингиз кетяпсиз  
Қайга ва нега?

1979

### **ТУҒРУҚХОНАДА**

Ётар учта чакалок:  
Бирини мағрур, бакалок,  
Бирини йиғлок нақ чумчук,  
Бирини юввош ва пучук.

Худо умрин берсин-у,  
Улғайса шу бакалок:

Qayirmadik manfaat ra'yin,  
Tark etguncha bizni nomus-or.  
Vijdonimiz bulg'angan sayin,  
Sezaverdik o'zni baxtiyor.

E, yo'q, bular hali hech gapmas,  
Zo'r dahshatlar balki oldinda.  
Payti kelsa, tushib battar past,  
Almashamiz do'stni oltinga.

Yetkazamiz yurtga aziyat,  
Ajdodlarga qilamiz bo'hton.  
Va bizdagi oxirgi uyat  
Tanamizda talashadi jon...

Janda bo'lgan bunday imonni  
Tekin olmas birov bozorda.  
Odam deya bizdek hayvonni  
Ko'mishadi nahot mozorga?!

1979

\* \* \*


Ayting, ko'proq yem yegan  
Qirchang'i otlar  
Va qirchang'i ot mingan  
Muhtaram zotlar:  
O'ylaysizmi biringiz,  
Sizga kim ega?  
Ikkinchingiz ketyapsiz  
Qayga va nega?

1979

### **TUG'RUQXONADA**

Yotar uchta chaqaloq:  
Biri mag'rur, baqaloq,  
Biri yig'loq naq chumchuq,  
Biri yuvvosh va puchuq.

Xudo umrin bersin-u,  
Ulg'aysa shu baqaloq:



Мансабига эр бўлар,  
Хотинига — акарок.

Турволса бас оёққа —  
Йиғлоқиси, ишқилиб,  
Беш ёшдаёқ беш қизга  
Хўнграб айтар ишқини.

Пучук эса бир умр  
Тинч ишларга жойланар.  
Юриб-юриб, укаси —  
Топган қизга уйланар.

1976

\* \* \*

Танти Олтиарикда  
Бўлганмисан, биродар?  
«Воҳ, меҳмон!» — деб  
Сийлашар  
Шоҳ-гадони баробар.

Бошланса гар аския,  
Кин сақлама  
Ҳеч дилда.  
Дўппослашар беаёв  
Шоҳ-гадони бир хилда.

1981

## ТАНҲОЛИК

*Ўқтамбойга*

Қандай яхши, қандай соз,  
Ёлғиз қолдим хонада.  
Итдек яйраб ётибман  
Ғам-андухдан панада.

Йўқдир бунда бефарқ дўст,  
Йўқдир тазйиқ, ишволар.  
Йўқдир тажанг бошлиқ хам,  
Йўқдир ишқий савдолар.

Mansabiga er bo'lar,  
Xotiniga — akaroq.

Turvolsa bas oyoqqa —  
Yig'loqisi, ishqilib,  
Besh yoshdayoq besh qizga  
Ho'ngrab aytar ishqini.

Puchuq esa bir umr  
Tinch ishlarga joylanar.  
Yurib-yurib, ukasi —  
Topgan qizga uylanar.

1976

\* \* \*

Tanti Oltiariqda  
Bo'lganmisan, birodar?  
«Voh, mehmon!» — deb  
Siylashar  
Shoh-gadoni barobar.

Boshlansa gar askiya,  
Kin saqlama  
Hech dilda.  
Do'pposlashar beayov  
Shoh-gadoni bir xilda.


1981

## TANHOLIK

*O'ktamboygga*

Qanday yaxshi, qanday soz,  
Yolg'iz qoldim xonada.  
Itdek yayrab yotibman  
G'am-anduhdan panada.

Yo'qdir bunda befarq do'st,  
Yo'qdir tazyiq, ig'volar.  
Yo'qdir tajang boshliq ham.  
Yo'qdir ishqiy savdolar.



Дарчадаги тувакда  
Гул тебранар мулойим...  
Ташқарида юрганга  
Чидам бер, эй худойим!

1981

### **БОҒДАГИ СИР**

Кўрдим ярим кечаси  
Бутоқда шим турганин.  
Ҳеч ким билмас  
Эгаси —  
Нима қилиб юрганин...

1981

### **ИЛИНЖЛИ КЕЧА**

Тўрғай сезар тўрғайнинг холин,  
Пайқашимча ишларинг ёмон.  
Аёздаги наргис мисоли  
Ич-ичингда титраб турар жон.  
Завқ топилар бош бўлса омон,  
Бу дунёнинг доим бири кам,  
Кўксимга бош қўйгил, фариштам.

Ишонгандинг унга сен фақир,  
Чарх урганда келиб қошинга.  
Қўй, арзимас ўша насли кир  
Кўздан оққан биллур ёшинга.  
Охир дўлдек ёғди бошинга  
Бўлиб барча хатоларинг жам,  
Кўксимга бош қўйгил, фариштам.

Кеч айтилган таъналар ёмон,  
Кел, яхшиси эшитгил арзим.  
Менга hozир ганимдир армон,  
Менга hozир азиздир орзум.  
Унутайлик ўтмишни бир зум,  
Хотиралар олсин пича дам,  
Кўксимга бош қўйгил, фариштам.



Darchadagi tuvakda  
Gul tebranar muloyim...  
Tashqarida yurganga  
Chidam ber, ey xudoyim!

1981

### **BOG'DAGI SIR**

Ko'rdim yarim kechasi  
Butoqda shim turganin.  
Hech kim bilmas  
Egasi —  
Nima qilib yurganin...

1981

### **ILINJLI KECHA**

To'rg'ay sezar to'rg'ayning holin,  
Payqashimcha ishlaring yomon.  
Ayozdagi nargis misoli  
Ich-ichingda titrab turar jon.  
Zavq topilar bosh bo'lsa omon,  
Bu dunyoning doim biri kam,  
Ko'ksimga bosh qo'ygil, farishtam.

Ishonganding unga sen faqir,  
Charx urganda kelib qoshingga.  
Qo'y, arzimas o'sha nasli kir  
Ko'zdan oqqan billur yoshingga.  
Oxir do'ldek yog'di boshingga  
Bo'lib barcha xatolaring jam,  
Ko'ksimga bosh qo'ygil, farishtam.

Kech aytilgan ta'nalar yomon,  
Kel, yaxshisi eshitgil arzim.  
Menga hozir g'animdir armon,  
Menga hozir azizdir orzum.  
Unutaylik o'tmishni bir zum,  
Xotiralar olsin picha dam,  
Ko'ksimga bosh qo'ygil, farishtam.

Эски дардлар қалбни айлар зил,  
Тунд хотира совутгай қонни.  
Фақат ёниқ истакли кўнгил  
Яратолгай янги вулқонни.  
Қидирайлик қувончли онни,  
Бизни ўзи топиб олар ғам,  
Кўксимга бош кўйгил, фариштам.

Бошга қайта айрилик солсанг,  
Бир умрга тирилгай қайғум.  
Ибодат қил ёнимда қолсанг,  
Сўнмасин бир умр ўт туйғум...  
Ўлимми ё келмоқда уйқум...  
Умрим каби тугамокда шам...  
Кўксимга бош кўйгил, фариштам...

1976

## **БОШҚАЧА КУН**

*Мени изиллаб боққан  
дадажонимни эслаб...*

Чарх уриб гоҳ бургутча нотинч,  
Гоҳи мунгли қоқарди қанот.  
Дилин қамраб мусибат, ўкинч,  
Қийқирарди, изларди нажот.

Қийқирарди, изларди нажот,  
Тўлган каби бахт паймонаси.  
Еру кўкка соларди фарёд,  
Бечоранинг қайтмай онаси.

Бечоранинг қайтмай онаси,  
Жон ховучлаб гир-гир бўзларди.  
Илк бор терлаб шўр пешонаси,  
Энди ризқини ўзи изларди.

1970

Eski dardlar qalbni aylar zil,  
Tund xotira sovutgay qonni.  
Faqat yoniq istakli ko'ngil  
Yaratolgay yangi vulqonni.  
Qidiraylik quvonchli onni,  
Bizni o'zi topib olar g'am,  
Ko'ksimga bosh qo'ygil, farishtam.

Boshga qayta ayriliq solsang,  
Bir umrga tirilgay qayg'um.  
Ibodat qil yonimda qolsang,  
So'nmasin bir umr o't tuyg'um...  
O'limmi yo kelmoqda uyqum...  
Umrim kabi tugamoqda sham...  
Ko'ksimga bosh qo'ygil, farishtam...

1976

## **BOSHQACHA KUN**

*Meni izillab boqqan  
dadajonimni eslab...*

Charx urib goh burgutcha notinch,  
Gohi mungli qoqardi qanot.  
Dilin qamrab musibat, o'kinch,  
Qiyqirardi, izlardi najot.

Qiyqirardi, izlardi najot,  
To'lgan kabi baxt paymonasi.  
Yer-u ko'kka solardi faryod,  
Bechoraning qaytmay onasi.

Bechoraning qaytmay onasi,  
Jon hovuchlab gir-gir bo'zlardi.  
Ilk bor terlab sho'r peshonasi,  
Endi rizqin o'zi izlardi.

1970

— Қара, қандай гўзал бу ҳаёт,  
 Ўйнаб-кулиб қилсанг-чи ижод.  
 Қачон кўрмай, турхатинг тажанг,  
 Кўп тумтайма ўлгандек ачанг!

— Кечирасиз...  
 Гапингиз тўғри...

— Англаб етдим «так» этиб бугун,  
 Занғар ҳаёт — энг чигал тугун...  
 Жиннилардек тиржаймагин, хов,  
 Дардин айтиб турган пайт биров!

— Кечирасиз...  
 Гапингиз тўғри...

1977

## БЕТАЙИН

*Н. Р. га*

Кимлигимни сўрама, жоним,  
 Тугамайди айтсам достоним.  
 Кўп кувончлар кўрдим дунёда,  
 Дард ҳам чекдим ундан зиёда.

Покдил деб сен эслайсан кимни?  
 Мен эслайман болалигимни.  
 Виждоним-ла яшардим ахил,  
 Аблах эмас эдим мустақил.

Илк бор гуноҳ қилган кезимиз  
 Кирди деймиз энди эсимиз.  
 Мен ҳам онгим ўсгандан буён  
 Ўз-ўзимга қилдим кўп зиён.

Майхонада ортгириб улфат,  
 Ҳар қадахдан симиридим кулфат.  
 Бир таннозни севиб дилимдан,  
 Омон қолдим зўрға ўлимдан.

Қай шил ўзин кўрсатди устоз,  
 Ғаним топиб бўлмас бундан соз.

— Qara, qanday go'zal bu hayot,  
O'ynab-kulib qilsang-chi ijod.  
Qachon ko'rmay, turxating tajang,  
Ko'p tumtayma o'lgandek achang!  
— Kechirasiz...  
Gapingiz to'g'ri...

— Anglab yetdim «taq» etib bugun,  
Zang'ar hayot — eng chigal tugun...  
Jinnilardek tirjaymagin, hov,  
Dardin aytib turgan payt birov!  
— Kechirasiz...  
Gapingiz to'g'ri...

1977

## BETAYIN

*N. R. ga*

Kimligimni so'rama, jonim,  
Tugamaydi aytsam dostonim.  
Ko'p quvonchlar ko'rdim dunyoda,  
Dard ham chekdim undan ziyoda.

Pokdil deb sen eslaysan kimni?  
Men eslayman bolaligimni.  
Vijdonim-la yashardim ahil,  
Ablah emas edim mustaqil.

Ilk bor gunoh qilgan kezimiz  
Kirdi deymiz endi esimiz.  
Men ham onggim o'sgandan buyon  
O'z-o'zimga qildim ko'p ziyon.

Mayxonada orttirib ulfat,  
Har qadahdan simirdim kulfat.  
Bir tannozi sevib dilimdan,  
Omon qoldim zo'rg'a o'lindan.

Qay shil o'zin ko'rsatdi ustoz,  
G'anim topib bo'lmas bundan soz.

Дўстман дея лоф урди меров,  
Энди дўстга юрак бермас дов.

Лақма кўнглим алданган сайин  
Бўла бордим аста бетайин:  
Ҳар алдовдан кўзим ёшладим,  
Сўнг... ўзим ҳам алдай бошладим...

Дудоғингни яқин тут, жоним,  
Тугамайди айтсам достоним.  
Сийнангга бош қўйганим замон  
Туюлади ҳам-м-маси ёлғон.

1978

### **ШОИР ВИДОСИ**

Мана, қалбим тугёни тинди,  
Нигоҳимдан сўнди дардчил чўғ.  
Пойингга бош уролмам энди,  
Тилгинамда энди шарбат йўқ.

Мана, тинди қалбим тугёни  
Ва унутдим ташналик хиссин.  
Сенга бердим ёруғ дунёни,  
Бошга урмам сочларинг исин.

Тинди қалбим тугёни, мана,  
Куй авжида узилгандек тор.  
Ўтди довул, ўтди пўртана,  
Энди сокин яшайвер, дилдор.

1974

### **КИТОББОЗ**

*Маҳкам Маҳмудовга*

Ярмаркада кезар бир дарвеш,  
Тапиллатиб кийиник туфлисин.  
Китоб тахлаб ўтса хотаниш,  
Дарров сазар Монассан исин.

Do'stman deya lof urdi merov,  
Endi do'stga yurak bermas dov.

Laqma ko'nglim aldangan sayin  
Bo'la bordim asta betayin:  
Har aldovdan ko'zim yoshladim,  
So'ng... o'zim ham alday boshladim...

Dudog'ingni yaqin tut, jonim,  
Tugamaydi aytsam dostonim.  
Siyanangga bosh qo'yganim zamon  
Tuyuladi ham-m-masi yolg'on.

1978

### **SHOIR VIDOSI**

Mana, qalbim tug'yoni tindi,  
Nigohimdan so'ndi dardchil cho'g'.  
Poyingga bosh urolmam endi,  
Tilginamda endi sharbat yo'q.

Mana, tindi qalbim tug'yoni  
Va unutdim tashnalik hissini.  
Senga berdim yorug' dunyoni,  
Boshga urmam sochlaring isini.

Tindi qalbim tug'yoni, mana,  
Kuy avjida uzilgandek tor.  
O'tdi dovul, o'tdi po'rtana,  
Endi sokin yashayver, dildor.

1974

### **KITOBBOZ**

*Mahkam Mahmudovga*

Yarmarkada kezar bir darvesh,  
Tapillatib qiyshiq tuflisin.  
Kitob taxlab o'tsa notanish,  
Darrov sezar Mopassan isin.



Туядек бош сукиб дўконга,  
Сотувчига айлайди таъзим:  
— Бир яхшилик қилинг инсонга,  
Керак эди битта «Азизим».

«Нодир буюм» қўлга кирган чок,  
Сангиллайди шодликдан тили.  
Кўрибсизки, у яна қашшок,  
Етмас яна шўрвага пули.

Кундуз китоб овлашни кўзлар,  
Тунлар китоб варақлар лоҳас.  
Жумлалардан янги нур излар,  
Кўрлар билан қилмоқ учун баҳс.

1978

### **ЎЛИК**

Эрта тонгда мангуга  
Жудо бўлдим хушимдан.  
Кетмоқдаман  
Илк бора  
Жавоб олмай ишимдан.


Энг муҳими  
Улгурдим  
Тинч жон бериб олгани.  
... Ўликпарвар тириклар  
Боплашади қолганин.

1978

### **РОБЕРТ БЁРНС**

Қуй ачиган шаробдан  
Лаби учган қадахга.  
Мастлар туфлар тож-тахтга,  
Журъат олгач саробдан.

Ўксинма, эй хотинжон,  
Бут бўлмагай бу рўзгор.





Tuyadek bosh suqib do'konga,  
Sotuvchiga aylaydi ta'zim:  
— Bir yaxshilik qiling insonga,  
Kerak edi bitta «Azizim».

«Nodir buyum» qo'lga kirgan choq,  
Sangillaydi shodlikdan tili.  
Ko'ribsizki, u yana qashshoq,  
Yetmas yana sho'rvaga puli.

Kunduz kitob ovlashni ko'zlar,  
Tunlar kitob varaqlar lohas.  
Jumlalardan yangi nur izlar,  
Ko'rlar bilan qilmoq uchun bahs.

1978

### **O'LIK**

Erta tongda manguga  
Judo bo'ldim hushimdan.  
Ketmoqdaman  
Ilk bora  
Javob olmay ishimdan.


Eng muhimi  
Ulgurdim  
Tinch jon berib olgani.  
... O'likparvar tiriklar  
Boplashadi qolganin.

1978

### **ROBERT BYORNS**

Quy achigan sharobdan  
Labi uchgan qadahga.  
Mastlar tuflar toj-taxtga,  
Jur'at olgach sarobdan.

O'ksinma, ey xotinjon,  
But bo'lmagay bu ro'zg'or.



Бор экан то куч-мадор,  
Бадавлатмиз, ич, нодон.

Асли бизмас, шоҳ — гадо,  
Оддий шавкка мухтож у.  
Хам буғдойи бўлса-ю,  
Хам май ичган зот — дахо!

Йўл тополдик шавк сари  
Хатто тор ва зах жойда...  
Ухлайверсин саройда  
Ҳазрати олийлари.

1974

\* \* \*

Ҳей, жаноб мушуклар, кечиринг мени,  
Йўлимдан ўтсангиз отар эдим тош.  
Ул «кора рўйхат»дан ўчиринг мени,  
Минг узр, Барокжон,  
Кечир мени, Мош.

Момонгизни кўшиб сўкмасман бу гал,  
Ўтмишни унутиб, ортимдан юринг.  
Битта шеър ёзволай  
Қулоқ тинчиб сал,  
Тирмашқоқ ўғлимни ўйнатиб туринг.

1972

\* \* \*

Бахтиёрлар менсиз ҳам бахтли,  
Дилпоралар менсиз ҳам ғамнок.  
Ишк султони менсиз ҳам тахтли,  
Ишрат кули менсиз ҳам нопок.

Дилпорага талпинар кўнглим...

1973

Bor ekan to kuch-mador,  
Badavlatmiz, ich, nodon.

Asli bizmas, shoh — gado,  
Oddiy shavqqa muhtoj u.  
Ham bug'doyi bo'lsa-yu,  
Ham may ichgan zot — daho!

Yo'l topoldik shavq sari  
Hatto tor va zax joyda...  
Uxlayversin saroyda  
Hazrati oliylari.

1974

\* \* \*

Hey, janob mushuklar, kechiring meni,  
Yo'limdan o'tsangiz otar edim tosh.  
Ul «qora ro'yxat»dan o'chiring meni,  
Ming uzr, Baroqjon,  
Kechir meni, Mosh.

Momongizni qo'shib so'kmasman bu gal,  
O'tmishni unutib, ortimdan yuring.  
Bitta she'r yozvolay  
Quloq tinchib sal,  
Tirmashqoq o'g'limni o'ynatib turing.

1972

\* \* \*

Baxtiyorlar mensiz ham baxtli,  
Dilporalar mensiz ham g'amnok,  
Ishq sultoni mensiz ham taxtli,  
Ishrat quli mensiz ham nopok.

Dilporaga talpinar ko'nglim...

1973



## **БОҒБОН ҲИКМАТИ**

— Завқ берар алп дарахтлар,  
Хузурбахшдир кўланка.  
Нима қилиб турибди  
Қоқ ўртада ҳў тўнка?  
Айтинг, қачон қутулар  
Ундан боғнинг йўлаги?  
— Чириб битса бу тўнка,  
Пайдо бўлар бўлаги!

1978

## **БИТТАГИНА БЎРИ**

Индан чикди қасосчи бўри,  
Инда қолди беғам бўрилар.  
Эгик бошли оймомо чўри  
Бугун баттар маъсум кўринар.


Чирок милт-милт порлар ўтовда,  
Тўрт томони нишли четан ғов.  
Ўтган киш ҳам ушбу яйловда  
Хур бўрилар қилишарди ов.

Бахор чоғи чўпонлар бирдан  
Бу масканга қўйдилар қадам.  
Сурув келди ёприлиб қирдан,  
Пайдо бўлди сотқин итлар ҳам.

Тўрт-беш олчоқ бўри бир пайтлар  
Одамларга эгканмиш бошин.  
Хоинлардан тараган итлар  
Энди талар собик қондошин...

Ё итларнинг қуритар шўрин,  
Ё ўзи эрк йўлида ўлар.  
Жанг бошлади қасосчи бўри,  
Хамон ухлар беғам бўрилар.

1978



## **BOG'BON HIKMATI**

– Zavq berar alp daraxtlar,  
Huzurbaxshdir ko'lanka.  
Nima qilib turibdi  
Qoq o'rtada ho' to'nka?  
Ayting, qachon qutular  
Undan bog'ning yo'lagi?  
– Chirib bitsa bu to'nka,  
Paydo bo'lar bo'lagi!

1978

## **BITTAGINA BO'RI**

Indan chiqdi qasoschi bo'ri,  
Inda qoldi beg'am bo'rilar.  
Egik boshli oymomo cho'ri  
Bugun battar ma'sum ko'rinar.

Chiroq milt-milt porlar o'tovda,  
To'rt tomoni nishli chetan g'ov.  
O'tgan qish ham ushbu yaylovda  
Hur bo'rilar qilishardi ov.

Bahor chog'i cho'ponlar birdan  
Bu maskanga qo'ydilar qadam.  
Suruv keldi yoprilib qirdan,  
Paydo bo'ldi sotqin itlar ham.

To'rt-besh olchoq bo'ri bir paytlar  
Odamlarga egkanmish boshin.  
Xoinlardan taragan itlar  
Endi talar sobiq qondoshin...

Yo itlarning quritar sho'rin,  
Yo o'zi erk yo'lida o'lar.  
Jang boshladi qasoschi bo'ri,  
Hamon uxlar beg'am bo'rilar.

1978

\* \* \*

Сахар турсам,  
Замин юзига —  
Ястанибди биллуржамол қор.  
Ён қўшнимнинг сўпоқ қизига  
Қор отиб бир жириллатгим бор.

... Йўлга ўйиб нақшлар битибди,  
Жим кузатдим ётлар изини.  
Қайсидир сур  
Бошлаб кетибди  
Жон қўшнимнинг дўмбоқ қизини.

1972

\* \* \*

Бошинг эгик,  
Сўник нигоҳинг,  
Портлагудек қалбингдан оҳинг.  
Остонадан ўтдинг паришон,  
Мени излаб келдингни, жонон?


Ўзинг келдинг — нур устига нур,  
Менда кайдан пайдо бу ғурур?  
Келмасанг-ку  
Борардим излаб,  
Ялинардим, сўзлардим сизлаб.

1972

\* \* \*

Фолбинларга инонма, жонон,  
Улар билмас тилакларингни.  
Ўзим қилгум тақдиринг баён,  
Силаб момик билакларингни.

Табибларга инонма, бойқиз,  
Дил малхаминг бўлиб қолурман.  
Дардларингни анвойи лазиз  
Лабларингдан сўриб олурман.



\* \* \*

Sahar tursam,  
Zamin yuziga —  
Yastanibdi billurjamol qor.  
Yon qo'shnimning so'poq qiziga  
Qor otib bir jirillatgim bor.

... Yo'lga o'yib naqshlar bitibdi,  
Jim kuzatdim yotlar izini.  
Qaysidir sur  
Boshlab ketibdi  
Jon qo'shnimning do'mboq qizini.

1972

\* \* \*

Boshing egik,  
So'nik nigohing,  
Portlagudek qalbingdan ohing.  
Ostonadan o'tding parishon,  
Meni izlab keldingmi, jonon?

O'zing kelding — nur ustiga nur,  
Menda qaydan paydo bu g'urur?  
Kelmasang-ku  
Borardim izlab,  
Yalinarдим, so'zlardim sizlab.

1972

\* \* \*

Folbinlarga inonma, jonon,  
Ular bilmas tilaklaringni.  
O'zim qilgum taqdiring bayon,  
Silab momiq bilaklaringni.

Tabiblarga inonma, boyqiz,  
Dil malhaming bo'lib qolurman.  
Dardlaringni anvoyi laziz  
Lablaringdan so'rib olurman.



Сирдошларга инонма, ҳар вақт —  
Шай турсалар сўроқларингга.  
Мен сиримни сўйлайман фақат  
Тунда аста кулоқларингга.

Хушторларга инонма, дилбар,  
Тинглаб сохта фироқларини.  
Мендайн тан ололмас улар  
Олдин қилган гуноҳларини...

1975

## **СОБИҚ ҚУРОЛДОШИМГА ХАТ**

*Самарқандлик Қаҳрамонга*

Кўп хатингга ёзмадим жавоб,  
Тусмол қилиб юрибсан

Чоғи:

«Ё ошнамнинг ахволи хароб,  
Ёки шишиб колган димоғи».

Кечир, дўстим,  
Қайтиб харбийдан  
Мундиримни лоқайд ечган кез,  
Энди олдда бошқа бир ўзан —  
Турганлигин англаб етдим тез.

Бунда ишлар — амалий,  
Машқ кам,  
Бунда тактик усуллар бошқа.  
Аскотмайди темир қалпок ҳам,  
Қилмаслик-чун манглайни қашқа.

Тўсиклардан ошиб ўтишда  
Секундларни санардик шитоб.  
Энди  
Фовлар дуч келса ишда,  
Бир-бир сакраш — кўп йиллик азоб.

Комбатимиз эди қисқасўз,  
Худо олсин бизнинг раисни:



Sirdoshlarga inonma, har vaqt –  
Shay tursalar so‘roqlaringga.  
Men sirimni so‘ylayman faqat  
Tunda asta quloqlaringga.

Xushtorlarga inonma, dilbar,  
Tinglab soxta firoqlarini.  
Mendayin tan ololmas ular  
Oldin qilgan gunohlarini...

1975

## **SOBIQ QUROLDOSHIMGA XAT**

*Samarqandlik Qahramonga*

Ko‘p xatingga yozmadim javob,  
Tusmol qilib yuribsan  
Chog‘i:  
«Yo oshnamning ahvoli xarob,  
Yoki shishib qolgan dimog‘i».

Kechir, do‘stim,  
Qaytib harbiydan  
Mundirimni loqayd yechgan kez,  
Endi oldda boshqa bir o‘zan –  
Turganligin anglab yetdim tez.

Bunda ishlar – amaliy,  
Mashq kam,  
Bunda taktik usullar boshqa.  
Asqotmaydi temir qalpoq ham,  
Qilmaslik-chun manglayni qashqa.

To‘siqlardan oshib o‘tishda  
Sekundlarni sanardik shitob.  
Endi  
G‘ovlar duch kelsa ishda,  
Bir-bir sakrash ko‘p yillik azob.

Kombatimiz edi qisqaso‘z,  
Xudo olsin bizning raisni:



«Кўп одам топ,  
Кўпрок кўсак уз!» —  
Деб тонггача чўзар мажлисни.

Чўнг юлғичлар  
Кўринса ғолиб,  
Эргашмоқни қилмагин ҳавас.  
Бу — милтиққа пахтавон солиб,  
Танк ортидан югуриш эмас.

То ҳақиқат нурли юзини  
Кўрсатгунча қолсанг сал гаранг,  
Ўз «танк»ларинг лойга ўзингни  
Чаплаб кетар...  
Ана сенга жанг!

Чидаб, беҳад укубатли гар,  
Эмакламок зарур покликка.  
Пайти келиб барча нопоклар  
Мағлуб бўлар,  
Сен эса — тикка...

Кечир, дўстим,  
Ёздинг неча хат,  
Мен ўзимдан бермадим дарак.  
Қураармиз вақт келиб кўп суҳбат,  
Бугун... жимжит курашмоқ керак.


1975

\* \* \*

Аччиғи тез дағал қўшнилар  
Бугун мени тигсиз сўйишди.  
Товуққа кун бермас деб улар  
Тўрткўзимни  
Отиб қўйишди.

Тушми ё ўнг...  
Қўшнилар бесўз  
Туришарди сўхтаси совуқ.  
Жон талашиб ингарди Тўрткўз,  
Қаҳ-қаҳ отиб қуларди Товуқ.

1973



«Ko'p odam top,  
Ko'proq ko'sak uz!» —  
Deb tonggacha cho'zar majlisni.

Cho'ng yulg'ichlar  
Ko'rinsa g'olib,  
Ergashmoqni qilmagin havas.  
Bu — miltiqqa paxtavon solib,  
Tank ortidan yugurish emas.

To haqiqat nurli yuzini  
Ko'rsatguncha qolsang sal garang,  
O'z «tank»laring loyga o'zingni  
Chaplab ketar...  
Ana senga jang!

Chidab, behad uqubatli gar,  
Emaklamoq zarur poklikka.  
Payti kelib barcha nopoklar  
Mag'lub bo'lar,  
Sen esa — tikka...

Kechir, do'stim,  
Yozding necha xat,  
Men o'zimdan bermadim darak.  
Qurarmiz vaqt kelib ko'p suhbat,  
Bugun... jimjit kurashmoq kerak.


1975

...

Achchig'i tez dag'al qo'shnilar  
Bugun meni tig'siz so'yishdi.  
Tovuqqa kun bermas deb ular  
To'rtko'zimni  
Otib qo'yishdi.

Tushmi yo o'ng...  
Qo'shnilar beso'z —  
Turishardi so'xtasi sovuq.  
Jon talashib ingrardi To'rtko'z.  
Qah-qah otib kulardi Tovuuq.

1973



## ЧИРАНЧОҚ ЯЛҚОВ

Шоирлигим ёқмас онамга,  
Худо урган танбал эмишман.  
Ер чолмай,  
Бир чўпзот қаламга  
Илиққан гунг хайкал эмишман.

Мен шеърим-ла ер юзин мутлок  
Забт этарга шайланганим дам,  
Кафтдек ҳовли,  
Бодринг, ошқовоқ —  
Кабилардан сўйлайди онам.

1973

\* \* \*

Таранглашди чайир ип,  
Ўқ узилди камондан.  
Битта қурбон берилди  
Яна рақиб томондан.

Камончининг наздида  
Битта ғаним йўқолди.  
... Чирқиради беш гўдак,  
Гулдек жувон тул қолди.

1982

\* \* \*

Ўз тинчимни ўйлайман  
Энди Сизни суймасдан.  
Тунлар тўйиб ухлайман  
Ҳажрингизда куймасдан.

Фақат Сиз ҳам бир куни  
Ишқ дардига чалинманг.  
Бузиб яна уйқумни,  
Тушларимда ялинманг.

1980

## CHIRANCHOQ YALQOV

Shoirligim yoqmas onamga,  
Xudo urgan tanbal emishman.  
Yer chopmay,  
Bir cho'pzot qalamga  
Iliqqan gung haykal emishman.

Men she'rim-la yer yuzin mutloq  
Zabt etarga shaylanganim dam,  
Kaftdek hovli,  
Bodring, oshqovoq —  
Kabilardan so'ylaydi onam.

1973

\* \* \*

Taranglashdi chayir ip,  
O'q uzildi kamondan.  
Bitta qurbon berildi  
Yana raqib tomondan.

Kamonchining nazdida  
Bitta g'anim yo'qoldi.  
... Chirqiradi besh go'dak,  
Guldek juvon tul qoldi.

1982

\* \* \*

O'z tinchimni o'ylayman  
Endi Sizni suymasdan.  
Tunlar to'yib uxlayman  
Hajringizda kuymasdan.

Faqat Siz ham bir kuni  
Ishq dardiga chalinmang.  
Buzib yana uyqumni,  
Tushlarimda yalinmang.

1980

\* \* \*

Қаерларда юриб эдингиз?  
Сизни кўп йил кидирдим,  
Жоним.  
Ётлар учун бор эса юлдуз,  
Бўм-бўш эди менинг осмоним.

Қаерларда юриб эдингиз?  
Сизни кўп йил кидирдим,  
Чопдим.  
Осмонимнинг юлдузин, эсиз,  
Сўнаётган чоғида топдим.

1981

\* \* \*

Дурустгина қизсиз аслида,  
Беҳудага қилмайсиз араз.  
Ачомлайсиз ёниб, беғараз,  
Чиройингиз ҳурлар наслидан.

Бироқ Сиздан кўнглим сал хижил,  
Меҳримга чанг солар бир шубҳа:  
Сиз дилкашу диловарсиз, ха...  
Ва барчага сахийсиз бир хил.

1973


\* \* \*

Иккови ҳам доривор кизлар,  
Иккови ҳам ёғдек ёқади.  
Бири доим дўстликдан сўзлар,  
Бири бот-бот бежо боқади.

1973

### **БИР ПАРИ БОР...**

Бўйдор, қадди келишган,  
Кўкраклари тўлишган  
Бир пари бор...  
Кимга зор?



• • •

Qayerlarda yurib edingiz?  
Sizni ko'p yil qidirdim,  
Jonim.  
Yotlar uchun bor esa yulduz,  
Bo'm-bo'sh edi mening osmonim.

Qayerlarda yurib edingiz?  
Sizni ko'p yil qidirdim,  
Chopdim.  
Osmonimning yulduzin, esiz,  
So'nayotgan chog'ida topdim.

1981

• • •

Durustgina qizsiz aslida,  
Behudaga qilmaysiz araz.  
Achomlaysiz yonib, beg'araz,  
Chiroyingiz hurlar naslidan.

Biroq Sizdan ko'nglim sal xijil,  
Mehringa chang solar bir shubha:  
Siz dilkash-u dilovarsiz, ha...  
Va barchaga saxiysiz bir xil.

1973

• • •

Ikkovi ham dorivor qizlar,  
Ikkovi ham yog'dek yoqadi.  
Biri doim do'stlikdan so'zlar,  
Biri bot-bot bejo boqadi.

1973

### **BIR PARI BOR...**

Bo'ydor, qaddi kelishgan,  
Ko'kraklari to'lishgan  
Bir pari bor...  
Kimga zor?

Кўпдан яшар тоқ, хомуш,  
Йигитлар дер: «Хуркак куш».  
Иффати пок,  
Қалби чок.

Давра курса шўх кизлар,  
У хилватроқ жой излар.  
Бу — хислатми,  
Қисматми?

Ҳар оқшом сой бўйида,  
Бўзлар кимнинг ўйида?  
Бермас уйқу  
Бир туйғу.

Мунгли боқар гулларга  
Ўхшаб қари тулларга.  
Ой очса юз,  
У — маъюс.

Чирмандага ўхшар ой,  
Ел шохларда чалар най,  
Далли анҳор  
Чертар тор.

Сахна — сохил, парда — тун...  
Кўшиқ бошлар киз маҳзун.  
Бу — хонишми?  
Нолишми?

Майса дилхун эгар бош,  
Шабнам — кўздан оққан ёш.  
Сақлар сукут  
Пат булут.

Сув ялаб сой қирғоғин,  
Ўпар кизнинг оёғин.  
Қистар секин:  
«Ол таскин!»

Қиз олисга боқар зор,  
Олисларда нима бор?



Ko'pdan yashar toq, xomush,  
Yigitlar der: «Hurkak qush».  
Iffati pok,  
Qalbi chok.

Davra qursa sho'x qizlar,  
U xilvatroq joy izlar.  
Bu — xislatmi,  
Qismatmi?

Har oqshom soy bo'yida,  
Bo'zlar kimning o'yida?  
Bermas uyqu  
Bir tuyg'u.

Mungli boqar gullarga  
O'xshab qari tullarga.  
Oy ochsa yuz,  
U — ma'yus.

Chirmandaga o'xshar oy,  
Yel shoxlarda chalar nay,  
Dalli anhor  
Chertar tor.

Sahna — sohil, parda — tun...  
Qo'shiq boshlar qiz mahzun.  
Bu — xonishmi?  
Nolishmi?

Maysa dilxun egar bosh,  
Shabnam — ko'zdan oqqan yosh.  
Saqlar sukut  
Pat bulut.

Suv yalab soy qirg'og'in,  
O'par qizning oyog'in.  
Qistar sekin:  
«Ol taskin!»

Qiz olisga boqar zor,  
Olislarda nima bor?



Муҳаббатми?  
Нафратми?

Бу — ўликка ё мотам,  
Бу — тирикдан ё ситам.  
Ё унутиш,  
Ё кутиш...

Бўйдор, қадди келишган,  
Кўкраклари тўлишган  
Бир пари бор...  
Кимга зор?!

1974

\* \* \*

Хилватларда кезмагил танҳо,  
Аччиқ бўлар рашкнинг ғурбати.  
Рашким ҳаққи, севгим ҳурмати  
Пандларимни эслаб юр гоҳо,  
Хилватларда кезмагил танҳо.

Қабихларга зор бўл, маликам,  
Улар қабих тусдамас, балки.  
Тор кўприкда турган аллаким  
Йўл беришни истамас, балки,  
Хилватларда кезмагил танҳо.

Ёдингдами сокин майсазор,  
Кимдир четдан боқиб тургани?  
Балки сенсиз унга олам тор,  
Балки мендир ёмон кўргани,  
Хилватларда кезмагил танҳо.

Қўлмак дея балчиққа ботар,  
Сел йўлидан юрганга қийин.  
Балки кимдир қўлингдан тортар,  
Балки қўйиб юбормас кейин,  
Хилватларда кезмагил танҳо.

Шумкадамлар ажралар тўндан,  
Ёлғизларни пок ният жамлар.

Muhabbatmi?  
Nafratmi?

Bu — o'likka yo motam,  
Bu — tirikdan yo sitam.  
Yo unutish,  
Yo kutish...

Bo'ydor, qaddi kelishgan,  
Ko'kraklari to'lishgan  
Bir pari bor...  
Kimga zor?!

1974

\* \* \*

Xilvatlarda kezmagil tanho,  
Achchiq bo'lar rashkning g'urbati.  
Rashkim haqqi, sevgim hurmati  
Pandlarimni eslab yur goho,  
Xilvatlarda kezmagil tanho.

Qabihlarga zog' bo'l, malikam,  
Ular qabih tUSDamas, balki.  
Tor ko'prikda turgan allakim  
Yo'l berishni istamas, balki,  
Xilvatlarda kezmagil tanho.

Yodingdami sokin maysazor,  
Kimdir chetdan boqib turgani?  
Balki sensiz unga olam tor,  
Balki mendir yomon ko'rgani,  
Xilvatlarda kezmagil tanho.

Ko'lmak deya balchiqqa botar,  
Sel yo'lidan yurganga qiyin.  
Balki kimdir qo'lingdan tortar,  
Balki qo'yib yubormas keyin,  
Xilvatlarda kezmagil tanho.

Shumqadamlar ajralar to'pdan,  
Yolg'izlarni pok niyat jamlar.

Поклик ҳаққи айрилма кўпдан,  
Ёндош бўлсин сенга одамлар,  
Хилватларда кезмагил танҳо.

1976

## УЧЧАНОҚЛАР

### 1. Абадийдир эзгулик

Мурғак калбада, ошналар,  
Ватан ишки бошланар  
Кулбаларнинг шифтидан.

\* \* \*

Ранжимай тур бугунча,  
Биласан-ку, кўинча —  
Мазах бўлар янгилик.

\* \* \*

Деди менга бир жинни:  
— Жумани едик, ини,  
Шанбаниям ғажиймиз!

\* \* \*

Чандиклар кўп танимда:  
Елкамдаги — ғанимдан,  
Кўксимдаги — дўстники.

\* \* \*

Маъқуллади оқиллар,  
Қарши чикди жоҳиллар,  
Муғамбирлар — бетараф.

\* \* \*

Милтиқда йўқ илтифот:  
Гадоми ё олий зот,  
Бир хил ўқда ўлдирар.

\* \* \*

Денгиздав у чиқиб соғ,  
Маёққа гул қўйган чор  
Оч ётганди маёқчи.

Poklik haqqi ayrilma ko'pdan,  
Yondosh bo'lsin senga odamlar,  
Xilvatlarda kezmagil tanho.

1976

## UCHCHANOQLAR

### 1. Abadiydir ezgulik

Murg'ak qallda, oshnalar,  
Vatan ishqi boshlanar  
Kulbalarning shiftidan.

\* \* \*

Ranjimay tur buguncha,  
Bilasan-ku, ko'pincha —  
Mazax bo'lar yangilik.

\* \* \*

Dedi menga bir jinni:  
— Jumani yedik, ini,  
Shanbaniyam g'ajiyimiz!

\* \* \*

Chandiqlar ko'p tanimda:  
Yelkamdagi — g'animdan,  
Ko'ksimdagi — do'stniki.

\* \* \*

Ma'qulladi oqillar,  
Qarshi chiqdi johillar,  
Mug'ambirlar — betaraf.

\* \* \*

Miltiqda yo'q iltifot:  
Gadomi yo oliy zot,  
Bir xil o'qda o'ldirar.

\* \* \*

Dengizdan u chiqib sog',  
Mayoqqa gul qo'ygan chog'  
Och yotgandi mayoqchi.

\* \* \*

Энг ғурурли буғулар  
Гарчи жарда туғилар,  
Ҳалок бўлар чўккида.

\* \* \*

Ёр кучиб, май ичган пайт,  
Эл дардидан кечган пайт  
Қиличингни ечиб қўй.

\* \* \*

Кўз ёшларин артди у,  
Шўхчан қўшиқ айтди у,  
Хайрон боқар фанимлар.

\* \* \*

Шунча унвон олиб ҳам,  
Шунча нишон олиб ҳам,  
Сукрот бўла олмади.

\* \* \*

Тўйиб олиб шаробга,  
Разм солдим атрофга —  
Ер тентираб айланар.

\* \* \*

Умрин бевакт сўлдирди,  
Уни бўғиб ўлдирди  
Олтинлар ва ёлғизлик.

\* \* \*

Кўп жойларни кездим мен,  
Бетобликда сездим мен  
Ўз уйимнинг меҳрини.

\* \* \*

Юрт хакида бу ўғлон  
Гапирмасди ҳеч қачон...  
Юрти учун жон тикди!

\* \* \*

У беш юзга кирган кун  
Дилим бирдан бўлиб хун,  
Дедим: «Бобур... ўлганми?!»

\* \* \*

Eng g'ururli bug'ular  
Garchi jarda tug'ilar,  
Halok bo'lar cho'qqida.

\* \* \*

Yor quchib, may ichgan payt,  
El dardidan kechgan payt  
Qilichingni yechib qo'y.

\* \* \*

Ko'z yoshlarin arttdi u,  
Sho'xchan qo'shiq aytdi u,  
Hayron boqar g'animlar.

\* \* \*

Shuncha unvon olib ham,  
Shuncha nishon olib ham,  
Suqrot bo'la olmadi.

\* \* \*

To'yib olib sharobga,  
Razm soldim atrofga —  
Yer tentirab aylanar.

\* \* \*

Umrin bevaqt so'ldirdi,  
Uni bo'g'ib o'ldirdi  
Oltinlar va yolg'izlik.

\* \* \*

Ko'p joylarni kezdim men,  
Betoblikda sezdim men  
O'z uyimning mehrini.

\* \* \*

Yurt haqida bu o'g'lon  
Gapirmasdi hech qachon...  
Yurti uchun jon tikdi!

\* \* \*

U besh yuzga kirgan kun  
Dilim birdan bo'lib xun.  
Dedim: «Bobur... o'lganmi?!»

\* \* \*

Ой шодон, тун чарофон,  
Ухлар гүё чол Кўкон  
Худоёрхон қасрида.

\* \* \*

Очиларкан чечаклар,  
Туғиларкан гўдаклар,  
Абадийдир эзгулик!

\* \* \*

Тинмай кўзёш тўкётиб,  
Кўзёшига чўкётиб,  
«Бахтлиман!» деб қичқирди.

\* \* \*

Чархдаги бор қахрамон —  
Бўлар оддий оломон,  
Битта жойга тўпланса.

\* \* \*

Ётга пастлик қилмади  
Ва нокаслик қилмади,  
Ўғлим мағрур юрсин деб.

\* \* \*

«Қани ўша ваъдалар?»  
Деди аламзадалар,  
Умр бўйи алдангач.

\* \* \*

Гўрков ишдан қайтпти,  
Тингланг, кўшиқ айтпти  
Қазилажак гўр ҳақда.

\* \* \*

Азроилга дер майхўр:  
— Акаси, сал шошмай ўр,  
Шу кўзаям бўшасин.

\* \* \*

Мен ўзимга қозиман  
Ва хозирча розиман  
Юрагимнинг ҳукмидан.

\* \* \*

Гўрўғли дер тушимда:  
«Жангчимисан, тушунмам  
Қалқонинг бор, қилич йўк...»



\* \* \*

Oy shodon, tun charog'on,  
Uxlar go'yo chol Qo'qon  
Xudoyorxon qasrida.

\* \* \*

Ochilarkan chechaklar,  
Tug'ilarkan go'daklar,  
Abadiydir ezgulik!

\* \* \*

Tinmay ko'zyosh to'kyotib,  
Ko'z yoshiga cho'kyotib,  
«Baxtliman!» deb qichqirdi.

\* \* \*

Charxdagi bor qahramon —  
Bo'lar oddiy olomon,  
Bitta joyga to'plansa.

\* \* \*

Yotga pastlik qilmadi  
Va nokaslik qilmadi,  
O'g'lim mag'rur yursin deb.

\* \* \*

«Qani o'sha va'dalar?»  
Dedi alamzadalar,  
Umr bo'yi aldangach.

\* \* \*

Go'rkov ishdan qaytyapti,  
Tinglang, qo'shiq aytyapti  
Qazilajak go'r haqda.

\* \* \*

Azroilga der mayxo'r:  
— Akasi, sal shoshmay o'r,  
Shu ko'zayam bo'shasin.

\* \* \*

Men o'zimga qoziman  
Va hozircha roziman  
Yuragimning hukmidan.

\* \* \*

Go'ro'g'li der tushimda:  
«Jangchimisan, tushunmam  
Qalqoning bor, qilich yo'q...»

\* \* \*

Тўнғич ўғлин кўмди чол,  
Оғир ўйга чўмди чол,  
Қарғаб узоқ умрини.

\* \* \*

Хиссиётга берилмай,  
Одамларга кўринмай  
Яшаш ҳам бир истеъдод.

\* \* \*

Лашкарини қилди жам  
Ва Боязид ўша дам  
Туркияга айланди.

\* \* \*

Кўпдир амалнинг тури,  
Амалдорнинг энг зўри  
Фақат алик олади.

\* \* \*

— Кел, бериб тур отингни...  
— Аввал айт-чи зотингни,  
Киминг ўтган чавандоз?

\* \* \*

Битта хоин бор жойда  
Бефойдадир, бефойда,  
Қалъалар ва соқчилар.

\* \* \*

Бўлолмасанг суюкрок  
Хамда ундан буюкрок,  
Нега уни ўлдирдинг?

\* \* \*

Хордик бермай оёкка,  
Югуряпман каёкка,  
Бобом ётган жойгами?

\* \* \*

-- Қадимийдир бу сандик,  
Қопқоғида --- қон, чандик...  
-- Пул сақланган, менимча.

\* \* \*

Ўтар юзлаб хоқонлар,  
Чикар минглаб фармонлар,  
Она меҳри ўзгармас!



\* \* \*

To'ng'ich o'g'lin ko'mdi chol,  
Og'ir o'yga cho'mdi chol,  
Qarg'ab uzoq umrini.

\* \* \*

Hissiyotga berilmay,  
Odamlarga ko'rinmay  
Yashash ham bir iste'dod.

\* \* \*

Lashkarini qildi jam  
Va Boyazid o'sha dam  
Turkiyaga aylandi.

\* \* \*

Ko'pdir amalning turi,  
Amaldorning eng zo'ri  
Faqat alik oladi.

\* \* \*

— Kel, berib tur otingni...  
— Avval ayt-chi zotingni,  
Kiming o'tgan chavandoz?

\* \* \*

Bitta xoin bor joyda  
Befoydadir, befoyda,  
Qal'alar va soqchilar.

\* \* \*

Bo'lolmasang suyukroq  
Hamda undan buyukroq,  
Nega uni o'ldirding?

\* \* \*

Hordiq bermay oyoqqa,  
Yuguryapman qayoqqa,  
Bobom yotgan joygami?

\* \* \*

— Qadimiyydir bu sandiq,  
Qopqog'ida — qon, chandiq...  
— Pul saqlashgan, menimcha.

\* \* \*

O'tar yuzlab xoqonlar,  
Chiqar minglab farmonlar,  
Ona mehri o'zgarmas!

\* \* \*

Ёши хозир етмишда...  
Келажак ва ўтмишга  
Бирдек ўчкор боқадн.

\* \* \*

Янглишмасам, бу шоир ✓  
Ўз қалбига мусофир,  
Ёт қалбларга ҳукмдор.

\* \* \*

Пана жойга беркиниб,  
Паст товушда сўкиниб,  
Машк қияпти мардликни.

\* \* \*

Тушунтиринг бир оғиз,  
Эртакдаги ялмоғиз  
Хозир қайси сохада?

\* \* \*

Ўликларнинг хизмати —  
Тирикларнинг қисматин  
Ёдга солиб турмоқлик.

\* \* \*

Хокон юрса саломат,  
Тарихчилар маломат  
Ёғдиrolмас бошидан.

\* \* \*

Югуравер, толикма,  
Энг мухими — ҳовликма  
Манзил яқин колганда.

\* \* \*

Ғалаба ҳам икки хил:  
Бирисидан яшнар дил,  
Орланасан биридан.

\* \* \*

Сен миниб кўр... Миниб ол!  
Юз бермаса кори хол,  
Майли, мен ҳам мингашай.

\* \* \*

Айт-чи, бизда нима кўн?  
Орзу, мўлжал, чама кўн,  
Энг танқисн бу имкон.

\* \* \*

Yoshi hozir yetmishda...  
Kelajak va o'tmishga  
Birdek o'chkor boqadi.

\* \* \*

Yanglishmasam, bu shoir  
O'z qalbiga musofir,  
Yot qalblarga hukmdor.

\* \* \*

Pana joyga berkinib,  
Past tovushda so'kinib,  
Mashq qilyapti mardlikni.

\* \* \*

Tushuntiring bir og'iz,  
Ertakdagi yalmog'iz  
Hozir qaysi sohada?

\* \* \*

O'liklarning xizmati —  
Tiriklarning qismatin  
Yodga solib turmoqlik.

\* \* \*

Xoqon yursa salomat,  
Tarixchilar malomat  
Yog'dirolmas boshidan.

\* \* \*

Yuguraver, toliqma,  
Eng muhimi — hovliqma  
Manzil yaqin qolganda.

\* \* \*

G'alaba ham ikki xil:  
Birisidan yashnar dil,  
Orlanasan biridan.

\* \* \*

Sen minib ko'r... Minib ol!  
Yuz bermasa kori hol,  
Mayli, men ham mingashay.

\* \* \*

Ayt-chi, bizda nima ko'p?  
Orzu, mo'ljal, chama ko'p,  
Eng tanqisi bu imkon.

\* \* \*

Гар хамёнинг қолса бўш,  
Ким ҳам бошга урар, хўш,  
Сендек қўли очикни?

\* \* \*

Енголмагач олишиб,  
Мақтаб, қарсак чалишиб,  
Уни йўлдан урдилар.

\* \* \*

Нега бунча хафасиз?  
Хафа бўлманг, топасиз —  
Ўтган кундан бошқасин.

\* \* \*

Фалсафа кўп оламда...  
Биламан, оғир дамда  
Аскатар ўз фалсафам.

\* \* \*

Умр шундай бир таом —  
Мазалими, шўрми, хом,  
Ейишимиз шарт барин.

\* \* \*

Туйғулари боғдадир,  
Орзулари тоғдадир,  
Ўзи эса... хандакда.

\* \* \*

Ер юзида одам кўп,  
Хамдард сероб, хамдам кўп,  
Дадагинам йўқ холос...

\* \* \*

Тун. Ненидир излар кўр,  
Кўзи очик унга дер:  
— Шам-пам ёқиб олсанг-чи!

\* \* \*

Янчди неча говларни,  
Енгди канча ёвларни...  
Мағлуб бўлди хирсидан.

\* \* \*

Темирдаими асаби?  
Қилич янглиғ қазабин  
Сақлар доим кинида.



\* \* \*

Gar hamyoning qolsa bo'sh,  
Kim ham boshga urar, xo'sh,  
Sendek qo'li ochiqni?

\* \* \*

Yengolmagach olishib,  
Maqtab, qarsak chalishib,  
Uni yo'ldan urdilar.

\* \* \*

Nega buncha xafasiz?  
Xafa bo'lmang, topasiz —  
O'tgan kundan boshqasin.

\* \* \*

Falsafa ko'p olamda...  
Bilaman, og'ir damda  
Asqatar o'z falsafam.

\* \* \*

Umr shunday bir taom —  
Mazalimi, sho'rmi, xom,  
Yeyishimiz shart barin.

\* \* \*

Tuyg'ulari bog'dadir,  
Orzulari tog'dadir,  
O'zi esa... handaqda.

\* \* \*

Yer yuzida odam ko'p,  
Hamdard serob, hamdam ko'p,  
Dadaginam yo'q xolos...

\* \* \*

Tun. Nenidir izlar ko'r,  
Ko'zi ochiq unga der:  
— Sham-pam yoqib olsang-chi!

\* \* \*

Yanchdi necha g'ovlarni,  
Yengdi qancha yovlarni...  
Mag'lub bo'ldi hirsidan.

\* \* \*

Temirdanmi asabi?  
Qilich yanglig' g'azabin  
Saqlar doim qinida.

\* \* \*

Май кўзасин бўшатиб,  
Сўка кетди ўхшатиб,  
Жамики бўш идишни.

\* \* \*

Ўк отилди ўрдакка,  
Ўрдак тушди кўлмакка,  
Чувалчанглар қочмади.

\* \* \*

Мен яшайман тиланиб,  
Сен яшайсан эланиб,  
Деди гадой кўрқокқа.

\* \* \*

Айтолмаган бир гапи  
Денгиздаги дур каби  
Қолди дилин тубида.

\* \* \*

Бўлмасайди ўч, хасад,  
Тобутдаги бу жасад  
Ҳали фарзанд кўрарди.

\* \* \*

Дединг: «Дард хам жозиба!»  
Ундай бўлса, розиман —  
Жозибасиз яшашга.

\* \* \*

У қувган эл тўнланди,  
У бузган юрт тикланди,  
Тирилмади Искандар.

\* \* \*

Нам кидирма кўзимдан,  
Ғам кидирма сўзимдан,  
Улар бари дафтарда.

## 2. Абориген дардлари

Абориген дардлари  
Дунёдаги мардларни  
Аборигенча йиллағар.





\* \* \*

May ko'zasin bo'shatib,  
So'ka ketdi o'xshatib,  
Jamiki bo'sh idishni.

\* \* \*

O'q otildi o'rdakka,  
O'rdak tushdi ko'lmakka,  
Chuvalchanglar qochmadi.

\* \* \*

Men yashayman tilanib,  
Sen yashaysan elanib,  
Dedi gadoy qo'rqqoqa.

\* \* \*

Aytolmagan bir gapi  
Dengizdagi dur kabi  
Qoldi dilin tubida.

\* \* \*

Bo'lmasaydi o'ch, hasad,  
Tobutdagi bu jasad  
Hali farzand ko'rardi.

\* \* \*

Deding: «Dard ham joziba!»  
Unday bo'lsa, roziman —  
Jozibasiz yashashga.

\* \* \*

U quvgan el to'plandi,  
U buzgan yurt tiklandi,  
Tirilmadi Iskandar.

\* \* \*

Nam qidirma ko'zimdan,  
G'am qidirma so'zimdan,  
Ular bari daftarda.

## **2. Aborigen dardlari**

Aborigen dardlari  
Dunyodagi mardlarni  
Aborigencha yig'latar.

\* \* \*

Қандай иблис доллар бу?  
Менга қарши ёллар у  
Хаттоки ўз ўғлимни.

\* \* \*

Европалик солдат ҳам,  
Европача одат ҳам  
Ҳиндуларга бир хил ёв.

\* \* \*

Қайсидир бир бемаъни  
Қуриб берди кемани...  
Колумбда ҳеч айб йўқ.

\* \* \*

Тушунгин-да холимга,  
Босиб кирсанг ховлимга,  
Сени қандай ёқтирай?

\* \* \*

Талон қилдинг боримни,  
Минг шукурки, оримни —  
Ололмадинг, беномус!

\* \* \*

Оч бўлса-да бу қуллар,  
Чайласида тинч ухлар,  
Қулдор титрар қалъада.

\* \* \*

Очсам тарих китобин,  
Хўжайин чўзиб олтин,  
Дер: «Қилсанг-чи маишат...»

\* \* \*

Қизил танли бир сотқин  
Бус-бутун юрт ва халқин  
Кемтик жонга алмашди.

\* \* \*

Кириб олдинг хонамга,  
Ҳеч бўлмаса боламга  
Сўйла меннинг тилимда.

\* \* \*

Исёнчини ушлади,  
Тенкилади, мушглади  
Исёнчи жон тиккан халқ.

\* \* \*

Qanday iblis dollar bu?  
Menga qarshi yollar u  
Hattoki o'z o'g'limni.

\* \* \*

Yevropalik soldat ham,  
Yevropacha odat ham  
Hindularga bir xil yov.

\* \* \*

Qaysidir bir bema'ni  
Qurib berdi kemani...  
Kolumbda hech ayb yo'q.

\* \* \*

Tushungin-da holimga,  
Bosib kirsang hovlimga,  
Seni qanday yoqtiray?

\* \* \*

Talon qilding borimni,  
Ming shukurki, orimni —  
Ololmading, benomus!

\* \* \*

Och bo'lsa-da bu qullar,  
Chaylasida tinch uxlar,  
Quldor titrar qal'ada.

\* \* \*

Ochsam tarix kitobin,  
Xo'jayin cho'zib oltin,  
Der: «Qilsang-chi maishat...»

\* \* \*

Qizil tanli bir sotqin  
Bus-butun yurt va xalqin  
Kemtik jonga almashdi.

\* \* \*

Kirib olding xonamga,  
Hech bo'lmasa bolamga  
So'yla mening tilimda.

\* \* \*

Isyonchini ushladi,  
Tepkiladi, mushtladi  
Isyonchi jon tikkan xalq.

\* \* \*

Бир яхшилик қил, ошна,  
Мени дорга ил, ошна,  
Осмай туриб боскинчи.

\* \* \*

Шукур қил деб зўрлашса,  
Ёт конунда хўрлашса,  
Демак қулсан, қарамсан.

\* \* \*

Майли, бир кун тунайқол,  
Сўнг уйингга жўнайқол,  
Кўп сукланма даламга.

\* \* \*

Жангдан омон қайтди у,  
Кўкрак кериб айтди у  
Қанча одам отганин.

\* \* \*

Хукмдорлар бир ховуч,  
Аmmo минглаб «исковуч»  
Уларнинг зоғ кўзидир.

\* \* \*

Бераётиб унга нон,  
Хатто ёвлар ҳам пинҳон  
Лаънатлайди хоинни.

\* \* \*

Кечса-да ўз тилидан,  
Кечса-да ўз элидан,  
Бўлолмади оқ танли.

\* \* \*


Эх, Европа, Европа,  
Бўлсанг-да бизга опа,  
Ўз болангни ўйлайсан!

\* \* \*

Кўркмам хавfli йўлимдан  
Ва йўлдаги ўлимдан,  
Алданмоқдан кўркман.

\* \* \*

Дўстларингни ошинди,  
Сенга қучоқ очинди,  
Демак... демак, сотқинсан!



\* \* \*

Bir yaxshilik qil, oshna,  
Meni dorga il, oshna,  
Osmay turib bosqinchi.

\* \* \*

Shukur qil deb zo'rlashsa,  
Yot qonunda xo'rlashsa,  
Demak qulsan, qaramsan.

\* \* \*

Mayli, bir kun tunayqol,  
So'ng uyingga jo'nayqol,  
Ko'p suqlanma dalamga.

\* \* \*

Jangdan omon qaytdi u,  
Ko'krak kerib aytdi u  
Qancha odam otganin.

\* \* \*

Hukmdorlar bir hovuch,  
Ammo minglab «iskovuch»  
Ularning zog' ko'zidir.

\* \* \*

Berayotib unga non,  
Hatto yovlar ham pinhon  
La'natlaydi xoinni.

\* \* \*

Kechsa-da o'z tilidan,  
Kechsa-da o'z elidan,  
Bo'lolmadi oq tanli.

\* \* \*

Eh, Yevropa, Yevropa,  
Bo'lsang-da bizga opa,  
O'z bolangni o'ylaysan!

\* \* \*

Qo'rqnam xavfli yo'limdan  
Va yo'ldagi o'limdan,  
Aldanmoqdan qo'rqaman.

\* \* \*

Do'stlaringni osishdi,  
Senga quechoq ochishdi,  
Demak... demak, sotqinsan!

\* \* \*

Келдим рухан ярадор,  
Бергил малхам ва мадор,  
Она ерим — ҳамширам!

\* \* \*

Ўғлим бир кун ўч олар,  
Холдан тойса, куч олар  
Қабримдаги тикондан.

\* \* \*

Сенга фақат бу хоқон  
Бера олгай зар, унвон,  
Элга суюк қилолмас.

\* \* \*

Гофил, ожиз ва хоммиз,  
Ҳам вақтинча омонмиз  
Чумолидай, пашшадай.

\* \* \*

Бу кинони кўрма, кўй,  
Сен кўрётган ушбу тўй  
Бизникимас, ўғилчам.

\* \* \*

Пок кўрсатиб ўзини,  
Бўяр кўпнинг кўзини  
Айғокчи ва фохиша.

\* \* \*

Бир бошингда бунча гам,  
Сенга ўзи нима кам,  
Нонми, пулми... Ватанми?

\* \* \*

Томошабин жаноблар,  
Сизлар кўпроқ жавобгар  
Жаллодларга нисбатан.

\* \* \*

Оқ танли бор бу гўрда...  
Ёлвормокда у мурда  
Энди бизнинг Худога.

\* \* \*

Кул урганмиш ўғлини,  
Қафасдаги тўтини  
Кўйворгани туфайли.

\* \* \*

Keldim ruhan yarador,  
Bergil malham va mador,  
Ona yerim — hamshiram!

\* \* \*

O'g'lim bir kun o'ch olar,  
Holdan toysa, kuch olar  
Qabrimdagi tikondan.

\* \* \*

Senga faqat bu xoqon  
Bera olgay zar, unvon,  
Elga suyuk qilolmas.

\* \* \*

G'ofil, ojiz va xommiz,  
Ham vaqtincha omonmiz  
Chumoliday, pashshaday.

\* \* \*

Bu kinoni ko'rma, qo'y,  
Sen ko'ryotgan ushbu to'y  
Biznikimas, o'g'ilcham.

\* \* \*

Pok ko'rsatib o'zini,  
Bo'yar ko'pning ko'zini  
Ayg'oqchi va fohisha.

\* \* \*

Bir boshingda buncha g'am,  
Senga o'zi nima kam,  
Nonmi, pulmi... Vatanmi?

\* \* \*

Tomoshabin janoblar,  
Sizlar ko'proq javobgar  
Jallodlarga nisbatan.

\* \* \*

Oq tanli bor bu go'rda...  
Yolvormoqda u murda...  
Endi bizning Xudoga.

\* \* \*

Qul urganmish o'g'lini,  
Qafasdagi to'tini  
Qo'yvorgani tufayli.

\* \* \*

Нонин олиб кўйнидан,  
Миниб туриб бўйнига,  
Сэр, жирканма дехқондан.

\* \* \*

Итоатли бўл, дединг,  
Қаноатли бўл, дединг,  
Давомини айтмадинг.

\* \* \*

— Келар шундай замонлар,  
Чархда қолмас ёмонлар...  
— Бўларкан-да зўр қирғин?!

\* \* \*

Кўрлигини билишиб,  
Сўнг соқов ҳам қилишиб,  
Сохта унвон бердилар.

\* \* \*

Тополмасанг бахтингни,  
Сўролмасанг ҳақкингни,  
Нега келдинг дунёга?

\* \* \*

Энг мухими, ўртоқлар,  
Йўқолмасин байроқлар,  
Байроқдорни топамиз.

\* \* \*

Деди кекса бодахўр:  
— Майли, хушёр яшаб кўр...  
Хушёрликка чидасанг.

\* \* \*

Кимдир унга тупурди,  
Мен индамай супурдим,  
Менинг она ерим бу.

\* \* \*

Ёшли эди кўзлари,  
Мунгли эди сўзлари,  
Шафқат килиб алдандим.

\* \* \*

Менда битта савол бор:  
Нега атай қуриб дор,  
Осилишмас ўзлари?



\* \* \*

Nonin olib qo'ynidan,  
Minib turib bo'yniga,  
Ser, jirkanma dehqondan.

\* \* \*

Itoatli bo'l, deding,  
Qanoatli bo'l, deding,  
Davomini aytmading.

\* \* \*

— Kelar shunday zamonlar,  
Charxda qolmas yomonlar...  
— Bo'larkan-da zo'r qirg'in?!

\* \* \*

Ko'rligini bilishib,  
So'ng soqov ham qilishib,  
Soxta unvon berdilar.

\* \* \*

Topolmasang baxtingni,  
So'rolmasang haqqingni,  
Nega kelding dunyoga?

\* \* \*

Eng muhimi, o'rtoqlar,  
Yo'qolmasin bayroqlar,  
Bayroqdorni topamiz.

\* \* \*

Dedi keksa bodaxo'r:  
— Mayli, hushyor yashab ko'r...  
Hushyorlikka chidasang.

\* \* \*

Kimdir unga tupurdi,  
Men indamay supurdim,  
Mening ona yerim bu.

\* \* \*

Yoshli edi ko'zlari,  
Mungli edi so'zlari,  
Shafqat qilib aldandim.

\* \* \*

Menda bitta savol bor:  
Nega atay qurib dor,  
Osilishmas o'zlari?

\* \* \*

Нон емади зорланиб...  
Тиланишдан орланиб,  
Ўлиб кетди хорликда.

\* \* \*

Тоғдан тушган бўрида  
Ва боскинчи ўғрида  
Эзгу мақсад бўлмайди.

\* \* \*

Жон берайлик, дўстим, шод,  
Биз орзикиб кутган зот  
Туфилажак албатта!

\* \* \*

Ойнинг ярми қоронғу,  
Кўражакман мен ёғду  
Сени зулмат ютган кун.

\* \* \*

Бўлса бўлар котилим  
Ўт юрагим ё тилим,  
Хатарлиси нафсимдир.

\* \* \*

Кўзингни оч, эй занжи,  
Сен сотётган бу камчи  
Калтаклагай ўғлингни.

\* \* \*

Қизик! Бу ер кимники?  
Бўлса агар сеники,  
Исботлаб бер, мен кетай.

\* \* \*


Дор ва тазйик бор жойда,  
Эркнинг уфки тор жойда  
Мард шоирлар туғилар.

\* \* \*

Ўз онамдир бу туяроқ,  
Нега менам хам кўяроқ  
Эмаркансан сен уни?!

\* \* \*

Товуш келди қабрдан:  
«Адо бўлдим қабрдан,  
Эдим беҳад виждонли...»



\* \* \*

Non yemadi zorlanib...  
Tilanishdan orlanib,  
O'lib ketdi xorlikda.

\* \* \*

Tog'dan tushgan bo'rida  
Va bosqinchi o'g'rida  
Ezgu maqsad bo'lmaydi.

\* \* \*

Jon beraylik, do'stim, shod,  
Biz orziqib kutgan zot  
Tug'ilajak albatta!

\* \* \*

Oyning yarmi qorong'u,  
Ko'rajakman men yog'du  
Seni zulmat yutgan kun.

\* \* \*

Bo'lsa bo'lar qotilim  
O't yuragim yo tilim,  
Xatarlisi nafsimdir.

\* \* \*

Ko'zingni och, ey zanji,  
Sen sotiyotgan bu qamchi  
Kaltaklagay o'g'lingni.

\* \* \*

Qiziq! Bu yer kimniki?  
Bo'lsa agar seniki,  
Isbotlab ber, men ketay.

\* \* \*

Dor va tazyiq bor joyda,  
Erkning ufqi tor joyda  
Mard shoirlar tug'ilar.

\* \* \*

O'z onamdir bu tuproq,  
Nega mendan ham ko'proq  
Emarkansan sen uni?!

\* \* \*

Tovush keldi qabrdan:  
•Ado bo'ldim jabrdan,  
Edim behad vijdonli...•

\* \* \*

Кўриб қанча урушни,  
Юзлаб ватанфурушни,  
Яшаяпти бу Ватан!

\* \* \*

Йиғсак барча қаламни,  
Бу халқ чеккан аламнинг  
Баёнига етмайди...

### 3. Эҳ, аёллар дунёси!

— Эҳ, аёллар дунёси!  
Борми унинг қиёси?  
— Ўхшар олтин қопқонга.

\* \* \*

Жазманларин олқиши  
Севгилисн қарғишин —  
Эшиттирмас бу қизга.

\* \* \*

Ташвишланма, ёр, хечам,  
Ой ботмагай бу кеча  
Ва тугамас бўсалар.

\* \* \*

Мени айлаб девона,  
Қалбимда бир жонона  
Яшар бефарқ, безавол.

\* \* \*

Ёлғиз юрсам дамо-дам,  
Товуш келар самодан:  
«Ношуд! Йўқми севгилинг?»

\* \* \*

Анграйтириб қизларни,  
Саргузаштин сўзларди  
Қисман ростни ҳам қўшиб.

\* \* \*

Томга чиқиб нарвондан,  
Эрига тоҳ «осмон»дан  
Худо бўлиб дўк урар.

\* \* \*

Ko'rib qancha urushni,  
Yuzlab vatanfurushni,  
Yashayapti bu Vatan!

\* \* \*

Yig'sak barcha qalamni,  
Bu xalq chekkan alamning  
Bayoniga yetmaydi...

### 3. Eh, ayollar dunyosi!

— Eh, ayollar dunyosi!  
Bormi uning qiyosi?  
— O'xshar oltin qopqonga.

\* \* \*

Jazmanlarin olqishi  
Sevgilisin qarg'ishin —  
Eshittirmas bu qizga.

\* \* \*

Tashvishlanma, yor, hecham,  
Oy botmagay bu kecha  
Va tugamas bo'salar.

\* \* \*

Meni aylab devona,  
Qalbimda bir jonona  
Yashar befarq, bezavol.

\* \* \*

Yolg'iz yursam damo-dam,  
Tovush kelar samodan:  
«Noshud! Yo'qmi sevgiling?»

\* \* \*

Angraytirib qizlarni,  
Sarguzashtin so'zlardi  
Qisman rostni ham qo'shib.

\* \* \*

Tomga chiqib narvondan,  
Eriga gob «osmon»dan  
Xudo bo'lib do'q urar.

\* \* \*

Тишга босиб тишини,  
Баъзан хотин кишини  
Сал мактаб ҳам кўярди.

\* \* \*

Мавжуд экан то аёл,  
Бўлиб бежо ўй-хаёл,  
Яшайверар шайтон ҳам.

\* \* \*

Куёвгинанг пулдормиш,  
Кўйлакларинг гулдормиш,  
... Зор эмишсан меҳрга.

\* \* \*

Хафарокман онамдан,  
Нега Сиздек санамдан  
Мени олдин туғмади?!

\* \* \*

Хилватларда излар йўк...  
Нахот довдир қизлар йўк  
Шундай катта қишлоқда?

\* \* \*

Кўп хўрланди тепкидан,  
Лек хануз чин севгидан  
Умидвормиш бу аёл.

\* \* \*

Кўнгли бўшдир пок қизнинг,  
Чунки ширин мағизнинг  
Юпка бўлар данаги.

\* \* \*

Бир бўсага кўндирдим,  
Шу заҳоти синдирдим  
Мукаддаслик калаҳин.

\* \* \*

Кўлдан-қўлга кўнса-да,  
Тез ёниб, тез сўнса-да,  
Ростгўй эди бечора.

\* \* \*

Қиздан сўнги хат келди,  
Тоғдек вазмин дард келди  
Юпкагина қогозда.

\* \* \*

Tishga bosib tishini,  
Ba'zan xotin kishini  
Sal maqtab ham qo'yardi.

\* \* \*

Mavjud ekan to ayol,  
Bo'lib bejo o'y-xayol,  
Yashayverar shayton ham.

\* \* \*

Kuyovginang puldormish,  
Ko'ylaklaring guldormish,  
... Zor emishsan mehrga.

\* \* \*

Xafaroqman onamdan,  
Nega Sizdek sanamdan  
Meni oldin tug'madi?!

\* \* \*

Xilvatlarda izlar yo'q...  
Nahot dovdur qizlar yo'q  
Shunday katta qishloqda?

\* \* \*

Ko'p xo'rlandi tepkidan,  
Lek hanuz chin sevgidan  
Umidvormish bu ayol.

\* \* \*

Ko'ngli bo'shdir pok qizning,  
Chunki shirin mag'izning  
Yupqa bo'lar danagi.

\* \* \*

Bir bo'saga ko'ndirdim,  
Shu zahoti sindirdim  
Muqaddaslik qadahin.

\* \* \*

Qo'ldan-qo'lga qo'nsa-da,  
Tez yonib, tez so'nsa-da,  
Rostgo'y edi bechora.

\* \* \*

Qizdan so'nggi xat keldi,  
Tog'dek vazmin dard keldi  
Yupqagina qog'ozda.

\* \* \*

Куёв қалай, келиншо,  
Тушларингиз мабодо  
Келмадими тескари?

\* \* \*

Топинг менга бир хотин,  
Суриштирманг таг-зотин,  
Шеърни севса бўлгани.

\* \* \*

Тўхта фурсат! Оқма сув!  
Бағримдаги бу сулув  
Қаримасин ҳеч қачон.

\* \* \*

Ерда ётган суратинг  
Гўё мендан сўради:  
«Бахтлимисан, бевафо?!»

\* \* \*

Ёр кўзида чакин бор,  
Қалбим, кўркмай яқин бор,  
Йирок кетсанг, куйдирар.

1979 – 1981

## ҚАҲРАТОН

Далли бўрон қилмоқда нолиш,  
Йиртилгандек улкан пар болиш,  
Тўзғиб тушар самодан қорлар.  
Дўст аталган ўша беорлар  
Далдага зор бўлганим дамда,  
Ёлғиз қўйиб мени хонамда,  
Юргандирлар пулдан хис ясаб...  
О, уларда метиндек асаб!

Қимда асаб бўлса мустаҳкам,  
Чекинармиш ундан бутқул ғам  
Ва мушқули битармиш осон...  
Балки, чиндир,  
Балки, гирт ёлғон.



\* \* \*

Kuyov qalay, kelinsho,  
Tushlaringiz mabodo  
Kelmadimi teskari?

\* \* \*

Toping menga bir xotin,  
Surishtirmang tag-zotin,  
She'rni sevsa bo'lgani.

\* \* \*

To'xta fursat! Oqma suv!  
Bag'rimdagi bu suluv  
Qarimasin hech qachon.

\* \* \*

Yerda yotgan surating  
Go'yo mendan so'radi:  
«Baxtlimisan, bevafo?!»

\* \* \*

Yor ko'zida chaqin bor,  
Qalbm, qo'rqmay yaqin bor,  
Yiroq ketsang, kuydirar.

1979 – 1981

## QAHRATON

Dalli bo'ron qilmoqda nolish,  
Yirtilgandek ulkan par bolish,  
To'zg'ib tushar samodan qorlar.  
Do'st atalgan o'sha beorlar  
Daldaga zor bo'lganim damda.  
Yolg'iz qo'yib meni xonamda,  
Yurgandirlar puldan his yasab...  
O, ularda metindek asab!

Kimda asab bo'lsa mustahkam,  
Chekinarmish undan butkul g'am  
Va mushkuli bitarmish oson...  
Balki, chindir.  
Balki, g'irt yolg'on.

✓ Тамакини пайдар-пай тортиб,  
 Хаёл деган кўлмакка ботиб,  
 Синикканот ўрдак сингари  
 Учолмай шу кўлмакдан нари,  
 Ўлтирибман кулбамда ёлғиз.

Сизни эсга олсам, барно қиз,  
 Хушомад деб ўйламанг асло.  
 Лутфингизга зормасман,  
 Аммо —  
 Хайкал каби мағрур ва хиссиз,  
 Коровулдек бедор ва ишсиз  
 Тонгни қарши олгандан кўра,  
 Бошга ўтмиш тасмасин ўраб,  
 Куйланса-да жафолар нукул,  
 Ишк кўшигин тинглаган маъкул.

Дардчил кўшиқ!  
 Бирок менимча,  
 Бошланиши ёмонмас унча.  
 У кўшиқнинг кириш қисмида  
 Бир овсарнинг сокин жисмида  
 Туғён уриб илохий туйғу,  
 Кўзларига қўнмайин уйқу,  
 Хандон-хушон нафас олгани —  
 Бир малакни севиб қолгани  
 Куйланади жўшқин,  
 Жарангдор,  
 Тинглаганлар қўмсагай такрор.

У кўшиқнинг авжида эса,  
 Қиз ёрига тутиб илк бўса,  
 Эзгуликка жўрлаб дил созин,  
 Лабдан тўкиб майин овозин,  
 Оғуш ичра нозик тўлғаниб,  
 Ўз ишқини қуйлагай ёниб.  
 Нахотки, у қуйлагай ҳамон?  
 Нахот, бу рост?  
 Нахот, бу ёлғон?!

Tamakini paydar-pay tortib,  
 Xayol degan ko'lmakka botib,  
 Siniqqanot o'rdak singari  
 Ucholmay shu ko'lmakdan nari,  
 O'ltiribman kulbamda yolg'iz.

Sizni esga olsam, barno qiz,  
 Xushomad deb o'ylamang aslo.  
 Lutfingizga zormasman,  
 Ammo —  
 Haykal kabi mag'rur va hissiz,  
 Qorovuldek bedor va ishsiz  
 Tongni qarshi olgandan ko'ra,  
 Boshga o'tmish tasma sin o'rab,  
 Kuylansa-da jafolar nuqul,  
 Ishq qo'shig'in tinglagan ma'qul.

Dardchil qo'shiq!  
 Biroq menimcha,  
 Boshlanishi yomonmas uncha.  
 U qo'shiqning kirish qismida  
 Bir ovsarning sokin jismida  
 Tug'yon urib ilohiy tuyg'u,  
 Ko'zlariga qo'nmayin uyqu,  
 Xandon-xushon nafas olgani —  
 Bir malakni sevib qolgani  
 Kuylanadi jo'shqin,  
 Jarangdor,  
 Tinglaganlar qo'msagay takror.

U qo'shiqning avjida esa,  
 Qiz yoriga tutib ilk bo'sa,  
 Ezgulikka jo'rlab dil sozin,  
 Labdan to'kib mayin ovozin,  
 Og'ush ichra nozik to'lg'anib,  
 O'z ishqini kuylagay yonib.  
 Nahotki, u kuylagay hamon?  
 Nahot, bu — rost?  
 Nahot, bu — yolg'on?!

\* \* \*

Хаёлимда эшикни очиб,  
Остонамга қорларни сочиб,  
Қирдингиз-у кулбамга секин,  
Бош эгиб жим турибсиз, лекин.

Ташрифингиз қилди мени лол...  
Қираколинг, жоним, бемалол,  
Гарчи энди  
Қалбимда Сизга —  
Бераҳм ва бедаво қизга  
Топилмаса ҳамки тузук жой,  
Илк бўсалар ҳаққи,  
Ҳойнахой,  
Ҳурмат этиб бахтим ўғрисин,  
Қўрсатурман уйнинг тўрсин.

Бордир, ахир, қадим ривоят:  
Мардлик қилиб бир мезбон ғоят,  
Шод этмоқ-чун майхўр меҳмонин,  
Май топмагач,  
Тутиб ўз қонин,  
Жон берганмиш сўнгра беармон.  
Балки, чиндир,  
Балки, фирт ёлғон.

\* \* \*

Кенг хонада, мана, ўзимиз...  
Минг афсуски,  
Энди сўзимиз  
Аввалгидек қовушмас сира.  
Таъбим бир оз кўринса хира,  
Кечиргайсиз нобоп мезбонини.  
Ранжитмоқ-чун Сиздек жононини,  
Мурғак қалбим қинга тўлиб ё,  
Онадан зўр аблаҳ бўлиб ё  
Туғилишим керак эди мен.  
Рухсат беринг,  
Туриб энди мен,  
Дамлаб хижрон қаби аччиқ чой,  
Сўнгра гаплар топиб нойма-ной,

\* \* \*

Xayolimda eshikni ochib,  
Ostonamga qorlarni sochib,  
Kirdingiz-u kulbamga sekin,  
Bosh egib jim turibsiz, lekin.

Tashrifingiz qildi meni lol...  
Kiraqoling, jonim, bermalol,  
Garchi endi  
Qalbidamda Sizga —  
Berahm va bedavo qizga  
Topilmasa hamki tuzuk joy,  
Ilk bo'salar haqqi,  
Hoynahoy,  
Hurmat etib baxtim o'g'risin,  
Ko'rsaturman uyning to'risin.

Bordir, axir, qadim rivoyat:  
Mardlik qilib bir mezbon g'oyat,  
Shod etmoq-chun mayxo'r mehmonin.  
May topmagach,  
Tutib o'z qonin,  
Jon berganmish so'ngra bearmon.  
Balki, chindir,  
Balki, g'irt yolg'on.

\* \* \*

Keng xonada, mana, o'zimiz...  
Ming afsuski,  
Endi so'zimiz  
Avvalgidek qovushmas sira.  
Ta'bim biroz ko'rinsa xira,  
Kechirgaysiz nobop mezbonni.  
Ranjitmoq-chun Sizdek jononni,  
Murg'ak qalbidam kinga to'lib yo,  
Onadan zo'r ablah bo'lib yo  
Tug'ilishim kerak edi men.  
Ruxsat bering,  
Turib endi men.  
Damlab hijron kabi achchiq choy.  
So'ngra gaplar topib poyma-poy.

Йиғласа-да юрагим юм-юм,  
Шод бўлишга тиришай бир зум.

Фақат, билмай турибман hozир,  
Сизга нелар бўларкин манзур?  
Истасангиз,  
Кўнглингиз учун  
Сочингизни силашим мумкин.  
Ё қувликка солиб ўзимни,  
Сохта кувонч тўлган кўзимни  
Сизга тикиб турайми бирпас?  
Хуснингиздан бўлган каби маст,  
Гох талпиниб,  
Гох афв сўраб,  
Қаҳрингиздан сал-пал хавфсираб  
Сўзлашимни хоҳларсиз, балки?  
Тувакдаги гул каби ёки  
Жамол очиб ночор ва маъсум,  
Бахш этайми сунъий табассум?

Лек булардан бизга қандай наф,  
Қалбаки ҳис-туйғу,  
Қуруқ гап  
На юракка беролгай далда,  
Чўғ бўлолгай ва на сандалга.  
Ундан кўра, қордан киз ясаб,  
Бир дақиқа туриб лабо-лаб,  
Сиз топтаган меҳримнинг ярмин  
Унга сочсам,  
Бўлингки амин,  
Сиздан кўра эрирди тезроқ  
Ва қайта муз бўлмасди мутлоқ.

Узрим айтай сулув меҳмонга...  
Нахотки, қор тушиб осмондан,  
Ерда Сиздан бўлолса афзал?  
... Таажжуб, яна кизишибман сал.  
Кулмоқчийдим,  
Ахир мен мезбон...  
(Куйганим рўст,  
Кулганим ёлғон).

Yig'lasa-da yuragim yum-yum,  
Shod bo'lishga tirishay bir zum.

Faqat, bilmay turibman hozir,  
Sizga nelar bo'larkin manzur?  
Istasangiz,  
Ko'nglingiz uchun  
Sochingizni silashim mumkin.  
Yo quvlikka solib o'zimni,  
Soxta quvonch to'lgan ko'zimni  
Sizga tikib turaymi birpas?  
Husningizdan bo'lgan kabi mast,  
Goh talpinib,  
Gohi afv so'rab,  
Qahringizdan sal-pal xavfsirab  
So'zlashimni xohlarsiz, balki?  
Tuvakdagi gul kabi yoki  
Jamol ochib nochor va ma'sum,  
Baxsh etaymi sun'iy tabassum?

Lek bulardan bizga qanday naf,  
Qalbaki his-tuyg'u,  
Quruq gap  
Na yurakka berolgay dalda,  
Cho'g' bo'lolgay va na sandalga.  
Undan ko'ra, qordan qiz yasab,  
Bir daqiqa turib labo-lab,  
Siz toptagan mehrimning yarmin  
Unga sochsam,  
Bo'lingki amin,  
Sizdan ko'ra erirdi tezroq  
Va qayta muz bo'lmasdi mutloq.

Uzrim aytay suluv mehmonga...  
Nahotki, qor tushib osmondan,  
Yerda Sizdan bo'lolsa afzal?  
... Taajjub, yana qizishibman sal.  
Kulmoqchiydim,  
Axir men mezbon...  
(Kuyganim rost,  
Kulganim yolg'on).

Жоним,  
 Қилиб кўринг-а фараз,  
 Гўдакликдан йўлдошим — араз.

Хали митти жужук чоғимда,  
 Юрмай туриб ўз оёғимда;  
 Кечроқ мамма тутгани боис,  
 Гинахонлик бўлар деб жоиз,  
 Юларканман аямнинг юзин.  
 (Бу — раҳматли бувимнинг сўзи).

Шим кийишни ўрганган кезим,  
 Энди тўлиб-тошди деб эсим,  
 Ҳайит ёки байрам бўлган кун  
 Эркакча сарф-харажат учун  
 Маблағ сўраб кеккайганим дам,  
 Майдарок пул берсалар дадам,  
 Олаётиб чақани ночор,  
 Қилар эдим хафалик изхор.

Роса ўн йил ўқиб мактабда,  
 Колавердим рухан мен латта.  
 Мана, Сизга оддий бир мисол:  
 Дарс пайтида юз бериб кор-хол,  
 Бўшаб қолиб довотим ногоҳ,  
 Сўрганим чок бор-йўғи сиёҳ,  
 Пастлик қилса бирон синфдош,  
 Кўзларимдан сизар эди ёш.

Уч-тўрт шеърим чиккач марказда,  
 Амирийдек одимлаб аста,  
 Борарканман  
 Йўлакдан танҳо,  
 «Зўр шоир»га қилмасдан парво,  
 Ён-веримдан ўтганлари дам,  
 Ранжиганман одамлардан хам.

Бола инжик бўлмоғи мумкин.  
 Хатто ўттиз ёшда мен бугун  
 Гарчи ноҳак,



Jonim,  
 Qilib ko'ring-a faraz,  
 Go'daklikdan yo'ldoshim — araz.

Hali mitti jujuq chog'imda,  
 Yurmay turib o'z oyog'imda;  
 Kechroq mamma tutgani bois,  
 Ginaxonlik bo'lar deb joiz,  
 Yularkanman ayamning yuzin.  
 (Bu — rahmatli buvimning so'zi).

Shim kiyishni o'rgangan kezim,  
 Endi to'lib-toshdi deb esim,  
 Hayit yoki bayram bo'lgan kun  
 Erkakcha sarf-xarajat uchun  
 Mablag' so'rab kekkayganim dam,  
 Maydaroq pul bersalar dadam,  
 Olayotib chaqani nochor,  
 Qilar edim xafalik izhor.

Rosa o'n yil o'qib maktabda,  
 Qolaverdim ruhan men latta.  
 Mana, Sizga oddiy bir misol:  
 Dars paytida yuz berib kor-hol,  
 Bo'shab qolib dovotim nogoh,  
 So'rganim choq bor-yo'g'i siyoh,  
 Pastlik qilsa biron sinfdosh,  
 Ko'zlarimdan sizar edi yosh.

Uch-to'rt she'rim chiqqach markazda,  
 Amiriydek odimlab asta,  
 Borarkanman  
 Yo'lakdan tanho,  
 «Zo'r shoir»ga qilmasdan parvo,  
 Yon-verimdan o'tganlari dam,  
 Ranjiganman odamlardan ham.

Bola injiq bo'lmog'i mumkin.  
 Hatto o'ttiz yoshda men bugun  
 Garchi nohaq,

Гарчи бехуда  
Ва кулгили бўлса-да жуда,  
Панжам билан юзимни тўсиб,  
Ўтирибман дўстлардан ўксиб.

Қайсидир чол айтганди ўгит:  
«Кўнглингни бўш қилмагин, йигит,  
Сақлай десанг курашларда жон...»  
Балки, чиндир...  
Балки, фирт ёлғон.

\* \* \*

Бўлсам ҳамки аразгўй ва суст,  
Хар ҳолда бир одатим дуруст, —  
Юрагимда узоқ турмас кин,  
Йўкса, бўлиб қолардим худбин.  
Ўйлаб кўринг ўзингиз ахир,  
Хохи ширин,  
Хох бўлсин тахир,  
Борлиғи-ла гўзал ҳаётни —  
Кўплар ялаб тўймаган тотни  
Менга онам қилган-ку тортик.

Дадам эса, ҳаммадан ортик —  
Ўйлар эди бахтим, тинчимни.  
Гоҳ оғритган бўлса ичимни,  
Бу қасд эмас,  
Бу — бир оталик.

Олсинлар деб саломга алик,  
Эгиламан одамларга ҳам.  
Чунки, улар бўлмасайди жам:  
Тошқин шавқим,  
Ўчқор аламим,  
Жангар туйғум,  
Дошли каламим,  
Учқур орзум,  
Эркин кўшигим,  
Меҳрим,  
Қаҳрим,  
Севгим ва йиғим

Garchi behuda  
Va kulgili bo'lsa-da juda,  
Panjam bilan yuzimni to'sib,  
O'tiribman do'stlardan o'ksib.

Qaysidir chol aytgandi o'git:  
«Ko'nglingni bo'sh qilmagin, yigit,  
Saqlay desang kurashlarda jon...»  
Balki, chindir...  
Balki, g'irt yolg'on.

\* \* \*

Bo'lsam hamki arazgo'y va sust,  
Har holda bir odatim durust, —  
Yuragimda uzoq turmas kin,  
Yo'qsa, bo'lib qolardim xudbin.  
O'ylab ko'ring o'zingiz axir,  
Xohi shirin,  
Xoh bo'lsin taxir,  
Borlig'i-la go'zal hayotni —  
Ko'plar yalab to'ymagan totni  
Menga onam qilgan-ku tortiq.

Dadam esa, hammadan ortiq —  
O'ylar edi baxtim, tinchimni.  
Goh og'ritgan bo'lsa ichimni.  
Bu qasd emas,  
Bu — bir otalik.

Olsinlar deb salomga alik,  
Egilaman odamlarga ham.  
Chunki, ular bo'lmasaydi jam:  
Toshqin shavqim,  
O'chkor alamim,  
Jangar tuyg'um,  
Doshli qalamim,  
Uchqur orzum,  
Erkin qo'shig'im,  
Mehrim,  
Qahrim,  
Sevgim va yig'im

Хор бўларди бўм-бўш оламда,  
Қабристонда порлаган шамда  
Бўлмагандек файзу нафосат.

Яшолмасдим дўстларсиз албат.  
Дафъатан шод бўлган онингда,  
Турмасалар ҳамки ёнингда;  
Дилинг ногох ўкинган маҳал  
Кечикиброк келсалар-да сал,  
Улар — рухнинг синмас таянчи,  
Қалб сандигин туганмас ганжи.

Меҳмонгинам,  
Бирок Сиз ҳақда  
Сўйлай олмам бунчалар мактаб.  
Кезиб кўп йил соядек бирга,  
Шерик қилиб ҳар нафас сирга,  
Тортик этиб кўнгилда борин,  
Илк севгимни  
Тўкмай охорин  
Қўлингизга узатсам-да зор,  
Бўлганмисиз киттай миннатдор?  
Танангизга солиб ранж титроқ,  
Кипригингиз таққанда мунчок,  
Сиздан кўпроқ зирқираб таним,  
Тинчлантувчи гаплар айтганим  
Ҳеч бўлмаса ёдингиздадир?  
Тушунаман,  
Сизга барибир,  
Юрганим чок руҳан дарбадар,  
Олмадингиз ҳолимдан хабар.

О, инжитиб кўйдингиз кимни?!  
Энг зилол,  
Энг ноёб туйғумни  
Юргандим-а бир Сизга асраб...

Ёрга бода тунган қирмиз лаб,  
Кўҳлик билан чимрилувчи қош,  
Қувончлардан тўкилган кўзёш,  
Қабоҳатдан ўрилган юзлар,  
Садокатдан сўзлаган кўзлар,

Xor bo'lardi bo'm-bo'sh olamda,  
Qabristonda porlagan shamda  
Bo'lmagandek fayz-u nafosat.

Yasholmasdim do'stlarsiz albat.  
Daf'atan shod bo'lgan oningda,  
Turmasalar hamki yoningda;  
Diling nogoh o'kingan mahal  
Kechikibroq kelsalar-da sal,  
Ular — ruhning sinmas tayanchi,  
Qalb sandig'in tuganmas ganji.

Mehmonginam,  
Biroq Siz haqda  
So'ylay olmam bunchalar maqtab.  
Kezib ko'p yil soyadek birga,  
Sherik qilib har nafas sirga,  
Tortiq etib ko'ngilda borin,  
Ilk sevgimni  
To'kmay ohorin  
Qo'lingizga uzatsam-da zor,  
Bo'lganmisiz qittay minnatdor?  
Tanangizga solib ranj titroq,  
Kiprigingiz taqqanda munchoq,  
Sizdan ko'proq zirqirab tanim,  
Tinchlantuvchi gaplar aytganim  
Hech bo'lmasa yodingizdadir?  
Tushunaman,  
Sizga baribir,  
Yurganim choq ruhan darbadar,  
Olmadingiz holimdan xabar.

O, injitib qo'ydingiz kimni?!  
Eng zilol,  
Eng noyob tuyg'umni  
Yurgandim-a bir Sizga asrab...

Yorga boda tutgan qirmiz lab,  
Ko'hlik bilan chimrilguvchi qosh,  
Quvonchlardan to'kilgan ko'zyosh,  
Qabohatdan o'grilgan yuzlar,  
Sadoqatdan so'zlagan ko'zlar,

Қонда жўшган шиддат сурури,  
Шернинг отамерос фурури  
Шу севгимга берганди пардоз...

Йўк, булар кам,  
Булар ҳали оз.  
Айтсам, нахот адо бўлғуси?

... Гўдақларнинг ширин уйқуси,  
Шодагулнинг дилкушо атри,  
Шерозий ва Машрабнинг сатри,  
Охуларнинг хуркак нигоҳи,  
Келинларнинг нашъали охи,  
Ватанимнинг бағри кенглиги,  
Ёниқ қалбнинг ойга тенглиги,  
Қайс-Лайлининг севинч-ҳасрати,  
Ўзбекнинг бор гўзал одати  
Шу севгимда эди мужассам...

Йўк, булар оз,  
Булар ҳали кам...

Алам билан эслайман ҳануз:  
Кўкдан узиб бергандек юлдуз,  
Кўзингизга боқиб пурвиқор,  
Этганим чок севгимни изҳор,  
Дегандингиз килиб Сиз гумон:  
«Балки, чиндир,  
Балки, фирт ёлғон...»

\* \* \*

Садкайи сар чекканим ранжим.  
Сезмоқдаман,  
Энди юпанчим  
Янги тонгдан умид  
Ва чидам.  
Хотиротга айланган дадам  
Бугун тунда тушимга кириб,  
Ажабмаски, тасалли бериб,  
Овунтирса эрка фарзандин.  
Она ўтга отмас дилбандин,  
Етқирмайин не ситам, завод,

Qonda jo'shgan shiddat sururi,  
Sherning otameros g'ururi  
Shu sevgimga bergandi pardoz...

Yo'q, bular kam,  
Bular hali oz.  
Aytsam, nahot ado bo'lg'usi?

... Go'daklarning shirin uyqusi,  
Shodagulning dilkusho atri,  
Sheroziy va Mashrabning satri,  
Ohularning hurkak nigohi,  
Kelinlarning nash'ali ohi,  
Vatanimning bag'ri kengligi,  
Yoniq qalbning oyga tengligi,  
Qays-Laylining sevinch-hasrati,  
O'zbekning bor go'zal odati  
Shu sevgimda edi mujassam...

Yo'q, bular oz,  
Bular hali kam...

Alam bilan eslayman hanuz:  
Ko'kdan uzib bergandek yulduz,  
Ko'zingizga boqib purviqor,  
Etganim choq sevgimni izhor,  
Degandingiz qilib Siz gumon:  
«Balki, chindir,  
Balki, g'irt yolg'on...»

\* \* \*

Sadqayi sar chekkanim ranjim.  
Sezmoqdaman,  
Endi yupanchim  
Yangi tongdan umid  
Va chidam.  
Notirotga aylangan dadam  
Bugun tunda tushimga kirib,  
Ajabmaski, tasalli berib,  
Oyuntirsa erka farzandim.  
Ona o'tga otmas dilbandim,  
Yetkirmayin ne sitam, zavol.

Нечоғ жеркиб сўйламай кўпол,  
Ўша содда, феъли тилсим зот  
Вафодордир менга умрбод.  
Ишонаман,  
Ўкраб тўксам ёш,  
Бирон дўст ё собиқ спнфдош  
Артиб кўяр кўзим ўша тоб.  
Олмоқ учун шунчаки савоб,  
Ҳар иккинчи нотаниш одам  
Кўяр менинг ярамга малҳам.  
Яна англаб етдимки бугун:  
Дунёда энг чехраси гулгун,  
Бағри баҳор тонгидек илик,  
Бор вужуди меҳрга тўлик  
Покдамон ва саҳий шу Ватан —  
Севгимга энг лойиқ гулбадан.  
Гулбаданки, ўйлаш ўзи — шон,  
Шохлиги рост,  
Қуллиги ёлғон!

\* \* \*

... Хаёлимда эшикни очиб,  
Остонамга қорларни сочиб,  
Кирдингиз-у кулбамга секин,  
Бош эгиб жим турибсиз, лекин.  
Афсус,  
Ташриф буюрдингиз кеч,  
Кўйинг, эгманг бошингизни ҳеч.  
Чунки Сизни кўрсам дилнора,  
Кўрқаманки,  
Қалбим бечора  
Дош беролмай, йиғлагай такрор...  
Жоним,  
Мени кийнаманг бекор.

Вазиятни очик айтганда,  
Мен аразўй,  
Ношукур банда  
Сиздек оқил жононни бугун  
Майда-чуйда айбингиз учун  
Таҳкирлашга турибман тайёр.

Ташқарида хануз ёғар қор...  
Момик нарлар тўзғитиб само,




Nechog' jerkib so'ylamay qo'pol,  
O'sha sodda, fe'li tilsim zot  
Vafodordir menga umrbod.  
Ishonaman,  
O'krab to'ksam yosh,  
Biron do'st yo sobiq sinfdosh  
Artib qo'yar ko'zim o'sha tob.  
Olmoq uchun shunchaki savob,  
Har ikkinchi notanish odam  
Qo'yar mening yaramga malham.  
Yana anglab yetdimki bugun:  
Dunyoda eng chehrasi gulgun,  
Bag'ri bahor tongidek iliq,  
Bor vujudi mehrga to'liq  
Pokdamon va saxiy shu Vatan —  
Sevgimga eng loyiq gulbadan.  
Gulbadanki, o'ylash o'zi — shon,  
Shohligi rost,  
Qulligi yolg'on!

\* \* \*

... Xayolimda eshikni ochib,  
Ostonamga qorlarni sochib,  
Kirdingiz-u kulbamga sekin,  
Bosh egib jim turibsiz, lekin.  
Afsus,  
Tashrif buyurdingiz kech,  
Qo'ying, egmang boshingizni hech,  
Chunki Sizni ko'rsam dilpora,  
Qo'rqamanki,  
Qalvim bechora  
Dosh berolmay, yig'lagay takror...  
Jonim,  
Meni qiynamang bekor.

Vaziyatni ochiq aytganda,  
Men arazgo'y,  
Noshukur banda  
Sizdek oqil jononni bugun  
Mayda-chuyda aybingiz uchun  
Tahqirlashga turibman tayyor.

Tashqarida hanuz yog'ar qor...  
Momiq parlar to'zg'itib samo,



Лойда ётган ишқимни гўё  
Дафн этишга бермоқда ёрдам.

... Ишқим бир бор кўмилди,  
Эркам!  
Уни қайта кавлаб олишга,  
Сизни яна севиб қолишга  
Менда энди этишмас имкон...

Ёнганим рост,  
Тонганим ёлғон!

1976

## **БОЛАГИНА**

*Дўстим Юсуф Зокировга*

Бесўнакай туфлим остидан  
Кунлар оқиб ўтган кезлари,  
Таъкиб қилар соям ортидан  
Миттигина оёқ излари.

Болалигим менинг ортимдан  
Кезиб юрар хануз саргардон.  
Чақнок кўзи ялинар зимдан,  
Қайтайлик деб имлайди нодон.

Ундан кетмоқ бўлсам мен нари,  
Чопқиллар у тошиб ғайрати.  
Менинг ёшим улғайган сари,  
Ошиб борар унинг хайрати.

Ўзлигимдан настдалигимда  
Гоҳ кимгадир сўйлайман ёлғон.  
Яшамокка усталигимдан  
Болалигим хайрон ва хайрон.

Бу кеч менга жилмайган барно  
Эрта ўзга ёрга тутса лаб,  
Мен эхтимол куйинмам,  
Аммо –  
Болалигим йиғлайди хўнграб.

Loyda yotgan ishqimni go'yo  
Dafn etishga bermoqda yordam.

... Ishqim bir bor ko'mildi,  
Erkam!  
Uni qayta kavlab olishga,  
Sizni yana sevib qolishga  
Menda endi yetishmas imkon...

Yonganim rost,  
Tonganim yolg'on!

1976

## **BOLAGINA**

*Do'stim Yusuf Zokirovga*


Beso'naqay tuflim ostidan  
Kunlar oqib o'tgan kezlari,  
Ta'qib qilar soyam ortidan  
Mittigina oyoq izlari.

Bolaligim mening ortimdan  
Kezib yurar hanuz sargardon.  
Chaqnoq ko'zi yalinar zimdan,  
Qaytaylik deb imlaydi nodon.

Undan ketmoq bo'lsam men nari.  
Chopqillar u toshib g'ayrati.  
Mening yoshim ulg'aygan sari,  
Oshib borar uning hayrati.

O'zligimdan pastdaligimda  
Goh kimgadir so'ylayman yolg'on.  
Yashamoqqa ustaligimdan  
Bolaligim hayron va hayron.

Bu kech menga jilmaygan barno  
Erta o'zga yorga tutsa lab,  
Men ehtimol kuyinmam,  
Ammo  
Bolaligim yig'laydi ho'ngrab.



Ҳар қадамда меъёр ва ўлчам,  
Буни қайдан англасин гўдак.  
Ой сўнгида маош кутсам ҳам,  
Шумтакага бўламан эрмак.

Ялинаман:

— Шафқат қил пича,  
Таъкиб этма мени изма-из.  
Ахил эдик сен билан кеча,  
Бугун қолмоқ нстайман ёлғиз.

Айрилолмай сулув орзумдан,  
Одимлайман манзилим томон...  
Болалигим кезар ортимдан,  
Қайтайлик деб имлайди нодон.

1979

\* \* \*

Шошма, қалбим,  
Орзуманд қалбим,  
Қоқаверма олдинга канот.  
Нафас ростлаб, ўйласак бир зум,  
Бизни роса-а сийлабди ҳаёт.

Шошма, қалбим,  
Ношукур қалбим,  
Интиляпмиз яна биз қайга?  
Аллақачон етгаимиз балким  
Дастлаб орзу қилинган жойга.

1976

\* \* \*

Сезмагай  
Бағрини тевса ўк,  
Авайлар эл бағрин ярадан.  
Шоирдан ҳеч қимнинг қарзи йўқ.  
Шоирлар қарздордир ҳаммадан!

1982

Har qadamda me'yor va o'lcham,  
Buni qaydan anglasin go'dak.  
Oy so'ngida maosh kutsam ham,  
Shumtakaga bo'laman ermak.

Yalinaman:

— Shafqat qil picha,  
Ta'qib etma meni izma-iz.  
Ahil edik sen bilan kecha,  
Bugun qolmoq istayman yolg'iz.

Ayrilolmay suluv orzumdan,  
Odimlayman manzirim tomon...  
Bolaligim kezar ortimdan,  
Qaytaylik deb imlaydi nodon.

1979

\* \* \*

Shoshma, qalbim,  
Orzumand qalbim,  
Qoqaverma oldinga qanot.  
Nafas rostlab, o'ylasak bir zum,  
Bizni rosa-a siylabdi hayot.

Shoshma, qalbim,  
Noshukur qalbim,  
Intilyapmiz yana biz qayga?  
Allaqachon yetganmiz balkim  
Dastlab orzu qilingan joyga.

1976

\* \* \*

Sezmagay  
Bag'rini teshsa o'q,  
Avaylar el bag'rin yaradan.  
Shoirdan hech kimning qarzi yo'q,  
Shoirlar qarzdordir hammadan!

1982

## ЮЛДУЗИМ

Юлдузим,  
Розиман,  
Ўксима сира,  
Киборфеъл мунажжим олмас бўлса тан.  
Гар мунггинг хирадир, қувончинг хира,  
Барибир бир умр сендан розиман,  
Юлдузим.

Юлдузим,  
Қисинма,  
Чироқчам ўзинг,  
Чўлпондек чакнашга бевакт учинма.  
Қамаштир лоақал бир жужук кўзин,  
Борлигинг ўзи чўнг бахтдир, қисинма,  
Юлдузим.

Юлдузим,  
Сўнмагил,  
Учма бемаҳал,  
Орзуйим кул этиб, чангга дўнмагил.  
Тонг яқин, тонг яқин, сабр киптур сал,  
Ақалли илк нурин кўрай, сўнмагил,  
Юлдузим!

1977

\*\*\*

Тураверсин:  
Ўйчан букри тол,  
Мусофирни ямлаган ботқок,  
Кўрғошинлар тирпаган дувол  
Ва лашкарлар чекинган сўқмоқ.

Тегманг менинг хотиротимга!

1978

## YULDUZIM

Yulduzim,  
Roziman,  
O'ksima sira,  
Kiborfe'l munajjim olmas bo'lsa tan.  
Gar mungging xiradir, quvonching xira,  
Baribir bir umr sendan roziman,  
Yulduzim.

Yulduzim,  
Qisinma,  
Chiroqcham o'zing,  
Cho'lpondek chaqnashga bevaqt uchinma.  
Qamashtir loaqal bir jujuq ko'zin,  
Borliging o'zi cho'ng baxtdir, qisinma,  
Yulduzim.

Yulduzim,  
So'nmagil,  
Uchma bemahal,  
Orzuyim kul etib, changga do'nmagil.  
Tong yaqin, tong yaqin, sabr qiptur sal,  
Aqalli ilk nurin ko'ray, so'nmagil,  
Yulduzim!

1977

\*\*\*

Turaversin:  
O'ychan bukri tol,  
Musofirni yamlagan botqoq,  
Qo'rg'oshinlar tirnagan duvol  
Va lashkarlar chekingan so'qmoq.

Tegmang mening xotirotinga!

1978

## ШЕЪРҲОНГА

Ўқи қорнинг очгани сайин,  
Билиб ол шеър ўқиш шартини.  
Чунки,  
Қорнинг тўйгандан кейин  
Тушунмайсан шоир дардини.

1975

\* \* \*

Шахид бўлди бири навқирон,  
Иккинчиси туғилди бевакт.  
Ўлтирибман хомуш ва хайрон,  
Марсиями ёки битай мадх?

Совук боқдим зимдан гўдакка,  
Мархум эса кўринди гулгун...  
Қарилликни олиб йўргакка,  
Ёшлигимни дафн этдим бугун.

1975



## ***SHE'RXONGA***

O'qi qorning ochgani sayin,  
Bilib ol she'r o'qish shartini.  
Chunki,  
Qorning to'ygandan keyin  
Tushunmaysan shoir dardini.

1975

\* \* \*

Shahid bo'ldi biri navqiron,  
Ikkinchisi tug'ildi bevaqt.  
O'ltiribman xomush va hayron,  
Marsiyami yoki bitay madh?

Sovuq boqdim zimdan go'dakka,  
Marhum esa ko'rindi gulgun...  
Qarilikni olib yo'rgakka,  
Yoshligimni dafn etdim bugun.

1975



1948 yil. O'g'ir bolib o'shib davlatim



1961 yil Dadam va sinchisi Shatolat animumi oilasi birligida



1953-yil. «Ko'chabop libos»da.



1957-yil. Polosondagi 13-maktab  
o'quvchisi.



1957-yil. Oilamizning dadamlari bo'lsa, barcha a'zolari



1961-yil. Dadam, ukalarim Akram, Tohir va jivanim Mahmud bilan.



1967-yil. Harbiy ta'limni ukam Avazbek bilan.



1966-yil. Samarqand Moliya texnikumi talabasi.



1972 .il - Birmochi tarzaod



1973-yil. Bu suratni tuman gazetasidagi kasbdoshim, marhum Mahmudjon Sauginov olgandi.



2003-yil. Shaykat Rahmonov to'ra kechida.



1976-yil.



1969 yil Jamoa xo'jaligida tabelchi bo'lib ham ishlaganman





1979-yil. Jurnalistika fakultetidagi kursdoshlar bilan.



1984-yil. O'zami, latifiqam, besh nafar o'g'lim va qizlari bilan.



1991-yil. Assalom, Mustaqillik!



2004 yil Donda Sard Ahmad bilan.



1998-yil. To'ng'ich o'g'lim Bahrom va nevaralarim bilan.



2004 yil. Ustoz Erkin Voludov bilan



2003-yil. Safo Matjon, Tursunboy Adashboyev, Abdurahmon Akbar bilan.



2007-yil. Ahmadjon Mehboobov, Xudobekovich To'staboyev, Mahmud Sattor bilan.

# SOCHIMGA OQ ORALAB

*Соҳимга оқ ораляб*



Гул давринг дастимдан саҳрода ўтди,  
Э маъюс ёшлигим, кечиргил мени.  
Кунларинг амримга ижрода ўтди,  
Э маъюс ёшлигим, кечиргил мени.

Ҳайқириб кезмадинг улфатлар билан,  
Тонг кутмадинг ширин суҳбатлар билан,  
Олишдинг ёнимда ғурбатлар билан,  
Э маъюс ёшлигим, кечиргил мени.

Мухаббат шавқига қўмилдинг қачон,  
Қизларнинг меҳрида қўмилдинг қачон,  
Оромсиз кўз бўлдинг, юмилдинг қачон,  
Э маъюс ёшлигим, кечиргил мени.

Она юзин тўйиб силай олмадинг,  
Ота исин қониб хидлай олмадинг,  
Мен боис бурчингни бутлай олмадинг,  
Э маъюс ёшлигим, кечиргил мени.

Ҳеч тўхташ билмадим, тиним билмадим,  
Ишрат бағрин очса, қўним билмадим,  
Хатто сенсиз қолган куним билмадим,  
Э маъюс ёшлигим, кечиргил мени.

Хаёлимда мендан изларсан пана,  
Суратдан жим, хомуш боқарсан яна,  
Тушларимда йиғлаб қиларсан таъна,  
Э маъюс ёшлигим, кечиргил мени...

2005

### **ИГНАБАРГ ШЕЪРЛАР**

Филдираги йўқдир Ватанинг!

\* \* \*

Қуллик ўзи гўрков, ўзи гўр.

\* \* \*

Норахўрлар пулнинг ўйнаши.

\* \* \*

Таъзияга чорламас қарнай.

Gul davring dastimdan sahroda o'tdi,  
E ma'yus yoshligim, kechirgil meni.  
Kunlaring amrimga ijroda o'tdi,  
E ma'yus yoshligim, kechirgil meni.

Hayqirib kezmading ulfatlar bilan,  
Tong kutmading shirin suhbatlar bilan,  
Olishding yonimda g'urbatlar bilan,  
E ma'yus yoshligim, kechirgil meni.

Muhabbat shavqiga ko'milding qachon,  
Qizlarning mehrida cho'milding qachon,  
Oromsiz ko'z bo'lding, yumilding qachon,  
E ma'yus yoshligim, kechirgil meni.

Ona yuzin to'yib silay olmading,  
Ota isin qonib hidlay olmading,  
Men bois burchingni butlay olmading,  
E ma'yus yoshligim, kechirgil meni.

Hech to'xtash bilmadim, tinim bilmadim,  
Ishrat bag'rin ochsa, qo'nim bilmadim,  
Hatto sensiz qolgan kunim bilmadim,  
E ma'yus yoshligim, kechirgil meni.

Xayolimda mendan izlarsan pana,  
Suratdan jim, xomush boqarsan yana,  
Tushlarimda yig'lab qilarsan ta'na,  
E ma'yus yoshligim, kechirgil meni...

2005

### **IGNABARG SHE'RLAR**

G'ildiragi yo'qdir Vatanning!

\* \* \*

Qullik o'zi go'rkov, o'zi go'r.

\* \* \*

Poraxo'rlar pulning o'ynashi.

\* \* \*

Ta'ziyaga chorlamas karnay.

\* \* \*

Ўзи омон, китоби мархум.

\* \* \*

Шляпали эшакни миндим!

\* \* \*

Erни сўқди... осмонга чикқач.

\* \* \*

Келди тухмат — яктак-иштонсиз.

\* \* \*

Эркли мушук кучокда ётмас.

\* \* \*

Дазмолларга бўйсунма, шимим!

\* \* \*

Ойга шиша отди маст ўғри...

\* \* \*

Қабримга ҳам занжир ўраманг.

\* \* \*

«Худо» ясаб, ишонмас ўзи.

\* \* \*

Бу эртагинг қачон тугайди?

\* \* \*

Мени ўлдир, қушчага тегма!

\* \* \*

Микрофонсиз куйлар замбарак.

1987


## АЁЛ

*Покдамон аёл Аниса она Қодирийга*

Гавхар кўндир, бироқ етмас ҳаммага,  
Олтин кўндир, бироқ етмас ҳаммага,  
Олмос кўндир, бироқ етмас ҳаммага...  
Бир аёлнинг меҳри ҳаммага стар.

Гавхар ноёб, аммо юрар қўлма-қўл,  
Олтин ноёб, аммо юрар қўлма-қўл,  
Олмос ноёб, аммо юрар қўлма-қўл...  
Аёл ноёб токи қўлма-қўл юрмас.

2003





\* \* \*

O'zi omon, kitobi marhum.

\* \* \*

Shlyapali eshakni mindim!

\* \* \*

Yerni so'kdi... osmonga chiqqach.

\* \* \*

Keldi tuhmat — yaktak-ishtonsiz.

\* \* \*

Erkli mushuk quchoqda yotmas.

\* \* \*

Dazmollarga bo'ysunma, shimim!

\* \* \*

Oyga shisha otdi mast o'g'ri...

\* \* \*

Qabrimga ham zanjir o'ramang.

\* \* \*

«Xudo» yasab, ishonmas o'zi.

\* \* \*

Bu ertaging qachon tugaydi?

\* \* \*

Meni o'ldir, qushchaga tegma!

\* \* \*

Mikrofonsiz kuylar zambarak.

1987

## AYOL

*Pokdamon ayol Anisa opa Qodiriyga*

Gavhar ko'pdir, biroq yetmas hammaga,  
 Oltin ko'pdir, biroq yetmas hammaga,  
 Olmos ko'pdir, biroq yetmas hammaga...  
 Bir ayolning mehri hammaga yetar.

Gavhar noyob, ammo yurar qo'lma-qo'l.  
 Oltin noyob, ammo yurar qo'lma-qo'l.  
 Olmos noyob, ammo yurar qo'lma-qo'l.  
 Ayol noyob — toki qo'lma-qo'l yurma

2011 - йил 28 июль. 22-б5. ўзбекистон!  
 1989. 24.09. *Ирина*  
 Душанбе. *Ирина*  
 568 28 34

\* \* \*

— Нечун кадам олишинг чаккон,  
Йўл бўлсин,  
Ҳей, Анвар Обиджон?  
— Уйда мени кутар бир санам, —  
Ҳомиладор қоракўз қалам...

2000

\* \* \*

Йингит эдим ўшанда...  
Чўнг орзулар нишонда,  
Учраган киз — дилдорим.

Энди кўнглим кишанда...  
Тирикчилик — кушанда,  
Болаларим — кулдорим.

2004

## **МАНГУБЕРДИ ФАЛСАФАСИ**

Тикандек кўп оламда лашкар,  
Бири жисман, бири рухан зўр.  
Ғижинган ёк доим юртпарвар,  
Тиржайган ёк доим ватанхўр.

Чечакдек кўп оламда элат,  
Бири яшнар, бири сўлади.  
Халқ бўлади «Биз!» деган миллат,  
«Мен» деган халқ миллат бўлади.

1985

\* \* \*

Сен кўрқасан,  
Ғанимларнинг никоблари-ю,  
Бўйдоқ кизнинг кўзидаги ажинасидан.  
Мен кўрқаман  
Ватанимнинг муҳолифи-ю,  
Элпарварга ўчкорларнинг хазинасидан.

1984

\* \* \*

— Nechun qadam olishing chaqqon,  
Yo'l bo'lsin,  
Hey, Anvar Obidjon?  
— Uyda meni kutar bir sanam, —  
Homilador qorako'z qalam...

2000

\* \* \*

Yigit edim o'shanda...  
Cho'ng orzular nishonda,  
Uchragan qiz — dildorim.

Endi ko'nghim kishanda...  
Tirikchilik — kushanda,  
Bolalarim — quldorim.

2004

### **MANGUBERDI FALSAFASI**

Tikandek ko'p olamda lashkar,  
Biri jisman, biri ruhan zo'r.  
G'ijingan yoq doim yurtparvar,  
Tirjaygan yoq doim vatanxo'r.

Chechakdek ko'p olamda elat,  
Biri yashnar, biri so'ladi.  
Xalq bo'ladi «Biz!» degan millat,  
«Men» degan xalq millat bo'ladi.

1985

\* \* \*

Sen qo'rqasan,  
G'animlarning niqoblari-yu,  
Bo'ydoq qizning ko'zidagi ajinasidan.  
Men qo'rqaman  
Vatanimning muxolifi-yu,  
Elparvarga o'chkorlarning xazinasidan.

1984

Недир сабрин тўлдиран,  
 Уйга хомуш қайтар у,  
 Муштин қисиб айтар у:  
 «Бундай яшаб бўлмайди!»

... Шонр ўзи ўлмайди,  
 Уни недир ўлдиран.

1983

## ЯЛПИЗ

*Кулликдан эндигина озод этилган масалчи Эзонни ибодатхона жиҳозини ўғирлашда ноҳақ айбладилар. Одатда, бундай жиноят учун эркили фуқарони жарга улоқтиришар, қулни эса хўжасининг ўзи жазолар эди...*

Қўлда «Озодлик қоғози»,  
 Эзон борар жарликка.  
 Кайсар Эзон эмас рози  
 Маънавий хор-зорликка.  
 Ялок пойлаб, муте юрмок  
 Хамиятга касд эмиш.  
 Қушдек қанот қокиб ўлмок  
 Шавкидан у маст эмиш.  
 Хўжаси дер:  
 — Кулликни, кел,  
 Тан олақола қайтадан.  
 Жазо берай, майли, снгил —  
 Текин масал айтасан...  
 Чимрилар ҳур Эзон беғам,  
 Тўйиб хидлар ялпизни.  
 — Гар зўрлингнинг кўзса, хўжам,  
 Сипкоравер деигизни!

Аврай бошлар октўш пари:  
 Кул бўл, Эзон, вақтинча.  
 Эхтиросим сенга бари,  
 Пошукурсан, ох, булча?  
 Шахватига туфлар Эзон,

Nedir sabrin to'ldirar,  
 Uyga xomush qaytar u,  
 Mushtin qisib aytar u:  
 «Bunday yashab bo'lmaydi!»

... Shoir o'zi o'lmaydi,  
 Uni nedir o'ldirar.

1983

## YALPIZ

*Qullikdan endigina ozod etilgan masalchi Ezopni ibodatxona jihozini o'g'irlashda nohaq aybladilar. Odatda, bunday jinoyat uchun erkli fuqaroni jarga uloqtirishar, qulni esa xo'jasining o'zi jazolar edi...*

Qo'lda «Ozodlik qog'ozi»,  
 Ezop borar jarlikka.  
 Qaysar Ezop emas rozi  
 Ma'naviy xor-zorlikka.  
 Yaloq poylab, mute yurmoq  
 Hamiyatga qasd emish.  
 Qushdek qanot qoqib o'lmoq  
 Shavqidan u mast emish.

Xo'jasi der:

— Qullikni, kel,  
 Tan olaqol qaytadan.  
 Jazo beray, mayli, yengil —  
 Tekin masal aytasan...  
 Chimrilar hur Ezop beg'am,  
 To'yib hidlar yalvizni.

Gar zo'rqliging qo'zsa, xo'jam,  
 Sipqoraver dengizni!

Avray boshlar oqto'sh pari:

Qul bo'l, Ezop, vaqtincha.  
 Ehtirosim senga bari,  
 Noshukursan, oh, buncha?  
 Shahvatiga tufflar Ezop,





Hidlar yana yalpizni:  
— Erk deb itdek chekdim azob,  
Quchib o'lay shu «qiz»ni!

Qul o'ziga hukm bitar,  
Bitta o'zi hay'atda.  
Nozirlar-u qandfurushlar  
Pastdan boqar hayratda.  
Yuqsa netar bu telbalik  
Butun o'lka ahliga?  
Saroy tomon suzar hadik,  
Quldorlarda — tahlika...

Qo'lda «Ozodlik qog'ozi»,  
Ezop borar jarlikka.  
Qaysar Ezop emas rozi  
Ma'naviy xor-zorlikka.  
Yalpiz hidlab, so'rar sho'x-shan,  
Yurgan kabi sayrda:  
— Ozod insonga atalgan  
O'sha jarlik qayerda?!


Chetdan tovush yangrar titroq:  
— Yaqin qoldi,  
Bardam bo'l!  
Jur'ating sal so'nsa biroq,  
Bu manzil — ming yillik yo'l...

1983

### **QURBONJON DODHO**

Otilishdan qo'rqma,  
o'g'lonim!  
Osilishdan qo'rqma,  
o'g'lonim!  
Dahshatlisi — zanjir-u qafas  
Va xalq urib o'ldirmasa bas.

1987



## ФАЛАСТИН ШОИРИ МУИН БСИСУ

Ҳомиладор келин каштаси,  
Ўчкор эрнинг яроғидир шеър.  
Кесик тилнинг тирик риштаси,  
Йўқ Ватаннинг тупроғидир шеър.  
Мен учун у — кўчманчи қабрим.

1984

\* \* \*

Кўхна урфга эҳтиром,  
Эски китоб, эски ном  
Мустабидни кўрқитар.

Янги авлод, шахд, кураш,  
Янгича сўз, тик қараш  
Мустабидни йикитар.

1985


## УЛУҒБЕКНИНГ ЎҒЛИ ИЛА ВИДОЛАШУВИ

Тахт ўткинчи, э нодон,  
Мен кетдим, сен яшайвер.  
Илмсиз юрт биёбон,  
Мен кетдим, сен яшайвер.

Сароб - хон бу сахрога,  
Ғофил тўлди дунёга,  
Кошки қочсам зухрога,  
Мен кетдим, сен яшайвер.

Булар гулмас, бурғандир,  
Илонлар ни курғандир,  
Барин худо урғандир,  
Мен кетдим, сен яшайвер.

Мовий нуқта кўл эмас,  
Қизили тасма йўл эмас,





## **FALASTIN SHOIRI MUIN BSISU**

Homilador kelin kashtasi,  
O'chkor erning yarog'idir she'r.  
Kesik tilning tirik rishtasi,  
Yo'q Vatanning tuprog'idir she'r.  
Men uchun u — ko'chmanchi qabrim.

1984

\* \* \*

Ko'hna urfga ehtirom,  
Eski kitob, eski nom  
Mustabidni qo'rqitar.

Yangi avlod, shahd, kurash,  
Yangicha so'z, tik qarash  
Mustabidni yiqitar.

1985

## **ULUG'BEKNING O'G'LI ILA VIDOLASHUVI**

Taxt o'tkinchi, e nodon,  
Men ketdim, sen yashayver.  
Ilmsiz yurt — biyobon,  
Men ketdim, sen yashayver.

Sarob — xon bu sahroga,  
G'ofil to'ldi dunyoga,  
Koshki qochsam zuhroga,  
Men ketdim, sen yashayver.

Bular gulmas, burgandir,  
Ilonlar in qurgandir,  
Barin xudo urgandir,  
Men ketdim, sen yashayver.

Moviy nuqta ko'l emas,  
Qizg'ish tasma yo'l emas,

Ўнг ўнгмас, сўл сўл эмас,  
Мен кетдим, сен яшайвер.

Бунда аза, тўй ёлғон,  
Уфурган хуш бўй ёлғон,  
Хатто мақсад, ўй ёлғон,  
Мен кетдим, сен яшайвер.

Тун кўзимга бўлди фарк,  
Қолмади тўрт ёқда фарк,  
Кўрсатсанг бас — қаён Шарк,  
Мен кетдим, сен яшайвер.

Жайхун — Сайхун орасин  
Ҳеч битмади яраси...  
Топган бўлсанг чорасин,  
Мен кетдим, сен яшайвер.

Ох, болам...  
Сен яшайвер...

1987

## **ИГНАБАРГ ШЕЪРЛАР**

Тиламчига гул тутди кизча.

\* \* \*

Йиртик пайпоқ нафақа кутар...

\* \* \*

Кўк гиламда ётмас окилон.

\* \* \*

Ракетага қондош бу сабзи!

\* \* \*

Ёлғон тарих шол қилди мени.

\* \* \*

Кишанимни еч-чи зўр бўлсанг.


\* \* \*

Пул тўплар у ... етимхонада.

\* \* \*

Эрк йўлида қурбон бўл, эрким!

1987



O'ng o'ngmas, so'l so'l emas,  
Men ketdim, sen yashayver.

Bunda aza, to'y yolg'on,  
Ufurgan xush bo'y yolg'on,  
Hatto maqsad, o'y yolg'on,  
Men ketdim, sen yashayver.

Tun ko'zimga bo'ldi g'arq,  
Qolmadi to'rt yoqda farq,  
Ko'rsatsang bas — qayon Sharq,  
Men ketdim, sen yashayver.

Jayhun-Sayhun orasin  
Hech bitmadi yarasi...  
Topgan bo'lsang chorasin,  
Men ketdim, sen yashayver.

Oh, bolam...  
Sen yashayver...

1987

### **IGNABARG SHE'RLAR**

Tilamchiga gul tutdi qizcha.

\* \* \*

Yirtiq paypoq nafaqa kutar...

\* \* \*

Ko'k gilamda yotmas oqilon.

\* \* \*

Raketaga qondosh bu sabzi!

\* \* \*

yolg'on tarix shol qildi meni.

\* \* \*

Kishanimni yech-chi zo'r bo'lsang.

\* \* \*

Pul to'plar u ... yetimxonada.

\* \* \*

Erk yo'lida qurbon bo'l, erkim!

1987



Кулма, «тутун» десам олтинни,  
Тоғ ҳам қотган тутун парчаси.  
Англаб ет хирс қўйишдан олдин,  
Йўқ нарсадир борнинг барчаси.

Коиотда олам ҳам зарра,  
Фақат Тангри мангу бутундир.  
Ҳар неда бор бошланиш, марра,  
Маррадан сўнг... яна тутундир.

1989

### **ҲАЗАЛ ШАКЛИДАГИ ШЕЪРЛАР**

Сен каби комати расо Фарғонада биттагина,  
Мен каби каддингга адо Фарғонада биттагина.

Сен каби дийдори табиб, нози шифо қайда яна,  
Мен каби дарди бедаво Фарғонада биттагина.

Сен каби мастона қўшиқ воҳадаю водийда йўқ,  
Мен каби қайғули наво Фарғонада биттагина.

Сен каби жон офатини юз йил бино этса эгам,  
Мен каби юз жони фидо Фарғонада биттагина.

Сен каби султони ҳусн Турон аро бир донадир,  
Мен каби ҳуснингга гадо Фарғонада биттагина.

1988

*(«Фарғона фожиаси»дан сўнг)*

Миллатинг афғонини кўнгилга олмоқлик оғир,  
Дарди тоғ эл ёнида дардлоши бўлмоқлик оғир.

Қўмсадим такрор шаробни, истадим такрор юпанч,  
Бекларинг беғам эса, ҳушёр қолмоқлик оғир.

Kulma, «tutun» desam oltinni,  
Tog' ham qotgan tutun parchasi.  
Anglab yet xirs qo'yishdan oldin,  
Yo'q narsadir borning barchasi.

Koinotda olam ham zarra,  
Faqat Tangri mangu butundir.  
Har neda bor boshlanish, marra,  
Marradan so'ng... yana tutundir.

1989

### **G'AZAL SHAKLIDAGI SHE'RLAR**

Sen kabi qomati raso Farg'onada bittagina,  
Men kabi qaddingga ado Farg'onada bittagina.

Sen kabi diydori tabib, nozi shifo qayda yana,  
Men kabi dardi bedavo Farg'onada bittagina.

Sen kabi mastona qo'shiq vohadayu vodiya yo'q,  
Men kabi qayg'uli navo Farg'onada bittagina.

Sen kabi jon ofatini yuz yil bino etsa egam,  
Men kabi yuz joni fido Farg'onada bittagina.

Sen kabi sultoni husn Turon aro bir donadir,  
Men kabi husningga gado Farg'onada bittagina.

1988

*(«Farg'ona fojiasi»dan so'ng)*

Millating afg'onini ko'ngilga olmoqlik og'ir,  
Dardi tog' el yonida darddoshi bo'lmoqlik og'ir.

Qo'nsadim takror sharobni, istadim takror yupanch,  
Beklaring beg'am esa, hushyor qolmoqlik og'ir.



Эл билан бўлмоқ учун бу эл кўншкан зил кишан —  
Бир учин инграб секин бўйнингга солмоқлик оғир.

Халк кўзин очгунча то зардобланиб тазйиқ аро,  
Жангача силланг қуриб, жанг чоғи толмоқлик оғир.

Бир бутун юрт ўкраса, менга не даркор шон,  
Порадил най ёнида карнай чалмоқлик оғир.

Бахтга зор ўғлонларинг ўк еб Қўқонда ихраса,  
Бахтиёр шоир бўлиб тинч жойда ўлмоқлик оғир.

1989

\* \* \*

Назм бирла бўлиб ошно жабр саҳросидан ўтдим,  
Назмга сиғмаса дардим наср саҳросидан ўтдим.

Улуғбек бирла учқурлаб самода қазмадим юлдуз,  
Эрошиб далли Машрабга Кабир саҳросидан ўтдим.

Киборлар базмида қўмсаб кибрсиз дўстни ёвғонин,  
Чидамни ўрганиб элдан, сабр саҳросидан ўтдим.

Инграбон хар гиёҳ боссам, сўйлади хар ғубор ҳикмат,  
Азизлар хокини топтаб қабр саҳросидан ўтдим.

Битиклар қолдию не-не салтанат елга соврилди,  
Кукун бўлган неча тахту қаср саҳросидан ўтдим.

Қилай деб боғ ситам чекдим — юракдан унганин  
эқдим.

Кўчат ушлаб йигирманчи аср саҳросидан ўтдим.

1998

El bilan bo'lmoq uchun bu el ko'nikkan zil kishan —  
Bir uchin ingrab sekin bo'yningga solmoqlik og'ir.

Xalq ko'zin ochguncha to zardoblanib tazyiq aro,  
Janggacha sillang qurib, jang chog'i tolmoqlik og'ir.

Bir butun yurt o'krasa, menga ne darkor shon,  
Poradil nay yonida karnay chalmoqlik og'ir.

Baxtga zor o'g'lonlaring o'q yeb Qo'qonda ihrasa,  
Baxtiyor shoir bo'lib tinch joyda o'lmoqlik og'ir.

1989

\* \* \*

Nazm birla bo'lib oshno jabr sahrosidan o'tdim,  
Nazmga sig'masa dardim nasr sahrosidan o'tdim.

Ulug'bek birla uchqurlab samoda qazmadim yulduz,  
Eroshib dalli Mashrabga Kabir sahrosidan o'tdim.

Kiborlar bazmida qo'msab kibrsiz do'stni yovg'onin,  
Chidamni o'rganib eldan, sabr sahrosidan o'tdim.

Ingrabon har giyoh bossam, so'yladi har g'ubor hikmat.  
Azizlar xokini toptab qabr sahrosidan o'tdim.

Bitiklar qoldiyu ne-ne saltanat yelga sovrildi,  
Kukun bo'lgan necha taxtu qasr sahrosidan o'tdim.

Qilay deb bog' sitam chekdim yurakdan unganin  
ekdim,  
Ko'chat ushlab yigirmanchi asr sahrosidan o'tdim.

1998

\* \* \*

Миллатим, сенга бор бисотим:  
Уйғоқлик,  
Дардингдан хасталик,  
Хисларим,  
Сўзларим... хаётим...  
Шеърларим — жонимдан эсдалик.

1987

\* \* \*

Ташнадилман,  
Кўл етмас,  
Кулфланган шаробсиз.  
Юкинаман бўлиб хас,  
Ишқ уйида меҳробсиз.


Ташнадирман, ✓  
Етмас кўз,  
Осмонда моҳ-пайкарсиз.  
Энг хушбўй,  
Энг тиниқтус, ✓  
Энг мазали заҳарсиз.

1983

\* \* \*

- Қизболанинг ўзи нечта?
- Ўнта. Агар ўн акага овқат пиширса.
- Қизболанинг кўзи нечта?
- Қирқта. Агар ёнида қирқ аттор турса.
- Қизболанинг бармоғи нечта?
- Юзта. Агар юзта узуги бўлса.
- Қизболанинг қулоғи нечта?  
Мишга. Агар мишга оғиз хушомад қилса.
- Қизболанинг тили нечта?  
Миллионга. Агар миллионга сирин бидса.
- Қизболанинг дили нечта?  
Битга. Агар дилда Худоси бўлса.

1986





\* \* \*

Millatim, senga bor bisotim:  
Uyg'oqlik,  
Dardingdan xastalik,  
Hislarim,  
So'zlarim... hayotim...  
She'rlarim — jonimdan esdalik.

1987

\* \* \*

Tashnadilman,  
Qo'l yetmas,  
Qulflangan sharobsiz.  
Yukinaman bo'lib xas,  
Ishq uyida mehrobsiz.


Tashnadirman,  
Yetmas ko'z,  
Osmonda moh-paykarsiz.  
Eng xushbo'y,  
Eng tiniqtus,  
Eng mazali zaharsiz.

1983

\* \* \*

- Qizbolaning o'zi nechta?
- O'nta. Agar o'n akaga ovqat pishirsa.
- Qizbolaning ko'zi nechta?
- Qirqta. Agar yonida qirq attor tursa.
- Qizbolaning barmog'i nechta?
- Yuzta. Agar yuzta uzugi bo'lsa.
- Qizbolaning qulog'i nechta?
- Mingta. Agar mingta og'iz xushomad qilsa.
- Qizbolaning tili nechta?
- Millionta. Agar millionta sirni bilsa.
- Qizbolaning dili nechta?
- Bitta. Agar dilda Xudosi bo'lsa.

1986



\* \* \*

Чикиб хилват жойларга,  
Эртақ айтар сойларга...  
Севган қизим шунақа.

Адирларда бўзлайди,  
Чиройли тош излайди...  
Севган қизим шунақа.

Қорлар кечиб қишларда,  
Бугдой сочар қушларга...  
Севган қизим шунақа.

Гуллар сўлса йиғлайди,  
Китоб қучиб ухлайди...  
Севган қизим шунақа.

1991

\* \* \*


Йўқлар бўлсам  
Тушиб йўл,  
Бошимдан зар сочилгай.  
Баргдек титраб икки қўл,  
Фотихага очилгай.  
Уфурган чок танамга  
Эзгу сўзлар сабоси,  
Бергим келар боламга  
Онамнинг  
Бор дуосин.

1994

## **АБДУЛҲАМИД ЧЎЛПОННИНГ ТУШИМДА ҲҚИГАН ШЕЪРИ**

*Раҳмон Қўчқорга*

Дўст бўлиб келганга саховати нақд,  
Юртимнинг бағри кенг,  
Жо бўлар ҳар ким.  
Ўзбек зоти бирок жуда катта халқ,  
Қудлик зиндонига сиймайди халқим.



\* \* \*

Chiqib xilvat joylarga,  
Ertak aytar soylarga...  
Sevgan qizim shunaqa.

Adirlarda bo'zlaydi,  
Chiroyli tosh izlaydi...  
Sevgan qizim shunaqa.

Qorlar kechib qishlarda,  
Bug'doy sochar qushlarga...  
Sevgan qizim shunaqa.

Gullar so'lsa yig'laydi,  
Kitob quchib uxlaydi...  
Sevgan qizim shunaqa.

1991

\* \* \*


Yo'qlar bo'lsam  
Tushib yo'l,  
Boshimdan zar sochilgay.  
Bargdek titrab ikki qo'l.  
Fotihaga ochilgay.  
Ufurgan choq tanamga  
Ezgu so'zlar sabosi,  
Bergim kelar bolamga  
Onamning  
Bor duosin.

1994

## **ABDULHAMID CHO'LPONNING TUSHIMDA O'QIGAN SHE'RI**

*Rahmon Qo'chqorga*

Do'st bo'lib kelganga saxovati naqd,  
Yurtimning bag'ri keng,  
Jo bo'lar har kim,  
O'zbek zoti biroq juda katta xalq.  
Qullik zindoniga sig'maydi xalqim.



Эй, юртим ғаним,  
Келма тиф ушлаб,  
Илжайма оғуни яшириб енгга.  
Биласан, юртимга илк кадам ташлаб,  
Энг олдин юзма-юз бўлишинг менга.

Ёт узатган нонда не сир яширин,  
Ҳаммадан илгари шоир сезади.  
Шу бонс,  
Келтирса қуллик занжирин,  
Қулдор, шоир овлаб, ўлка кезади.

Балки айш сурарсан  
Шилиб теримни,  
Бўғзимдан суғуриб оларсан жонни.  
Мендан ололмайсан леккин шеъримни,  
Ололмайсан суви турк Туркистонни.

Бу юрт — онам  
Ва у туну эрталаб  
Қотилимга ўчкор нигоҳ ташлайди.  
Шеърларим бирма-бир ханжар ўқталиб,  
Тўрт томондан сени қуршай бошлайди.


Шоир бор юртлар қолмагай якка,  
Эл қиличи синса,  
Шоир қалқондир.  
Ҳар шеърим дўнар минг жангчи ўзбекка,  
Жамланган шеърларим Ўзбекистондир.

Қарғиш уммонига бўлмай туриб ғарк,  
Эй, ғаним,  
Жимгина қайтарсан балким.  
Минг уруғли ўзбек жуда катта халқ,  
Қуллик зиндонига сизмайди халким.

2003

• • •

«Кир» деб қулса «қора»лар «оқ»ни,  
Сабрим тугаб бу чалқанликдан,  
Бир қунғица Худо бўлмоқни  
Орзу қилган эдим ёшлиқда.



Ey, yurtim g'animi,  
Kelma tig' ushlab,  
Iljayma og'uni yashirib yengga.  
Bilasan, yurtimga ilk qadam tashlab,  
Eng oldin yuzma-yuz bo'lishing menga.

Yot uzatgan nonda ne sir yashirin,  
Hammadan ilgari shoir sezadi.  
Shu bois,  
Keltirsa qullik zanjirin,  
Quldor, shoir ovlab, o'lka kezadi.

Balki aysh surarsan  
Shilib terimni,  
Bo'g'zimdan sug'urib olarsan jonni.  
Mendan ololmaysan lekin she'rimni,  
Ololmaysan suvi turk Turkistonni.

Bu yurt – onam  
Va u tun-u ertalab  
Qotilinga o'chkor nigoh tashlaydi.  
She'rlarim birma-bir xanjar o'qtalib,  
To'rt tomondan seni qurshay boshlaydi.

Shoiri bor yurtlar qolmagay yakka,  
El qilichi sinsa,  
Shoir qalqondir.  
Har she'rim do'nar ming jangchi o'zbekka,  
Jamlangan she'rlarim O'zbekistondir.

Qarg'ish ummoniga bo'lmay turib g'arq,  
Ey, g'anim,  
Jingina qaytarsan balkim.  
Ming urug'li o'zbek juda katta xalq,  
Qullik zindoniga sig'maydi xalqim.

2003

\*\*\*

«Kir» deb kulsa «qora»lar «oq»ni,  
Sabrim tugab bu chalkashlikdan.  
Bir kungina Xudo bo'lmoqni  
Orzu qilgan edim yoshlikda.



Йиллар ўтиб англадим, хар кас —  
Синалар бахт ёки жабрда.  
Ҳа, Оллоҳга тенг келиб бўлмас  
Ҳеч нарсада, хатто сабрда.

2003

## **ИГНАБАРГ ШЕЪРЛАР**

Халқ сотилмас, сотишар халқни.

\* \* \*

Соат Ерни тўхташга қўймас.

\* \* \*

Кал йиғларди сочин соғиниб.

\* \* \*

Думдор юлдуз қачон сўнаркин?!

\* \* \*

Ойболта?.. Фу! Ойга таклидчи...

1985

## **ФИТРАТ**

Тарих бағрин тилганлар — зулук,  
Тарихга жим боққанлар — қочқин.  
Уни чаппа ўрганган — ўлик,  
Уни чаппа ўргатган — сотқин.

1985

## **ҚИШЛОҒИМ**

Кун-тун чекиб ғам-ташвиш,  
Уни ўйлар ёзу киш.  
Ундан борин аямас,  
Энг олдин у тўйса бас...

Полосонинг даласи  
Полосонинг боласи.

1985

Yillar o'tib angladim, har kas —  
Sinalar baxt yoki jabrda.  
Ha, Oллоhga teng kelib bo'lmas  
Hech narsada, hatto sabrda.

2003

### **IGNABARG SHE'RLAR**

Xalq sotilmas, sotishar xalqni.

\* \* \*

Soat Yerni to'xtashga qo'yimas.

\* \* \*

Kal yig'lardi sochin sog'inib.

\* \* \*

Dumdor yulduz qachon so'narkin?!

\* \* \*

Oybolta?.. Fu! Oyga taqlidchi...

1985

### **FITRAT**

Tarix bag'rin tilganlar — zuluk,  
Tarixga jim boqqanlar — qochqin.  
Uni chappa o'rgangan — o'lik,  
Uni chappa o'rgatgan — sotqin.


1985

### **QISHLOG'IM**

Kun-tun chekib g'am-tashvish,  
Uni o'ylar yoz-u qish.  
Undan borin ayamas,  
Eng oldin u to'ysa bas...

Polosonning dalasi  
Polosonning bolasi.

1985



## ФАРҶОНАМ

Эрур аксинг танамда жон,  
Ўзингсан она, Фарғонам.  
Хама юртлар эса маржон,  
Асл дурдона Фарғонам.

Боғларинг бебаҳо мулкинг,  
Тоғларинг ғазнага қулфинг,  
Сойларинг қирқ тарам зулфинг,  
Сулув жонона Фарғонам.

«Хувайдо» деб ғазал битган,  
Буюк Бобурни зор кутган,  
Ғариб Машрабга май тутган  
Шоҳу девона Фарғонам.

Бало-офат кўриб минг бор,  
Табассумда лабинг такрор,  
Азалдан шодлиги ошкор,  
Ғами пинхона Фарғонам.

Ўзинг бирла ўзинг жамсан,  
Ўзинг дардсан ва малҳамсан,  
Ажабдурки ўзинг шамсан,  
Ўзинг парвона, Фарғонам.


Ўтар сувлар, ўтар йиллар,  
Кузатгай кўпни бу йўллар...  
Замин узра абад гулла  
Бўлиб «Фарғона», Фарғонам.

1987

• • •

Ма, хотинжон, тут кўлимни,  
Тез-тез эслат ўнг-сўлимни,  
Шоирингни эҳтиёт қил.

Кетвормайини ҳаёл билан,  
Бошқа бирон аёл билан,  
Шоирингни эҳтиёт қил.





## FARG'ONAM

Erur aksing tanamda jon,  
O'zingsan ona, Farg'onam.  
Hama yurtlar esa marjon,  
Asl durdona Farg'onam.

Bog'laring bebaho mulking,  
Tog'laring g'aznaga qulfig,  
Soylaring qirq taram zulfig,  
Suluv jonona Farg'onam.

«Huvaydo» deb g'azal bitgan,  
Buyuk Boburni zor kutgan,  
G'arib Mashrabga may tutgan  
Shoh-u devona Farg'onam.

Balo-ofat ko'rib ming bor,  
Tabassumda labing takror,  
Azaldan shodligi oshkor,  
G'ami pinhona Farg'onam.

O'zing birla o'zing jamsan,  
O'zing dardsan va malhamsan,  
Ajabdurki o'zing shamsan,  
O'zing parvona, Farg'onam.

O'tar suvlar, o'tar yillar,  
Kuzatgay ko'pni bu yo'llar...  
Zamin uzra abad gulla  
Bo'lib «Farg'ona». Farg'onam.

1987

\*\*\*

Ma, xotinjon, tut qo'limni,  
Tez-tez eslat o'ng-so'limni,  
Shoiringni ehtiyot qil.

Ketvormayin xayol bilan,  
Boshqa biron ayol bilan,  
Shoiringni ehtiyot qil.



Ғамга буткул чўқтирма ҳам,  
Қувончларга бўқтирма ҳам,  
Шоирингни эҳтиёт қил.

Кўрсатиб тур эрк маррасин,  
Ҳамда давлат чегарасин,  
Шоирингни эҳтиёт қил...

1986

## **МЕТРО САЙЛИ**

Меҳмонларга тушунтирар Тўлан тиллатиш:

– Эндигиси «Пахтакор» дир,

Ўшлик акалар.

«Пахтакор» бу – «Ўзбекистон йўли»га ўтиш,

«Ўзбекистон йўли» эса...

«Навоий»дан тарқалар.

1987

## **УЧЧАНОҚЛАР**

Итоатгўй ўғил бўл,  
Биргина унга қул бўл,  
Сотмас сени Ватанинг!

\* \* \*

Етмиш йилки, бир мараз –  
Такрор-такрор берар дарс:  
«Кўйда учта оёқ бор!!!»

\* \* \*

Қийин номдор Паст бўлмоқ,  
Ё унвондор Хас бўлмоқ,  
Мен -- шунчаки бир дехкон.

1987

G'amga butkul cho'ktirma ham,  
Quvonchlarga bo'ktirma ham,  
Shoiringni ehtiyot qil.

Ko'rsatib tur erk marrasin,  
Hamda davlat chegarasin,  
Shoiringni ehtiyot qil...

1986

### **METRO SAYLI**

Mehmonlarga tushuntirar To'lan tillatish:  
— Endigisi «Paxtakor»dir,  
O'shlik akalar.  
«Paxtakor» bu — «O'zbekiston yo'li»ga o'tish,  
«O'zbekiston yo'li» esa...  
«Navoiy»dan tarqalar.

1987

### **UCHCHANOQLAR**

Itoatgo'y o'g'il bo'l,  
Birgina unga qul bo'l,  
Sotmas seni Vataning!

\* \* \*

Yetmish yilki, bir maraz —  
Takror-takror berar dars:  
«Qo'yda uchta oyoq bor!!!»

\* \* \*

Qiyin nomdor Past bo'lmoq,  
Yo unvondor Xas bo'lmoq,  
Men shunchaki bir dehqon.

1987

- Э синчалак, орзуйинг надир?
- Булутларни чангитиб ўйнаш.
- Э кучукча, орзуйинг надир?
- Бирон малла мушукни қийнаш.
- Э чўчкача, орзуйинг надир?
- Тўймоқ, ётга парво қилмаслик...
- Э ўғлоним, орзуйинг надир?
- Энг камида чўчка бўлмаслик.

1988

## АРМОНЛАР ЗАМОНИ

Чарх узра армонлар уюлар гўё,  
 Бор олам армонли туюлар гўё,  
 Онгимга бир шубха қуйилар, гўё —  
 Армонда ўлмаган битта мен қолдим.

Ўзбекнинг армонин атарлар «химмат»,  
 Ўзбекда байрам йўқ, бор «план», муддат,  
 Эл оғу кечганча терар оқ кулфат,  
 Хирмонда ўлмаган битта мен қолдим.

Омад бир кетса, нон дўнармиш қонга,  
 Кўргилик каммиди Ерда дехқонга,  
 «Пахтакор» сизмади хатто осмонга,  
 Осмонда ўлмаган битта мен қолдим.

Қашшокнинг охирги илинжи — ўғлон,  
 Бағридан юлди бу ўғлонни фармон,  
 Қабохат қурбони бўлди миңглаб жон —  
 Аффонда ўлмаган битта мен қолдим.

Кулфатдан яралур нафрату ўчлар,  
 Нафратдан яралур шилдатли «бурч»лар,  
 Шилдатдан яралур энг жуиун кучлар,  
 Кўқонда ўлмаган битта мен қолдим.

- E sinchalak, orzuying nadir?
- Bulutlarni changitib o'ynash.
- E kuchukcha, orzuying nadir?
- Biron malla mushukni qiynash.
- E cho'chqacha, orzuying nadir?
- To'ymoq, yotga parvo qilmaslik...
- E o'g'lonim, orzuying nadir?
- Eng kamida cho'chqa bo'lmaslik.

1988

## **ARMONLAR ZAMONI**

Charx uzra armonlar uyular go'yo,  
 Bor olam armonli tuyular go'yo,  
 Ongimga bir shubha quyilar, go'yo —  
 Armonda o'lmagan bitta men qoldim.

O'zbekning armonin atarlar «himmat»,  
 O'zbekda bayram yo'q, bor «plan», muddat,  
 El og'u kechgancha terar oq kulfat,  
 Xirmonda o'lmagan bitta men qoldim.

Omad bir ketsa, non do'narmish qonga,  
 Ko'rgilik kammidi Yerda dehqonga,  
 «Paxtakor» sig'madi hatto osmonga,  
 Osmonda o'lmagan bitta men qoldim.

Qashshoqning oxirgi ilinji - o'g'lon,  
 Bag'ridan yuldi bu o'g'lonni farmon,  
 Qabohat qurboni bo'ldi minglab jon  
 Afg'onda o'lmagan bitta men qoldim.

Kulfatdan yaralur nafrat-u o'chlar,  
 Nafratdan yaralur shiddatli «burch»lar,  
 Shiddatdan yaralur eng junun kuchlar.  
 Qo'qonda o'lmagan bitta men qoldim.

Туғилар ўзбегим армонда бир-бир,  
Эзилар ўзбегим хирмонда бир-бир,  
Йиқилар ўзбегим майдонда бир-бир,  
Майдонда ўлмаган битта мен қолдим.

1989

## **ИГНАБАРГ ШЕЪРЛАР**

Шарқда ухлаб, уйғонар Фарба.

\* \* \*

Гўрковдан ҳам диплом сўрар у.

\* \* \*

Оч — йиғлар, тўқ — тинглар қилпиллаб.

\* \* \*

Маош тўлар ўзига ўзи.

\* \* \*

Жони ундан қочиб кутулди.

\* \* \*

Дидсиз сулув — нонсиз зиёфат.

\* \* \*

Романларин ёзар... кетмонда.

\* \* \*

Гох жон ширин, гохида фарзанд.

\* \* \*

Мардлигин сир тутар ўзидан.

\* \* \*

Ўғлидан қарз сўради шўрлик.

\* \* \*


Бомба бордир варрагингда ҳам!

1987

\* \* \*

Тилдошинг бўлдим,  
Йўлдошинг бўлдим,  
Сирдошинг бўлдим...  
Пирдошинг бўлолмадим.

1989



Tug'ilar o'zbekim armonda bir-bir,  
Ezilar o'zbekim xirmonda bir-bir,  
Yiqilar o'zbekim maydonda bir-bir,  
Maydonda o'lmagan bitta men qoldim.

1989

### **IGNABARG SHE'RLAR**

Sharqda uxlab, uyg'onar G'arbda.

\* \* \*

Go'rkovdan ham diplom so'rar u.

\* \* \*

Och — yig'lar, to'q — tinglar qilpillab.

\* \* \*

Maosh to'lar o'ziga o'zi.

\* \* \*

Joni undan qochib qutuldi.

\* \* \*

Didsiz suluv — nonsiz ziyofat.

\* \* \*

Romanlarin yozar... ketmonda.

\* \* \*

Goh jon shirin, gohida farzand.

\* \* \*

Mardligin sir tutar o'zidan.

\* \* \*

O'g'lidan qarz so'radi sho'rlik.

\* \* \*

Bomba bordir varragingda ham!

1987

\* \* \*

Tildoshing bo'ldim,  
Yo'ldoshing bo'ldim,  
Sirdoshing bo'ldim...  
Pirdoshing bo'lolmadim.

1989



## УЧЧАНОҚЛАР

Раҳмат сенга, эй бурга,  
Қоним ичсанг ҳам, бирга —  
Юрдинг оғир кунимда.

\* \* \*

Танамдан қўр сўнмоқда,  
Кўзимдан нур сўнмоқда...  
Дурга тўлиб борар бош.

\* \* \*

Бўлса шунча кўп шартинг,  
Нега келдинг — «кутқардинг»,  
Қачон ёрдам сўрадим?!

\* \* \*

Нураган бу мадраса  
Ўз дардидан хатласа,  
Додлар эди холимга.

\* \* \*

Эчки, туя, қўй — тарқоқ...  
Келди, тузди иттифок,  
Чўққашунос бир қассоб.

\* \* \*

Яшолмасди кулдирмай...  
Бировларга билдирмай  
Йиғлаб олди ёмғирда.

1986

## ОЧИЛХОН ҲОФИЗ ҚЎШИҒИ

*Маҳмуджон Тожибоевга*

Ўспиривлик хоҳишини мен девоналарга қўйладим,  
Ёшлигимнинг хоҳишини шўх жононаларга қўйладим,  
Қисматимнинг хоҳишини дол-хайроналарга қўйладим,  
Дўстга дўстнинг ёнигини тоҳ парвоналарга қўйладим,  
Ахди номард килмишини ул мардонларга қўйладим.



## UCHCHANOQLAR

Rahmat senga, ey burga,  
Qonim ichsang ham, birga —  
Yurding og'ir kunimda.

\* \* \*

Tanamdan qo'r so'nmoqda,  
Ko'zimdan nur so'nmoqda...  
Durga to'lib borar bosh.

\* \* \*

Bo'lsa shuncha ko'p sharting,  
Nega kelding — «qutqarding»,  
Qachon yordam so'radim?!

\* \* \*

Nuragan bu madrasa  
O'z dardidan hatlasa,  
Dodlar edi holimga.

\* \* \*

Echki, tuya, qo'y — tarqoq...  
Keldi, tuzdi ittifoq,  
Cho'chqashunos bir qassob.

\* \* \*

Yasholmasdi kuldirmay...  
Birovlarga bildirmay  
Yig'lab oldi yomg'irda.

1986

## OCHILXON HOFIZ QO'SHIG'I

*Mahmudjon Tojiboyevga*

O'spirinlik xohishin men devonalarga kuyladim,  
Yoshligimning xonishin sho'x jononalarga kuyladim.  
Qismatimning nolishin lol-hayronalarga kuyladim,  
Do'stga do'stning yonishin goh parvonalariga kuyladim,  
Ahli nomard qilmishin ul mardonalariga kuyladim.

Одами ноқис бўлур, лек олами ноқис эмас,  
Бу тикон бежиз дегаймиз, аслида бежиз эмас,  
Ўрганиш бизларга жоиз, ўргатиш жоиз эмас,  
Не сабаб хофиз яралгай — билмаган хофиз эмас,  
Ётмагил гафлат аро деб мастоналарга куйладим.

Не тилак қилсам умидим бир ўзингдан, эй Худо,  
Кетса жон кетсин садоға, қилма иймондан жудо,  
Ростни деб қурбон бўлойин, этма ёлғонга фидо,  
Асра миннат қасриданким, ошна қил содиқ гадо,  
Юз буриб кошоначардан, вайроналарга куйладим.

Кун кўриб ўтди бировлар миллатин қони билан,  
Мен ҳамон инграб яшарман миллатим номи билан,  
Таскиним топдим Навоий, Машрабу Жомий билан,  
Саждага бош ургали келдим умр шоми билан,  
Ўзбегим, айтгил қачон мен бегоначарга куйладим?!

1990

## **ИГНАБАРГ ШЕЪРЛАР**

Инсон ўлди. Туғилди қабр.

\* \* \*

Пашшаларнинг «Кафе»си — ахлат.

\* \* \*

Бунча тажанг бокс кўлқопи?

\* \* \*

Ёй ўқталди танкка болакай.

\* \* \*

Йиглайвердим қах-қах отганча.

\* \* \*


Ухласа, сая ҳалол янайди.

\* \* \*

Шоҳнинг қонини ичган чивин бу!

\* \* \*

Учокларга дов сенди бағи.



Odami noqis bo'lur, lek olami noqis emas,  
Bu tikon bejiz degaymiz, aslida bejiz emas,  
O'rganish bizlarga joiz, o'rgatish joiz emas,  
Ne sabab hofiz yaralgay — bilmagan hofiz emas,  
Yotmagil g'aflat aro deb mastonalarga kuyladim.

Ne tilak qilsam umidim bir o'zingdan, ey Xudo,  
Ketsa jon ketsin sadog'a, qilma iymondan judo,  
Rostni deb qurbon bo'loyin, etma yolg'onga fido,  
Asra minnat qasridankim, oshna qil sodiq gado,  
Yuz burib koshonalardan, vayronalarga kuyladim.

Kun ko'rib o'tdi birovlar millatin qoni bilan,  
Men hamon ingrab yasharman millatim nomi bilan,  
Taskinim topdim Navoiy, Mashrabu Jomiy bilan,  
Sajdaga bosh urgali keldim umr shomi bilan,  
O'zbekim, aytgil qachon men begonalariga kuyladim?!

1990

### **IGNABARG SHE'RLAR**

Inson o'ldi. Tug'ildi qabr.

\* \* \*

Pashshalarning «Kafe»si — axlat.

\* \* \*

Buncha tajang boks qo'lqopi?

\* \* \*

yoy o'qtaldi tankka bolakay.

\* \* \*

Yig'layverdim qah-qah otgancha.

\* \* \*


Uxlasa, sal halol yashaydi.

\* \* \*

Shohning qonin ichgan chivin bu!

\* \* \*

Uchoqlarga don sepdi bangi.



\* \* \*

Соткин хатто ўғлидан кўркар.

\* \* \*

Вох! Ўликлар ўлдирди уни!!!

\* \* \*

Бахс тугади милтиқ сўз олгач...

1987

\* \* \*

Янглишдим, эй орзуларим,  
Сизни улкан яратиб.  
Қўйдим охир пасткашларнинг  
Кўлларига қаратиб.

Заволман ўз дарахтимга,  
Гўё чиркин илдишман.  
Сизлардан дев ясабман-у,  
Ўзим қуртдан ожизман.

Кечиринг, эй орзуларим...

1989

## КЕЧМИШ

*Буюк Абдулла Қодирийга*

Чирандиму топарга ёруғ дунё тилсимин,  
Тирноғим не жисмдан — шуни билолмай ўтдим.  
Хар хас-у, хар гиёхнинг сўраб ҳақиқий исмин,  
На замин, на самодан жавоб ололмай ўтдим.

Хузурланиб қувондим эгик ниҳолни фозлаб,  
Хузурланиб қувондим бузилган инни созлаб,  
Хузурланиб қувондим Алимқулни баёзлаб,  
Факат болам сочини тўйиб силлолмай ўтдим.

Тиламчининг вошини асрамоққа шошилдим,  
Чумолининг дошини асрамоққа шошилдим,

\* \* \*

Sotqin hatto o'g'lidan qo'rqar.

\* \* \*

Voh! O'liklar o'ldirdi uni!!!

\* \* \*

Bahs tugadi miltiq so'z olgach...

1987

\* \* \*

Yanglishdim, ey orzularim,  
Sizni ulkan yaratib.  
Qo'ydim oxir pastkashlarning  
Qo'llariga qaratib.

Zavolman o'z daraxtinga,  
Go'yo chirkin ildizman.  
Sizlardan dev yasabman-u,  
O'zim qurtdan ojizman.

Kechiring, ey orzularim...

1989

## **KECHMISH**

*Buyuk Abdulla Qodiriyga*

Chirandimu toparga yorug' dunyo tilsimin,  
Tirnog'im ne jismdan -- shuni bilolmay o'tdim.  
Har xas-u, har giyohning so'rab haqiqiy ismin,  
Na zamin, na samodan javob ololmay o'tdim.

Huzurlanib quvondim egik niholni g'ozlab,  
Huzurlanib quvondim buzilgan inni sozlab,  
Huzurlanib quvondim Alimqulni bayozlab,  
Faqat bolam sochini to'yib silolmay o'tdim.

Tilamchining nonini asramoqqa shoshildim,  
Chumolining donini asramoqqa shoshildim,

Кизгалдоқнинг жонини асрамоққа шошилдим,  
Бироқ ўзим ўзимга қалқон бўлолмай ўтдим.

Топа олдим на дўсту, на ғанимнинг мардини,  
Шарт қўймадим жўрамга, жим бажардим шартини,  
Гох қуллим унутдим қулдор айтса дардини,  
Гох ҳазинни қулдириб, ўзим қулолмай ўтдим.

Кўзлари гул турк азал Тангридоғда беланди,  
Энасойга терс оқиб, уч иқлимда қаланди,  
Жаъми туркий қавмга тилим туркча эланди,  
Афсус акал-укалнинг меҳрин улолмай ўтдим.

Ватанимга жаҳоннинг иззатларин тиладим,  
Ғариб элимга эркнинг лаззатларин тиладим,  
Авлодимга пирларнинг хизматларин тиладим,  
Худойимдан ўзимга умр тилолмай ўтдим.

1990

\* \* \*

Ҳеч бирингга қилмайман таъзим,  
Ҳеч бирингга бермайман ҳисоб.  
Мен-чун ҳаёт -- поёнсиз назм,  
Сўз айтмасдан яшамок азоб.  
Менинг тинчим -- менинг таъзиям.


Фақат Ундан тиларман паноҳ,  
Фақат Унга берурман жавоб...  
Босган ҳар бир қадамим -- гуноҳ,  
Чеккан ҳар бир аламим -- савоб.  
Менинг ўзим -- менинг фожнам.

1989

\* \* \*

Худо хоҳлар бўлса,  
Шайтоннинг  
Номи узра тортолгай чиқик...  
Имон деб ўт кечган инсоннинг  
Қолур унда нимаси қизик?

1989



Qizg'aldoqning jonini asramoqqa shoshildim,  
Biroq o'zim o'zimga qalqon bo'lolmay o'tdim.

Topa oldim na do'st-u, na g'animning mardini,  
Shart qo'ymadim jo'ramga, jim bajardim shartini,  
Goh qulligim unutdim quldor aytsa dardini,  
Goh hazinni kuldirib, o'zim kulolmay o'tdim.

Ko'zlari gul turk azal Tangritog'da belandi,  
Enasoyga ters oqib, uch iqlimda qalandi,  
Ja'mi turkiy qavmga tilim turkcha elandi,  
Afsus akal-ukalning mehrin ulolmay o'tdim.

Vatanimga jahonning izzatlarin tiladim,  
G'arib elimga erkning lazzatlarin tiladim,  
Avlodimga pirlarning xizmatlarin tiladim,  
Xudoyimdan o'zimga umr tilolmay o'tdim.

1990

\* \* \*

Hech biringga qilmayman ta'zim,  
Hech biringga bermayman hisob.  
Men-chun hayot — poyonsiz nazm,  
So'z aytmasdan yashamoq azob,  
Mening tinchim — mening ta'ziyam.


Faqat Undan tilarman panoh,  
Faqat Unga berurman javob...  
Bosgan har bir qadamim — gunoh,  
Chekkan har bir alamim — savob,  
Mening o'zim — mening fojiam.

1989

\* \* \*

Xudo xohlar bo'lsa,  
Shaytonning -  
Nomi uzra tortolgay chiziq...  
Imon deb o't kechgan insonning  
Qolur unda nimasi qiziq?

1989



## УЧЧАНОҚЛАР

Ўтган дамлар бу — ўзим,  
Навбатда турган хар зум  
Қасд қилади жонимга.

\* \* \*

Бирор сатр шеъримни,  
Бирор қарич еримни  
Зўрга эҳсон қилмасман.

1988

## ҚИЗИҚЧИ

Қоплонга улфатман дея мактанар  
У тутган кийикдан гўшт еган ари.  
Аския қилсам мен арилиқни гар,  
Арифёъл гўнғиллар: «Бачкана бари!»

Ўзини шерлардан зўрроқ деб ўйлар,  
Шер конин сўриб кун кўргувчи кана.  
Эрмаклай бошласам каналикни гар,  
Канафёъл тумтаяр: «Бари бачкана!»

Оғасидан ўзин оқилроқ санар,  
Оғасин бўрига бой берган қуён.  
Масхара айласам қуёнликни гар,  
Қуёнфёъл иршаяр: «Бачкана! Арзон!»

Даврани шунчаки қиздираман гоҳ,  
Шунчаки юртдошлар дардин олгани.  
Тўнг зотлар баттардан уф тортар ногоҳ:  
«Бачкана! Мақсад не? Ғояси қани?!»

Борлигим кимгадир нахот муаммо,  
Нетаё оддий халққа мос бўлса таъбим?  
Мухиддин Дарвинини<sup>1</sup> тинч қўй, эй «доно»,  
Жи-и-м суяк важийвер ёкмаса гашим.

2002

<sup>1</sup> Фарғоналик машҳур келими



## UCHCHANOQLAR

O'tgan damlar bu — o'zim,  
Navbatda turgan har zum  
Qasd qiladi jonimga.

\* \* \*

Biror satr she'rimni,  
Biror qarich yerimni  
Zo'rga ehson qilmasman.

1988

## QIZIQCHI

Qoplonga ulfatman deya maqtanar  
U tutgan kiyikdan go'sht yegan ari.  
Askiya qilsam men arilikni gar,  
Arife'l g'o'ng'illar: «Bachkana bari!»

O'zini sherlardan zo'rroq deb o'ylar,  
Sher qonin so'rib kun ko'rguvchi kana.  
Ermaklay boshlasam kanalikni gar,  
Kanafe'l tumtayar: «Bari bachkana!»

Og'asidan o'zin oqilroq sanar,  
Og'asin bo'riga boy bergan quyon.  
Masxara aylasam quyonlikni gar,  
Quyonne'l irshayar: «Bachkana! Arzon!»

Davrani shunchaki qizdiraman goh.  
Shunchaki yurtdoshlar dardin olgani.  
To'ng zotlar battardan uf tortar nogoh:  
«Bachkana! Maqsad ne? G'oyasi qani?!»

Borligim kimgadir nahot muammo,  
Netay oddiy xalqqa mos bo'lsa ta'bim?  
Muhiddin Darvishni' tinch qo'y, ey «dono»,  
Ji-i-m suyak g'ajiyver yoqmasa gapim.

2002

---

<sup>1</sup> Farg'onalik mashhur qiziqchi.

## ИГНАБАРГ ШЕЪРЛАР

Ўз кабрингни ҳеч кўрганмисан?

\* \* \*

Ол севгимни... шакар кўшиб ич.

\* \* \*

Кўм-кўк дала! Сап-сарик одам!

\* \* \*

Кўмаклашдинг... раҳмат... кет энди.

\* \* \*

Бу товукдан титрар хўрозлар.

\* \* \*

Ахил бўлсанг, қул ҳам бўлмасдинг.

\* \* \*

Темурдан у хозир ҳам кўрқар.

\* \* \*

Теполмадим медалли итни.

\* \* \*

Бу киз арзон сигаретдан ҳам.

\* \* \*

Хасад қилдим озод негрга.

\* \* \*

Майна айбдор, майнабоз эмас.

\* \* \*

Шох бўлолгай, шоир бўлолмас.

\* \* \*

Шу эшакнинг устози қани?!

\* \* \*

Учиб кетди юлдузга кўзим.

\* \* \*

Бир қадок пул қанча туради?

\* \* \*

Кулмай қўйса ўлар бу чирок...

1988

## IGNABARG SHE'RLAR

O'z qabringni hech ko'rganmisan?

\* \* \*

Ol sevgimni... shakar qo'shib ich.

\* \* \*

Ko'm-ko'k dala! Sap-sariq odam!

\* \* \*

Ko'maklashding... rahmat... ket endi.

\* \* \*

Bu tovuqdan titrar xo'rozlar.

\* \* \*

Ahil bo'lsang, qul ham bo'lmasding.

\* \* \*

Temurdan u hozir ham qo'rqar.

\* \* \*

Tepolmadim medalli itni.

\* \* \*

Bu qiz arzon sigaretdan ham.

\* \* \*

Hasad qildim ozod negrga.

\* \* \*

Mayna aybdor, maynaboz emas.

\* \* \*

Shoh bo'lo'lgay, shoir bo'lolmas.

\* \* \*

Shu eshakning ustozini qani?!

\* \* \*

Uchib ketdi yulduzga ko'zim.

\* \* \*

Bir qadoq pul qancha turadi?

\* \* \*

Kulmay qo'ysa o'lar bu chiroq...

1988

## ТОПИШМОҚ

Болам, нечун мунгли ўзбекнинг куйи?  
Гавжумдир не боис ўзбекнинг тўйи?  
«Алпомиш»ни туғди не учун ўйи?  
Тагига етолсанг, одам бўласан.

Теграсида нега баланд тоғи кўп?  
Сандикда моли кам, нега боғи кўп?  
Мармарининг нечун қизил доғи кўп?  
Тагига етолсанг, одам бўласан.

Не сабаб ери бой, дехқони сағир?  
Минори нега чўнг, уйи ербағир?  
Қиличидан нега кетмони оғир?  
Тагига етолсанг, одам бўласан.

Ўзбекнинг ўзига беклиги недан?  
Тераги найзадек тиклиги недан?  
Йиғитига чандиқ кўрклиги недан?  
Тагига етолсанг, одам бўласан.

1989

## УЧЧАНОҚЛАР

У — пахлавон ва ботир!  
Олар лек кўп хавотир  
Милтиғи бор жиннидан.

• • •

Худо -- маънос кўзимда,  
Шайтон яшар сўзимда,  
Тилим жуда дўзахи.

1990

## ИГНАБАРГ ШЕЪРЛАР

Элсиз шоир эрсиз сулувдир.

• • •

Боласи кам миллат синилар.

• • •

Жиннихона хониларсиз юрг.

## TOPISHMOQ

Bolam, nechun mungli o'zbekning kuyi?  
Gavjumdir ne bois o'zbekning to'yi?  
«Alpomish»ni tug'di ne uchun o'yi?  
Tagiga yetolsang, odam bo'lasan.

Tegrasida nega baland tog'i ko'p?  
Sandiqda moli kam, nega bog'i ko'p?  
Marmarining nechun qizil dog'i ko'p?  
Tagiga yetolsang, odam bo'lasan.

Ne sabab yeri boy, dehqoni sag'ir?  
Minori nega cho'ng, uyi yerbag'ir?  
Qilichidan nega ketmoni og'ir?  
Tagiga yetolsang, odam bo'lasan.

O'zbekning o'ziga bekligi nedan?  
Teragi nayzadek tikligi nedan?  
Yigitiga chandiq ko'rkligi nedan?  
Tagiga yetolsang, odam bo'lasan.

1989

## UCHCHANOQLAR

U — pahlavon va botir!  
Olar lek ko'p xavotir  
Miltig'i bor jinnidan.

\*\*\*

Xudo ma'yus ko'zimda,  
Shayton vashar so'zimda,  
Tilim juda do'zaxi.

1990

## IGNABARG SHE'RLAR


Elsiz shoir ersiz suluvdir.

\*\*\*

Bolasi kam millat yengilar.

\*\*\*

Jinnixonat xoinlarsiz yurt.



\* \* \*

Ичворса-я Оролни... тўнғиз?!

\* \* \*

Охир ишинг тушар Худога.

\* \* \*

«Бех, Берия!» деб чақирар итин.

\* \* \*

Аёлсиз уй — уруғсиз тарвуз.

\* \* \*

Бу ўқларинг — Азроилники...

\* \* \*

Кел, дил, Чўлпон шеърига уйлан!

1986

\* \* \*

Хазин кўзим ўша-ўша,  
Хазон юзим ўша-ўша.  
Битта ўзинг дардим хамон,  
Айтар сўзим ўша-ўша.


Танам оташ орасида,  
Қадамим сой ёқасида,  
Тунлар уйинг орқасида  
Қолган изим ўша-ўша.

Тоғлар музи ўзгарди, ёр,  
Гуллар иси ўзгарди, ёр,  
Сочим туси ўзгарди, ёр,  
Аммо ўзим ўша-ўша.

Нур туши эл елкасига,  
Юрт кирди эрк йўлкасига,  
Факат ишким ўлкасида  
Эски тузум ўша-ўша.

Пардек учиб ўтар ёшим,  
Қолар шундай кабр тошим:  
«Гарчи тупроқ ичра бошим,  
Севган кизим ўша-ўша».

1995



\* \* \*

Ichvorsa-ya Orolni... to'ng'iz?!

\* \* \*

Oxir ishing tushar Xudoga.

\* \* \*

«Beh, Beriya!» deb chaqirar itin.

\* \* \*

Ayolsiz uy — urug'siz tarvuz.

\* \* \*

Bu o'qlaring — Azroilniki...

\* \* \*

Kel, dil, Cho'lpon she'riga uylan!

1986

\* \* \*

Hazin ko'zim o'sha-o'sha,  
Xazon yuzim o'sha-o'sha.  
Bitta o'zing dardim hamon,  
Aytar so'zim o'sha-o'sha.


Tanam otash orasida,  
Qadamim soy yoqasida,  
Tunlar uying orqasida  
Qolgan izim o'sha-o'sha.

Tog'lar muzi o'zgardi, yor,  
Gullar isi o'zgardi, yor,  
Sochim tusi o'zgardi, yor,  
Ammo o'zim o'sha-o'sha.

Nur tushdi el yelkasiga,  
Yurt kirdi erk yo'lkasiga,  
Faqat ishqim o'lkasida  
Eski tuzum o'sha-o'sha.

Pardek uchib o'tar yoshim,  
Qolar shunday qabr toshim:  
«Garchi tuproq ichra boshim,  
Sevgan qizim o'sha-o'sha».

1995



## АГАР ШОИР БЎЛИШМАГАНДА...

Тозаларди мняларни куртлардан,  
Хуршид Даврон рухчи врач бўларди.  
Сирожиддин Саййид жонон тутлардан  
Фиҷжак ясаб, уста Сирож бўларди.  
Чол-кампирлар миҗоз Усмон Азимга,  
Машк қилдиарар Бойсун фольклор дастасин.  
Қийиқ-салла зеб Саъдулла Ҳакимга,  
У — бозорқўм, бузар «Шапка растаси»н.  
Аъзам Ўктам ишлар кутубхонада,  
Ўзи тинмай ўқир эшик қулфлаб.  
Абдували Қутбиддин — кенг далада,  
Узумзорин суғормокда нос кафтлаб.  
Ёш Муҳаммад Юсуф очар гулдўкон,  
Муҳаммад Раҳмон-чи, костюм бичувчи.  
Пиво цехи ичра Рустам Мусурмон  
Ҳам чилангар, ҳам синовчи-ичувчи.  
Азим Суюн, Аҳмад Хўжа тижжор-шеф,  
Кўз-кўзлашар молин Усмон Қўчкорга.  
Тохир Қаххор — даллол,  
«Ў, зўр товар!» — деб,  
Ичда ўйлар: «Мен олмасдим бекорга».  
Ёқуб Хўҷамберди миниб симёғоч,  
Қишлоғига тортиб юрар электр.  
Иқбол Мирзо доим мойлаб тарар соч,  
Ҳамширалар коллежида директор.  
Азиз Саид, Салим Ашур оввора,  
«Ҳак-ҳак»лашар чўлларда газ кидириб.  
Абдурахмон Акбар юртда илк бора  
Эркаклардан чиккан боғча мудир.  
Минҳожиддин Мирзо токатли инча,  
Бўлар эди ё соатсоз, ё наққош.  
Ҳамза Имонберди — тўйбоз «ҳофизча»,  
Шукур Қурбон — уч қишлоққа сартарош.  
Маком куйлар И.Искандар, Н.Жалол,  
Й. Эшбек, Я. Тоға, Р. Субҳон тўни.  
Б. Исо, Б. Рўзимухаммад кулол,  
Э. Шукур мулло, Ғ. Фатҳиддин сўфи.  
Икром Отамурод йўдлар тузларини.



Tozalardi miyalarni qurtlardan,  
Xurshid Davron ruhchi vrach bo'lardi.  
Sirojiddin Sayyid jonon tutlardan  
G'ijjak yasab, usta Siroj bo'lardi.  
Chol-kampirlar mijoz Usmon Azimga,  
Mashq qildirar Boysun folklor dastasin.  
Qiyiq-salla zeb Sa'dulla Hakimga,  
U — bozorqo'm, buzar «Shapka rastasi»n.  
A'zam O'ktam ishlar kutubxonada,  
O'zi tinmay o'qir eshik qulflab.  
Abduvali Qutbiddin — keng dalada,  
Uzumzorin sug'ormoqda nos kaftlab.  
Yosh Muhammad Yusuf ochar guldo'kon,  
Muhammad Rahmon-chi — kostyum bichuvchi  
Pivo sexi ichra Rustam Musurmon  
Ham chilangar, ham sinovchi-ichuvchi.  
Azim Suyun, Ahmad Xo'ja tijjor-shef,  
Ko'z-ko'zlashar molin Usmon Qo'chqorga.  
Tohir Qahhor — dallol,  
«O', zo'r tovar!» — deb,  
Ichda o'ylar: «Men olmasdim bekorga».  
Yoqub Xo'jamberdi minib simyog'och.  
Qishlog'iga tortib yurar elektr.  
Iqbol Mirzo doim moylab tarar soch,  
Hamshiralar kollejida direktor.  
Aziz Said, Salim Ashur ovvora,  
«Hak-hak»lashar cho'llarda gaz qidirib.  
Abdurahmon Akbar yurtida ilk bora  
Erkaklardan chiqqan bog'cha mudiri.  
Minhojiddin Mirzo toqatli picha,  
Bo'lar edi yo soatsoz, yo naqqosh.  
Hamza Imonberdi — to'yboz «hofizcha»,  
Shukur Qurbon — uch qishloqqa sartarosh.  
Maqom kuylar I. Iskandar, N. Jalol,  
Y. Eshbek, Ya. Tog'a, R. Subhon to'pi.  
B. Iso, B. Ro'zimuhammad — kulol,  
E. Shukur — mullo, G. Fathiddin — so'fi.  
Ikrom Otamurod yo'dlar tuzlarni.

Шавкат Раҳмон — донғи кетган асалчи...  
Мен ёзмасам,  
Бўлардим шу дўстларнинг —  
Яхши ишларида текин хашарчи.

1996

## **ИГНАБАРГ ШЕЪРЛАР**

Омин!.. Фарбга йиқил, теракжон!

\* \* \*

Қармоқ солсам, кулфат илинди.

\* \* \*

Кигизимнинг тагида юртинг.

\* \* \*

Хей, қотилим! Хайрлашиб кет...

\* \* \*

Бу киз гўё музда ўсган гул.

\* \* \*

Бошингдаги хаёл меники.

\* \* \*

Ох! Кўзингда Тангримни кўрдим!

\* \* \*

Ошпичок бу... Жуда имонли...

\* \* \*

Учиб кетди шамолда... боши.

\* \* \*

Чексиз мачит борми Машрабга?!

\* \* \*

Кўй кирилса, чўчкага нима...

\* \* \*

Ё битказгин, ё тугал бузвор!

1989

Shavkat Rahmon — dong'i ketgan asalchi...  
Men yozmasam,  
Bo'lardim shu do'stlarning —  
Yaxshi ishlarida tekin hasharchi.

1996

### **IGNABARG SHE'RLAR**

Omin!.. G'arbga yiqil, terakjon!

\* \* \*

Qarmoq solsam, kulfat ilindi.

\* \* \*

Kigizimning tagida yurtning.

\* \* \*

Hey, qotilim! Xayrlashib ket...

\* \* \*

Bu qiz go'yo muzda o'sgan gul.

\* \* \*

Boshingdagi xayol meniki.

\* \* \*

Oh! Ko'zingda Tangrimni ko'rdim!

\* \* \*

Oshpichoq bu... Juda imonli...

\* \* \*

Uchib ketdi shamolda... boshi.

\* \* \*

Cheksiz machit bormi Mashrabga?!

\* \* \*

Qo'y qirilsa, cho'chqaga nima...

\* \* \*

Yo bitkazgin, yo tugal buzvor!

1989

## ЭЛИМ

Бўлди эл мозийда фан,  
Бир тилли бошлар бирлашиб.  
Қон ютиб қурмиш Ватан,  
Ахд бирла дошлар бирлашиб.

Мард элим — Турон ота,  
Бўлмагай ҳеч вақт пода,  
Душманин этгай зада  
Чимрилса қошлар бирлашиб.

Зўр уруғ қад ғозламиш,  
Елкадош йўл созламиш,  
Бир-бирин эъзозламиш  
Тўйларда ошлар бирлашиб.

Келса ёв, халқ тиф бўлар,  
Эркига интиқ бўлар,  
Тўп бўлар, милтиқ бўлар  
Қўлларда тошлар бирлашиб.

Бу элат чўкмайди тиз,  
Бу Ватан мангу тўкис —  
Урганч, Бухорою Нукус,  
Фарғона, Шошлар бирлашиб.

1991

• • •

Эшигимни тепкилаб,  
Чақирсанг-чи, кўшнижон.  
«Озод бўлдик, ошна!» деб  
Бақирсанг-чи, кўшнижон.

Хар кун интиқ кутаман,  
Кирмоғингни маст, хушхол.  
Яна қайтиб кетмасин,  
Биздан ўқиб Истиклол!

1991

## ELIM

Bo'ldi el moziyda fan,  
Bir tilli boshlar birlashib.  
Qon yutib qurmish Vatan,  
Ahd birla doshlar birlashib.

Mard elim – Turon ota,  
Bo'lmagay hech vaqt poda,  
Dushmanin etgay zada  
Chimrilsa qoshlar birlashib.

Zo'r urug' qad g'ozlamish,  
Yelkadosh yo'l sozlamish,  
Bir-birin e'zozlamish  
To'ylarda oshlar birlashib.

Kelsa yov, xalq tig' bo'lar,  
Erkiga intiq bo'lar,  
To'p bo'lar, miltiq bo'lar  
Qo'llarda toshlar birlashib.

Bu elat cho'kmaydi tiz,  
Bu Vatan mangu to'kis –  
Urganch, Buxoro-yu Nukus,  
Farg'ona, Shoshlar birlashib.

1991

• • •

Eshigimni tepkilab,  
Chaqirsang-chi, qo'shnijon.  
«Ozod bo'ldik, oshna!» deb  
Baqirsang-chi, qo'shnijon.

Har kun intiq kutaman,  
Kirmog'ingni mast, xushhol.  
Yana qaytib ketmasin,  
Bizdan o'ksib Istiqlol!

1991

## **ИГНАБАРГ ШЕЪРЛАР**

Иситмалаб ётар қаламим.

\* \* \*

Яшар шеърлар қабристониди.

\* \* \*

Гадойлардан хали қарзим кўп.

\* \* \*

Яхши кўриб қолдим ўзимни...

\* \* \*

Боланг энди юртники, она!

1991

## **ЁШЛАРГА ИЛТИЖО**

Эрк каштаси иборат минг тугундан,  
Тоғ яралмиш сабр деган кукундан,  
Сабр жабри яшар азал «бугун»да,  
Юрт эркини асранг, Эрта сизники.

Ўтмиш бизга сочар хали кўп «рашк»ин,  
Бу саркитни ювиб ўтар, Вакт — тошкин,  
Тошкиндан ҳам бўлманг энди сиз шошкин,  
Юрт эркини асранг, Эрта сизники.

Биров тилда поку, наслан кир ўзи,  
Қад кўтарсак, куяр унинг фар кўзи,  
Кўрлар бор эл талар, ичиб эл тузин,  
Юрт эркини асранг, Эрта сизники.

Худо қалбда яшар, шайтон ўпкада,  
Ўпка-гина торлик сочар сафга-да,  
Балки тагрим синови шу жабхада,  
Юрт эркини асранг, Эрта сизники.

Битта ишда иркка тўзмак хатардир,  
Миллат ичра урув тузмак хатардир,  
Хаммадан ҳам ёлвон ўлбак хатардир,  
Юрт эркини асранг, Эрта сизники.

## **IGNABARG SHE'RLAR**

Isitmalab yotar qalamim.

\* \* \*

Yashar she'rlar qabristonida.

\* \* \*

Gadoylardan hali qarzim ko'p.

\* \* \*

Yaxshi ko'rib qoldim o'zimni...

\* \* \*

Bolang endi yurtniki, ona!

1991

## **YOSHLARGA ILTIJO**

Erk kashtasi iborat ming tugundan,  
Tog' yaralmish sabr degan kukundan,  
Sabr jabri yashar azal «bugun»da,  
Yurt erkini asrang, Erta sizniki.

O'tmish bizga sochar hali ko'p «rashk»in,  
Bu sarqitni yuvib o'tar, Vaqt — toshqin,  
Toshqindan ham bo'lmang endi siz shoshqin,  
Yurt erkini asrang, Erta sizniki.

Birov tilda poku, naslan kir o'zi,  
Qad ko'tarsak, kuyar uning g'ar ko'zi,  
Ko'rlar bor — el talar, ichib el tuzin,  
Yurt erkini asrang, Erta sizniki.

Xudo qalabda yashar, shayton — o'pkada,  
O'pka-gina torlik sochar safga-da,  
Balki tangrim sinovi shu jabhada,  
Yurt erkini asrang, Erta sizniki.

Bitta inda irqqa to'zmaq xatardir,  
Millat ichra urug' tuzmaq xatardir,  
Hammadan ham yolg'on o'zbek xatardir,  
Yurt erkini asrang, Erta sizniki.



Хасади йўқ кенгфеъл элга шон ёғар,  
Имонли кўз ризқ қидирса, дон ёғар,  
Уйимиздан ёв изласак, қон ёғар,  
Юрт эркини асранг, Эрта сизники.

Таркок бўлсак, ёвга создир, бўлинманг,  
Миллатимиз ўзи оздир, бўлинманг,  
Уюшқоқлик озга хосдир, бўлинманг,  
Юрт эркини асранг, Эрта сизники.

Мен ёмонми, У ёмонми, давр ўтар,  
Эрта-индин Мен кетарман, У кетар,  
Бари сизга қолгай, сизга гал етар,  
Юрт эркини асранг, Эрта сизники.

1992

\* \* \*

Ногаҳон бошланди баргтўзди, <sup>←т</sup>  
Ербиринг тўкилди япроқлар.  
Шамолнинг феълида жин кўзди,  
Кўзингга пуфлар қум-тупроқлар.  
Қунишиб, уй-жойсиз етимдек,  
Кезаман ланж тафтсиз кунларда.  
Шеър ёзгим келади ётиб тек  
Қушлардан бўшаган инларда.

1996


## УЧЧАНОҚЛАР

Ёнғин, тошқин беомон...  
Иккисидан ҳам ёмон  
Сабри биган қул қаҳри

\* \* \*

Аскар дўстим Афғонда  
Чўмилиб қайноқ қонда,  
«Ёр-ёр» айтиб жон берди.

1989





Hasadi yo'q kengfe'l elga shon yog'ar,  
Imonli ko'z rizq qidirs, don yog'ar,  
Uyimizdan yov izlasak, qon yog'ar,  
Yurt erkini asrang, Erta sizniki.

Tarqoq bo'lsak, yovga sozdir, bo'linmang,  
Millatimiz o'zi ozdir, bo'linmang,  
Uyushqoqlik ozga xosdir, bo'linmang,  
Yurt erkini asrang, Erta sizniki.

Men yomonmi, U yomonmi, davr o'tar,  
Erta-indin Men ketarman, U ketar,  
Bari sizga qolgay, sizga gal yetar,  
Yurt erkini asrang, Erta sizniki.

1992

\* \* \*

Nogahon boshlandi bargto'zdi,  
Yerbiring to'kildi yaproqlar.  
Shamolning fe'lida jin qo'zdi,  
Ko'zingga puflar qum-tuproqlar.  
Qunishib, uy-joysiz yetimdek,  
Kezaman lanj taftsiz kunlarda.  
She'r yozgim keladi yotib tek  
Qushlardan bo'shagan inlarda.

1996

## UCHCHANOQLAR

Yong'in, toshqin – beomon...  
Ikkisidan ham yomon  
Sabri bitgan qul qahri.

\* \* \*

Askar do'stim Afg'onda  
Cho'milib qaynoq qonda,  
«Yor-yor» aytib jon berdi.

1989

## ФАЛСАФАЧА

Ҳақиқатни чайнайвер  
Тишинг ўтса-ўтмаса.  
Ҳақиқатга сакрайвер  
Бўйинг етса-етмаса.

1995

## ЭЛБЕК

Юрт дарёдир, миллат — боқий тўлқини,  
Ҳайратли бир мўъжизадир тўлқин ҳам.  
Эрк гулхандир, шахид жонлар — ёлқини,  
Ҳайратли бир мўъжизадир ёлқин ҳам.

Улғайсин деб қул ўлкамда арслонлар,  
Хурриятга чорлаб ёздим дostonлар,  
«Бу — ёвлик» деб талқин этди шайтонлар,  
Ҳайратли бир мўъжизадир талқин ҳам.

Элбек кетса, аждоди бек элим бор,  
Қолдирганим — илм, ўлмас тилим бор,  
Мени сотганларга қийин ўлим бор,  
Ҳайратли бир мўъжизадир сотқин ҳам.

1993

\* \* \*

Оғир ётган дадам ёнига  
Эгилганча аста чўқдим тиз.  
Дедим, таскин экиб жонига:  
— Хор бўлмас ҳеч болаларингиз...

Фарқлолмайин ўнгми ё рўё,  
Силади бош-бўйинларимни.  
Шивирларди кўзлари гўё:  
Ўйнаб бўлдим ўйинларимни...

1998

## **FALSAFACHA**

Haqiqatni chaynayver  
Tishing o'tsa-o'tmasa.  
Haqiqatga sakrayver  
Bo'ying yetsa-yetmasa.

1995

## **ELBEK**

Yurt daryodir, millat — boqiy to'lqini,  
Hayratli bir mo'jizadir to'lqin ham.  
Erk gulxandir, shahid jonlar — yolqini,  
Hayratli bir mo'jizadir yolqin ham.

Ulg'aysin deb qul o'lkamda arslonlar,  
Hurriyatga chorlab yozdim dostonlar,  
«Bu — yovlik» deb talqin etdi shaytonlar,  
Hayratli bir mo'jizadir talqin ham.

Elbek ketsa, ajdodi bek elim bor,  
Qoldirganim — ilm, o'lmas tilim bor,  
Meni sotganlarga qiyin o'lim bor,  
Hayratli bir mo'jizadir sotqin ham.

1993

\*\*\*

Og'ir yotgan dadam yoniga  
Egilgancha asta cho'kdim tiz.  
Dedim, taskin ekib joniga:  
— Xor bo'lmas hech bolalaringiz...

Farqlolmayin o'ngmi yo ro'yo,  
Siladi bosh-bo'yinlarimni.  
Shivirlardi ko'zlari go'yo:  
— O'ynab bo'ldim o'yinlarimni...

1998

## **ШОИР ИҚБОЛ ОШ ҚИЛСА...**

Нозик усул — «қуштил» часига  
Тилкаланди Жиззах барраси.  
Сепилди Шош пўстирмасига  
Нукус тузи, Термиз зираси.

Чуст сабзиси кертилди «қил-қил»,  
Қувракликда йўқдир қиёси.  
Иштихоннинг саримсоғи хил,  
Парракланди Олот пиёзи.

Олтиариқ турпининг кучи  
Қувватбахшдир каптар тўшидай.  
Жомчадаги Хива гуручи  
Ўн беш ёшли қизнинг тишидай.

Келса ҳамки Қаршидан зиғир,  
Бошланмади барибир «жиз-биз»...  
Ош пишириб бўлмайди ахир  
Боғдоднинг қўқ калампирисиз!

2004

## **ҲАЗАЛ ШАКЛИДАГИ ШЕЪРЛАР**

Олса ором у дилором хуснига ором ром,  
Уйғониб гар сажда қилса, охига эҳром ром.

Хулкидан иффат уфурса ошно чин ромланиб,  
Бўйлаким хатто ракибнинг кўзлари нором ром.

Зора ёр топсамки ёрим шу парига ўхшаса,  
Бундайин покдилга кўнглим бўлмагай бирром ром.

То эгам ишқни яратмиш ўтни покликка қориб,  
Куйди Баҳромга Дилором, ёнди шо Баҳром ром.

Сўзи бол бу хурга ошиқ қилса изҳор севгисини,  
Этса рад мароми бирла, ошину маром ром.

Шоиринг ашъорга шайдо, сен қоғозга, эй калам,  
Мен тўқирман шеърни ром – ром, сен ёзарсан ром-ром.

1999

## **SHOIR IQBOL OSH QILSA...**

Nozik usul — «qushtil» chasiga  
Tilkalandi Jizzax barrasi.  
Sepildi Shosh po'stirmasiga  
Nukus tuzi, Termiz zirasi.

Chust sabzisi kertildi «qil-qil»,  
Kuvraklikda yo'qdir qiyosi.  
Ishtixonning sarimsog'i xil,  
Parraklandi Olot piyozi.

Oltiariq turpining kuchi  
Quvvatbaxshdir kaptar to'shiday.  
Jomchadagi Xiva guruchi  
O'n besh yoshli qizning tishiday.

Kelsa hamki Qarshidan zig'ir,  
Boshlanmadi baribir «jiz-biz»...  
Osh pishirib bo'lmaydi axir  
Bog'dodning ko'k qalampirisiz!

2004

## **G'AZAL SHAKLIDAGI SHE'RLAR**

Olsa orom u dilorom husniga orom rom,  
Uyg'onib gar sajda qilsa, ohiga chrom rom.

Xulqidan iffat ufursa oshno chin romlanib,  
Bo'ylakim hatto raqibning ko'zlari norom rom.

Zora yor topsamki yorim shu pariga o'xshasa,  
Bundayin pokdilga ko'nglim bo'lmagay g'irrom rom.

To egam ishqni yaratmish o'tni poklikka qorib,  
Kuydi Bahromga Dilorom, yondi sho Bahrom rom.

So'zi bol bu hurga oshiq qilsa izhor sevgisin,  
Etsa rad maromi birla, oshig'u marom rom.

Shoiring ash'orga shaydo, sen qog'ozga, ey qalam,  
Men to'qirman she'rni rom-rom, sen yozarsan rom-rom.

1999

\* \* \*

Дилбарим кўнглим ўтида суратинг бежо жо,  
Лолача янглиғ лабингда шарбатинг бежо жо.

Зораким боққан чоғимда кўзларинг очгай чечак,  
Кўзларинг чақмоғи ичра нафратинг бежо жо.

Хомтама ошиққа жабринг бир сабоқ-ибратми ё,  
Бенукус феълингда ушбу ибратинг бежо жо.

Мен учун тангрим атайлаб хилқатинг этмиш бино,  
Дилда бу кимдир дегувчи ҳайратинг бежо жо.

Беватан хор бўлмадим ки миллатим бағримдадир,  
Қисматимда минг жафою кулфатинг бежо жо.

Ўйламай отдинг ўзингни телба ишқ дарёсига,  
Шоиро, жонинг ичинда журъатинг бежо жо.

1998

## **ИГНАБАРГ ШЕЪРЛАР**

Шам ҳам шохдир Куёш чикқунча.

\* \* \*

Хў ёлғиз қуш — безиган кўнглим.

\* \* \*

Шўрлик турма! Қафасдаги уй!

\* \* \*

Ханжарида марҳум дўст исми.

\* \* \*


Бу гулханинг намунча совуқ?

\* \* \*

Ўлма! Сенда ўчим бор ахир!

\* \* \*

Кўр хассада ахтарар... нури.



\* \* \*

Dilbarim ko'nglim o'tida surating bejo jo,  
Lolacha yanglig' labingda sharbating bejo jo.

Zorakim boqqan chog'imda ko'zlaring ochgay chechak,  
Ko'zlaring chaqmog'i ichra nafrating bejo jo.

Xomtama oshiqqa jabring bir saboq-ibratmi yo,  
Benuqus fe'lingda ushbu ibrating bejo jo.

Men uchun tangrim ataylab xilqating etmish bino,  
Dilda bu kimdir deguvchi hayrating bejo jo.

Bevatan xor bo'lmadim ki millatim bag'rimdadir,  
Qismatimda ming jafo-yu kulfating bejo jo.

O'ylamay otding o'zingni telba ishq daryosiga,  
Shoiro, joning ichinda jur'ating bejo jo.

1998

### **IGNABARG SHE'RLAR**

Sham ham shohdir Quyosh chiqquncha.

\* \* \*

Ho' yolg'iz qush – bezigan ko'nglim.

\* \* \*

Sho'rlik turma! Qafasdagi uy!

\* \* \*

Xanjarida marhum do'st ismi.

\* \* \*


Bu gulxaning namuncha sovuq?

\* \* \*

O'lma! Senda o'chim bor axir!

\* \* \*

Ko'r hassada áxtarar... nurni.



\* \* \*

Қайтиб келдим... кишанимни так...

\* \* \*

«Бас қил!» деди. Балик гапирди!

\* \* \*

Хў кир менинг қабримга ўхшар.

\* \* \*

Кетай энди... деразангни оч.

1994

\* \* \*

Онам ювган оқ кўйлак  
Бошгинамнинг балоси.  
Қизлар унга суйканса,  
Юқар кошин қароси.  
Сирим сақлолмас кўйлак.

✓

Кошлар юкин кўрганда,  
Онам захри сочилгай.  
Оқ кўйлагим мен учун  
Яна дорга осилгай.  
Ўзин оқлолмас кўйлак.

1994

## ҚЎШНИ ҚИЗ

Шоиргинам, бунчалар бечорасиз, ёлғизсиз,  
Гўё сахро кўйнида танҳо ўсган ялғизсиз.  
Йўлингизни пойларман сизга назар солгани,  
Яралганман балки мен дардингизни олгани.

Дарчангиздан то сахар чакнаб илхом юлдузи,  
Чакнаб-чакнаб тун бўйи, ўчманг энди кундузи.  
Ёнгинамдан ўтгайсиз ерга хомуш боққанча,  
Бағри тўфон бир дарё борар жимжит оққанча.

Кўрсам кўзим ёнланар сочларингиз окини,  
Нега, нега сезмайсиз кўшни қиянинг оҳини?



\* \* \*

Qaytib keldim... kishanimni taq...

\* \* \*

«Bas qil!» dedi. Baliq gapirdi!

\* \* \*

Ho' qir mening qabrimga o'xshar.

\* \* \*

Ketay endi... derazangni och.

1994

\* \* \*

Onam yuvgan oq ko'ylak  
Boshginamning balosi.  
Qizlar unga suykansa,  
Yuqar qoshin qarosi.  
Sirim saqlolmas ko'ylak.

Qoshlar yuqin ko'rganda,  
Onam zahri sochilgay.  
Oq ko'yilagim men uchun  
Yana dorga osilgay.  
O'zin oqlolmas ko'ylak.

1994

## QO'SHNI QIZ

Shoirginam, bunchalar bechorasiz, yolg'izsiz.  
Go'yo sahro qo'ynida tanho o'sgan yalpizsiz.  
Yo'lingizni poylarman sizga nazar solgani.  
Yaralganman balki men dardingizni olgani.

Darchangizdan to sahar chaqnar ilhom yulduzi.  
Chaqnab-chaqnab tun bo'yi, o'chmang endi kunduzi.  
Yonginamdan o'tgaysiz yerga xomush boqqancha,  
Bag'ri to'fon bir daryo borar jimjit oqqancha.

Ko'rsam ko'zim yoshlanar sochlaringiz oqini,  
Nega, nega sezmay siz qo'shni qizning ohini?

Олисдаги бевафо холингизга куймагай,  
Бу оламда ҳеч кимса сизни мендек суймагай.

Пайкамайсиз, билмайсиз, фақат сизни ўйларман,  
Шеърларингиз ёд олиб, ёниб-ёниб куйларман.  
Боксангиз-чи мен томон, жабрингизга қул бўлай,  
Шундай ўтса умримиз, қабрингизда гул бўлай.

Мажнунгина шоиргинам,  
Махзунгина шоиргинам,  
Бечораю ёлғизгинам,  
Саҳродаги ялпизгинам...

1996

### ИБОДАТ

Юртимга қут ёғдир, қодир худойим,  
Халкимнинг дардига ўзинг қўй малҳам.  
Дўстларим давлатманд бўлсинлар доим,  
Рўзғорин тебратсин душманларим ҳам.

Сойим сувга, далам буғдойга тўлсин,  
Ўйлардан тўй, юртдан кетмасин байрам.  
Дўстларим бир умр бахтиёр бўлсин,  
Ғам-алам кўрмасин душманларим ҳам.

Мухтожлик ўлимдан дахшатлидир гоҳ,  
Камхаржлик айлагай мардларни мулзам.  
Мени ҳатто дўстга зор этма, Оллоҳ,  
Менга зор бўлмасин душманларим ҳам.

Бус-бутун миллатим ортимда қолсин,  
Доғини кўрмайин кўзларимда нам.  
Кўнмайин дўстимни ўртаниб, махзун,  
Кўнсин мени дўстлар, душманларим ҳам.

Яхшиликдан, тангрим, инъом эт шараф,  
Ёмонликдан асра кўнглимни ҳар дам.  
Номимни эласин дўстларим яшнаб,  
Таънадор бўлмасин душманларим ҳам.

2000

Olisdagi bevafo holingizga kuymagay,  
Bu olamda hech kimsa sizni mendek suymagay.

Payqamaysiz, bilmaysiz, faqat sizni o'ylarman,  
She'rlaringiz yod olib, yonib-yonib kuylarman.  
Boqsangiz-chi men tomon, jabringizga qul bo'lay,  
Shunday o'tsa umrimiz, qabringizda gul bo'lay.

Majnungina shoirginam,  
Mahzungina shoirginam,  
Bechorayu yolg'izginam,  
Sahrodagi yalpizginam...

1996

### **IBODAT**

Yurtimga qut yog'dir, qodir xudoyim,  
Xalqimning dardiga o'zing qo'y malham.  
Do'stlarim davlatmand bo'lsinlar doim,  
Ro'zg'orin tebratsin dushmanlarim ham.


Soyim suvga, dalam bug'doyga to'lsin,  
Uylardan to'y, yurtdan ketmasin bayram.  
Do'stlarim bir umr baxtiyor bo'lsin,  
G'am-alam ko'rmasin dushmanlarim ham.

Muhtojlik o'limdan dahshatlidir goh.  
Kamxarjlik aylagay mardlarni mulzam.  
Meni hatto do'stga zor etma, Oллоh,  
Menga zor bo'lmasin dushmanlarim ham.

Bus-butun millatim ortimda qolsin.  
Dog'ini ko'rmayin ko'zlarimda nam.  
Ko'mmayin do'stimni o'rtanib, mahzun.  
Ko'msin meni do'stlar, dushmanlarim ham.

Yaxshilikdan, tangrim, in'om et sharaf.  
Yomonlikdan asra ko'nglimni har dam.  
Nomimni estasin do'stlarim yashnab,  
Ta'nador bo'lmasin dushmanlarim ham.

2000



## АСҚАД ОҒА

— Ҳам шоир, ҳам файласуф...  
— Насри зўррок, сертаъсир...  
— Лекин... далгов йилларда...  
— Кам бундай мард мухаррир...  
Туравердим индамай,  
Бу — кўчагир баҳс эди.  
... Ким бўлса ҳам

А. МУХТОР

БУТУН эди, ШАХС эди.

1999

## УЧЧАНОҚЛАР

Сузук кўзлар кўрпамдир,  
Ўтли кўзлар ўрдамдир,  
Мунгли кўзлар — мачитим.

\* \* \*

Тилак айтиб Худога,  
Чака бердим гадога...  
Гадо менга сизинди.

\* \* \*

Мен ходимман, сен раҳбар...  
Кўл оч: «Оллоху Акбар!»  
На мен-у, на сен Буюк.

1992

\* \* \*

Ер деган юнашчик бағирда  
Жой етар сенга ҳам, менга ҳам.  
Сен қайик, мен қайик наҳрда,  
Жой етар сенга ҳам, менга ҳам.

Аразлар висолга раҳнадир,  
Ҳасадлар захарли қаҳнадир,  
Бу дунё беш кунлик сахнадир,  
Жой етар сенга ҳам, менга ҳам.

## ASQAD OG'A

— Ham shoir, ham faylasuf...  
— Nasri zo'rroq, sarta'sir...  
— Lekin... dalg'ov yillarda...  
— Kam bunday mard muharrir...  
Turaverdim indamay,  
Bu — ko'chagir bahs edi.  
... Kim bo'lsa ham

A. MUXTOR

BUTUN edi, SHAXS edi.

1999

## UCHCHANOQLAR

Suzuk ko'zlar ko'rpamdir,  
O'tli ko'zlar o'rdamdir,  
Mungli ko'zlar — machitim.

\*\*\*

Tilak aytib Xudoga,  
Chaqa berdim gadoga...  
Gado menga sig'indi.

\*\*\*


Men xodimman, sen rahbar...  
Qo'l och: «Ollohu Akbar!» —  
Na men-u, na sen Buyuk.

1992

\*\*\*

Yer degan yupanchiq bag'irda  
Joy yetar senga ham, menga ham.  
Sen qayiq, men qayiq nahrda,  
Joy yetar senga ham, menga ham.

Arazilar visolga raxnadir,  
Hasadlar zaharli qahvadir,  
Bu dunyo besh kunlik sahnadir,  
Joy yetar senga ham, menga ham.



Бу даврон мангу деб адашма,  
Зебу зар — сохта бир карашма,  
Куйканиб шоҳсупа талашма,  
Жой етар сенга ҳам, менга ҳам.

Бировлар бўлай деб ягона,  
Ўзгалар меҳридан бегона,  
Жўр бўлиб таратсак тарона,  
Жой етар сенга ҳам, менга ҳам.

Лахзалик кўшиқмиз аслида,  
Ер азал тириклар қасдида,  
Устига сифмасак, остида —  
Жой етар сенга ҳам, менга ҳам.

1998

## **ТУНГИ ТОШКЕНТ**

Ойдин тунда ўхшар Тошкент ойпошшога,  
Келар олам юлдузлари томошшога.  
Зар сочганда сувга Ўрда чироклари,  
Ошиқларга тўлар анҳор кирғоклари.

Отабекнинг излари бор Эрам боғда,  
Шивирлайди армонлари хар янроқда.  
Еллар хазин куйлар ўтмиш афсонасин  
Тош кальанинг ўн икки хил дарвозасин.

Йиллар ўтар, бу онлар ҳам тарих бўлгай,  
Зебо туилар такрор-такрор таъриф бўлгай.  
Фаришталар ёддириб бор илҳомларин,  
Безантиргай балки Тошкент оқшомларин.

Ойдин тунда ўхшар Тошкент ойпошшога...

1998

Bu davron mangu deb adashma,  
Zebu zar — soxta bir karashma,  
Kuykanib shohsupa talashma,  
Joy yetar senga ham, menga ham.

Birovlar bo'lay deb yagona,  
O'zgalar mehridan begona,  
Jo'r bo'lib taratsak tarona,  
Joy yetar senga ham, menga ham.

Lahzalik qo'shiqmiz aslida,  
Yer azal tiriklar qasdida,  
Ustiga sig'masak, ostida —  
Joy yetar senga ham, menga ham.

1998

### **TUNGI TOSHKENT**

Oydin tunda o'xshar Toshkent oyposhshoga,  
Kelar olam yulduzlari tomoshshoga.  
Zar sochganda suvga O'rda chiroqlari,  
Oshiq'larga to'lar anhor qirg'oqlari.

Otabekning izlari bor Eram bog'da,  
Shivirlaydi armonlari har yaproqda.  
Yellar hazin kuylar o'tmish afsonasin —  
Tosh qal'aning o'n ikki xil darvozasin.

Yillar o'tar, bu onlar ham tarix bo'lgay,  
Zebo tunlar takror-takror ta'rif bo'lgay.  
Farishtalar yog'dirib bor ilhomlarin,  
Bezantirgay balki Toshkent oqshomlarin.

Oydin tunda o'xshar Toshkent oyposhshoga...

1998

## **ТОҒАЙ МУРОД**

Бу олам хўрловчи,  
Бу олам зўрловчи,  
Бу олам ғазабли —  
Хордикка зорикқан,  
Улоқдан толикқан  
Самандек асабий.

Бу олам беҳаё,  
Бу олам бедаво,  
Бу олам умидсиз —  
Иғвогар сўтакдек,  
Аёлфеъл эркакдек  
Муттаҳам, субутсиз.

Бу олам фитнакор,  
Бу олам танбозор,  
Бу олам қарокчи --  
Амалдор сўзидек,  
Ғарларнинг кўзидек  
Хийлагар, алдоқчи.

Бу олам бефаҳм,  
Бу олам бераҳм,  
Бу олам қир, бадбўй —  
Шайтоннинг шотири,  
Истеъдод котили,  
Ҳасадчи, ғаразгўй...

Шошма сал, о ажал,  
Бу олам чўнг гўзал,  
Бу олам мулойим...  
Кечирдим хаммани,  
Кечир мен бандани,  
Худойим...

2003



## **TOG'AY MUROD**

Bu olam xo'rovchi,  
Bu olam zo'rovchi,  
Bu olam g'azabli —  
Hordiqqa zoriqqan,  
Uloqdan toliqqan  
Samandek asabiy.

Bu olam behayo,  
Bu olam bedavo,  
Bu olam umidsiz —  
Ig'vogar so'takdek,  
Ayolfe'l erkakdek  
Muttaham, subutsiz.

Bu olam fitnakor,  
Bu olam tanbozor,  
Bu olam qaroqchi --  
Amaldor so'zidek,  
G'arlarning ko'zidek  
Hiylagar, aldoqchi.

Bu olam befahm,  
Bu olam berahm,  
Bu olam kir, badbo'y --  
Shaytonning shotiri,  
Iste'dod qotili,  
Hasadchi, g'arazgo'y...

Shoshma sal, o ajal,  
Bu olam cho'ng go'zal,  
Bu olam muloyim...  
Kechirdim hammani,  
Kechir men bandani,  
Xudoyim...

2003

## ИГНАБАРГ ШЕЪРЛАР

Яна ўқинг менбоп ҳадисдан!

\* \* \*

Қўй камтар... ва осон сўйишар.

\* \* \*

Висол асли зиндон эшиги.

\* \* \*

Сен мақташга мажбурсан мени!!!

\* \* \*

Сотилди... ўз халқин асраш-чун.

\* \* \*

Илхом — турма туғрукхонаси.

\* \* \*

Илон?! Кўркма, Гуля, бу — тасбех...

\* \* \*

— Элга беринг... тўйимдан ортса.

\* \* \*

Милтиқ нега ўзини отди?

\* \* \*

— Ҳайф сенларга севгим ва ўзим!

\* \* \*

Кечиктирди ўлимни яна.

\* \* \*

Фарзандим бор... Уйланмаганман...

\* \* \*

— Она... она... Жуда таниш ном...

\* \* \*

Шоир, жарнинг ёқасида юр!

\* \* \*

Қилинганман Сабрга сурғун.

1995

\* \* \*

Эсам почор, моду дунё кўнар қўлга,  
Кетса ёрим, бўлак лайло кўнар қўлга,  
Ўтар кайғу, пашғу намо кўнар қўлга,  
Соғ бўлса бас таңу жоним,  
Таңрижоним.

## **IGNABARG SHE'RLAR**

Yana o'qing menbop hadisdan!

\* \* \*

Qo'y kamtar... va oson so'yishar.

\* \* \*

Visol asli zindon eshigi.

\* \* \*

Sen maqtashga majbursan meni!!!

\* \* \*

Sotildi... o'z xalqin asrash-chun.

\* \* \*

Ilhom — turma tug'ruqxonasi.

\* \* \*

Ilon?! Qo'rqma, Gulya, bu — tasbeh...

\* \* \*

— Elga bering... to'yimdan ortsa.

\* \* \*

Miltiq nega o'zini otdi?

\* \* \*

— Hayf senlarga sevgim va o'zim!

\* \* \*

Kechiktirdi o'limin yana.

\* \* \*

Farzandim bor... Uylanmaganman...

\* \* \*

— Ona... ona... Juda tanish nom...

\* \* \*

Shoir, jarning yoqasida yur!

\* \* \*

Qilinganman Sabrga surgun.

1995

\* \* \*

Esam nochor, mol-u dunyo qo'nar qo'lga,  
Ketsa yorim, bo'lak laylo qo'nar qo'lga,  
O'tar qayg'u, nash'u namo qo'nar qo'lga.  
Sog' bo'lsa bas tan-u jonim,  
Tangrijonim.

Умрим бўйи ширин-аччиқ ичиб ўтдим,  
Сувда ёндим, ўт ичиндан ўчиб ўтдим,  
Неча ўқлар орасиндан учиб ўтдим,  
Соғ бўлса бас тану жоним,  
Тангрижоним.

Кўнглимга не солсанг шуни зикр қилгум,  
Хар сўзингни дилда юз минг фикр қилгум,  
Хоҳ қувонч, хоҳ алам бергил, шукур қилгум,  
Соғ бўлса бас тану жоним,  
Тангрижоним.

Бир менгамас, бахтни аввал кўпга бергил,  
Бойлигимни яхши аъмол — хўбга бергил,  
Гуллаш саодатин ҳатто чўпга бергил,  
Соғ бўлса бас тану жоним,  
Тангрижоним.

2000

## **РУҲЛАР**

Ҳеч Мухаммад Юсуфга  
Тинчлик бермас ўй-хаёл.  
Неча вақтки  
Бошида —  
Айланади бир савол...

Кўриб Аъзам Ўктамни,  
Кучоклашди, ўпишди.  
Сўнг сўради:  
-- Ошнажон,  
Мени... қайга кўмишди?

2006

Umrim bo'yi shirin-achchiq ichib o'tdim,  
Suvda yondim, o't ichindan o'chib o'tdim,  
Necha o'qlar orasindan uchib o'tdim,  
Sog' bo'lsa bas tan-u jonim,  
Tangrijonim.

Ko'nglinga ne solsang shuni zikr qilgum,  
Har so'zingni dilda yuz ming fikr qilgum,  
Xoh quvonch, xoh alam bergil, shukur qilgum,  
Sog' bo'lsa bas tan-u jonim,  
Tangrijonim.

Bir mengamas, baxtni avval ko'pga bergil,  
Boyligimni yaxshi a'mol — xo'bga bergil,  
Gullash saodatin hatto cho'pga bergil,  
Sog' bo'lsa bas tan-u jonim,  
Tangrijonim.

2000

## **RUHLAR**

Hech Muhammad Yusufga  
Tinchlik bermas o'y-xayol.  
Necha vaqtki  
Boshida —  
Aylanadi bir savol...

Ko'rib A'zam O'ktamni,  
Quchoqlashdi, o'pishdi.  
So'ng so'radi:  
— Oshnajon,  
Meni... qayga ko'mishdi?

2006

## 64 КАТАКЛИ ДУНЁ

*Шахмат бўйича 17-жаҳон чемпиони  
Рустам Қосимжоновга.*

Қўмондонсан!  
Қўл остингда —  
Ўн олтилик хил лашкар.  
Ажаббоки, бу кўшинда  
Шоҳ ҳам сенга бир аскар.

Хал қиласан битта ўзинг  
Қачон қандай юрмоқни.  
Қайга тузоқ қўймоқни-ю,  
Қайда қурбон бермоқни.

Масъулликнинг юки эзар  
Вужудингни хар лаҳза.  
Бир пиёда ўринсиз гар  
Нобуд бўлса, бу — аза.

Бой берсанг гоҳ ўксинма лек,  
Лашкар бўлмас беҳатар.  
Ўзбек ерин дуосин ол,  
Келгуси гал куч зафар.

Пирлик қилган бу ер минглаб  
Шоир, олим, султонга:  
Навойга, Улуғбекка,  
Даҳо Соҳибқиронга.

Тож йўли оқ-қора катак,  
Бунда Тўнга сурган от.  
Бобур шохмот юртида ҳам  
Жанг филларин қилган мот...

Бирок Турон кўрган эмас  
Сендек ажиб ўелонни.  
Ўн олтига аскар билан  
Олдинг бутун жаҳонни.

2004



## 64 KATAKLI DUNYO

*Shaxmat bo'yicha 17-jahon chempioni  
Rustam Qosimjonovga.*

Qo'mondonsan!  
Qo'l ostingda —  
O'n oltilik xil lashkar.  
Ajabboki, bu qo'shinda  
Shoh ham senga bir askar.

Hal qilasan bitta o'zing  
Qachon qanday yurmoqni.  
Qayga tuzoq qo'ymoqni-yu,  
Qayda qurbon bermoqni.

Mas'ullikning yuki ezar  
Vujudingni har lahza.  
Bir piyoda o'rinsiz gar  
Nobud bo'lsa, bu — aza.

Boy bersang goh o'ksinma lek,  
Lashkar bo'lmas bexatar.  
O'zbek yerin duosin ol,  
Kelgusi gal quch zafar.

Pirlik qilgan bu yer minglab  
Shoir, olim, sultonga:  
Navoiyga, Ulug'bekka,  
Daho Sohibqironga.

Toj yo'li — oq-qora katak,  
Bunda To'nga surgan ot.  
Bobur shohmot yurtida ham  
Jang fillarin qilgan mot...

Biroq Turon ko'rgan emas  
Sendek ajib o'g'lonni.  
O'n oltita askar bilan  
Olding butun jahonni.

Бир ватан қурсак аҳил жаннат қолар биздан кейин,  
Ноиноқ бўлсак агар иллат қолар биздан кейин. ✓

Энг улуғ мақсад ила қудрат бўлолсак энг йирик,  
Ақлимизга ҳаммада хайрат қолар биздан кейин.

Мехнату илму ҳунар кашфу камолот асли бахт,  
Шунга ғайрат айласак ибрат қолар биздан кейин.

Олам ахлин барчасин иззат этолсак — неки ирк,  
Ўзгада бу ўлкага ҳурмат қолар биздан кейин.

Асрабон тинчликда юртни айласак бу элни бой,  
Хамсаю дoston, мақом — санъат қолар биздан кейин.

Тоза қондан тоза фарзандлар ўнар, э шоиро,  
Тоза бўлсак тоза бир миллат қолар биздан кейин.

2002

\* \* \*

Мачитда йўқлигим «осий» тамғали хат бўлолмас,  
Вале холим на болам, на ётга ибрат бўлолмас. ✓

Кимлигимни эгам билгай — бир эгам, одил эгам,  
Банда ҳукми чин жазо ё чин шафоат бўлолмас.

Гар Худо шафқатин рамзин изласанг Ер сатҳидан,  
Ота-онангдан бўлак зот рамзи шафқат бўлолмас.

Ким чақолса олам илмин мағзини, у англагай  
Маъниси қирқ ҳадис бўлмас, битта оят бўлолмас.

Барча банда ўнди-ўсди бахр олиб Ҳақ нуридан,  
Барча банда Ҳаққа лек бир зум химоят бўлолмас.

Билмадим юз қуими юз ой қолди умрим муддати,  
Тангри боқий, юз аср хам унга муддат бўлолмас.

Қулахмадни ўқиб, тинглаб илоҳий қуш поласин,  
Билдим охир мингта шеърим унга бир пат бўлолмас.

2000



## G'AZAL SHAKLIDAGI SHE'RLAR

Bir vatan/ qursak/ ahil/ jarʼnat/ qqlar/ bizdan/ keyin,  
Noinoq bo'lsak agar illat qolar bizdan keyin.

Eng ulug' maqsad ila qudrat bo'lolsak eng yirik,  
Aqlimizga hammada hayrat qolar bizdan keyin.

Mehnat-u ilm-u hunar kashf-u kamolot asli baxt,  
Shunga g'ayrat aylasak ibrat qolar bizdan keyin.

Olam ahlin barchasin izzat etolsak — neki irq,  
O'zgada bu o'lkaga hurmat qolar bizdan keyin.

Asrabon tinchlikda yurtni aylasak bu elni boy,  
Xamsa-yu doston, maqom — san'at qolar bizdan keyin.

Toza qondan toza farzandlar o'nar, e shoiro,  
Toza bo'lsak toza bir millat qolar bizdan keyin.

2002

\* \* \*

Machitda yo'qligim «osiy» tamg'ali xat bo'lolmas,  
Vale holim na bolam, na yotga ibrat bo'lolmas.

Kimligimni egam bilgay — bir egam, odil egam,  
Banda hukmi chin jazo yo chin shafolat bo'lolmas.

Gar Xudo shafqatin ramzin izlasang Yer sathidan,  
Ota-onangdan bo'lak zot ramzi shafqat bo'lolmas.

Kim chaqolsa olam ilmin mag'zini, u anglagay —  
Ma'nisi qirq hadis bo'lmas, bitta oyat bo'lolmas.

Barcha banda o'ndi-o'sdi bahr olib Haq nuridan,  
Barcha banda Haqqa lek bir zum himoyat bo'lolmas.

Bilmadim yuz kunmi yuz oy qoldi umrim muddati,  
Tangri boqiy, yuz asr ham unga muddat bo'lolmas.

Qulahmadni o'qib, tinglab ilohiy qush nolasin,  
Bildim oxir mingta she'rim unga bir pat bo'lolmas.

2000

## ШОИРНИНГ ХОТИНИ

Таништирган чоғда, одатга кўра,  
Қистиришар мансаб ёки зотини.  
Уни таништириб, дерлар:  
— Манзура...  
Шавкат Раҳмоннинг хотини!

Бағрига ёйилар фахртаъм хузур,  
Гарчи  
Тирнок қадар келар ёш тўлиб.  
Янги танишига боқар у мағрур,  
Эркаги бор уйнинг бекаси бўлиб.

То эри эркакдек яшаган экан,  
Аёлга бу бахтдир,  
Мансаб, мол-дунё...  
Лек «Фалон хонимнинг эри шу» деган —  
Довруғдан эркакни асрасин худо.

2000

## ЁРИЛАЁТГАН ДЕВОР

Ўз ташвишим — теграмда кўрган,  
Ташқарига боқдим ёриқдан.  
Май тутган кўл балқди ногахон:  
— Ол!  
Бу — уканг Акрам сарикдан!

-- Ташлаганман!  
Сен хам ипни уз!  
Қилма, иним, ўзингни хароб...  
Бурушган кўл титради туйқус,  
Кўзёшлардек сачради шароб.

... Сескандим-у,  
Йиғдим хушимни:  
«Куриб кетсин буларнинг бари!»

## **SHOIRNING XOTINI**

Tanishtirgan chog'da, odatga ko'ra,  
Qistirishar mansab yoki zotini.  
Uni tanishtirib, derlar:  
— Manzura...  
Shavkat Rahmonning xotini!

Bag'riga yoyilar faxrta'm huzur,  
Garchi  
Tirnoq qadar kelar yosh to'lib.  
Yangi tanishiga boqar u mag'rur,  
Erkagi bor uyning bekasi bo'lib.

To eri erkakdek yashagan ekan,  
Ayolga bu baxtdir,  
Mansab, mol-dunyo...  
Lek «Falon xonimning eri shu» degan —  
Dovrug'dan erkakni asrasin xudo.

2000

## **YORILAYOTGAN DEVOR**

O'z tashvishim — tegramda qo'rg'on,  
Tashqariga boqdim yoriqdan.  
May tutgan qo'l balqdi nogahon:  
— Ol!  
Bu — ukang Akram sariqdan!

— Tashlaganman!  
Sen ham ipni uz!  
Qilma, inim, o'zingni xarob...  
Burushgan qo'l titradi tuyqus,  
Ko'zyoshlardek sachradi sharob.

... Seskandim-u,  
Yig'dim hushimni:  
•Qurib ketsin bularning bari!•

Ташлаб орзум, уйим, ишимни,  
Учгим келди қишлоғим сари.

Қарияпмиз...  
Мен ҳам... укам ҳам...

2003

## **ҲАЗАЛ ШАҚЛИДАГИ ШЕЪРЛАР**

Муддаолар ичра олий муддаодир яхшилик, ✓  
Энг гўзалдир, энг шириндир, бебаходир яхшилик.

Яхши инсонлар туфайли балки бу олам омон,  
Насли инсондир агар, унга раводир яхшилик.

Яхши аъмолдин насиба бор ўлур яшнаб гиёҳ,  
Танга гўё тоза сув, тоза хаводир яхшилик.

Хар ёмонлик кони кулфат, хар ёмонлик минг хато,  
Қанча қилма безиёну бехатодир яхшилик.

Гар ёмонликда намоён бўлса шайтон сурати,  
Пок плохий неъмату рамзи Худодир яхшилик.

Яхшиликдан таъмаю миннат йироқдир, бўлса чин,  
Таъна бирла келса аммо норасодир яхшилик.

Яхшилик қил, шоиро, гар у ёмонлик қилса ҳам,  
Қи ёмонлик қилган одамга жазодир яхшилик.

2002

• • •

Тангри ёринг бўлса йўқни бор қилар бирдамас-бирда,  
Келса қаҳри шохни ҳам у хор қилар бирдамас бирда. ✓

Берса неъмат, қадрини билмайини тонтаб ўтар эрсанг,  
Сой бўйинда катра сувга лор қилар бирдамас-бирда.

Яхши мақсад бирла олсанг қўлинда тош бўлур тилло,  
Чакки хулқингни ўзингга лор қилар бирдамас-бирда.

Tashlab orzum, uyim, ishimni,  
Uchгим keldi qishlog'im sari.

Qariyapmiz...  
Men ham... ukam ham...

2003

## **G'AZAL SHAKLIDAGI SHE'RLAR**

Muddaolar ichra oliy muddaodir yaxshilik,  
Eng go'zaldir, eng shirindir, bebahodir yaxshilik.

Yaxshi insonlar tufayli balki bu olam omon,  
Nasli insondir agar, unga ravodir yaxshilik.

Yaxshi a'moldin nasiba bor o'lur yashnab giyoh,  
Tanga go'yo toza suv, toza havodir yaxshilik.

Har yomonlik koni kulfat, har yomonlik ming xato,  
Qancha qilma beziyon-u bexatodir yaxshilik.

Gar yomonlikda namoyon bo'lsa shayton surati,  
Pok ilohiy ne'mat-u ramzi Xudodir yaxshilik.

Yaxshilikdan ta'mayu minnat yiroqdir, bo'lsa chin,  
Ta'na birla kelsa ammo norasodir yaxshilik.

Yaxshilik qil, shoiro, gar u yomonlik qilsa ham,  
Ki yomonlik qilgan odamga jazodir yaxshilik.

2002

\*\*\*

Tangri yoring bo'lsa yo'qni bor qilar birdamas-birda,  
Kelsa qahri shohni ham u xor qilar birdamas-birda.

Bersa ne'mat, qadrini bilmayin toptab o'tar ersang,  
Soy bo'yinda qatra suvga zor qilar birdamas-birda.

Yaxshi maqsad birla olsang qo'lingda tosh bo'lur tillo,  
Chakki xulqingni o'zingga dor qilar birdamas-birda.

Талаб бечорани, фарзандларин ризқига чанг урсанг,  
Ўз болангни ўз бошингга мор қилар бирдамас-бирда.

Чайлада гар шукур қилсанг бўлур кошонадин кенгрок,  
Ношукурга буюк қасрин тор қилар бирдамас-бирда.

Ўтди не-не анбиёлар Тангрининг айтганин сўйлаб,  
Бу ўғитлар сенга, шоир, кор қилар бирдамас-бирда.

2003

## **ИККИНЧИ ШИЛҚИМЛИК ДАВРИ**

Ёшликда жа-а шилқим бўлганмиз,  
Сочларни ёғ суртиб тарардик.  
Гох хуштак чалардик қизларга,  
Гохи жим тикили-и-б қарардик.

Эх, бугун ўша гож тенгдошлар  
Сочига ок тушган эркакдир.  
Уларнинг ва менинг ёшлигим  
Ўзимиз тўқиган эртақдир.

Дўстларим! Қизларга термилсам,  
Деманг: «Ишк дарди кў-ў-п юқумли».  
Биринчи шилқимлик тугаган,  
Буниси — иккинчи шилқимлик.

Бир сирни айтайин, эшитсин  
Ким эллик ёшдан сал паридир.  
Элликдан кейинги умримиз  
«Иккинчи шилқимлик даври»дир.

Ёшимга ярашмас мажнунлик,  
Худодан мен тўзим сўрайман.  
Ўғлимга мос келин ахтариб,  
Қизларга тикили-и-б қарайман.

1994

Talab bechorani, farzandlarin rizqiga chang ursang,  
O'z bolangni o'z boshingga mor qilar birdamas-birda.

Chaylada gar shukur qilsang bo'lur koshonadin kengroq,  
Noshukurga buyuk qasrin tor qilar birdamas-birda.

O'tdi ne-ne anbiyolar-Tangrining aytganin so'ylab,  
Bu o'g'itlar senga, shoir, kor qilar birdamas-birda.

2003

## **IKKINCHI SHILQIMLIK DAVRI**

Yoshlikda ja-a shilqim bo'lganmiz,  
Sochlarni yog' surtib tarardik.  
Goh hushtak chalardik qizlarga,  
Gohi jim tikili-i-b qarardik.

Eh, bugun o'sha goj tengdoshlar  
Sochiga oq tushgan erkakdir.  
Ularning va mening yoshligim  
O'zimiz to'qigan ertakdir.

Do'stlarim! Qizlarga termilsam,  
Demang: «Ishq dardi ko'-o'-p yuqumli».  
Birinchi shilqimlik tugagan,  
Bunisi — ikkinchi shilqimlik.

Bir sirni aytayin, eshitsin —  
Kim ellik yoshdan sal naridir.  
Ellikdan keyingi umrimiz  
«Ikkinchi shilqimlik davri»dir.

Yoshimga yarashmas majnunlik,  
Xudodan men to'zim so'rayman.  
O'g'linga mos kelin axtarib,  
Qizlarga tikili-i-b qarayman.

1994

## ДУШМАНТОПАР

Элга ёв Дев бор эди тайин,  
Дев билан Хол олишаверди.  
Гаплар отиб  
Олишган сайин,  
Унга қойил қолишаверди.

Дев фижиниб, пеш қилса кучин,  
Чимдимокдан вақтинча тўхтаб,  
Унинг ховрин босмоқлик учун  
Силаб қур-қур  
Аврарди мактаб.

Ўз-ўзидан бир кун ўша Дев —  
Ўлди,  
Учраб рухий касалга.  
Бунда Холнинг хизмати бор, деб,  
Кўтардилар уни амалга.

Ўтаверди кунлар ва ойлар,  
Хол атрофга боқар,  
Атроф — жим.  
Жовдираб эл оғзини пойлар,  
Таажжуб, уни гапирмас ҳеч ким.

Авом энди парвосиз ўтар,  
Бу ҳол унинг ич-ичин эзди.  
Ўзи ҳақда  
Бошқа бир лапар  
Яратмоқлик шартлигин сизди.

Ичаверди аламдан тинсиз,  
Хаёли минг кавакка чопди.  
Ўйлаб-ўйлаб юз кеча-кундуз,  
Охири  
Энг «тўғри йўл» топди:

«Биламан, халқ севади мени,  
Ха, севади! Севиши керак!  
Сўзсиз, кимдир ёқтирмас буни,  
У хасадчи,  
Ёвим шу, демак.



## DUSHMANTOPAR

Elga yov Dev bor edi tayin,  
Dev bilan Xol olishaverdi.  
Gaplar otib  
Olishgan sayin,  
Unga qoyil qolishaverdi.

Dev g'ijinib, pesh qilsa kuchin,  
Chimdimoqdan vaqtincha to'xtab,  
Uning hovrin bosmoqlik uchun  
Silab qur-qur  
Avrardi maqtab.

O'z-o'zidan bir kun o'sha Dev —  
O'ldi,  
Uchrab ruhiy kasalga.  
Bunda Xolning xizmati bor, deb,  
Ko'tardilar uni amalga.

O'taverdi kunlar va oylar,  
Xol atrofga boqar,  
Atrof — jim.  
Jovdirab el og'zini poylar,  
Taajjub, uni gapirmas hech kim.

Avom endi parvosiz o'tar,  
Bu hol uning ich-ichin ezdi.  
O'zi haqda  
Boshqa bir lapar  
Yaratmoqlik shartligin sezdi.

Ichaverdi alamdan tinsiz,  
Xayoli ming kavakka chopdi.  
O'ylab-o'ylab yuz kecha-kunduz,  
Oxiri  
Eng «to'g'ri yo'l» topdi:

«Bilaman, xalq sevadi meni,  
Ha, sevadi! Sevishi kerak!  
So'zsiz, kimdir yoqtirmas buni,  
U — hasadchi,  
Yovim — shu, demak.

Кизик!

Ўша уйинг куйгур ким?

Бу масала ҳозирча жумбоқ...»

Хол аланглар, ўтар ҳамма дим,

Биров унга олаймас мутлоқ.

«Хасадгўйсан барибир баринг!» —

Деб, Хол «уруф» эка бошлади.

Танлаб-танлаб,

Номдор-номдорнинг

Жиғига кўп тега бошлади.

Олдин уни авайлашди сал,

Не бўлса ҳам — собиқ қахрамон!

Сурлик хаддан ошган чоқ тугал,

Қайнади лек

Кимлардадир кон.

Шалдодроғи ёғдирди қаҳрин,

Босикроғи ўкрайиб кўйди.

Бундан Холнинг

Очилди баҳри,

Бундан ажиб бир хузур тўйди.

Ишга солди ўнлаб шотирин,

Мишмишларга

Тўлди тўрт томон:

«Қийнашмоқда халкнинг ботирин!

Хасадчилар чиқди беомон!!!»

Дам Хол ўзи

Сохта тутоқиб,

Катталарга килар кўнғирок:

— Ғанимларим этмоқда таъкиб,

Чалғитишар ишдан, иш чаток...

Титроқ солиб

Чўнг йиғинларга,

Қарғар номсиз хасадгўйларни.

Йўк душманга қарши минбарга

Айлантирар хатто тўйларни.

Qiziq!  
O'sha uying kuygur kim?  
Bu masala hozircha jumboq...»  
Xol alanglar, o'tar hamma dim,  
Birov unga olaymas mutloq.

«Hasadgo'ysan baribir baring!» —  
Deb, Xol «urug'» eka boshladi.  
Tanlab-tanlab,  
Nomdor-nomdorning  
Jig'iga ko'p tega boshladi.

Oldin uni avaylashdi sal,  
Ne bo'lsa ham — sobiq qahramon!  
Surlik haddan oshgan choq tugal,  
Qaynadi lek  
Kimlardadir qon.

Shaddodrog'i yog'dirdi qahrin,  
Bosiqrog'i o'qrayib qo'ydi.  
Bundan Xolning  
Ochildi bahri,  
Bundan ajib bir huzur tuydi.

Ishga soldi o'nlab shotirin,  
Mishmishlarga  
To'ldi to'rt tomon:  
«Qiyshmoqda xalqning botirin!  
Hasadchilar chiqdi beomon!!!»

Dam Xol o'zi  
Soxta tutoqib,  
Kattalarga qilar qo'ng'iroq:  
— G'animlarim etmoqda ta'qib,  
Chalg'itishar ishdan, ish — chatoq...

Titroq solib  
Cho'ng yig'inlarga,  
Qarg'ar nomsiz hasadgo'ylarni.  
Yo'q dushmanga qarshi minbarga  
Aylantirar hatto to'ylarni.

Энди укмас  
Элнинг арз-додин,  
«Дард»ин элга сочар жийдадай.  
Ялаб ётиб амалнинг тотин,  
Ўзин йўяр жабрдийдага.

Шаъннинг эмас,  
Шоннинг кўйида  
Курукка от чоптирар физ-физ.  
Дўст кидириш келмас ўйига,  
Янги-янги ёв излар хануз.

2006

## **БУ КЎЧАЛАР**

*Ошнам Анор Назаровга*

Кундузми ё тун-кечалар,  
Чорлар бизни бу кўчалар.  
Босган изинг — бир сония,  
Гўё умринг тез ўлчанар.

Юрдик орзу бор кўчада,  
Кенг кўчаю тор кўчада.  
Болалигу ёшлигимиз  
Ўйнар ҳамон хар кўчада.

Жамланди гоҳ ёронимиз,  
Келмади гоҳ жононимиз.  
Шодлигимиз бу кўчада,  
У кўчада армонимиз.

Носоз кўча, соз кўчалар,  
Таваккалга мос кўчалар.  
Тирик юрмок илмин берди  
Бизга бу устоз кўчалар.

Қайга элтар бу кўчалар?  
Қайга етар бу кўчалар?  
Қайси тақдир оғушига  
Бошлаб кетар бу кўчалар?..

2005

Endi uqmas  
Elning arz-dodin,  
«Dard»in elga sochar jiydaday.  
Yalab yotib amalning totin,  
O'zin yo'yar jabrdiydaga.

Sha'nning emas,  
Shonning ko'yida  
Quruqqa ot choptirar g'iz-g'iz.  
Do'st qidirish kelmas o'yiga,  
Yangi-yangi yov izlar hanuz.

2006

## **BU KO'CHALAR**

*Oshnam Anor Nazarovga*

Kunduzmi yo tun-kechalar,  
Chorlar bizni bu ko'chalar.  
Bosgan izing — bir soniya,  
Go'yo umring tez o'lchanar.

Yurdik orzu bor ko'chada,  
Keng ko'cha-yu tor ko'chada.  
Bolalig-u yoshligimiz  
O'ynar hamon har ko'chada.

Jamlandi goh yoronimiz,  
Kelmadi goh jononimiz.  
Shodligimiz bu ko'chada,  
U ko'chada armonimiz.

Nosoz ko'cha, soz ko'chalar,  
Tavakkalga mos ko'chalar.  
Tirik yurmoq ilmin berdi  
Bizga bu ustoz ko'chalar.

Qayga eltar bu ko'chalar?  
Qayga yetar bu ko'chalar?  
Qaysi taqdir og'ushiga  
Boshlab ketar bu ko'chalar?..

2005

## ЁШ ҚЎШИҚЧИ

Дил зоридан садо бўлиб яралгансан,  
Ёш жонимга жафо бўлиб яралгансан. ✓  
Ёнишимдан таралгувчи хонишимга  
Аламли бир наво бўлиб яралгансан.

Жафо бўлма, дардларимга даво бўлгил,  
Бағримда гул, боғларимда сабо бўлгил,  
Толеимга келиб қўнган хумо бўлгил,  
Нечун бошга бало бўлиб яралгансан?

Узоқ тунлар самога сифмас охларим,  
Самодаги ой-юлдузлар — гувоҳларим,  
Бир бандаман, кўп бўлса гар гуноҳларим,  
Гуноҳимга жазо бўлиб яралгансан.

Соғинганда кўзларимга ашким келар,  
Уммон бўлиб, сен томонга тошгим келар,  
Кўрмаганим — йўқ йигитга рашким келар,  
Билмам, кимга раво бўлиб яралгансан...

2003

## СИРДАРЁ СУЛУВИ

Сирдарёнинг ул юзида уйларингиз,  
Оқаришиб кўринади бўйларингиз.  
Кўйлагингиз этаклари хилпилласа,  
Елпингани келар кўзи-қўйларингиз.

Сирдарёнинг ул юзида уйларингиз,  
Оқаришиб кўринади бўйларингиз.  
Гохи эҳсон улашгаидек йўқсизларга  
Бизниям бир йўқлаб кўйсин уйларингиз.

Сирдарёнинг ул юзида уйларингиз,  
Оқаришиб кўринади бўйларингиз...  
Оқаришиб кўринмаса бўйларингиз,  
Жоним, унда куллуқ бўлсин тўйларингиз.

2003

## YOSH QO'SHIQCHI

Dil zoridan sado bo'lib yaralgansan,  
Yosh jonimga jafo bo'lib yaralgansan.  
Yonishimdan taralguvchi xonishimga  
Alamli bir navo bo'lib yaralgansan.

Jafo bo'lma, dardlarimga davo bo'lgil,  
Bag'rimda gul, bog'larimda sabo bo'lgil,  
Toleyimga kelib qo'ngan xumo bo'lgil,  
Nechun boshga balo bo'lib yaralgansan?

Uzoq tunlar samoga sig'mas ohlarim,  
Samodagi oy-yulduzlar — guvohlarim,  
Bir bandaman, ko'p bo'lsa gar gunohlarim,  
Gunohimga jazo bo'lib yaralgansan.

Sog'inganda ko'zlarimga ashkim kelar,  
Ummon bo'lib, sen tomonga toshgim kelar,  
Ko'rmaganim — yo'q yigitga rashkim kelar,  
Bilmam, kimga ravo bo'lib yaralgansan...

2003


## SIRDARYO SULUVI

Sirdaryoning ul yuzida uylaringiz,  
Oqarishib ko'rinadi bo'ylaringiz.  
Ko'ylagingiz etaklari hilpillasa,  
Yelpingani kelar qo'zi-qo'ylaringiz.

Sirdaryoning ul yuzida uylaringiz,  
Oqarishib ko'rinadi bo'ylaringiz.  
Gohi ehson ulashgandek yo'qsillarga  
Bizniyam bir yo'qlab qo'ysin o'ylaringiz.

Sirdaryoning ul yuzida uylaringiz,  
Oqarishib ko'rinadi bo'ylaringiz...  
Oqarishib ko'rinmasa bo'ylaringiz,  
Jonim, unda qulluq bo'lsin to'ylaringiz.

2003



Кўмсайман гоҳ бари-барини:  
Арак тўла коса қаърини,  
Косагулнинг маҳоратин ҳам,  
Маст ошнамнинг ҳақоратин ҳам.

Кўмсайман гоҳ ҳамма нарсани:  
Бева аёл очган дарчани,  
Билиб, қўркмай қилмокни хато...  
Хотинимнинг жанжалин ҳатто.

2003

### **ҚАДИМ АНЪАНА**

Вов-вов,  
Вап-вап...  
Шу тахлит —  
Тинмай улиб кўппаклар,  
Боласига тун бўйи  
Сўйлаб чиқар эртақлар.

2003

### **ҚАЛЪ ТАБОБАТИ**

*Дорисиз табобат тарғиботчиси  
Абдукарим Усмонхўжаевга*

Китобингиз ичра жамулжам  
Минг бир дардга дорисиз даво.  
Гапингизча, энг тўқис малҳам  
Тан-руҳдаги поклик, соф ҳаво.

Текин табиб эрур сув, қуён,  
Эт чиникса, Сино шарт эмас.  
Соғ юриш-чун, компютерфезл бош  
«Мен соғман!» деб дастурланса бас.

Кўнглини онг этолса бардам,  
Яхши бўлса инсон вияти,



## **SOCH OQARGANDA...**

Qo'msayman goh bari-barini:  
Araq to'la kosa qa'rini,  
Kosagulning mahoratin ham,  
Mast oshnamning haqoratin ham.

Qo'msayman goh hamma narsani:  
Beva ayol ochgan darchani,  
Bilib, qo'rqmay qilmoqni xato...  
Xotininning janjalin hatto.

2003

## **QADIM AN'ANA**

Vov-vov,  
Vap-vap...  
Shu taxlit –  
Tinmay ulib ko'ppaklar,  
Bolasiga tun bo'yi  
So'ylab chiqar ertaklar.

2003

## **QALB TABOBATI**

*Dorisiz tabobat targ'ibotchisi  
Abdukarim Usmonxo'jayevga*

Kitobingiz ichra jamuljam  
Ming bir dardga dorisiz davo.  
Gapingizcha, eng to'kis malham  
Tan-ruhdagi poklik, sof havo.

Tekin tabib erur suv, quyosh,  
Et chiniqsa, Sino shart emas.  
Sog' yurish-chun, kompyuterfe'l bosh  
«Men sog'man!» deb dasturlansa bas.

Ko'ngilni ong etolsa bardam,  
Yaxshi bo'lsa inson niyati,

Енгар юрак ярасини ҳам  
Унинг ички имконияти.

Яна албат фарқламоқ даркор  
Мол ва одам, овқат ва емни...  
Бўлмасам-да гарчи шифокор,  
Бу китобга кўшай бир эмни.

Дўст далдаси хаётбахш азал,  
Дард кўзувчи асли фанимдир.  
Фашга тегмай юрса лоакал,  
Шу фаним ҳам Лукмон ҳакимдир.

2005

\* \* \*

Бу оламда олдингдаги ош омонат,  
Бино қўйган қасрингдаги тош омонат,  
Шодлигу кўзёш омонат, бош омонат,  
Яхшилик ўлмагай, дўстлик ўлим билмас.

Ёмонлик даштида ёвлик ўнар доим,  
Ки айрилса ўчоқдан кўр, сўнар доим,  
Ўт ва шам бирлашиб нурга дўнар доим,  
Яхшилик ўлмагай, дўстлик ўлим билмас.

Қаро мақсад юкса, тоза дилни бузгай,  
Ноахиллик солар юртга, элни бузгай,  
Етаклар чоҳга миллатни, йўлни бузгай,  
Яхшилик ўлмагай, дўстлик ўлим билмас.

Яхшилик излабон пайдо бўлар шоир,  
Ошинолар ила сойдек тўлар шоир,  
Қавмидан ажраб, тириклай ўлар шоир,  
Яхшилик ўлмагай, дўстлик ўлим билмас.

2000

Yengar yurak yarasini ham  
Uning ichki imkoniyati.

Yana albat farqlamoq darkor  
Mol va odam, ovqat va yemni...  
Bo'lmasam-da garchi shifokor,  
Bu kitobga qo'shay bir emni.

Do'st daldasi hayotbaxsh azal,  
Dard qo'zuvchi asli g'animdir.  
G'ashga tegmay yursa loaqal,  
Shu g'anim ham Luqmon hakimdir.

2005

\* \* \*

Bu olamda oldingdagi osh omonat,  
Bino qo'ygan qasringdagi tosh omonat,  
Shodlig-u ko'zyosh omonat, bosh omonat,  
Yaxshilik o'lmagay, do'stlik o'lim bilmas.

Yomonlik dashtida yovlik o'nar doim,  
Ki ayrilsa o'choqdan qo'r, so'nar doim,  
O't va sham birlashib nurga do'nar doim.  
Yaxshilik o'lmagay, do'stlik o'lim bilmas.

Qaro maqsad yuqsa, toza dilni buzgay,  
Noahillik solar yurtga, elni buzgay,  
Yetaklar chohga millatni, yo'lni buzgay,  
Yaxshilik o'lmagay, do'stlik o'lim bilmas.

Yaxshilik izlabon paydo bo'lar shoir,  
Oshinolar ila soydek to'lar shoir,  
Qavmidan ajrab, tiriklay o'lar shoir,  
Yaxshilik o'lmagay, do'stlik o'lim bilmas.

2000

- Бирн эккан,  
 Бирови курган,  
 Ризк яратар тўзиб оломон...  
 — Ким хў четда ғўдайиб турган?  
 — У — ўзига ўзи қахрамон.

2001

Шон, бойлик ўткинчи эрса-да,  
 Нечалар — мансабнинг қурбони.  
 Мангудир Вақт деган жабҳада .  
 Фақат бир «Ўликлик» унвони.

Бироқ, во ажабки, ҳеч юртда  
 Биров бу унвонни талашмас.  
 Бу «мансаб» кўпайган мухитдан —  
 Қочарлар, олд-ортга қарашмас.

Ҳеч кимга нахот хуш келмаса  
 Абадий Оромга сайланиш?  
 Бунчалар даҳшатли бўлмаса  
 Тупроқдан тупроққа айланиш!

1999

## **ҲАЁТНИНГ ҲАР ЛАҲЗАСИ ГЎЗАЛ**

Тун пардаси очилар аста,  
 Чикиб келар сахнага қуёш.  
 Келинчакдек бўлиб ораста,  
 Гул саломдан кўтаради бош.  
 Ҳовли гўё ювилган чинни,  
 Йўллар гўё артилган ойшак.  
 Қутлаш учун янги бу кунни,  
 Эл бекка турар жонсарак...

Ҳаётнинг ҳар лаҳзаси гўзал,  
 Умрининг ҳар дами бағимат.

- Biri ekan,
- Birovi qurgan,
- Rizq yaratar to'zib olomon...
- Kim ho' chetda g'o'dayib turgan?
- U – o'ziga o'zi qahramon.

2001

\* \* \*

Shon, boylik o'tkinchi ersa-da,  
 Nechalar – mansabning qurboni.  
 Mangudir Vaqt degan jabhada  
 Faqat bir «O'liklik» unvoni.

Biroq, vo ajabki, hech yurtda  
 Birov bu unvonni talashmas.  
 Bu «mansab» ko'paygan muhitdan –  
 Qocharlar, old-ortga qarashmas.


Hech kimga nahot xush kelmasa  
 Abadiy Oromga saylanish?  
 Bunchalar dahshatli bo'lmasa  
 Tuproqdan tuproqqa aylanish!

1999

## **HAYOTNING HAR LAHZASI GO'ZAL**

Tun pardasi ochilar asta,  
 Chiqib kelar sahnaga quyosh.  
 Kelinchakdek bo'lib orasta,  
 Gul salomdan ko'taradi bosh.  
 Hovli go'yo yuvilgan chinni,  
 Yo'llar go'yo artilgan oynak.  
 Qutlash uchun yangi bu kunni,  
 El oyoqqa turar jonsarak...

Hayotning har lahzasi go'zal.  
 Umrning har dami g'animat.



Қаймоқ иси яйратар танни,  
Дастурхонда иссиқ кулчалар.  
Сув босгандек қақроқ ўзанни  
Одамларга тўлар кўчалар.  
Асли ҳатто гўдак эмизмоқ  
Баробардир оғир юмушга.  
Ошиқарлар, юраклар қайноқ,  
Биров ишга, биров ўқишга...  
    Ҳаётнинг ҳар лаҳзаси гўзал,  
    Умрнинг ҳар дами фанимат.

Дуч келади юзлаб чехралар,  
Кўпин қайтиб кўрмоқлик маҳол.  
Улар дилга яқин нақадар,  
Шунинг ўзи туганмас иқбол.  
Барчинойлар нигоҳида сир,  
Алпомишлар кўзида яшин.  
Ёшлиқ қайтар қалбга сочиб нур,  
Эслайсан илк севги оташин...  
    Ҳаётнинг ҳар лаҳзаси гўзал,  
    Умрнинг ҳар дами фанимат.

Бир маҳаллар беришган салом,  
Энди эса олишар алик.  
Тилларида дуо, хуш калом,  
Саодатдир ҳатто кексалик.  
Кулиб турган мунчоккўз бола  
«Тинчлик» сўзин солар ёдинга.  
Сочларингдан эриб оқ тола  
Интиласан яна олдинга...  
    Ҳаётнинг ҳар лаҳзаси гўзал,  
    Умрнинг ҳар дами фанимат.

Бу юртда али чинорлар ўсар,  
Кўк гумбазлар ўнгу сўлингда.  
Бир азага кириб ўтсанг гар,  
Сўнг ўнта тўй учрар йўлингда.  
Гох бировлар танишар илк бор,  
Гох йиғилар эски улфатлар.  
Одамзотга дунё бўлмас тор  
То мавжуддир ширин суҳбатлар...  
    Ҳаётнинг ҳар лаҳзаси гўзал,  
    Умрнинг ҳар дами фанимат.

Qaymoq isi yayratar tanni,  
Dasturxonda issiq kulchalar.  
Suv bosgandek qaqroq o'zanni  
Odamlarga to'lar ko'chalar.  
Asli hatto go'dak emizmoq  
Barobardir og'ir yumushga.  
Oshiqarlar, yuraklar qaynoq,  
Birov ishga, birov o'qishga...

Hayotning har lahzasi go'zal,  
Umrning har dami g'animat.

Duch keladi yuzlab chehralar,  
Ko'pin qaytib ko'rmoqlik mahol.  
Ular dilga yaqin naqadar,  
Shuning o'zi tuganmas iqbol.  
Barchinoylar nigohida sir,  
Alpomishlar ko'zida yashin.  
Yoshlik qaytar qalbga sochib nur,  
Eslaysan ilk sevgi otashin...


Hayotning har lahzasi go'zal,  
Umrning har dami g'animat.

Bir mahallar berishgan salom,  
Endi esa olishar alik.  
Tillarida duo, xush kalom,  
Saodatdir hatto keksalik.  
Kulib turgan munchoqko'z bola  
«Tinchlik» so'zin solar yodingga.  
Sochlaringdan erib oq tola  
Intilasan yana oldinga...

Hayotning har lahzasi go'zal,  
Umrning har dami g'animat.

Bu yurtda alp chinorlar o'sar,  
Ko'k gumbazlar o'ngu so'lingda.  
Bir azaga kirib o'tsang gar,  
So'ng o'nta to'y uchrar yo'lingda.  
Goh birovlar tanishar ilk bor,  
Goh yig'ilar eski ulfatlar.  
Odamzotga dunyo bo'lmas tor  
To mavjuddir shirin suhbatlar...

Hayotning har lahzasi go'zal,  
Umrning har dami g'animat.



Бош кўтармас кимдир ишидан,  
Кимдир ўйлар улуғ бир режа.  
Яна сирли ором кушидай  
Қўна бошлар юртимга кеча.  
Бугунидан эл кўнгли тўлиб,  
Эртанги кун учун тўплар дош.  
Анвар шоир чарчоғи бўлиб  
Тоғ ортига ёнбошлар куёш...  
Хаётнинг ҳар лаҳзаси гўзал,  
Умрнинг ҳар дами ғанимат...

2002

\* \* \*

Фоний дунё — Нухни сотган жонбозор,  
Умринг молдир, ҳар бир лаҳза — жонфуруш.  
Ақлингни йиғ, ховрингни бос, бўл икром:  
Бугунинг — буғ, •  
Эртанг — сароб,  
Кечанг — туш.

2005

\* \* \*


Болаликда чакнаб кароғим,  
«Она!» дедим ёйганча кулоч. ✓  
«Ёрим!» дедим йиғитлик чоғим,  
«Юрти-и-м...» дедим  
Корга дўнғач соч.

2006

## **ШОИРЛИК НАЗАРИЯСИ**

Шоирда туғмадир шиддат ва оташ,  
Икки нарса уни синдирар азал:  
Бири олишувдан ўлгудек чарчаш,  
Иккинчиси эса шунчаки амал.

2005





Bosh ko'tarmas kimdir ishidan,  
Kimdir o'ylar ulug' bir reja.  
Yana sirli orom qushiday  
Qo'na boshlar yurtimga kecha.  
Bugunidan el ko'ngli to'lib,  
Ertangi kun uchun to'plar dosh.  
Anvar shoir charchog'i bo'lib  
Tog' ortiga yonboshlar quyosh...  
Hayotning har lahzasi go'zal,  
Umrning har dami g'animat...

2002

\* \* \*

Foniy dunyo — Nuhni sotgan jonbozor,  
Umring moldir, har bir lahza — jonfurush.  
Aqlingni yig', hovringni bos, bo'l iqror:  
Buguning — bug',  
Ertang — sarob,  
Kechang — tush.

2005

\* \* \*


Bolalikda chaq nab qarog'im,  
«Ona!» dedim yoygan cha quloch.  
«Yorim!» dedim yigitlik chog'im,  
«Yurti-i-m...» dedim  
Qorga do'ngach soch.

2006

## **SHOIRLIK NAZARIYASI**

Shoirda tug'madir shiddat va otash,  
Ikki narsa uni sindirar azal:  
Biri — olishuvdan o'lgudek charchash,  
Ikkinchisi esa shunchaki amal.

2005



## ЮРТИНГНИ БОЙ ҚИЛ

*Афсуски, бугунги бойларимиз пуллари янги иш ўринлари ташкил этишга эмас, ҳашаматли уйлар қуриш, катта тўйлар қилиш, қатор-қатор машиналар олиш кабиларга сарфлашмоқда...*

*(Радиодаги бир суҳбатдан).*

Бизлар ўткинчимиз, юрт эса мангу,  
Ўзингни бой қилма, юртингни бой қил.  
Десанг — халким асло кўрмасин қайғу,  
Ўзингни бой қилма, юртингни бой қил.

Оламга довруғли хазина йиғсанг,  
Етти пуштга етар, ё етмас, билсанг,  
Минг авлодим камлик кўрмасин десанг,  
Ўзингни бой қилма, юртингни бой қил.

Зоти асл бойда маърифат бўлгай,  
Кўнглида эзгулик, орият бўлгай,  
Эзгу ишнинг умри беадад бўлгай.  
Ўзингни бой қилма, юртингни бой қил.

Гадолар сардори бўлганми машхур,  
Фариб элнинг хатто пошшоси масрур,  
Юрмокни истасанг жаҳонда мағрур,  
Ўзингни бой қилма, юртингни бой қил.

Еримни ёғийлар олмасин десанг,  
Топганим душманга қолмасин десанг,  
Фарзандимга кишан солмасин десанг,  
Ўзингни бой қилма, юртингни бой қил.

1999

## **YURTINGNI BOY QIL**

*Afsuski, bugungi boylarimiz pullarini yangi ish o'rinlari tashkil etishga emas, hashamatli uylar qurish, katta to'ylar qilish, qator-qator mashinalar olish kabi-larga sarflashmoqda...*

*(Radiodagi bir suhbatdan).*

Bizlar o'tkinchimiz, yurt esa mangu,  
O'zingni boy qilma, yurtingni boy qil.  
Desang — xalqim aslo ko'rmasin qayg'u,  
O'zingni boy qilma, yurtingni boy qil.

Olamga dovrug'li xazina yig'sang,  
Yetti pushtga yetar, yo yetmas, bilsang,  
Ming avlodim kamlik ko'rmasin desang,  
O'zingni boy qilma, yurtingni boy qil.

Zoti asl boyda ma'rifat bo'lgay,  
Ko'nglida ezgulik, oriyat bo'lgay,  
Ezgu ishning umri beadam bo'lgay,  
O'zingni boy qilma, yurtingni boy qil.

Gadolar sardori bo'lganmi mashhur,  
G'arib elning hatto poshshosi masrur,  
Yurmoqni istasang jahonda mag'rur,  
O'zingni boy qilma, yurtingni boy qil.

Yerimni yog'iylar olmasin desang,  
Topganim dushmanga qolmasin desang,  
Farzandimga kishan solmasin desang,  
O'zingni boy qilma, yurtingni boy qil.

1999

## ҒАЗАЛ ШАКЛИДАГИ ШЕЪРЛАР

Юлдузчагинам, чехрангга зухрони яширма,  
Дуррангда тўсиб кўздаги хиллони яширма.

Олча дудоғингда асир, олма — юзингда,  
Қизғанибон кўксингда хурмони яширма.

Суратга дўнар турфа чечаклар либосингда,  
Мавжин котириб сочингда дарёни яширма.

Шунча тароват ила тор ўлди бу олам,  
Дунёйим ўзинг, васлингга дунёни яширма.

Ғар севги сени айлади сўз зарғари, шоир,  
Шеърингда сира қалбаки тиллони яширма.

2003

\* \* \*

Лаъл ўзин нарху навосин ё билар, ё билмагай,  
Бу санам хуснин баҳосин ё билар, ё билмагай.

Бор гўзаллар шохидурки ўзи ондин беҳабар,  
Кўйида мендек гадосин ё билар, ё билмагай.

Нега рангим заъфарондир кўрганида англамас,  
Бошима солган жафосин ё билар, ё билмагай.

Бир боқиб жону жигимга солди ўтли эҳтирос,  
Ўзи у ишқ эҳтиросин ё билар, ё билмагай.

Эс-хушимдин айрилиб оввора юрсам кулмангиз,  
Ки жунун қилган хатосин ё билар, ё билмагай.

Ғар шифо излаб келибсан хастадил э шоиро,  
Бу табиб дардинг давосин ё билар, ё билмагай.

2004

## **G'AZAL SHAKLIDAGI SHE'RLAR**

Yulduzchaginam, chehrangga zuhroni yashirma,  
Durrangda to'sib ko'zdagi hilloni yashirma.

Olcha dudog'ingda asir, olma — yuzingda,  
Qizg'anibon ko'ksingga xurmoni yashirma.

Suratga do'nar turfa chechaklar libosingda,  
Mavjin qotirib sochingga daryoni yashirma.

Shuncha tarovat ila tor o'ldi bu olam,  
Dunyoyim o'zing, vaslingga dunyoni yashirma.

Gar sevgi seni ayladi so'z zargari, shoir,  
She'ringga sira qalbaki tilloni yashirma.

2003

\* \* \*

La'l o'zin narxu navosin yo bilar, yo bilmagay,  
Bu sanam husnin bahosin yo bilar, yo bilmagay.

Bor go'zallar shohidurki o'zi ondin bexabar,  
Ko'yida mendek gadosin yo bilar, yo bilmagay.

Nega rangim za'farondir ko'rganida anglamas,  
Boshima solgan jafosin yo bilar, yo bilmagay.

Bir boqib jon-u jigimga soldi o'tli ehtiros,  
O'zi u ishq ehtirosin yo bilar, yo bilmagay.

Es-hushimdin ayrilib ovvora yursam kulmangiz,  
Ki junun qilgan xatosin yo bilar, yo bilmagay.

Gar shifo izlab kelibsan xastadil e shoiro,  
Bu tabib darding davosin yo bilar, yo bilmagay.

2004

Чакчақа киз таманноланиб,  
 Чикди чаманга ороланиб.  
 Бошга кийиб кўқони дўппи,  
 Шевасида бухороланиб.

Ҳар қадами — қаддига матлаб,  
 Ўпди чечак, пойини қутлаб,  
 Ўтса хиёл атрини хидлаб  
 Қолди қизилгул ҳаволаниб.

Ёноклари ғунчани ёқди,  
 Кўргали сув тескари окди,  
 Сувдаги ўз аксига бокди  
 Қиз ўзига тасанноланиб.

Пошнаси кокилга илингай,  
 Бол еса кўксинда кўрингай,  
 Сийнаси нозикки, тилингай —  
 Кўз қадашимдан яроланиб.

Бўлса у киз самони мохи,  
 Биз-да назм мулкини шохи,  
 Бокиб бирон гўзалга гохи  
 Мадрх этамиз фукароланиб.

2004

## ЭСКИ САҲНА

*Бу дунёда ҳамма артис, де-  
 ган гапни шоиринг зап топиб  
 айтган-да. Ўйлаб қарасам, ме-  
 нам кў-ўн артисликлар қип-  
 ман...*

*(Уста Абдуқаҳҳор сўзидан.)*

Бу дунёда ҳамма жой сахна,  
 Бу дунёда ҳаммамиз артис.  
 Дам сахий сиз,  
 Мен тубан зикна,  
 Дам одил мен, ёвуз эса сиз.

Chaqchaqa qiz tamannolanib,  
 Chiqdi chamanga orolanib.  
 Boshga kiyib qo'qoni do'ppi,  
 Shevasida buxorolanib.

Har qadami — qaddiga matlab,  
 O'pdi chechak, poyini qutlab,  
 O'tsa xiyol atrini hidlab  
 Qoldi qizilgul havolanib.

Yonoqlari g'unchani yoqdi,  
 Ko'rgali suv teskari oqdi,  
 Suvdagi o'z aksiga boqdi  
 Qiz o'ziga tasannolanib.

Poshnasi kokilga ilingay,  
 Bol yesa ko'ksinda ko'ringay,  
 Siynasi nozikki, tilingay —  
 Ko'z qadashimdan yarolanib.

Bo'lsa u qiz samoni mohi,  
 Biz-da nazm mulkini shohi,  
 Boqib biron go'zalga gohi  
 Madh etamiz fuqarolanib.

2004

## ESKI SAHNA

*Bu dunyoda hamma artis.  
 degan gapni shoiring zap topib  
 aytgan-da. O'ylab qarasam,  
 menam ko'-o'-p artisliklar qip-  
 man...*

*(Usta Abduqahhor so'zidan.)*

Bu dunyoda hamma joy sahna,  
 Bu dunyoda hammamiz artis.  
 Dam saxiy siz,  
 Men — tuban ziqna,  
 Dam odil men, yovuz esa siz.

Сахнада биз доим ёнма-ён,  
Гох алмашар зумда ўрнимиз.  
Сохта инграб,  
Кулдириб ёлғон,  
Қизармайди ҳатто бурнимиз.

Биров куйлар фалсафий ўлан,  
Биров лукма ташламоқ бўлар.  
Биров  
Гўзал хайқирик билан  
Оломонни бошламоқ бўлар.

Кимдир солар фикримга рахна,  
Ким учундир ўйиним қалтис.  
Тураверар бир жойда сахна,  
Ўйнайверар  
Галма-гал артис.

Гар жазава юқса барига,  
Ёппа жаврар, тинглагувчи кам.  
Чанги чикиб,  
Фазо каърига  
Фарқ бўлишга сал қолар олам.

Минг шукурки,  
Биз — ахли ўжар  
Жар лабига терилсак гоҳо,  
Хак амри-ла сахнага чиқар  
Чин истеъдод, хакикий даҳо.


Даҳо бахсни бир четга суриб,  
«Тингланг!» сўзин миҳлар заминга.  
Бундай дамда  
Сахнада туриб  
Айланамиз томошабинга.

2001

• • •

Янги аср!!!  
— Янги аср?  
Янги ҳона... эски қаср...

2001





Sahnada biz doim yonma-yon,  
Goh almashar zumda o'rnimiz.  
Soxta ingrab,  
Kuldirib yolg'on,  
Qizarmaydi hatto burnimiz.

Birov kuylar falsafiy o'lan,  
Birov luqma tashlamoq bo'lar.  
Birov  
Go'zal hayqiriq bilan  
Olomoni boshlamoq bo'lar.

Kimdir solar fikringa raxna,  
Kim uchundir o'yinim qaltis.  
Turaverar bir joyda sahna,  
O'ynayverar  
Galma-gal artis.

Gar jazava yuqsa bariga,  
Yoppa javrar, tinglaguvchi kam.  
Changi chiqib,  
Fazo qa'riga  
G'arq bo'lishga sal qolar olam.

Ming shukurki,  
Biz — ahli o'jar  
Jar labiga terilsak goho,  
Haq amri-la sahnaga chiqar  
Chin iste'dod, haqiqiy daho.

Daho bahsni bir chetga surib,  
«Tinglang!» so'zin mixlar zaminga.  
Bunday damda  
Sahnada turib  
Aylanamiz tomoshabinga.

2001

...

Yangi asr!!!  
— Yangi asr?  
Yangi xona... eski qasr...

2001



## УЛУҒ ГАНДИ

Кўмилмади Маҳатма ерга,  
Чунки Ердан катта эди у...  
Бир шоир «Ох, отам!» деди-ю,  
Сифдиrolди тўрт сатр шеърга.

2003

## АЛАҲСИРАШ

*Набирам Абдуллажон хотирасига*

Кодирий тасвири — хазин...  
Ёнида —  
Бошка бир Абдулла — гўр кетган гўдак.  
Мерос колмиш ундан укажонига  
Азаранг кўк кўйлак, тафтга зор йўргак.

Ихранар қария,  
Ичдаги йиринг —  
Лабидан ёстикқа тўкилганича.  
Кўзи очик ухлар набирасининг —  
Каттакон расмига тикилганича.

Ўлиб ётган эмиш тушида ўзи,  
Мархум набираси тирик турганмиш.  
Жажжи тирнокларда ерга из чизиб,  
Гиргиттон эмаклаб  
Йиғлаб юрганмиш.

Тер сачратиб  
Сапчиб уйғонди бобо,  
Тўсатдан узилди суратли эртақ.  
Қаердадир (қўшни ховлидами ё),  
Биғиллаб-биғиллаб йиғларди гўдак.

Деворни кўпориб ўтиб, болаин  
«Жоним!» деб бағрига буюғиси келди.  
Чарчокдан донг қотган шўрлик онани...

## ULUG' GANDI

Ko'milmadi Mahatma yerga,  
Chunki Yerdan katta edi u...  
Bir shoir «Oh, otam!» dedi-yu,  
Sig'diroidi to'rt satr she'rga.

2003

## ALAH SIRASH

*Nabiram Abdullajon xotirasiga*

Qodiriy tasviri — hazin...  
Yonida —  
Boshqa bir Abdulla — g'o'r ketgan go'dak.  
Meros qolmish undan ukajoniga  
Azarang ko'k ko'ylak, taftga zor yo'rgak.

Ixranar qariya,  
Ichdagi yiring —  
Labidan yostiqa to'kilganicha.  
Ko'zi ochiq uxlar nabirasining —  
Kattakon rasmiga tikilganicha.

O'lib yotgan emish tushida o'zi,  
Marhum nabirasi tirik turganmish.  
Jajji tirnoqlarda yerga iz chizib,  
Girgitton emaklab  
Yig'lab yurganmish.

Ter sachratib  
Sapchib uyg'ondi bobo,  
To'satdan uzildi suratli ertak.  
Qayerdadir (qo'shni hovlidami yo),  
Big'illab-big'illab yig'lardi go'dak.

Devorni qo'porib o'tib, bolani --  
«Jonim!» deb bag'riga bosgisi keldi.  
Charchoqdan dong qotgan sho'rlik onani...

Вожаб!  
Негадир... осгиси келди...

2005

\* \* \*

Зимистон...

сирли туш...  
Жимлик... ой... юлдуз --  
Шеърларимга бозор қурмишдир нечун?  
Мени танг рўзғорга қул этди Кундуз,  
Мени шоир қилиб етишгирди Тун!

2006

### **АБАДИЙ ГУЛЗОР**

Тикан ичди қонимни,  
Бармоғимни яралаб.  
Учавердим аридек,  
Бир қизга гул саралаб...

Қайтдим ўша гулзорга,  
Сочимга оқ оралаб.  
...Атиргулнинг ортида  
Ажал турар мўралаб.


2006

### **ТУРМУШ МУВОЗАНАТИ**

Эри ишдан соғ қайтмагунча,  
Аёл учун қуёш ботмайди.  
Хотин сайраб уйғотмагунча,  
Эркак учун ҳеч тонг отмайди...

Жуда оддий... жуда илохий...

2006



Vojab!  
Negadir... osgisi keldi...

2005

\* \* \*

Zimiston...

sirli tush...

Jimlik... oy... yulduz –  
She'rlaringa bozor qurmishdir nechun?  
Meni tang ro'zg'orga qul etdi Kunduz,  
Meni shoir qilib yetishtirdi Tun!

2006

### **ABADIY GULZOR**

Tikan ichdi qonimni,  
Barmog'imni yaralab.  
Uchaverdim aridek,  
Bir qizga gul saralab...

Qaytdim o'sha gulzorga,  
Sochimga oq oralab.  
...Atirgulning ortida  
Ajal turar mo'ralab.


2006

### **TURMUSH MUVOZANATI**

Eri ishdan sog' qaytmaguncha,  
Ayol uchun quyosh botmaydi.  
Xotin sayrab uyg'otmaguncha,  
Erkak uchun hech tong otmaydi...

Juda oddiy... juda ilohiy...

2006



## **ИГНАБАРГ ШЕЪРЛАР**

Ёв сўкинар... демак, чекинар.

\* \* \*

Хотира — энг барқарор хайкал.

\* \* \*

Халок килди уни... хушхабар.

\* \* \*

Оқденгизга Қорақум — божа.

\* \* \*

Қарироқ-ку неваранг сендан!

\* \* \*

Эриб кетди баҳорда... пулим.

\* \* \*

«Узат!» деди ўлишдан олдин.

\* \* \*

Қабринг узра ваъз айтди ёвинг.

\* \* \*

Ватанимга оёқ ювиб кир!

2004

## **ГИРЕЙ ХОНИМ**

*Америкалик Гирей хоним юртимиз-  
да бўлиб, ўзи ўрганган ўзбекча  
рақсларни ўйнаб берди.*

Этарда ўзбекнинг қалбин намоён  
Ўзбекнинг ўзидан ўтолмас ҳеч ким.  
Ўзбекка ўйиндош бўлмоқлик осон,  
Дарддошликка аммо чидолмас ҳеч ким.

Хоним, бошингиздан гул сочай тўн-тўн,  
Лек ўртар барибир кўнглим бир алам:  
Ўзбекнинг қувончини ўрганувчи кўн,  
Ўзбекнинг дардини тинглаувчи кам.

1995

## **IGNABARG SHE'RLAR**

Yov so'kinar... demak, chekinar.

\* \* \*

Xotira — eng barqaror haykal.

\* \* \*

Halok qildi uni... xushxabar.

\* \* \*

Oqdengizga Qoraqum — boja.

\* \* \*

Qariroq-ku nevarang sendan!

\* \* \*

Erib ketdi bahorda... pulim.

\* \* \*

«Uzat!» dedi o'lishdan oldin.

\* \* \*

Qabring uzra va'z aytdi yoving.

\* \* \*

Vatanimga oyoq yuvib kir!

2004

## **GIREY XONIM**

*Amerikalik Girey xonim yurtimizda bo'lib, o'zi o'rgangan o'zbekcha raqslarni o'ynab berdi.*

Etarda o'zbekning qalbin namoyon  
O'zbekning o'zidan o'tolmas hech kim.  
O'zbekka o'yindosh bo'lmoqlik oson,  
Darddoshlikka ammo chidolmas hech kim.

Xonim, boshingizdan gul sochay to'p-to'p,  
Lek o'rtar baribir ko'nglim bir alam:  
O'zbekning quvonchin o'rganguvchi ko'p,  
O'zbekning dardini tinglaguvchi kam.

1995

\* \* \*

Замон сенга турса чап,  
Сен замонга боқавер.  
Замонни гоҳ олқишлаб,  
Ўз йўлингдан оқавер.

1999

\* \* \*

Давр сурдим хисдан гап тўқиб,  
Ха, ошимни роса ошадим.  
Яшамадим тангридан кўрқиб,  
Мен тангримни севиб яшадим.

1999

\* \* \*

Қайнаб қадам бос, ўғлон,  
Бор дунёни хуркитиб.  
Йўл пойлайвер тун-азон,  
Кафтга узук беркитиб.  
Сен гуллайсан эртага,  
Мен-чи, кеча сўлганман.  
Сен кутган у ойқизни  
Мен кузатиб бўлганман.

Ёшлик учқур бир қаптар,  
Ёшлик кадрин бошдан бил.  
Келса ўнқир-чўнқирлар,  
Асабингни тошдан қил.  
Сен гуллайсан эртага,  
Мен-чи, кеча сўлганман.  
Сен кўрмаган чохларга  
Мен йиқилиб бўлганман.

Ростни ажрат ёлғондан,  
Сўндирмагил шахдингни.  
Бу фирромчи даврондан  
Юлиб ол ўз бахтингни.  
Сен гуллайсан эртага,  
Мен-чи, кеча сўлганман.  
Сен излаган толени  
Мен йўқотиб бўлганман.



\* \* \*

Zamon senga tursa chap,  
Sen zamonga boqaver.  
Zamonni goh olqishlab,  
O'z yo'lingdan oqaver.

1999

\* \* \*

Davr surdim hisdan gap to'qib,  
Ha, oshimni rosa oshadim.  
Yashamadim tangridan qo'rqib,  
Men tangrimni sevib yashadim.

1999

\* \* \*

Qaynab qadam bos, o'g'lon,  
Bor dunyoni hurkitib.  
Yo'l poylayver tun-azon,  
Kaftga uzuk berkitib.  
Sen gullaysan ertaga,  
Men-chi, kecha so'lganman.  
Sen kutgan u oyqizni  
Men kuzatib bo'lganman.

Yoshlik uchqur bir kaptar,  
Yoshlik qadrin boshdan bil.  
Kelsa o'nqir-cho'nqirlar,  
Asabingni toshdan qil.  
Sen gullaysan ertaga,  
Men-chi, kecha so'lganman.  
Sen ko'rmagan chohlarga  
Men yiqilib bo'lganman.

Rostni ajrat yolg'ondan,  
So'ndirmagil shahdingni.  
Bu g'irromchi davrondan  
Yulib ol o'z baxtingni.  
Sen gullaysan ertaga,  
Men-chi, kecha so'lganman.  
Sen izlagan toleni  
Men yo'qotib bo'lganman.

Айрилганда чидамдан,  
Сўзларимдан куч олгин.  
Фирт алдоқчи оламдан  
Мен учун ҳам ўч олгин.  
Сен яшайсан эрта ҳам,  
Мен-чи, кеча ўлганман.  
Сенга сирли бу уйни  
Мен титкилаб бўлганман.

2000

## **ТЕНТАКЛАР ЎЙИНИ**

Замбараклар хануз айтмоқда ўлан,  
Милтиқлар мадх этар  
Бедаволикни.  
Африка олишар Африка билан,  
Осиёлик сўяр осиеликни.

Бомбага айланиб  
Ажал жон ўрар  
Хатто Оврўпонинг болқонларида.  
Нашаванд аскарлар ракс тушиб юрар  
Одам суюгининг толқонларида.

Ракс тушар  
Кексаю аёлни туйиб,  
Оғзидан кон пуркаб чиркирар гўдак...  
Буларнинг барини ўйинга йўйиб,  
Пул тикиб томоша қилар бир тентак.


2005

• • •

Шоир кезаверди,  
Кезаверди...  
Ақли ўсаверди.

Шоир сезаверди,  
Сезаверди...  
Ақли озаверди!

2006



Ayrliganda chidamdan,  
So'zlarimdan kuch olgin.  
G'irt aldoqchi olamdan  
Men uchun ham o'ch olgin.  
    Sen yashaysan erta ham,  
    Men-chi, kecha o'lganman.  
    Senga sirli bu uyni  
    Men titkilab bo'lganman.

2000

## **TENTAKLAR O'YINI**

Zambaraklar hanuz aytmoqda o'lan,  
Miltiqlar madh etar  
Bedavolikni.  
Afrika olishar Afrika bilan,  
Osiyolik so'yar osiyolikni.

Bombaga aylanib  
Ajal jon o'rar  
Hatto Ovro'poning bolqonlarida.  
Nashavand askarlar raqs tushib yurar  
Odam suyagining tolqonlarida.

Raqs tushar  
Keksa-yu ayolni tuyib,  
Og'zidan qon purkab chirqirar go'dak...  
Bularning barini o'yinga yo'yib,  
Pul tikib tomosha qilar bir tentak.


2005

• • •

Shoir kezaverdi,  
Kezaverdi...  
Aqli o'saverdi.

Shoir sezaverdi,  
Sezaverdi...  
Aqli ozaverdi!

2006



- Кимсан?
- Оллохнинг ердаги омонати.
- Қаерда туғилгансан?
- Дадам кўмилган жойда.
- Маълумотинг?
- Ўрта — Навоийхон.
- Касбинг?
- Ўзбекчилик.
- Тақдирланганмисан?
- Эгам бешта ўғил берган.
- Жазоларинг борми?
- Шеърлар ёзганман.
- Энг таянган дўстинг?
- Тамаки.
- Энг қабих душманинг?
- Касаллик.
- Соғлик ўзи нима?
- Интизомсизлик.
- Нимадан хузурланасан?
- Кўнгил овлашдан.
- Нимадан кўрқасан?
- Боламга иснод келтиришдан.
- Нима бемаза?
- Ватансизлик.
- Нима ширин?
- Қутулиш.
- Хаётнинг маъноси?
- Мажбурийлик.
- Ўлимнинг маъноси?
- Жой бўшатмоқ.
- Арманинг борми?
- Бургут эмас, калдирғочман.
- Юпанчинг?
- Читтаклардан баландроқда учдим-ку!
- Энг тўқис таржимаи холинг?
- Келдим. Ёздим. Кетдим.

1990

- Kimsan?
- O'lohning yerdagi omonati.
- Qayerda tug'ilgansan?
- Dadam ko'milgan joyda.
- Ma'lumoting?
- O'rta — Navoiyxon.
- Kasbing?
- O'zbekchilik.
- Taqdirlanganmisan?
- Egam beshta o'g'il bergan.
- Jazolaring bormi?
- She'rlar yozganman.
- Eng tayangan do'sting?
- Tamaki.
- Eng qabih dushmaning?
- Kasallik.
- Sog'lik o'zi nima?
- Intizomsizlik.
- Nimadan huzurlanasan?
- Ko'ngil ovlashdan.
- Nimadan qo'rqasan?
- Bolamga isnod keltirishdan.
- Nima bemaza?
- Vatansizlik.
- Nima shirin?
- Qutulish.
- Hayotning ma'nosi?
- Majburiylik.
- O'limning ma'nosi?
- Joy bo'shatmoq.
- Armoning bormi?
- Burgut emas, qaldirg'ochman.
- Yupanching?
- Chittaklardan balandroqda uchdim-ku!
- Eng to'kis tarjimayi holing?
- Keldim. Yozdim. Keldim.

1990

\* \* \*

Туғилдингми — самар қолдир,  
Ўзлигингдан хабар қолдир:  
Хоқон эрсанг, шаҳар қолдир,  
Зобит эрсанг, зафар қолдир,  
Олим эрсанг, асар қолдир,  
Ҳофиз эрсанг, лапар қолдир,  
Чўпон эрсанг, отар қолдир,  
Косиб эрсанг, ҳунар қолдир...  
Лоакал тинч рўзғор қуриб,  
Юртингга бир аскар қолдир.

2003

\* \* \*

Яшар ўз ўй-дарди аро,  
Ҳар бир шеърим — бир фуқаро.  
Бор шеъримни сафга тиздим:  
Мустакил бир хонлик туздим!

2004

\* \* \*

Биласан-ку, вақтим зик,  
Бор, кўчага ўзинг чик,  
Янги дўстлар топ, шеърим...

2004

\* \* \*

Tug'ildingmi – samar qoldir,  
O'zligingdan xabar qoldir:  
Xoqon ersang, shahar qoldir,  
Zobit ersang, zafar qoldir,  
Olim ersang, asar qoldir,  
Hofiz ersang, lapar qoldir,  
Cho'pon ersang, otar qoldir,  
Kosib ersang, hunar qoldir...  
Loaqal tinch ro'zg'or qurib,  
Yurtingga bir askar qoldir.

2003

\* \* \*

Yashar o'z o'y-dardi aro,  
Har bir she'rim – bir fuqaro.  
Bor she'rimni safga tizdim:  
Mustaqil bir xonlik tuzdim!

2004

\* \* \*

Bilasan-ku, vaqtim ziq,  
Bor, ko'chaga o'zing chiq,  
Yangi do'stlar top, she'rim...

2004

## МУАЛЛИФДАН СЎНГСЎЗ

Йигит қирқида қирчиллайди, дейишади. Шунга қарамай, мен йигитлик давримни ўттиз беш йиллик умрим билан белгилаб, китобимнинг биринчи қисмига 1982 йилгача битилган шеърларимни киритдим. Тошкентга 1981 йилнинг иккинчи ярмида кўчиб келганимни назарда тутсак, бу бўлимдаги шеърларнинг деярли барчаси Олтиариқда тўқилган бўлиб чиқади.

Шоирчиликни Полосондаги мактабда бошлаган эсамда, уч йиллик ҳарбий хизматдан 22 ёшимда қайтганимдан кейингина, ижодга астойдилроқ берилдим. Бу 1970 йилнинг бошлари эди.

Ўшанда дадамизни эрта йўқотган оиламизнинг тўнғич ўғлони бўлганим учун, тирикчилик ташвишларидан зўрға вақт орттириб, кўпроқ тунлари ёзардим. Шеърларни тугатардим-у, бўялиб кетган бу чикиндисимон қоғозларни онамми, хотинимми билмай тутантириқ қилиб юборишидан ёки болаларим йиртиб ўйнашларидан чўчиб, хали сиёҳи қуримасданок дафтарга кўчирардим, устидан яна бир кўриб чиқишга фурсат кам топиларди. Шу боис, бу тўпламни тайёрлаётиб, эски шеърларимдан бир нечасининг у ер-бу ерига шоша-пиша қалам тегизиб ўтишимга тўғри келди.

Китобнинг иккинчи қисмига киритилган шеърларим Тошкентда дунёга келган. Бу ерда ҳам турмушим енгил кечгани йўқ, аммо қишлоқдагидан кўра анча бемалолгарчиликда яшадим. Энг муҳими бошкентдаги қайноқ ижодий мухитнинг имкон қадар ичида бўлдим, бошим тезроқ пиша бошлади, дунёкарашим бирмунча кенгайди, айрим масалаларда фикрларим тугалай ўзгарди, бошқачароқ одамга айлана бордим. Буларнинг шоирлигимга кўпроқ нафи тегдими, зиёними, хозиргача аниқ биллолмайман. Сизганим шуки, эсим қанча кўпайса, бевош туйғуларимга жой шунча тораяверди.

Қишлоқда асосий диққатимни ёзишга қаратдим, шаҳарда асосан китоб чиқаришни ўйладим. Қишлоқда юрагимдан тунилганларини ёзишга кўпроқ ўрганганим,



## MUALLIFDAN SO'NGSO'Z

Yigit qirqida qirchillaydi, deyishadi. Shunga qaramay, men yigitlik davrimni o'ttiz besh yillik umrim bilan belgilab, kitobimning birinchi qismiga 1982-yilgacha bitilgan she'rlarimni kiritdim. Toshkentga 1981-yilning ikkinchi yarmida ko'chib kelganimni nazarda tutsak, bu bo'limdagi she'rlarning deyarli barchasi Oltiariqda to'qilgan bo'lib chiqadi.

Shoirchilikni Polosondagi maktabda boshlagan esamda, uch yillik harbiy xizmatdan 22 yoshimda qaytganimdan keyingina, ijodga astoydilroq berildim. Bu 1970-yilning boshlari edi.

O'shanda dadamizni erta yo'qotgan oilamizning to'ng'ich o'g'luni bo'lganim uchun, tirikchilik tashvishlaridan zo'rg'a vaqt orttirib, ko'proq tunlari yozardim. She'rlarni tugatardim-u, bo'yalib ketgan bu chiqindisimon qog'ozlarni onammi, xotinimmi bilmay tutantiriq qilib yuborishidan yoki bolalarim yirtib o'ynashlaridan cho'chib, hali siyohi qurimasdanoq daftarga ko'chirardim, ustidan yana bir ko'rib chiqishga fursat kam topilardi. Shu bois, bu to'plamni tayyorlayotib, eski she'rlarimdan bir nechasining u yer-bu yeriga shoshapisha qalam tegizib o'tishimga to'g'ri keldi.

Kitobning ikkinchi qismiga kiritilgan she'rlarim Toshkentda dunyoga kelgan. Bu yerda ham turmushim yengil kechgani yo'q, ammo qishloqdagidan ko'ra ancha bemalolgarchilikda yashadim. Eng muhimi boshkentdagi qaynoq ijodiy muhitning imkon qadar ichida bo'ldim, boshim tezroq pisha boshladi, dunyoqarashim birmuncha kengaydi, ayrim masalalarda fikrlarim tugalay o'zgardi, boshqacharoq odamga aylana bordim. Bularning shoirligimga ko'proq nafi tegdimi, ziyonimi, hozirgacha aniq bilolmayman. Sezganim shuki, esim qancha ko'paysa, bevosh tuyg'ularimga joy shuncha torayaverdi.

Qishloqda asosiy diqqatimni yozishga qaratdim, shaharda asosan kitob chiqarishni o'yladim. Qishloqda yuragimdan tug'ilganlarini yozishga ko'proq o'rgan-gandim, shaharda goh buyurtmalarni bajardim, goh

шаҳарда гоҳ буюртмаларни бажардим, гоҳ қалампулига берилиб, ўзимни «харидоргир» мавзуларга урдим.

Ижодимнинг энг катта қисмини болаларга аталган шеърларим, дostonларим, хикояларим, қиссаларим, пьесаларим ташкил этади. Катталар учун талай хажвиялар, хангомалар, Уста Гулмат ва Кулкул афанди туркумига кирувчи ҳазил ғазаллар битганман. Шуларни чоп этишга берилиб кетиб, катталарга бағишланган жиддий шеърларимни китоб қилишни беихтиёр орқага суравердим. Бу жанрдаги биттаю битта китобим «Кетмагил» номи билан 1985 йилда нашр этилганини ҳисобга олсак, ана-мана деб юриб, йигирма йилдан ошиқроқ муддатни ўтказиб юборибман. Ушбу китобнинг сал семиз бўлиб чиқишига ана шу узок танаффус сабабчи шекилли — анча шеър йиғилиб қолганди.

Умид қиламанки, жайдари йннгитлик чоғимдаги болаларча зардабозликлар-у, майда ўчакишувчанликлар, суюлма шайдоликлар-у, телбаёна дил изҳорлари, ғўр шоирчаларга хос чиранчокликлар-у, хашаки мушоҳадабозликлар «иллат»нга, чўзма-чўзарлигу қайтарикларга азиз китобхонларим ўта кечиримлилиқ билан ёндоша оладилар. Чекка кишлокда ўз қобиғига ўраниб яшаган ёзармоннинг эплаб-сеплагани шу бўлса, на илож?

Балки, пойтахтдаги ҳаётда ҳам ярқ этарли даражада ўзгармагандирман. Агар шундай туюлса, бунни суяк қотгандан кейин чалпак ҳам фойдасиз, калтак ҳам, деган нақлга йўйиб қўяқолган маъқул.

Мен учун ҳузурбахш юпанч шуки — шеърларим орқали юртдошларимга гоҳ дарддош, гоҳ завқдош бўлишга, кўнглимда борини яширмай тўкиб солишга қўлимдан келганича уриндим. Лоақал бир-иккитагина мисрам шеърхоннинг қалбида нозик бир тебраниш ҳосил қилолса, дунёга келиб топган энг чўнг саодатим шудир. Қисқаси, қавмимдан сир саклашни сира ўрганолмадим. Бунни «шоирчилик» дейдилар...

**Анвар Обиджон.**

qalampuliga berilib, o'zimni «xaridorgir» mavzularga urdim.

Ijodimning eng katta qismini bolalarga atalgan she'rlarim, dostonlarim, hikoyalarim, qissalarim, pyesalarim tashkil etadi. Kattalar uchun talay hajviyalar, hangomalar, Usta Gulmat va Kulkul afandi turkumiga kiruvchi hazil g'azallar bitganman. Shularni chop etishga berilib ketib, kattalarga bag'ishlangan jiddiy she'rlarimni kitob qilishni beixtiyor orqaga suraverdim. Bu janrdagi bitta-yu bitta kitobim «Ketmagil» nomi bilan 1985-yilda nashr etilganini hisobga olsak, ana-mana deb yurib, yigirma yildan oshiqroq muddatni o'tkazib yuboribman. Ushbu kitobning sal semiz bo'lib chiqishiga ana shu uzoq tanaffus sababchi shekilli — ancha she'r yig'ilib qolgandi.

Umid qilamanki, jaydari yigitlik chog'imdagi bolalarcha zardabozliklar-u, mayda o'chakishuvchanliklar, suyulma shaydoliklar-u, telbayona dil izhorlari, g'o'r shoirchalarga xos chiranchoqliklar-u, hashaki mushohadabozliklar «illat»iga, cho'zma-cho'zarligu qaytariqlarga aziz kitobxonlarim o'ta kechirimlilik bilan yondosha oladilar. Chekka qishloqda o'z qobig'iga o'ranib yashagan yozarmonning eplab-seplagani shu bo'lsa, na iloj?

Balki, poytaxtdagi hayotda ham yarq etarli darajada o'zgarmagandirman. Agar shunday tuyulsa, buni suyak qotgandan keyin chalpak ham foydasiz, kaltak ham, degan naqlga yo'yib qo'yaqolgan ma'qul.

Men uchun huzurbaxsh yupanch shuki — she'rlarim orqali yurtdoshlarimga goh darddosh, goh zavqdosh bo'lishga, ko'nglimda borini yashirmay to'kib solishga qo'limdan kelganicha urindim. Loaqal bir-ikkitagina misram she'rxonning qalbida nozik bir tebranish hosil qilol-sa, dunyoga kelib topgan eng cho'ng saodatim shudir. Qisqasi, qavmimdan sir saqlashni sira o'rganolmadim. Buni «shoirchilik» deyдилar... »

**Anvar Obidjon.**

## MUNDARIJA

### Yigit edim o'shanda

«Bitta shoir kamaysa nima» . . . . .	4
«Urilajak do'qlardan» . . . . .	4
«Dilbarim...» . . . . .	6
Kipriging nega nam... . . . .	6
«Shodon xushlash, malagim» . . . . .	8
«Orom olar bezavol» . . . . .	10
«Bulutsimon parquvga» . . . . .	10
«Ko'nglingdan men ...» . . . . .	12
Qodiriyni eslab . . . . .	12
Kayfiyat . . . . .	14
«Dunyoda bor uchta chin do'stim» . . . . .	14
«Uchrashmaymiz endi ...» . . . . .	14
«Mening uchun orzudir bari» . . . . .	16
Biz va qiz . . . . .	18
Qaytish . . . . .	18
«Yaxshi tushlar ko'ring, malikam» . . . . .	18
Omadli zot . . . . .	20
Millatdoshlik . . . . .	22
Erkin Vohidov . . . . .	22
O'spirin . . . . .	24
«Jonimni o't qa'riga...» . . . . .	24
«Boqsam hayot ko'ziga» . . . . .	26
«Qiz samoga lol boqar» . . . . .	26
«Bir baxshiman» . . . . .	26
Yovvoyi mantiq . . . . .	28
Farg'onaliklar . . . . .	28
«Dam teshib yelkasin» . . . . .	30
«Xush ko'raman azaldan» . . . . .	30
«O'zing but qil» . . . . .	32
«Shamsiyadek shiyponda» . . . . .	32
«Po'rtana deb oshiq qalbini» . . . . .	32
Kasal bola . . . . .	34
«Sigareting so'ngisi bo'lsa» . . . . .	34
Mashrab dor ostida . . . . .	36
«Sizlarga...» . . . . .	36
«Juda tabarruk edi» . . . . .	36
«Atom...» . . . . .	38
«Bo'liq bug'doy darparda» . . . . .	38
Tonggi ayriliq oldidan . . . . .	38
So'qqabosh . . . . .	40
«Sizsiz yolg'iz darddoshim» . . . . .	42

«Xatda ta'na qilibsiz, jonon» . . . . .	42
«Shirin tushlar ko'ryapsiz» . . . . .	42
«Chamasi...» . . . . .	44
«Bu dunyodan o'tganlar bir-bir» . . . . .	44
Yarog' . . . . .	46
«O'tbosar besh o'g'lonim» . . . . .	46
Qari turna . . . . .	48
«Duo qilmang, mayli, haqqimga» . . . . .	48
Tazarru . . . . .	48
Kibr . . . . .	50
«Bermoqchisiz ko'nglimga oro»... . . . .	50
«Bu itlarni» . . . . .	50
«Mening yorim bo'lsangiz» . . . . .	52
Sevgilimning oyisiga . . . . .	52
«Shivirlashar chechaklar» . . . . .	52
Qirg'iz do'stimga . . . . .	54
«Xayr deding» . . . . .	56
«Elandim» . . . . .	58
«Ko'zingni yum» . . . . .	58
G'azal shaklidagi she'rlar . . . . .	58
«Shayton dedi» . . . . .	60
«O'tayotib» . . . . .	60
«Bo'salarni sog'inib» . . . . .	62
Ketmagil . . . . .	62
«To'lishibsan» . . . . .	64
«Ko'zlaring mast» . . . . .	66
Abdusalomning nadomati . . . . .	66
«Xotinni «kish-kish»layman» . . . . .	68
«Derazamga choyshab yopar tun» . . . . .	70
«Qalbim erib go'yo moy» . . . . .	70
«Ishqda joy yo'q «siyosiy tus»ga» . . . . .	70
«Sizda pul bor» . . . . .	70
«Baxt tilayman yunonga» . . . . .	72
Qizil dengiz . . . . .	72
Ali bobo haqida qo'shiq . . . . .	74
Hazil . . . . .	74
«Cho'kib ketdi...» . . . . .	76
«Men xudo emasman» . . . . .	76
«Bir zum meni tinch qo'y, parizod» . . . . .	76
«Ko'rib qo'ydim umrinda» . . . . .	78
«Shirin so'ylab ...» . . . . .	78
«Nodonlarga arzim yo'q mening» . . . . .	80
«Rasvo bo'lgan nomus-or uchun» . . . . .	80
O'g'il . . . . .	80
«Tun qo'ynida...» . . . . .	82
«Hey, otasi...» . . . . .	84
«Ko'p aziyat tortasan» . . . . .	84
«Kechir» . . . . .	86

«Gulzorga, bog'larga» . . . . .	86
«Yur, jonim, tun sayliga» . . . . .	86
«Oq baytalning taqasi» . . . . .	86
«Shamol xomush yelyapti» . . . . .	88
Yeseninning portretiga boqib . . . . .	88
Tug'yon . . . . .	92
Istilochi . . . . .	94
«Yomonmanmi?» . . . . .	94
«Umidim — «xo'p» degan gap» . . . . .	94
«Ko'rinmasdan yuribsiz atay» . . . . .	96
«Yo'q...» . . . . .	96
Miraziz A'zamga maktub . . . . .	96
Fuqaro . . . . .	98
«Savolim bor Sizga» . . . . .	100
«Yolg'iz oqqan quv irmoq» . . . . .	100
Kichkintoy qo'mondon . . . . .	100
To'g'riso'z kimsa . . . . .	102
Fokuschilik . . . . .	102
«Yel butoqda hushtak chalar» . . . . .	102
«Bola edim butgina» . . . . .	104
«Minbarlarni sizlarga berdim» . . . . .	104
Sahroyi bola . . . . .	104
Go'dak yig'isi . . . . .	106
Oq tulpor . . . . .	108
Hamid Sulaymon . . . . .	108
«Bular bari bedavo» . . . . .	108
Martin Iden . . . . .	110
«Ko'p yonib gapirding» . . . . .	112
«Bobonga o'xshamagin, dedilar» . . . . .	114
«Shamol guvlayveradi» . . . . .	114
«Hey, kuykanak oshiqlar» . . . . .	114
«Afsus» . . . . .	114
«Allo', allo'»... . . . .	116
«Ko'zlaringiz sir sotar» . . . . .	116
Nahot ayriliqdan tug'ilgay visol? . . . . .	116
«Meni kutmang» . . . . .	118
«O't purkadi...» . . . . .	120
Toshoynak oldida... . . . .	120
«Ayting...» . . . . .	122
Tug'ruqxonada . . . . .	122
«Tanti Oltiariqda» . . . . .	124
Tanholik . . . . .	124
Bog'dagi sir . . . . .	126
Ilinjli kecha . . . . .	126
Boshqacha kun . . . . .	128
«Qara, qanday go'zal bu hayot» . . . . .	130
Betayin . . . . .	130
Shoir vidosi . . . . .	132

Kitobboz . . . . .	132
O'lik . . . . .	134
Robert Byorns . . . . .	134
«Hey, janob mushuklar...» . . . . .	136
«Baxtiyorlar mensiz ham baxtli» . . . . .	136
Bog'bon hikmati . . . . .	138
Bittagina bo'ri . . . . .	138
«Sahar tursam» . . . . .	140
«Boshing egik» . . . . .	140
«Folbinlarga inonma, jonon» . . . . .	140
Sobiq quroldoshimga xat . . . . .	142
«Achchig'i tez dag'al qo'shnilar» . . . . .	144
Chiranchoq yalqov . . . . .	146
«Taranglashdi chayir ip» . . . . .	146
«O'z tinchimni o'ylayman» . . . . .	146
«Qayerlarda yurib edingiz?» . . . . .	148
«Durustgina qizsiz aslida» . . . . .	148
«Ikkovi ham...» . . . . .	148
Bir pari bor... . . . . .	148
«Xilvatlarda kezmagil tanho» . . . . .	152
Uchchanoqlar . . . . .	154
Qahraton . . . . .	182
Bolagina . . . . .	200
«Shoshma, qalvim» . . . . .	202
«Sezmagay» . . . . .	202
Yulduzim . . . . .	204
«Turaversin» . . . . .	204
She'rxonga . . . . .	206
«Shahid bo'ldi biri navqiron» . . . . .	206

### Sochimga oq oralab

«Gul davring ...» . . . . .	220
✓ Ignabarg she'rlar . . . . .	220
Ayol . . . . .	222
«Nechun ...» . . . . .	224
«Yigit edim o'shanda»... . . . . .	224
Manguberdi falsafasi . . . . .	224
«Sen qo'rqasan» . . . . .	224
«Nedir sabrin to'ldirar» . . . . .	226
Yalpiz . . . . .	226
Qurbonjon dodho . . . . .	228
Falastin shoiri Muin Bsisu . . . . .	230
«Ko'hua urfga ehtirom» . . . . .	230
Ulug'bekning o'g'li ila vidolashuvi . . . . .	230
Ignabarg she'rlar . . . . .	232
«Kulma...» . . . . .	234
G'azal shaklidagi she'rlar . . . . .	234
«Millating...» . . . . .	238

«Tashnadilman» . . . . .	238
«Qizbolaning o'zi nechta?» . . . . .	238
«Chiqib xilvat joylarga» . . . . .	240
«Yo'qlar bo'lsam» . . . . .	240
Abdulhamid Cho'lpon she'ri . . . . .	240
«Kir» deb kulsa» . . . . .	242
Ignabarg she'rlar . . . . .	244
Fitrat . . . . .	244
Qishlog'im . . . . .	244
Farg'onam . . . . .	246
«Ma, xotinjon...» . . . . .	246
Metro sayli . . . . .	248
Uchchanoqlar . . . . .	248
«E sinchalak...» . . . . .	250
Armonlar zamon . . . . .	250
Ignabarg she'rlar . . . . .	252
«Tildoshing bo'ldim» . . . . .	252
Uchchanoqlar . . . . .	254
Ochilxon hofiz qo'shig'i . . . . .	254
Ignabarg she'rlar . . . . .	256
«Yanglishdim...» . . . . .	258
Kechmish . . . . .	258
«Hech biringga qilmayman ta'zim» . . . . .	260
«Xudo xohlar bo'lsa» . . . . .	260
Uchchanoqlar . . . . .	262
Qiziqchi . . . . .	262
Ignabarg she'rlar . . . . .	264
Topishmoq . . . . .	266
Uchchanoqlar . . . . .	266
Ignabarg she'rlar . . . . .	266
«Hazin ko'zim o'sha-o'sha» . . . . .	268
Agar shoir bo'lishmaganda... . . . .	270
Ignabarg she'rlar . . . . .	272
Elim . . . . .	274
«Eshigimni tepkilab» . . . . .	274
Ignabarg she'rlar . . . . .	276
Yoshlarga iltijo . . . . .	276
«Nogahon boshlandi bargto'zdi» . . . . .	278
Uchchanoqlar . . . . .	278
Falsafacha . . . . .	280
Elbek . . . . .	280
«Og'ir yotgan dadam yoniga» . . . . .	280
Shoir Iqbol osh qilsa... . . . .	282
G'azal shaklidagi she'rlar . . . . .	282
Ignabarg she'rlar . . . . .	284
«Onam yuvgan oq ko'ylak» . . . . .	286
Qo'shni qiz . . . . .	286
Ibodat . . . . .	288
Asqad og'a . . . . .	288
Uchchanoqlar . . . . .	290



«Yer degan...»	290
Tungi Toshkent	292
Tog'ay Murod	294
Ignabarg she'rlar	296
«Esam nochor...»	296
-Ruhlar	298
64 katakli dunyo	300
G'azal shaklidagi she'rlar	302
Shoirning xotini	304
Yorilayotgan devor	304
G'azal shaklidagi she'rlar	306
Ikkinchi shilqimlik davri	308
Dushmantopar	310
Bu ko'chalar	314
Yosh qo'shiqchi	316
Sirdaryo suluvi	316
Soch oqarganda...	318
Qadim an'ana	318
Qalb tabobati	318
«Bu olamda...»	320
«Biri ekan»	322
«Shon, boylik o'tkinchi ...»	322
Hayotning har lahzasi go'zal	322
«Foniy dunyo...»	326
«Bolalikda...»	326
Shoirlik nazariyasi	326
Yurtingni boy qil	328
G'azal shaklidagi she'rlar	330
«Chaqchaqa qiz...»	332
Eski sahna	332
«Yangi asr!!!»	334
Ulug' Gandi	336
Alahsirash	336
«Zimiston...»	338
Abadiy gulzor	338
Turmush muvozanati	338
Ignabarg she'rlar	340
Girey xonim	340
«Zamon senga ...»	342
«Davr surdim...»	342
«Qaynab qadam bos, o'g'lon»	342
Tentaklar o'yini	344
«Shoir kezaverdi»	344
• ... Kimsan?»	346
• Tug'ildingmi...»	348
• Yashar o'z o'y-dardi aro»	348
• Bilasan-ku, vaqtim ziq»	348
Muallifdan so'ngso'z	350

Anvar Obidjon

## TANLANGAN SHE'RLAR

“Sharq” nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent – 2006

Muharrirlar *Iqbol Mirzo, Qodirjon Qayumov*  
Badiiy muharrir *Bahrom Bobojonov*  
*Rassom Uyg'un Solihov*  
Texnik muharrir *Ra'no Boboxonova*  
Musahhihlar *O. Madvaliyev, J. Toirova*  
Sahifalovchi *M. Atxamova*

Terishga berildi 04.07.06. Bosishga ruxsat etildi 06.10.06.  
Bichimi 84x108<sup>1</sup>/<sub>v</sub>. “PeterburgUz” garniturasi. Ofset bosma.  
Shartli bosma tabog'i 18,9. Nashriyot-hisob tabog'i 17,0. Adadi  
3000. Buyurtma № 2699. Bahosi kelishilgan narxda.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasi bosmaxonasi,  
. 700083, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.

